



**O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
XABARLARI**

**ВЕСТНИК
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана**

**BULLETIN
of the Uzbekistan State
Institute of Arts and Culture**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

BOSH MUHARRIR –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –
Tarix fanlari nomzodi, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI –

YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
O'zbekiston san'at arbobi, professor

MAVRULOV Abduxalil Abdullayevich –
Tarix fanlari doktori, professor

TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinov Muhsinovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Falsafa fanlari doktori, dotsent

TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –
Falsafa fanlari doktori, professor

ABDULLAYEVA Munavvara –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

MAXMUDOVA Xamida Axyulovna –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

RIZAYEV Amanulla Zufarovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
O'zbekiston xalq hofizi, professor

MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich –
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISMOILOV Xamdani –
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MAXMUDOV Mirali Xaydarovich –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

NASIMOV Hilol To'liqinovich –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent

XUDOYEV G'ani Muhammadovich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

XASANOV Otabek Abdurashidovich –
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori,
siyosiy fanlari doktori (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq shoiri

RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Kinematografiya agentligi direktori,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich –
O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

SAGDIYEV Yodgor Xabibovich –
O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna –
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i

MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori,
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

KASIMOV Nodir Ulug'ovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar
boshqarmasi boshlig'i

AKILOVA Kamola Boltaboyevna –
O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'ZBA
akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

ISMOILOVA Jannat Xamidovna –
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor

TESHABOYEVA Umida Alimdjanovna –
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining
2017-yil 29-noyabrda 245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun
muallif mas'uldir*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan

Вестник Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Научно-теоретический, практико-методический,
духовно-просветительский журнал

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

САЙФУЛЛАЕВ Нодирбек Бахтиёрвич –
кандидат исторических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

ЯКУБОВ Бахтиёр Чориевич –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ИСМОИЛОВ Абдурахим Исроилович –
заслуженный деятель искусств Узбекистана, профессор

МАВРУЛОВ Абдухалил Абдулхаевич –
доктор исторических наук, профессор

ТУЛЯХОДЖАЕВА Мухаббат Туробовна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

КАДЫРОВА Сарвиноз Мухсиновна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

АЛИМАСОВ Виктор Александрович –
доктор философских наук, доцент

ТУЙЧИЕВА Сайёра Суяровна –
доктор философских наук, профессор

АБДУЛЛАЕВА Мунаввара –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

МАХМУДОВА Хамида Ахюловна –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

РИЗАЕВ Аманулла Зуфарович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

ХАЛИКУЛОВА Гузал Эркиновна –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

САФАРОВ Оролмирзо Абдуманнонович –
народный хофиз Узбекистана, профессор

МАМАТКОСИМОВ Джахонгир Абиркулович –
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор

КОШЕЛЕВА Антонина Фёдоровна –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСМОИЛОВ Хамдам –
кандидат филологических наук, доцент

МАХМУДОВ Мирали Хайдарович –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСОКОВ Зиёдулла Сафаралиевич –
кандидат исторических наук, доцент

НАСИМОВ Хилол Тулкинович –
заслуженный работник культуры Узбекистана, доцент

ХУДОЕВ Гани Мухаммадович –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам,
доцент

ОБЩЕСТВЕННАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

НАЗАРБЕКОВ Озодбек Ахмадович –
министр культуры Республики Узбекистан,
народный артист Узбекистана

ХАСАНОВ Отабек Абдурашидович –
директор республиканского центра культуры и
просвещения, доктор политических наук (DSc)

Сирождидин САЙИД –
председатель Союза писателей Узбекистана,
народный поэт Узбекистана

РИЗАЕВ Шухратилла Турсунович –
директор агентства кинематографии при
Министерстве культуры Республики Узбекистан,
кандидат филологических наук, профессор,
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана

АБДУЛЛАЕВ Рустам Абдуллаевич –
председатель Союза композиторов Узбекистана,
заслуженный деятель искусства Республики Узбекистан

САГДИЕВ Ёдгор Хабибович –
директор Узбекского Национального академического
драматического театра,
народный артист Республики Узбекистан

МУСТАФАЕВА Нодира Абдуллаевна –
заведующий отделом общественно гуманитарных наук
Академии наук Республики Узбекистан

МАМАТМУСАЕВ Тохир Шайдулович –
главный инспектор по общественно-гуманитарным
наукам высшей аттестационной комиссии при
Министерстве Высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан,
доктор архитектурных наук (DSc), профессор

КАСИМОВ Нодир Улугович –
начальник Управления молодёжной политики и духовно
воспитательных дел министерства Высшего образова-
ния, науки и инноваций Республики Узбекистан

АКИЛОВА Камола Болтабоевна –
директор галереи изобразительного искусства
Узбекистана, академик ХАУз,
доктор искусствоведческих наук (DSc), профессор,
заслуженный работник культуры Узбекистана

ИСМОИЛОВА Жаннат Хамидова –
директор государственного музея истории Узбекистана,
доктор исторических наук, профессор

ТЕШАБОВЕВА Умида Алимджановна –
директор Национальной библиотеки Узбекистана имени
Алишера Навои Агентства информации и публичных
коммуникаций при Администрации Президента
Республики Узбекистан,
Доктор философии (PhD) по истории

Журнал введён в список научных изданий, рекомендуемых к публикации основных научных
результатов диссертаций по наукам Искусствоведения решением № 245/6 от
29 ноября 2017 года Советом Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан

Автор ответственен за верность сведений,
приводимых в статье

Введен в список №0862 от 14 декабря 2015 года
Агентством печати и информации Узбекистана

Bulletin of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

A scientific-theoretical, practical-methodological,
and spiritual-educational journal

EDITOR-IN-CHIEF

SAYFULLAEV Nodirbek Bakhtiyorovich –
Candidate of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

YAKUBOV Bakhtiyor Chorievich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

EDITORIAL BOARD

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
Honored Art Worker of Uzbekistan, Professor

MAVRULOV Abdukhalil Abdukhaevich –
Doctor of Historical Sciences, Professor

TULYAKHODJAEVA Muhabbat Turobovna –
Doctor of Art Studies, Professor

KODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –
Doctor of Art Studies, Professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Doctor of Philosophical Sciences, Associate Professor

TUYCHIYEVA Sayyora Suyarkulovna –
Doctor of Philosophical Sciences, Professor

ABDULLAEVA Munavvara –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

MAKHMUDOVA Khamida Akyulovna –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

RIZAEV Amanulla Zufarovich –
Candidate of Art Studies, Professor

KHALIKULOVA Guzal Erkinovna –
Candidate of Art Studies, Professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
People's Singer of Uzbekistan, Professor

MAMATKOSIMOV Jahongir Abirkulovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISMOILOV Khamdam –
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

MAKHMUDOV Mirali Khaydarovich –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISOKOV Ziyodulla Safaralievich –
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

NASIMOV Hilol Tulkinovich –
Honored Cultural Worker of Uzbekistan, Associate Professor

KHUDOEV Ghani Muhammadovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

PUBLIC COUNCIL

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

KHASANOV Otabek Abdurashidovich –
Director of the Republican Center for Spirituality and
Enlightenment, Doctor of Political Sciences (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
Chairman of the Writers' Union of Uzbekistan, People's
Poet of Uzbekistan

RIZAEV Shuhratilla Tursunovich –
Director of the Cinematography Agency under the
Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Philological Sciences, Professor, Honored
Youth Mentor of Uzbekistan

ABDULLAEV Rustam Abdullaevich –
Chairman of the Composers' Union of Uzbekistan,
Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan

SAGDIEV Yodgor Khabibovich –
Director of the Uzbek National Academic Drama Theater,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

MUSTAFAEVA Nodira Abdullaevna –
Head of the Department of Social and Humanitarian
Sciences of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

MAMATMUSAEV Tokhir Shaydulovich –
Chief Inspector for Social and Humanitarian Sciences
of the Higher Attestation Commission under the Ministry
of Higher Education, Science and Innovation of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Architectural Sciences
(DSc), Professor

KASIMOV Nodir Ulughovich –
Head of the Department of Youth Policy and Spiritual and
Educational Affairs of the Ministry of Higher Education,
Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

AKILOVA Kamola Boltaboevna –
Director of the Uzbekistan Fine Arts Gallery, Academician
of the Uzbekistan Academy of Arts, Doctor of Art Studies
(DSc), Professor, Honored Cultural Worker of Uzbekistan

ISMOILOVA Jannat Khamidovna –
Director of the State Museum of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences, Professor

TESHABOEVA Umida Alimdjanovna –
Director of the Alisher Navoi National Library of
Uzbekistan under the Agency of Information and
Mass Communications under the Administration of the
President of the Republic of Uzbekistan,
Doktor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

The journal is included in the list of scientific publications
recommended for publishing the main scientific results of
dissertations in the field of Art Studies by Decision No. 245/6 of
November 29, 2017, of the Presidium of the Higher Attestation
Commission of the Republic of Uzbekistan

*The author is responsible for the accuracy of the
information provided in the article*

Registered by the Uzbekistan Press and Information Agency
on December 14, 2015, with registration number 0862

MUNDARIJA

TEATR VA KINO

1. X. ISMOILOV, A. ISMOILOV – Zamonaviy o'zbek teatrida maydon tomoshalari an'alarining ifodasi.....	6
2. Sh. ABDURASULOV – O'zbek teatrida jahon nasriy asarlari: adabiyot poetikasi va sahna estetikasi.....	9
3. A. MATYAKUBOV – Badiiy kinoda urush talqinlari nomoddiy madaniy meros sifatida: qahramon yaratish masalasi.....	16
4. S. BEKMURADOVA – AQSh hamda Yevropa kinematografiyasida bolalar filmlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.....	22
5. B. JABBOROV – Multiplikatsiyada nutq orqali obraz yaratishning ilmiy asoslari.....	26

MUSIQA SAN'ATI

1. U. KURBANOVA – Xalfachilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari.....	30
2. N. SOBIROV – Musiqa sinergiyasi: shaxs kreativligi, ijodkor dinamikasi va rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligi.....	34
3. I. YULDASHEV – Xorazm mahalliy musiqa madaniyatida dutor ijrochilik san'atining o'rni.....	38
4. D. ABDULLAYEV – O'zbek musiqasida xalq cholg'u orkestrining ijrochilik an'analari.....	43
5. K. SULEYMANOVA – O'zbek animatsiyasida musiqa va harakat uyg'unligi.....	46

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. M. UMAROV – Hoji Muin dramaturgiyasining o'ziga xosligi ("To'y" pyesasi misolida).....	49
2. A. UTEPBERGENOVA – Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston televideniyesining ijodiy ishlari....	52
3. H. GADAYEV – Sozgarlik tarixiga bir nazar.....	56
4. K. ABIDOVA – Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning shakllanish bosqichlari.....	60
5. Sh. RAJABOVA – Ergash Masofayev rejissurasi.....	65

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. E. YARBKOV – Aktyorning shakllanishida kuzatuv mashqlarining ahamiyati.....	68
2. Sh. YUSUPOV – Sahna nutqi sohasidagi pedagogik meros va zamonaviy yondashuvlar.....	72
3. A. KOPADZE – "Animatsion film dramaturgiyasi" fanini o'qitishning o'ziga xosligi.....	75
4. M. MURODOV – Talabalarda vokal ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari.....	79
5. U. BOLIYEV – Talabalarning shaxsiy rivojlanishida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati.....	83

MADANIYATSHUNOSLIK

1. T. FAYZIYEV – Madaniyat menejerlarining etikasi va ijtimoiy javobgarligi.....	88
2. K. UMAROV – Jamiyat birdamligi va badiiy madaniyat rivojida o'zbek teatrining ahamiyati.....	92
3. H. ABDULLAYEVA – Shahar madaniyatida estetika va badiiylilikning ahamiyati.....	96
4. U. TODJIDINOV – Madaniyat sohasida prodyuserlik: ilmiy etimologik talqinlari va mohiyati....	101
5. A. QOLQANOTOV – Madaniyat markazlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	109

Xamdam ISMOILOV,
O‘zDSMI “O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Anvar ISMOILOV,
O‘zRFA San‘atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ZAMONAVIY O‘ZBEK TEATRIDA MAYDON TOMOSHALARI AN‘ANALARINING IFODASI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek maydon tomoshalari an‘analarining zamonaviy o‘zbek teatridagi talqini xususida so‘z boradi. Bu borada rejissyor O.Salimov tomonidan Farg‘ona viloyati musiqali drama va komediya teatrida sahnalashtirilgan, an‘anaviy teatr xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan “Toshkentga sayohat” (Hamza asari asosida) spektakli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maydon tomoshalari, an‘ana, zamonaviy teatr, rejissyor, sahna talqini, aktyorlik san‘ati, masxarabozlik, pantomima.

Аннотация. В статье рассматривается интерпретация традиций узбекских площадных представлений в современном узбекском театре. В этой связи анализируется спектакль «Путешествие в Ташкент» (по произведению Хамзы), поставленный режиссером О.Салимовым в Ферганском областном музыкальном театре драмы и комедии, в котором отражены особенности традиционного театра.

Ключевые слова: площадные представления, традиция, современный театр, режиссер, сценическая интерпретация, актерское мастерство, клоунада, пантомима.

Abstract. This article examines the interpretation of Uzbek stage performance traditions in contemporary Uzbek theater. In this regard, it analyzes the play "Journey to Tashkent" (based on the work by Khamzi), staged by director O.Salimov at the Fergana Regional Musical Drama and Comedy Theater, which reflects the characteristics of traditional theater.

Keywords: stage performances, tradition, contemporary theater, director, stage interpretation, acting, clowning, pantomime.

XX asrgachamavjudbo‘lgan o‘zbek an‘anaviy teatri xalqchilligi, o‘tkir satirik xususiyatlari, “ustoz-shogird” an‘analari asosida rivoj topgani bilan qadrli. Maydon tomoshalarining yirik namoyandalari Bidiyorshum, Zokir eshon, Sa‘di maxsum, Yusufjon qiziq va boshqa san‘atkorlar faoliyatida aktyor ijrochiligi va masxarabozlik san‘atining badihago‘ylik, plastik ifodaviylik, pantomima, askiya, musiqiy

ritmni his qilish va boshqa xususiyatlar o‘z ifodasini topgan.

XX asr 70-yillarida o‘zbek teatri rejissurasida an‘anaviy teatr unsurlarini qayta tiklashga urinishlar kuzatildi. Bu, ayniqsa, rejissyorlar T.Xo‘jayev va B.Yo‘ldoshevning faoliyatida aks etib, ular tomonidan sahnalashtirilgan “Oltin devor” (E.Vohidov), “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (S.Ahmad), “Maysaraning ishi” (Hamza) singari

spektakllarda an'anaviy teatr namoyandalarining merosi o'zining yorqin ifodasini topdi.

Mustaqillik davrida o'zbek xalq tomosha san'atining eng yaxshi an'alarini tiklashga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Qator teatrlarda mazkur tendensiya kuzatildi. Ushbu yo'nalishdagi e'tiborli sahna asarlaridan biri – bu 1991-yili Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrida sahnalashtirilgan Hamzaning "Toshkentga sayohat" spektaklidir. Ma'lumki, u "Qozonga sayohat" nomli asarning o'zbekchaga tabdili hisoblanib, mazkur pyesada barcha qahramonlar – aholining turli qatlamlari vakillari va har xil kasb egalari hisoblanadi. Ularning barchasining nuqsoni bor. Ta'zirini yeydigan esa Asomboy ismli badavlat shaxs. Oddiy xalq vakillari pyesa so'nggida g'olib keladi.

Kam hajmli, ammo mazmunan boy bo'lgan mazkur asar rejissyor Olimjon Salimov tomonidan masxarabozlar tomoshasi shaklida sahnalashtirildi. Inson qancha sodda va nodon bo'lsa, u shunchalik o'zi uchun noqulay hamda boshqalar uchun kulgili vaziyatlarda qolishi rejissyorlik fikr-mohiyatini tashkil etgan.

Spektaklga rejissyor tomonidan kiritilgan prolog e'tiborni tortadi. Unda masxaraboz ko'rinishidagi ijrochilar, katta qo'g'irchoqlar spektakl qatnashchilarini jonli ijrodagi musiqa jo'rligida birin-ketin tanishtiradi. Bu zaminimizga yevropa tipidagi teatr kirib kelguniga qadar mavjud bo'lgan maydon tomoshalarini eslatadi. Shuningdek, O.Salimov mazkur prologga kamerachi personajini ham kiritgan bo'lib, u sahnaga kirib kelayotgan qatnashchilar-u, boshqa barcha ijrochilarni suratga oladi. Mazkur jarayonda, shu bilan birga, spektakl davomidagi qahramonlarning janjalli sahnalarida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ovozsiz kinoda kuzatilgan xususiyatlar, jumladan, kinoplyonkani tezlashtirib aylantirishdan unumli foydalanildi. Bunda ijrochilar xatti-harakatini tez amalga oshiradi hamda oldindan yozib olingan so'zlar tezlashtirilgan holda yangraydi. Ijrodagi mazkur plastik yechim qahramonlarning libos va grimidagi ifodaviylik bilan muvofiqlashib, tomoshabin uchun kulgili vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Rejissyorning ushbu sahnalardagi maqsadi aynan kuldirishdan iborat.

Prologdagi tanishtiruvdan so'ng, sahnaga dorbozlar chiqishi, doira sadolari ostida barcha ijrochilar, qo'g'irchoqlar raqsga tushishi, shu bilan birga, ko'rinishdan ko'rinishga o'tganda hamda qahramonlarning xatti-harakatlarini yorqinroq ifodalashda mashshoqlarning doira bilan mu-



siqa chalishi va yallalar aytishi ham spektaklning o'zbek an'anaviy tomosha san'ati xususiyatlari bilan yo'g'rilganligini asoslaydi. O'z navbatida, bu kabi ifoda vositalari spektakl aktyorlarining tengsiz ijrolari bilan uyg'unlik kasb etishi hamda sahna bir soniya ham bo'sh turmasligi natijasida tomoshabin umuman zerikmaydi.

Rejissyor tomonidan kiritilgan qo'shimchalar spektaklning yanada tomoshabop chiqishi uchun sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, mehmonxonaning "18-nomeri"dagi karavot chetida osilib turgan chaqiruv qo'ng'irog'ini O.Salimov jonlantirgan bo'lib, ushbu rekvizit Asomboy va xizmatkor o'rtasida kulgiga boy kelishmovchiliklar ro'y berishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, O.Salimov Boyning yarim kechasi burgaga talanishini alohida sahnada ko'rsatdi. Mazkur sahnadagi aktyor M. Yusupov tomonidan amalga oshirilgan plastik xatti-harakatlar Boyning burgaga talanganiga tomoshabinni ishontira oldi. Shuningdek, Boy xizmatkorga burgaga qarshi dori olib kelishni buyurishi, xizmatkorning esa tong saharlab dori ketidan yurgisi kelmayotgani vajidan, turli bahonalar izlashi ajoyib va yumorga boy bo'lgan "Borsam-u, u bo'lmasa" dialogining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Spektakldagi Asomboy roli ijrochisi M.Yusupov "Borsam-u, u bo'lmasa" syu-jeti Sulaymon qori bilan Oxun qiziq o'rtasidagi suhbatdan olingan" [1, 6-b], deb ta'kidlaydi.

Xuddi pyesadagi singari spektaklda xizmatkor Abdulrahmon butun mashmashani boshlab bergan personajligiga urg'u berilgan. Rejissyor ushbu qahramonning nega bunday ishga qo'l urgani sababini izlarkan, bu savolga javobni Abdulrahmonning pulga o'chligida topadi. U sahnada qanchalik anqov va ovsar bo'lib ko'rinmasin, aslida u hammani o'z "nog'orasiga o'ynatadi". Aslida ham "tentaklik – rasmiy dunyoning har qanday "me'yorlari" va qisuvlaridan, shuningdek, uning tashvishlari va jiddiyatlaridan xoli bo'lgan erkin bayramona donolikdir" [2, 283-b].

Shaharlik Ibrohimning gazetaga yolg'on e'lonlar berishi oqibatida Boyning huzuriga turli ehtiyoj va istaklar bilan kelgan qahramonlarning xarakterlari, yurish-turishi va mimikasini O.Salimov bo'rttirishga erishgan.

Mazkur xarakterlardagi quvlik, laqmalik, qitmirlik, pulga o'chlik va boshqa o'ziga xosliklar ijrochilarning plastik harakati, imo-ishorasi, so'z ohangidagi dinamika hamda rang-baranglik orqali yorqinlashdi. Ularning barchasi bosh qahramonning asabini qo'zg'ash va mehmonxona "18-nomeri"ni bo'shatib qo'y-magani uchun pushaymon bo'lishiga qaratilgan bo'lib, bu Ibrohim personajining maqsadini mujassam etgan. O'z navbatida Ibrohim xarakteri afandinamo xususiyati bilan rejissyor uchun sodda Asomboyni chuv tushirishda muhim harakat chizig'iga aylangan. Bunday janrdagi tomoshada "aktyor o'z rolini nihoyatda ustalik bilan "yasaydi" – xarakteri, ko'rinishi, so'zlash manerasi xuddi rassom o'z suratini chizgandek, aktyor ham o'z rolini "chizadi" va juda ustalik, katta mahorat bilan "o'ynab ko'rsatadi" [3, 79-b].

Aktyorlarning ijrolarida o'zbek an'anaviy teatri ijrochilarida kuzatilgani singari erkinlik, badihago'ylik, bo'rttirma kuzatilib, bu rejissyorning xalq tomosha san'atini zamonaviy o'zbek teatrida aks ettirish maqsadiga bo'ysundi. Ijrochilar betakror texnika, nozik plastika, kutilmagan improvizatsiyani yorqin namoyish etdi. "Ba'zi munaqqidlar ijrochilarni qo'pol naturalizmda ayblashdi" [4, 152-153-bb.]. Aslida, bu ochiq maydonda tomosha ko'rsatgan qiziq-larga bo'lgan hurmat, qadimiy xalq teatriga xos xususiyatlarning targ'ibotidir. Mana shu xususiyatlardan biri ijrochilarning erkin ijod va izlanishlariga keng imkoniyat yaratish bo'lib, mazkur spektaklda O.Salimov o'z aktyorlari

uchun bunga yo'l qo'yib bergan. Aynan "ijodkor sifatidagi aktyor – rejissyor uchun haqiqiy material" [3, 18-b] bo'lgan. Natijada aktyorlarning har bir harakati, mimikasi, hatto kichik pauzalari tomoshabinda kulgi uyg'otadi.

"Toshkentga sayohat" spektaklida rejissyor va rassom hamkorligida yuzaga keltirilgan ssenografik yechimdagi shartlilik va majoziylik ham aynan o'zbek an'anaviy teatriga ishoradir. "Dekoratsiyadan tortib ijrochilarning tashqi ko'rinishigacha barcha-barchasi tomoshabinni kuldirishga xizmat qiladi. Boyning sun'iy qorni, do'mbillab beo'xshov yugurishlari, rejissyor uslubining soddaligi – barchasi shu maqsadga qaratilgan" [4, 153-b].

Spektakl oxirida Asomboy ta'zirini yegach, mehmonxonadan ketmoqchi bo'lganida asta-sekin tomosha qatnashchilari sahnaga chiqib keladi va bir butun bo'lib avansahnaga joylashishadi. Shu nuqtada tomosha ichidagi tomosha ham yakunlanadi hamda aktyorlar obrazdan chiqib, maydon tomoshalarining ijrochi qiziq-lari, masxarabozlari qiyofasiga kirishadi.

Spektaklning sahnalashtirishda rejissyorning qunt bilan izlangani, so'z va harakat, musiqa va plastika singari ifoda vositalarining o'rinli qo'llanishiga hafsala bilan yondashgani, aktyorlar, rassom va boshqa ijodkorlarni bir maqsad yo'lida birlashtira olgani natijasida juda qiziqarli, tomoshabop spektakl bunyod etildi. Spektakl shaklan oddiy, jozibali, tomoshabop, mazmunan juda boy, qiziqarli, eng asosiysi, kulgili talqin etildi. Unda asosiy e'tibor xalq tomosha san'atini o'rganish, uni zamonaviy sahnada o'rinli va mazmunli qo'llash, bugungi tomoshabinlarga masxarabozlik, qiziqchilik, pantomimadan iborat tarixiy milliy ijrochilik maktabini namoyon etishga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulaymonov M. Muhammadsolining Toshkentga sayohati // O'zAS. – Toshkent, 1993. – № 31.
2. Бахтин М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневеков. – Москва: ГХИЛ, 1976. – 420 с.
3. Salimov O. Kasbim rejissyor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 187 b.
4. Qodirova S. Komediya san'ati (bosib o'tgan yo'llariga bir nazar) // Istiqlol va milliy teatr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 235 b.
5. Захава Б. Е. Мастерство актера и режиссера. – Москва: Просвещение, 1978. – 334 с.

Shohrux ABDURASULOV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEK TEATRIDA JAHON NASRIY ASARLARI: ADABIYOT POETIKASI VA SAHNA ESTETIKASI

Annotatsiya. Maqolada jahon nasriy asarlari asosida O'zbekiston teatrlarida sahnalashtirilgan spektakllar tahlil qilinadi. Mazkur spektakllarning ijtimoiy-g'oyaviy va badiiy-estetik jihat-lari, o'zbek sahna san'ati rivojida ahamiyati, shuningdek, rejissyorlik va aktyorlik san'atining shakllanishidagi o'rni ilmiy asoslab beriladi. Xulosada jahon nasri va o'zbek teatri aloqalarini yanada rivojlantirish bo'yicha zarur takliflar bildiriladi.

Kalit so'zlar: jahon nasri, teatr, inszenirovka, spektakl, rejissyor, uslub, repertuar.

Аннотация. В статье анализируются спектакли, поставленные в театрах Узбекистана по произведениям мировой литературы. В работе научно обоснованы социально-идеологические и художественно-эстетические аспекты этих спектаклей, их значение в развитии узбекского сценического искусства, а также роль в формировании режиссуры и актёрского мастерства. В заключении сформулированы необходимые предложения по дальнейшему развитию связей мировой прозы и узбекского театра.

Ключевые слова: мировая проза, театр, инсценировка, пьеса, режиссер, стиль, репертуар.

Abstract. This article analyzes plays based on works of world literature staged in Uzbek theaters. It provides a scientifically substantiated analysis of the socio-ideological and artistic-aesthetic aspects of these plays, their significance in the development of Uzbek performing arts, and their role in the development of directing and acting. The conclusion offers suggestions for further developing the links between world prose and Uzbek theater.

Keywords: world prose, theater, staging, play, director, style, repertoire.

O'zbek teatri tarixidan ma'lumki, mamlakat teatrlarida Sharq va G'arb nasrining qator namunalari inszenirovka qilingan va ular asosida badiiy-barkamol spektakllar yaratilgan. Xususan, M.Servantes, R.Tagor, L.Tolstoy, A.Dyuma, G.fon-Kleyst, R.Guntekin, G.G.Markes, G.Grass, M.Dib, M.Bulgakov, B.Vasilev, A.Grin, Sh.Aleyxem, Ch.Aytmatov, N.Dumbadze, T.Zulfiqorov kabi adiblarning turli mavzu va janrdagi nasriy asarlari sahna yuzini ko'rgan. Mazkur spektakllar rejissurada yangi shakl va ifoda vositalarining kashf etilishi, dunyodagi turli xalq va millatlar madaniyati, xarakterini o'rganish,

shuningdek, o'zbek teatrini umuminsoniy g'oyalar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbek teatri ijodkorlarining jahon nasriga dastlabki murojaatlari davrning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-g'oyaviy talablaridan kelib chiqqan bo'lib, bu asosan inqilobiy ruhdagi rus adabiy asarlarini sahnalashtirish jarayonida namoyon bo'ldi. 1929–30-yilgi teatr mavsumida Hamza (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) teatri jamoasi "Isyon" ("Bog'ovot") (D.Furmanov va S.Polivanov) romanini sahnalashtiradi va bu milliy teatr tarixida inszenirovka qilingan birinchi nasriy asar sanaladi. Shundan keyin "Oqarib

ko'rinar bir yelkan" (1939), "Polk o'g'li" (1947) (V.Katayev), "Yosh gvardiya" (1947) (A.Fadeyev), "Po'lat qanday toblandi?" (1948) (A. Ostrovskiy) kabi tarixiy-inqilobiy vatanparvarlik mavzusidagi asarlar sahnalashtiriladi. Ushbu asarlar garchi muayyan tuzum mafkurasi bilan sug'orilgan bo'lsa-da, o'zbek teatrida ijtimoiy-psixologik janrning rivojlanishi, yosh rejissyor va aktyorlarning mahorati, uslubi shakllanishiga ma'lum darajada xizmat qildi.

1956-yili Hamza nomidagi (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) teatrida hind xalqining buyuk adibi Rabindranat Tagorning ijtimoiy-maishiy mavzuda yozilgan "Halokat" romani rejissyor A.Ginzburg inssenirovkasi va rejissyorligida "Gang daryosining qizi" nomi bilan sahnalashtirildi. Roman voqealari XIX asrning ikkinchi yarmida Bengaliyada bo'lib o'tadi. Unda hind xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi isyoni va uzoq davrlardan beri millat orasida hukm surayotgan qoloq an'ana va urf-odatlardan voz kechish g'oyasi badiiy talqin etilgan.

Kamola – roman va spektaklning markaziy qahramoni. "R.Tagorning ilg'or g'oyalarini targ'ib qilishda bengal ziyolilarining namoyandalari, shu bilan birga Ganga sohillarida ulg'aygan, romanning bosh va haqiqiy qahramoni hisoblangan oddiy dehqon qizi Kamola obrazi muhim rol o'ynaydi. U katta miqyosda spektaklning ham qahramoniga aylanadi" [1].

O'zbekiston xalq artisti Iroda Aliyeva o'z ijrosida Kamolaning xarakteridagi kurashuvchanlik, sabru bardosh, lirik haroratni mujassam etadi. Sodda, mehribon, go'zal xulqlar bilan ziynatlangan Kamola tomoshabin tasavvurida hind ayollarining ma'naviy ideali sifatida jonlanadi.

Nabi Rahimov ijrosidagi Romesh ijobiy fazilatlar bilan birga irodasizligi, qat'iysizligi, o'z muhabbati uchun kurasholmasligi va boshqa kamchiliklari tufayli passiv personaj bo'lib ko'rinadi. Adib Romesh orqali jamiyatdagi eski aqidalar va burjuaziya mafkurasidan chetga chiqolmagan inson obrazini yaratadi. N.Rahimov ham Romeshni xuddi shunday gavdalandiradi.

Romeshning sevgilisi Hemnalini ham spektakldagi asosiy qahramonlardan biri bo'lib, uning xakteri Kamolanikidan tamomila farqlanadi. Hemnalini ziyoli oilada tug'ilgan, Yevropada o'qigan, shu bois, g'ururi baland. Biroq uning ham jur'atsizligi, mustaqil fikriga ega emasligi hayotda ko'p qoqilishiga sabab bo'ladi. Bu obrazni ijro etgan Yayra Abdullayeva qahramoni xarakterining murakkab qirralarini dramatik-

psixologik planda ochib beradi.

Aktrisa E.Malikboyeva ijrosidagi Umesh samimiy, qiziqqon, jasur bolakay, hind ko'chalarida darbadar yurgan yuzlab yetimlarning tipik vakili sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Nalenakha (Sh.Burhonov va O.Xo'jayev), Xemenkori (Z.Sadriyeva), Djongendro (Q.Xo'jayev), Nabenkale (G'.A'zamov) kabi obrazlar ham Thokurning umuminsoniy g'oyalari va rejissyor maqsadiga mos ravishda talqin qilingan.

Rabingranad Tagorning boshqa asarlari ham yurtimiz teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan. Jumladan, "Roja" Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi (rejissyor R.Boboxonov), "Pochta" asari O'zbekiston davlat drama teatrida (rejissyor H.Fayziyev) sahnaga qo'yildi. "Tagor teatri – timsollar teatridir. Uning pyesalarida har bir obraz ma'lum g'oya, ma'naviy kuch ifodasi tarzida namoyon bo'ladi" [2, 28-b].

"Halokat" romanidan so'ng 1957-yili A.Ginzburg akademik teatrdagi jazoyirlik yozuvchi Muhammad Dibning "Katta xonadon" nomli romani asosida "Jazoyir – mening Vatanim" nomli spektaklni sahnalashtiradi. Ta'kidlash lozim-ki, mazkur asar ham g'oyaviy jihatdan Thokur romaniga o'xshab ketadi. Teatr jamoasi Sharq xalqlarining ozodlik yo'lidagi intilishlari, kurashlarini aks ettiruvchi turkum asarlarni sahnalashtirish an'anasini davom ettirdi. "Xorijiy Sharq xalqlarining ozodlik va istiqloq uchun kurashi mavzusining o'zbek teatrida tug'ilishi ilk taraqqiyot pallalari, aniqroq aytganda, shakllanish jarayonining boshlariga to'g'ri keldi" [3, 6-b]. 1950-yillardan boshlab bu jarayon jadal tus oldi va bunda inssenirovka asosidagi spektakllar ham salmoqli o'rin tutdi. Muhammad Dib o'z romanida milliy mustaqillik uchun fransuz mustamlakachilariga qarshi turgan Jazoyir xalqining isyonkor va mardona kurashini g'oyat haqqoniy va ehtirosli bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Inssenirovka va sahnaviy talqin romandan birmuncha farq qilib, ayrim obrazlarning ijtimoiy yuki kuchaytirilgan, ba'zi yangi qahramonlar kiritilgan edi. Muhimi, spektaklda Jazoyir millatining taqdiri misolida butun insoniyatga xos umumbashariy g'oyalar talqin etilgan, ozodlik, erk tuyg'usi barchaga birdek qadri ekani ta'kidlangan edi.

Spektakl voqealariga Jazoyirda yashovchi oddiy ikki oilaning taqdiri asos qilib olingan. A.Ginzburg qahramonlar ruhiyati va xarakterini ochib berishga qodir, dramatik salohiyati yetuk

aktyorlar jamoasini o'z rejissyorlik kredosi atrofida birlashtirib, asarning badiiy ta'sir quvvatini oshirishga muvaffaq bo'lgan. O'zbekiston xalq artisti Sora Eshonto'rayeva ijrosidagi beva xotin Ayni obrazi spektaklning eng katta yutug'i bo'lib, aktrisa turmushning achchiq iztiroblarini totgan, qalbidagi mehr-shafqat o'rnini asta-sekin qahr-u g'azab egallayotgan murakkab xarakterli ayol siymosini jonlantiradi. Aktrisa Aynining fransuz mustamlakachilariga bo'lgan kuchli nafrati, isyonini o'tli harorat va pafos bilan ko'rsatadi. Ayniqsa, begunoh qizi Maryamning fransuz zobitlari tomonidan qamalib, aqldan ozishi, yakunda fojiali o'lim topishi Aynining dunyoqarashini keskin o'zgartiradi. S.Eshonto'rayeva jafokash Aynining ruhiyati, shuuridagi ana shu murakkab ziddiyatlar, o'zgarishlarni mahorat bilan ijro etadi.

Shuningdek, jabr-u zulmlar ila hayot kechirgan, keksalik payti o'tgan umriga afsus qilib, mag'lubiyatlarining asl sababini tushunib yetgan donishmand chol Ben-Sorriy – Sa'dixon Tabibullayev, qullik jamiyatining begunoh qurboni, ma'suma qiz Maryam – Yayra Abdullayeva, ozodlik uchun shirin jonini nisor etgan Hamid Saraj – Nabi Rahimov, qarama-qarshi o'ylar kurashida g'olib kelolmay, o'z hayotiy pozitsiyasini yo'qotgan, oxir-oqibat Vatan xoiniga aylangan Muhammad – Amin Turdiyev va boshqa ijrolar spektakl muvaffaqiyatini ta'minlagan.

“Gang daryosining qizi”, “Jazoyir – mening Vatanim” spektakllari Sharq xalqlari boshidan kechirgan og'ir turmush, murakkab sinovlarni tarixiy va badiiy uyg'unlikda, umuminsoniy qadriyatlar hamohangligida tasvirlab, milliy teatrimiz repertuarini jahon adabiyoti namunalari bilan boyitdi.

1970-yillarning ikkinchi yarmida o'zbek teatri mavjud andozalardan birmuncha chekinib, yangi uslub va yo'nalishlar, novatorlik topilmalari va ifoda vositalari bilan boyidi. Shu kezlarda, “Teatr ochiq publitsistik asarlar qidirishda o'z kuchini sinar ekan, nasr asarlariga murojaat qiladi. Rejissurada yangi uslubiy tamoyillar e'tirof etildi, janr sohasida xilma-xil izlanishlar olib borildi, qator yangi spektakllar qo'yildi” [4, 6-b]. Yozuvchi B.Vasilev qissasi asosida Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan “Ro'yxatlarda yo'q” spektakli shu yillarning muvaffaqiyatli izlanishlaridan biri bo'ldi.

Asar markazida Brest qal'asini olti oy dushmanlardan himoya qilib, yakunda qahramonlarcha halok bo'lgan yosh leytenant

Kolya Plushnikovning dardli qismati yotadi. Bir qarashda tushkun kayfiyat uyg'otuvchi asar. Biroq rejissyor B.Yo'ldoshev asarning tag qatlamlariga kirib borib, fojiviy manzara fonida ona Vatan uchun jon fido qilgan yigitning asrlarga tatigulik matonatini ifodalashga harakat qildi. Bu avvalo, rejissyorning asarga original yondashuvi va rassom G.Brim bilan o'ylab topgan mutlaqo o'zgacha sahnaviy yechimida namoyon bo'ldi. Zalda g'ira-shira qorong'ulik, g'alati sukunat, tomosha o'rindiqlari mato bilan qoplanib, qabriston ko'rinishini hosil qilgan. Voqealar makoni esa bamisoli halok bo'lgan harbiylarning ramziy qabrini yodga soluvchi kaskalar bilan ajratilib, tomoshabinlar joyi sahnadagi yarim doira shaklida bo'lib, shu muhit ichiga singdirib yuborilgan.

Nikolay (Kolya) Plushnikov – Elyor Nosirov aslida hech kimga tobe bo'lmagan, erkin va ozod shaxs. Endigina harbiy o'qishni tamomlab, Brest qal'asiga jo'natilgan, lekin hali harbiylar qatorida ro'yxatga olinmagan edi. Uning ismi birorta ro'yxatda qayd etilmagani uchun sevgilisi Mirraning oldiga qaytishi va baxtli turmush kechirishi mumkin. Ammo kutilmaganda boshlangan urush Kolyani Vatan oldidagi mas'uliyatini his qilishga, qandaydir qarzdorlik hissini boshdan kechirishga undaydi. Olti oy davom etgan muhofazadan so'ng, Kolya qal'adan chiqishga majbur bo'ladi. Boisi, bisotida o'q qolmagan, endi Vataniga jismonan emas, qalban va ruhan yordam berishi mumkin edi. Yosh leytenantning quyidagi so'zlari kitobxon va tomoshabin xotirasida uzoq vaqt muhrlanib qoladi: “Qal'a yongani yo'q, u qon bo'lib oqdi. Men uning oxirgi tomchisiman”. “Ro'yxatlarda yo'q” spektakli rejissuradagi talqin masalasida yangilik bo'lishi bilan birga jahon nasriy adabiyotini sahnalashtirish bo'yicha noodatiy yechimga egaligi bilan ahamiyatli edi.

Mustaqillik yillari ham yurtimiz teatrlarida jahon nasriga murojaatlar bo'ldi. Jumladan, jahon adabiyotining murakkab, falsafiy namunalari sahnalashtirish bo'yicha ham muayyan izlanishlar olib borildi. Xususan, hozirgi O'zbekiston davlat drama teatrida Nobel mukofoti laureati (1982) Gabriel Garsia Markesning “Polkovnikka hech kim xat yozmaydi” nomli qissasi asosida “Yozilmagan maktub” spektakli sahnalashtirildi. Rejissyor Aleksandr Kudryavtsev asarni o'zi insse-nirovka qildi va sahnaga qo'ydi.

Gabriel Garsia Markes “Yolg'izlikning yuz yili”, “Buzrukning kuzi”, “Oshkora qotillik qissasi”,

“To‘kilayotgan yaproqlar”, “Shahrimizda o‘g‘ri yo‘q” kabi asarlari bilan jahon adabiyotining ifoda vositalari rivojiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan adiblardan biri sanaladi. “Polkovnikka hech kim xat yozmaydi” qissasi ham adib ijodida alohida o‘rin tutadi. Markes uni o‘zining eng yaxshi asarlaridan biri deb atagan. “Polkovnik real shaxs kabi yaratilgan. Ehtimol, bu adibning bobosi Nikalos Markesning taqdiri bo‘lib, xatti-harakati, xarakteri bilan ham uni eslatadi. Biroq bu bir tirik misol, aslida qissadagi polkovnik (u atayin nomlanmagan) Kolumbiya va jami yer yuzidagi XX asrda urush jabrini ko‘rgan veteranlarning timsolidir” [5,69-b]. Asar ramziy umumlashma obraz orqali umumbashariy muammolarni ifodalagani, falsafiy-estetik ta‘sirchanligi, ijtimoiy ahamiyati bilan kitobxonlar e‘tirofini qozondi.

Qissa dardchil va tushkun ruh bilan yozilgan. Iste‘fodagi polkovnik xuddi o‘zi kabi qarib, xasta bo‘lib qolgan kampiri bilan hayot kechiradi. Yolg‘iz o‘g‘li Avgustin siyosiy bo‘htonda ayblanib, qatl etilgan. Chol-kampirning o‘g‘lidan yodgorlik bo‘lib qolgan xo‘roz asar syujeti va qahramonlar xarakteri ochilishida muhim o‘rin tutadi. Ikki qariya shu xo‘rozni sotish yoki sotmaslik haqida bahslashib qoladi. Garchi ular tushkun va og‘ir holatda qolgan bo‘lsa-da, hayotga, ertangi kunga bo‘lgan umidini so‘ndirmaydi.

Asar an‘anaviy realistik uslubda yozilgan bo‘lishiga qaramay, syujet va kompozitsiyaning noodatiyligi, voqealar dinamikasining sekinlik bilan rivojlanishi, qahramonlar xarakterining psixologik dialoglarda ochilishini nazarda tutsak, rejissyor adabiy matnga o‘ziga xos uslubda yondashishi zarur edi.

Spektaklda qissa ruhi to‘la saqlangan: musiqa, liboslar, dekoratsiya, rekvizitlar, sahnaviy muhit asar g‘oyasini ochishga yo‘naltirilgan. Sahnada turli uy jihozlari, bir chetga gamag (Lotin Amerikasi xalqlari ishlatadigan osma to‘shak) osilgan. Voqealar shu muhitda yuz beradi. Polkovnik – A.Rafiqov hayotning ko‘p qiyinchiliklarini ko‘rgan, jamiyatdagi turli nohaqliklarga sabr qilib yashayotgan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Uning g‘amgin qiyofasi, dardli nigohi shundan dalolat beradi. Har safar pochta noziri biror maktub keltirishini kutadi. Biroq hech kim xat yozmaganini bilgach, hayoti ro‘yoga aylanayotgani, umidlari so‘nayotganini his qiladi. A.Rafiqov vazminlik, psixologik kechinmalar, sukutlar, ichki dramatism orqali polkovnikning murakkab xarakterini ochib beradi.

Polkovnikning ayolini aktrisa Dono Bobo-

xonova gavdalandiradi. U ham taqdirning og‘ir sinovlari sabab ruhiy tushkunlikni boshdan kechirayotgan, biroq hayotdan umidini uzmagani qariya sifatida gavdalanadi. Ammo polkovnikdan farqli ravishda adolatsizliklarga chidab turolmaydi, o‘z noroziliklarini oshkora aytadi. Aktrisa qahramonining ichki kechinmalarini mahorat bilan ifodalaydi, uning dramatik imkoniyati, kulgi va fojiani uyg‘unlikda ko‘rsatishi e‘tiborni tortadi.

Spektaklda tubanlik sari ketayotgan jamiyat qiyofasini ko‘rsatuvchi Don Sabas obrazi voqealar rivojida alohida o‘rin tutadi. Aktyor Elyor Nosirov o‘z ijrosi orqali Don Sabasning makkorligi, salbiy illatlarini fosh etadi. U polkovnik uchun aziz bo‘lgan xo‘rozni sotishga undar ekan, shu orqali qariyani so‘nggi umididan ham ayirmoqchi bo‘ladi.

Aktyor Hoshim Arslonov ijrosidagi doktor polkovnikni ruhan qo‘llab-quvvatlovchi, dardlariga sherik bo‘luvchi inson. Doktor haroratli so‘zlari, taskinlari bilan qariyalarning hayotiga ozgina bo‘lsa-da, nur olib kirishga intiladi.

Spektakl finali xuddi qissada bo‘lganidek, kuchli psixologik dialogga qurilgan. Kampir ochlikdan xalos bo‘lish uchun eriga yolvorib, xo‘rozni sotishni so‘raydi. Biroq polkovnik xo‘roz musobaqalari vaqti u qimmatroq sotilishini aytib, xotiniga qarshi chiqadi. Shu tarzda ikki o‘rtada bahs yuzaga keladi. Shu sahna qissa va spektaklning g‘oyaviy mazmunini ochib beradi: ya‘ni mustahkam e‘tiqod va ruhiy oqizlik kurashida e‘tiqod g‘alaba qozonadi. Shuningdek, tushkunlik, umidsizlik davrini boshdan kechirayotgan Kolumbiya xalqining orzu-umidlari, yorug‘ kunlarga bo‘lgan ishonchi Polkovnik timsolida o‘z ifodasini topadi. U og‘ir vaziyatga qaramay, xo‘rozni sotmaslikka qaror qiladi. Markes falsafasidan kelib chiqib, rejissyor A.Kudryavtsev inson matonatini hech narsa bilan yengib bo‘lmaydi, inson doimo kelajakka umid bilan yashaydi, degan ezgu g‘oyani ilgari suradi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Yoshlari teatrida Frans Kafkaning “Evrilish” hikoyasi asosida “Alone” (rejissyor I.Kachayev), Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida Nikolay Gogolning “Tentakning yozishmalari” (rejissyor K.Erdilikara), Qo‘qon shahar musiqali drama teatrida Ernest Hemengueyning “Chol va dengiz” (G‘.Mirzamahmudov), “Diydor” teatr-studiyasida Timur Zulfiqorovning “Xo‘ja Nasriddinning ilk muhabbati” qissasi asosida “Kapalak tushi” (rejissyor B.Abdurazzoqov), O‘zbekiston davlat drama teatrida Nodar Dumbadzening “Men, buvim, Iliko va Illarion” romani asosida “Xazina”

(rejissyor M.Reymov) singari spektakllar sahnalashtirildi. Mazkur spektakllar rejissyorlar uchun adabiy asarlar bilan ishlash, nasrning sahnaviy imkoniyatlarini kashf etish borasida yaxshi tajriba bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. Ayniqsa, Qashqadaryo teatrida turkiyalik rejissyor Kubilay Erdilikara tomonidan sahnalashtirilgan "Tentakning yozishmalari" spektakli madaniy jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirdi. Nikolay Gogolning "Aqldan ozgan insonning yozganlari" asari teatrning barcha ifoda vositalari uyg'unligida, shartli mizansahnalar, niqoblar, klassik musiqa, pantomima vositasida sahnalashtirildi.

Bosh qahramon Aksentiy Poprishchin jamiyatdan yakkalangan, ruhan va qalban yolg'iz, ma'nan izdan chiqayotgan tuban tuzumning tipik vakili. Insonning boy yoki kambag'alligiga qarab munosabat qilinadigan nosog'lom jamiyat Poprishchinni chetga chiqaradi, u har qadamda malomatga uchraydi, asta-sekin aqldan ozadi. Bosh qahramon ijrosi xususida teatrshunos I.Muxtorov shunday yozadi: "G'ayrat Husainov Poprishchin rolini o'z qahramonining ahvoli, unda shizofreniyaning dastlabki belgilari paydo bo'lishidan boshlab to aqlini butunlay yo'qotishigacha bo'lgan evolyutsiyasini tushunganda holda ijro etadi. Aktyor o'lchovni his qiladi, tomoshabin uchun mo'ljallangan "tentak rolining ta'siri"ni suiiste'mol qilmaydi" [6]. Rejissyor asar tabiati va adib tasvirlagan davr muhitidan kelib chiqib, qissani tragikomediya va ijtimoiy grotesk uyg'unligida talqin qiladi.

Spektaklda yuzlariga niqob taqqan, ba'zilari harakat qiladigan, ba'zilari esa jim turgan aktyorlarni ko'ramiz. Ular spektaklda shunchaki ommaviy sahna vazifasini bajarmaydi, aynan ularning befarqligi, harakatsiz nigoh va holatlari fonida Poprishchinning ruhiy tanazzuli, jamiyatga bo'lgan kuchli isyoni yorqinroq ko'rinadi. Bosh qahramon hech qanday niqob taqmaydi, biroq hayotda o'z o'rnini topolmay, ko'plab xo'rlig-u azoblarni boshdan kechirgach, spektakl finalida u ham niqoblilar safiga qo'shiladi. Rejissyor g'oyat ramziy va falsafiy mushohadaga chorlovchi yechim taklif qiladi: Poprishchinning karavotida oddiy fuqaro libosidagi yana bir inson yotibdi, ya'ni, nosog'lom va badbin jamiyatning navbatdagi qurboni. Demak, hali bu chirkin muhit hukmron ekan, ko'plab insonlar Poprishchin singari aqldan ozadi va fojiga yuz tutadi.

Jahon nasriy asarlarini sahnalashtirish borasida "Diydor" teatr-studiyasida ham bir-muncha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Studiya ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan "Kapalak tushi" (T.Zulfiqorov asari, rejissyor B.Abdurazzoqov), "Buzruk haqida afsona" (G.G.Markes asari, rejissyor A.Patrushev) singari spektakllarda jahon adabiyoti namunalari o'ziga xos uslubda talqin qilindi.

Timur Zulfiqorovning "Xo'ja Nasriddinning ilk muhabbati" qissasi asosida tojikistonlik taniqli rejissyor Barzu Abdurazzoqov tomonidan sahnalashtirilgan "Kapalak tushi" spektaklini falsafiy mushohadaga asoslangan o'ziga xos rivoyat deb atash mumkin. Spektakl pok va go'zal muhabbat, uning inson umriga lahzalik tashrifi haqida.

Spektakl noodatiy sahnaviy talqini va rejissyorlik yechimi bilan ajralib turadi. Tomosha namoyish etiladigan sahna qum bilan qoplangan. Qumli maydon asar falsafasini ochib berish bilan birga rejissyor talqini va aktyorlar ijrosini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Aynan qumda aktyorlarning ijro texnikasi, energiyasi, dramatik va psixologik mahorati, plastik imkoniyatlari yorqin namoyon bo'ladi.

Balog'at yoshiga yetgan Xo'ja Nasriddin (Nurmuhammad Ibrohimjonov) ning tush ko'rishi voqealar rivojini belgilaydi. Tushida Nasriddin muhabbat ila yuzlashadi, o'zini bamisoli uchayotgan qushdek his qiladi, tuyg'ulari, ehtirolari tizginini bo'shatib, go'zal tuyg'ularga oshno bo'ladi. Ota-onasi anglaydi-ki, o'g'li uylanadigan yoshga yetibdi, tezroq kelin topish, boshini ikkita qilish lozim.

Nasriddin – pok muhabbat xaridori, shu bois, Qoradarada Talg'atbek (Bobur Yo'ldoshev) ismli hukmdorni ilon hamlasidan xalos etgach, saroy xobxonasida taklif etilgan suluv kanizaklarni rad etadi. Chunki u shahvoniy nafs yetovidagi ishratparast emas, balki haqiqiy muhabbat asiri.

Nasriddin obrazini ijro etgan yosh aktyor Nurmuhammad Ibrohimjonov dramatik va psixologik imkoniyati, texnikasi, plastik harakatlari bilan qahramoni ruhiyati, botiniy olamini ochib beradi. Aktyor ijro uchun katta kuch sarflaydi, ruhiy va jismoniy potensialini ishga soladi.

Oshiq Nasriddin chin sevgisi Suhayl (Mahliyo Asqaraliyeva) ni behizorda uchratadi – qiz xuddi kapalakdek beozor, nozik. Spektaklda ramziy ifoda vositalari orqali qizning balog'atga yetishi, ayolga aylanishi ko'rsatiladi. Nasriddin uchun muhabbatiga erishish oson bo'lmaydi, yo'lida unga Qorabo'ton to'sqinlik qiladi. Qorabo'ton ham Suhaylni sevadi, unga yetish uchun har narsaga

tayyor. Nasriddin va Qorabo'ton o'rtasidagi kurash sifatida spektakldagi o'ziga xos ziddiyatni belgilab beradi. Yakunda Qorabo'ton yengiladi va alam-u izzat bilan sahnani tark etadi.

Rejissyor B.Abdurazzoqov asarning sahnaviy talqini ustida izlanar ekan, ekspressiv, jonli, haroratli tomosha yaratishga harakat qiladi. Spektakl jo'shqin dinamikasi, tempo-ritmi, drammatizmi bilan ajralib turadi. Voqealarning qum to'shalgan sahnada yuz berishi ham spektaklning ta'sir quvvati, jonli ruhiyatini kuchaytiradi.

Nasriddinning hayotga nima uchun kelgani, o'zligi, missiyasini anglash jarayoni voqealar rivoji va asar g'oyasining yuzaga chiqishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ma'lum bo'lishicha, Nasriddinning ota-onasi farzand ko'rish niyatida Amudaryoga "Buxoro kunjutli holvasini" tashlagan, ko'p o'tmay qahramonimiz tug'ilgan ekan. Demak, bu tug'ilishda ramziylik bor: Xudodan so'rab olingan farzand o'zi bilan ezgulik, yorug'lik, baxt-u saodat olib kelmog'i lozim edi. U shu vazifalarni imkon qadar bajaradi ham. Ammo yakunda muhabbati Suhaylga erishganida, "kapalak tushi"dek qisqa umri intihosiga yetadi.

Rejissyor spektakl yechimini noodatiy yo'sinda hal qiladi. Aktyorlar sahnada arqon tutib karvon manzarasini hosil qilishadi. Arqonning bir uchini Suhayl, oxirgisini esa Nasriddin tutgan. Suhayl – muhabbat ramzi, demak, hayot ibtidosida muhabbat zarur, ammo Nasriddinning qismatidan ayon bo'ladi-ki, intihoda muhabbat tantana qilmasligi mumkin. Final sahnasida chiroqlar o'chadi, sahna yorishgach, roviy yerda yotgan yosh Nasriddinning qo'lidan tutib, davra bo'ylab aylantiradi. Bu orqali dunyoga yana bir oshiq, ko'ngil, haqiqat da'vosidagi yana bir inson kelganiga ishora qilinadi. "Erkparvar Nasriddinning ilk muhabbati, o'zligi va xalq taqdirini bilishdagi achchiq tajribasi haqida hikoya qiluvchi sahnaviy rivoyatning yakuni bamisoli yorug' akkorddek yangraydi. Spektakl turli mamlakat xalqlarida adolatli va baxtli hayotga umid va ishonch urug'ini sepgan donishmand, bo'lajak hurfiy shaxs – Xo'ja Nasriddinning yoshligi haqida. Izlanuvchan rejissyor Barzu Abdurazzoqov nigohidagi shodlig-u saodat, qayg'u va mashaqqatlarga to'la Xo'ja Nasriddin hayotiga bag'ishlangan asarni "Diydor" teatr-studiyasi truppasi samimiyat va ishtiyoq bilan ijro etishdi" [7].

Jahon nasriy asarlarini sahnalashtirish bora-

sida viloyat teatrlarida amalga oshirilayotgan ijodiy izlanishlar ham e'tiborga molik. Xususan, Qo'qon shahar musiqali drama teatrida buyuk yozuvchi Ernest Hemengueyning "Chol va dengiz" qissasi yosh rejissyor G'iyosiddin Mirzamahmudov tomonidan sahnaga qo'yildi.

"Chol va dengiz" – insonning yuksak irodasi, matonati, e'tiqodi haqidagi asar. Qissani o'qigan har bir kitobxon odam bolasining sabr-u bardoshi naqadar kuchli ekani, asarda qayd etilganidek, "odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmasligi"ga amin bo'ladi.

Qissa adabiy bayonga asoslanganini inobatga olsak, uni sahna talablariga moslashtirish, teatr uchun insensirovka qilish oson kechmasligi aniq edi. Rejissyor G'.Mirzamahmudov asar uchun o'ziga xos sahnaviy yechim topa oldi. Yozuvchi tomonidan tasvirlangan muhitni sahnada jonlantirib, asar g'oyasini ochib berishga harakat qildi. Voqealar markazida chol Santiyago va bolakay Manolin obrazlari turadi. Spektaklda ushbu obrazlarni ijro etgan aktyorlar – Shohjahon Sultonov va Ilyos Boynazarov haqiqiy tandemga aylanadi. Har ikki aktyorning partnyor sifatida bir-birini yaxshi his qilishi, xatti-harakatlarini nigohlar orqali o'qiy olishini e'tirof etish lozim.

Rejissyor sahnalashtiruvchi rassom Qahramon Mamaziyayev bilan hamkorlikda dengiz muhitini yaratadi. Sahnaning chap tarafida chayla, o'rtada qayiqni ko'ramiz. Chiroqlar yordamida osmonda charaqlayotgan yulduzlar hosil qilinadi. Markazda qayiqda eshkak eshib, akulalar hamlasiga qarshi kurashayotgan Santiyago namoyon bo'ladi. Spektaklda chol va dengiz o'rtasidagi kurash motivi turli effektlar – chiroq, musiqa, shovqin va boshqa sahnaviy ifoda vositalari orqali yaxshi ochib berilgan. Tomoshabin dengiz muhitini his qiladi, uning to'lqinlari uzra hayot, yashash uchun kurashayotgan cholning dard-u izzatlarini yurakdan o'tkazadi.

Aktyor Shohjahon Sultonov ijrosidagi Santiyago sabr-bardoshli, kurashuvchan, matonatli inson sifatida namoyon bo'ladi. Bolakay Minolin esa yorug' kelajak, baxtli hayot timsoli bo'lib jonlanadi. Chol yolg'iz qolgan kezlari ham tasavvurida bola gavdalanadi va unga ruhan dalda beradi.

Asar va spektaklda beysbol bo'yicha chempion Di Majo personaji ham bor. Hemenguey bu qahramonni qissaga bejiz kiritmagan. Zero, ushbu sportchi maydonda

har qanday mashaqqatni mehnat va sabot bilan yengib, millionlab muxlislar olqishiga sazovor bo'lgan. Chol dengiz to'liqlari bilan kurashayotganda, xayolan tasavvurida Di Majo paydo bo'ladi. U spektakl yakuniga qadar biror og'iz so'z aytmaydi, lekin xatti-harakatlari, ko'z qarashlari, mag'rur nigohi ila ishonch va kurashuvchanlikka chorlaydi.

Faqatgina spektaklning final sahnasida – akulalar bilan bo'lgan ayovsiz jangdan so'ng tinkasi qurigan va taslim bo'layotgan Santyagoga qarata xitob qiladi: “Bilib qo'y, otaxon – sen chempionsan! Chempionni hech qachon yengilishga haqqi yo'q! Hech qachon ortga chekina ko'rma, oldinga qara! Yana bir karra akulalar bostirib kelishyapti. Sen ularni yengishing kerak!..”. Beysbolchi Di Majo shunday haroratli so'zlar bilan cholni yana oldinga qadam tashlashga chorlaydi. Shu tariqa asarning bosh g'oyasi bo'lmish “Insonni yengib bo'lmaydi!”, degan shior yuzaga chiqadi.

Jahon nasri namunalarining O'zbekiston teatrlaridagi sahnaviy talqinlarini o'rganish yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

– *Respublika teatrlarida jahon adabiyoti namunalarining sahnalashtirilishi o'zbek teatrining badiiy va estetik imkoniyatlarini kengaytiradi;*

– *bunday spektakllar millatlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga, baynalmilal g'oyalarni targ'ib qilishga ham xizmat qiladi;*

– *turli xalqaro teatr festivallarida muvaffaqiyatli qatnashish uchun ham jahon adabiyoti namunalariga murojaat qilish zarur. Boisi, bunday asarlarning sahnaviy talqini xorij teatr jamoatchiligida qiziqish uyg'otadi;*

– *jahon nasrining uslub va shakl jihatidan rang-barangligi, turli oqim va yo'nalishlarga mansubligi teatr rejissyorlari izlanishlari uchun muhim bo'lib, yangi shakl va ifodalar topishga, turli eksperimental talqinlarga zamin hozirlaydi;*

– *barcha teatrlarning repertuarida jahon adabiyotidan inssenirovka sahnalashtirilishini muntazam yo'lga qo'yish – yosh rejissyor va aktyorlarning izlanishiga, o'z ijodiy mahoratini oshirishiga yordam beradi.*

Demak, o'zbek teatrlarini dunyo teatrlarining ilg'or tendensiyalariga yaqinlashtirish, xalqaro miqyosda rivojlantirish uchun jahon adabiyoti namunalaridan inssenirovkalar yaratish va sahnalashtirishga e'tibor qaratish zarur. Bu jarayonda xorij teatr uyushmalari, tashkilotlar, rejissyorlar va boshqa ijodkorlar bilan hamkorlik qilish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Народническая А. Дочь Ганга // Совесть культуры. – 1956. – 25 октября.
2. Tursunboyev S. Teatr va Tagor // Teatr. – 2012. – № 6.
3. Махмудова Г. Тема борьбы народов зарубежного Востока на узбекской сцене: дисс. ... канд. искусствовед. – Ташкент, 1984. – 18 с.
4. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent, 2003. – 268 b.
5. Markes G.G. Polkovnikka hech kim xat yozmaydi (rus tilidan Vafo Fayzulloh tarjimai) // Jahon adabiyoti. – 2017. – № 11.
6. Мухтаров И. В продолжение темы. Куда приводят мечты. (“Записки сумасшедшего” Н. В. Гоголя на сцене Кашкадарьинского театра) // <https://kultura.uz>.
7. Мухтаров И. Цена познания (Спектакль “Сон бабочки” по новелле Т. Зюльфикарова “Первая любовь Ходжи Насреддина” в театре-студии “Дийдор”) // <https://www.kultura.uz>.

Aziz MATYAKUBOV,
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
YUNESKO bilan ishlash bo'limi mudiri,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BADIIY KINODA URUSH TALQINLARI NOMODDIY MADANIY MEROS SIFATIDA: QAHRAMON YARATISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada urush mavzusida yaratilgan badiiy filmlarda qahramon yaratish masalasi tadqiq etilgan. "Vatan" hamda "Berlin – Oqqo'rg'on" filmlaridagi obrazlar orqali qahramonlar talqini tahlil qilingan. Mazkur jarayondagi izlanishlar va hal etilishi zarur bo'lgan masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: urush, obraz, qahramon, talqin, mavzu, mafkura, ijro, badiiylilik, g'oya.

Аннотация. В статье рассматривается проблема художественного воплощения героя в военных фильмах. На примере кинолент «Ватан» и «Берлин – Оккоргон» проводится анализ интерпретации персонажей, выявляются особенности их образного решения. Освещаются поисковые подходы и нерешённые вопросы, связанные с данным процессом.

Ключевые слова: война, образ, герой, интерпретация, тема, идеология, актёрское исполнение, художественность, авторская идея.

Abstract. This article examines the problem of artistic embodiment of heroes in war films. Using the films "Vatan" and "Berlin - Okkorgon" as examples, it analyzes character interpretations and identifies the specific features of their imagery. Research approaches and unresolved issues related to this process are highlighted.

Keywords: war, image, hero, interpretation, theme, ideology, acting, artistry, authorial concept.



Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR)ning tugatilishi va uning tarkibiga kirgan mamlakatlarning birin-ketin mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi mustabit tuzum davrida shakllangan siyosiy-mafkuraviy qarashlarga nisbatan jiddiy islohotlarni talab etdi. Ayniqsa, sobiq ittifoqdagi xalqlar va millatlarning uzoq yillar davomida parda ortida yashirib kelingan va sovet ideologiyasi qolipiga tushirishga harakat qilingan tarixi va qadriyatlarini tiklash birinchi galdagi vazifaga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqillikning dastlabki o'n yilligida O'zbekiston kino san'atida o'tmish sahifalarini yoritish ("Otamdan qolgan dalalar" – 1998, "Voiz" – 1998, "O'tkan kunlar" – 1998), buyuk ajdodlarimiz obrazini aks ettirish ("Buyuk Amir Temur" – 1998) va milliy an'analarni targ'ib qilishga ("Chimildiq" – 1999, "Alpomish" – 2000) qaratilgan filmlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi. Mana shu ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar fonida Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq tarixiy haqiqatlarni qayta idrok etish, jumladan, o'zbek xalqining urushdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, frontda o'zbek jangchilari tomonidan ko'rsatilgan jasoratlarni yuzaga chiqarish va shu orqali vatanparvarlik, insonparvarlik kabi umumbashariy g'oyalarni keng targ'ib etishga ma'naviy ehtiyoj paydo bo'la boshladi.

Bu ma'naviy ehtiyoj o'zbek xalqining bukilmas irodasi, odamiyligi, e'tiqodi va mardligini yoritish bilan birga, urush yillari sobiq ittifoq rahbarlari tomonidan yuritilgan siyosat va mafkuraning xalqimiz boshiga solgan fojialarini ochib berish, ana shu jarayonlarda millatiga, yurtiga xiyonat qilgan va sovet ideologiyasi quliga aylangan chinakam xalq dushmanlari haqida sovet davrida aytilmagan haqiqatlarni yangi avlodga yetkazish zarurati va burchidan kelib chiqdi. "Ko'p yillik tanaffusdan keyin shu mavzuga murojaat qilinib, "Ilhaq", "101", "Xalq jasorati" kabi yangi badiiy va hujjatli filmlar suratga olindi" [1, c. 56].

Bunday o'ta mas'uliyatli vazifani bajarish, avvalo, urush mavzusi doirasida milliy kino san'atimizga sovet mafkurasidan batamom holi bo'lgan yangi talqindagi qahramonlarni olib kirishni taqazo qildi. Ayni shu qahramonlar orqali urush yillaridagi front va front orti hayotining real manzarasini aks ettirish, o'sha davr kishilarining ma'naviy qiyofasini ifodalash imkoniyati yuzaga keldi va bu imkoniyatdan mustaqillik e'lon qilingach, birinchilardan bo'lib, kinorejissyor va ssenarist Zulfiqor Musoqov "Vatan" (2006) filmida foydalandi.

Film voqealari urushda asirlikka tushgan, Germaniya hamda sobiq ittifoq konslagerlarida turli sinovlarga uchragan va taqdir taqozosi bilan qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo'lib, bir

umr o'zga yurtlarda yashashga mahkum etilgan Qurbon Usmonov hamda uning xotiralari atrofida kechadi. "Ikkinchi jahon urushi qariyb olti yil davom etdi va insoniyatga juda katta kulfatlar keltirdi. 110 mln kishi urushga safarbar qilindi. 60–65 mln kishi halok bo'ldi, ular orasida harbiy xizmatchilar bilan birga millionlab tinch aholi ham bor edi" [2, c. 73]. Bir qarashda, Qurbon ota (Abdumannon Ubaydullayev) hamma narsaga ega: Nyu-Yorkda hashamatli uy-joy, biznesmen o'g'il, nevaralar. Biroq u nimadandir bezovta, halovatini yo'qotgan. Voqealar davomida Ikkinchi jahon urushi va o'sha yillardagi tuzum Qurbon otani baxtiyor yoshligidan, orzularidan, yaqinlaridan, endigina unashtirilgan sevgilisidan va eng asosiysi, kindik qoni to'kilgan ona vatanidan judo qilgani ma'lum bo'ladi. Ana shu fojialar sabab, oradan ko'p yillar o'tgan bo'lsa-da, uning qalbidagi jarohatlar hamon bitmagan, hamon unga tinchlik bermaydi. Buning yechimi sifatida, Qurbon ota yurtiga qaytib borishni va boshiga tushgan savdolarda o'zi aybdor deb hisoblagan kimsadan o'ch olishni ko'zlaydi. Qahramonning qasos olish motivi filmning badiiy-g'oyaviy jihatlarini yoritish va kompozitsion qurilishga asos bo'lgan. Chunki butun voqealar, film g'oyasi va mazmuni Qurbon otaning o'zi tug'ilib-o'sgan qishlog'iga yetib borgunga qadar yo'l-yo'lakay eslab ketuvchi xotiralari vositasida aks etadi. Mazkur syujet chizig'i qahramon talqinidagi ikkita muhim xususiyatni ochib bergan. Birinchisi, badiiy xususiyat bo'lib, bunda Qurbon Usmonov obrazi orqali frontga borib, mardonavor kurashgan va har qanday sharoitda ham odamiyligini, o'zligi va yurtiga bo'lgan sadoqatini saqlab qola olgan oddiy o'zbek yigitining qiyofasi hayotiy bo'yoqlar bilan yoritilgan. Qurbon obrazi urush mavzusi doirasida mustaqillik davrida taklif etilgan ilk qahramon bo'lish bilan birga, "O'zbekning asl farzandi qanday bo'lishi kerak!?" degan dolzarb masalaga javob berishi bilan ham ahamiyatlidir. Qahramon talqinidagi ikkinchi muhim xususiyat esa, u orqali urush davridagi siyosiy jarayonlarga ko'zgu tutilganidir. Bu siyosiy jarayonlar, ayniqsa, vatan uchun boridan kechib, kurashgan yuz minglab haqiqiy o'g'lonlarni urushga safarbar qilgan hukumatning o'zi tomonidan Qurbon misolida tazyiq va tahqirlarga duchor etilishi, Stalin rejimining qatag'on va balandparvoz shiorlarga asoslanishi, buning ortidan Qurbon singari qanchadan-qancha umrlar zavol topganini ochib berishi bilan muhimdir. Qahramon talqinidagi ana shu ikki xususiyat filmni nafaqat bugungi kun uchun, balki tarixni teran nigoh bilan qayta anglash nuqtayi nazaridan ijtimoiy-badiiy qiymatga ega materialga (asarga) aylantirgan.

Film voqealari garchi qahramonning keksaygan chog'ini aks ettirish, uning bugungi kundagi hayotiga nazar tashlash bilan boshlansa-da, kartinaning asosiy g'oyasi va mazmuni uning urush yillaridagi hayoti orqali yuzaga chiqadi, shu bois, qahramon deganda Qurbonning yigitlik davrini tushunish zarur. Yigit holida Qurbon (Muzaffar Sa'dullayev)ni tashqi tomondan ajratib turadigan alohida sifatlari yo'q, aksincha, o'rta bo'yli ozg'in jussasi jismoniy imkoniyatlari u qadar katta emasligini ko'rsatib turadi. Buni hatto Qurbonning sevgilisi Gunafsha ham yashirmaydi – unga ikki marta sovchi yuborib, rad javobini olgan Xomidning “Qurbondan nimam kam?” degan savoliga: “Kam emassan, sen undan zo'rsan, hattoki chiroyli san, bo'ying ham baland, lekin Qurbon boshqacha-da” deb javob qaytarishi zohiriy qiyosda Qurbonning Xomiddan ustun emasligini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, Gunafsha Qurbonni yoqtiradi, chunki o'zi aytganidek u boshqacha. Qurbonning nima uchun boshqacha ekanligi shu epizoddanoq bilina boshlaydi.

Gunafsha Qurbonida ko'ngli borligini ishora qilib ketgach, Xomid undan qizga sovchi yuborish-yubormasligini so'raydi. Qurbon esa javoban: “Hozir to'y-hashamning vaqti emas – urush, erta-indin hammamizni armiyaga olib ketishadi” deydi. Xomid ham ichidagini yashirmay: “Sen sovchi yubormasang, men yana yuboraman” deb suhbatga nuqta qo'yadi. Ushbu qisqa dialog orqali, birinchi navbatda, Qurbonning o'z shaxsiy manfaatlarini Xomidga o'xshab boshqalarnikidan ustun qo'ymasligi, urush oqibatlarini tushunishga qodir aql-zakovatga egaligi, butun dunyoda kechayotgan urush kimnidir otasidan, kimnidir farzandidan judo qilayotgan bir paytda to'y-hashamni o'ziga ravo ko'rmasligi, demakki, el dardini yaxshi his etishi va sevgilisining baxtsizligini istamasligi ayon bo'ladi.

E'tiborli jihati, filmida qahramonning tili bilan dili bir ekani, so'zi bilan amali bitta fikrni tasdiqlashi deyarli barcha epizodlarda parallel ravishda ko'rsatib berilgan. Bunday talqin uslubi qahramon xarakterini yanada tabiiy va hayotiy chiqishiga turtki bergan. Masalan, armiyaga jo'nash epizodida Xomid Gunafsha bilan Qurbonning nikohini tan olmasligi, hali chimildiqqa kirishga ulgurishmagani, avval kim kirsam o'shaniki halol bo'lishini aytishi bilan Qurbonning unga tashlanib, uy ortiga sudrab ketishi qahramondagi oriyat kuchi va sha'ni uchun kurashishdan qaytmasligini ifodalasa, Xomidga qarata “Odam emas ekansan” deb baho berishi uning qalbida pastkash kimsalarga va pastkashliklarga o'rin yo'qligini tasdiqlaydi.

Frontga ketgunga qadar Qurbon tomoshabin

ko'z oldida ana shunday mard va oliyjanob inson sifatida gavdalanadi, ya'ni dastlab qahramonning qanday inson ekanligi ana shunday hissiy-emotsional epizodlar vositasida tanishtiriladi. Shu bois ham, uning urushga kirgandan keyingi xatti-harakatlari ortiqcha pafosdek tuyulmaydi, vatanparvarlik tuyg'usi zo'rma-zo'raki yopishtirilgandek sezilmaydi, bir jumla bilan aytganda, qahramon nimaiki qilsa, tabiiy chiqadi, o'ziga yarashadi. Qurbonning vayronalar orasidan chiqib, o'qi tugagan qurolini dushmanga uloqtirishi va ko'ksini ochib: “Otib tashla, hayvonlar, otlaring” deya xayqirishi shu sabab ham filmning ta'sirchan epizodlaridan biriga aylangan. Dushman qarshisida bo'yin egishni xohlamay, bor g'azab-nafratini emotsional portlash orqali ifodalashi Qurbonni qahramon sifatidagi darajasini oshirgan. Aslida u tushgan vaziyat birorta qahramonlik alomatlariga ega emas, birinchidan, jangda mag'lub bo'lgan, ikkinchidan, qo'lidan hech nima kelmaydigan ojiz ahvolda. Lekin ayni mana shunday tang holatda ham ruhan taslim bo'lishni istamasligi, ochiq o'lim xavfi turganligini bilsada, dushmani “hayvonlar” deb so'kish bilan ichki isyonlarini davom ettirishi, uning xatti-harakatlariga qahramonlik bag'ishlaydi. Qahramon talqinidagi bunday yondashuv Qurbonning ana shu chorasiz vaziyatiga vatanparvarlik, o'z maslagiga sodiqlik singari ulug'vor g'oyalarni singdirgan (bunday talqin uslubi keyinchalik “Ilhaq” filmida asirlikdagi qahramonning dushman bilan suhbatda o'zini mardonavor tutishi, “101” kartinasida qahramonlarning sillasi quriganiga qaramay, oldilariga tashlangan nonni ko'zlariga surtib, o'zaro taqsimlashi bilan bog'liq epizodlarda kuzatiladi). Demak, qahramonni qahramonga aylantiruvchi omil faqatgina g'alaba bilan emas, balki oddiy askarning chorasiz ahvolda ham ma'naviy jasoratga qodir kichik qarorlari orqali ham yuzaga chiqishi mumkin.

Filmida bunday mazmunga ega bir qancha epizodlar mavjud. Xususan, Germaniya hududida tashkil etilgan Turkiston legioni lagerida tajribasiz tarzida asirlarga non bo'laklarining tashlanishi hamda och qoldirilgan mahbuslarning non talashish jarayonlarini tarixiy fakt sifatida fotokadrlarga muhrlash jarayonida Qurbonning bir chekkada turishi va bunday xorlikni o'ziga ep ko'rmasligi, nonga tashlanayotgan boshqa asirlar bilan kontrast qo'yilishi uning qat'iy irodasi va odamiyligini alohida ajratib ko'rsatgan. Keyingi epizodlarda esa qahramonning ushbu sifatlari filmning g'oyaviy maqsadlarini yoritishga yo'naltirilgan. Natsistlar hududida tashkil etilgan Rus ozodlik armiyasi va Turkiston legioni vakillari yig'ilgan xonada Qurbonga ular tomonga

o'tish yoki asirlikda qolish tanlovi berilar ekan, qahramonning Turkiston legioniga o'tish taklifini rad etishi zahirida metaforik mazmun aks etgan. Qurbonning dushman tomonga o'tishdan ko'ra, mahbuslikni afzal bilishi aslida uning ruhan erkin bo'lib qolganiga ishora qiladi, ya'ni jismoniy asirlikni ma'naviy qaramlikdan, o'z prinsiplariga qarshi borishdan ustun qo'yadi va shu tariqa yurtiga sadoqatini ko'rsatadi. Qolaversa, Qurbonning ushbu qarori Rus ozodlik armiyasi va Turkiston legioni vakillari qila olmagan, qilishga jur'ati yetmagan ishni uddalaganini tasdiqlaydi, sababi, ularning ham oldida bir vaqtlar mana shunday tanlov turgan edi.

Qurbonning Germaniya konslageridan sobiq ittifoqqa o'tkazilishi va u yerda ham siyosiy mahbus sifatida jazoni o'tashda davom etishi orqali esa Qurbon singari qanchadan qancha nohaq ayblangan yigitlarning ma'nisiz xazon bo'lgani ochib berilgan. Urush davrida yuritilgan totalitar sovet tuzumi sabab, Qurbonga o'xshash chinakam vatan farzandlari bir umr yurtiga qayta olmagan, o'zga ellarda yashashga mahkum bo'lgan. Filmda qahramonning aynan mustaqillik davridan keyin vataniga qaytishga imkon topgani ham bejiz emas, bu orqali, qaysidir ma'noda, istiqloq davri siyosatiga urg'u berilgan, mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatlar qaror topayotgani, adolat tiklanayotgani ko'rsatilgan. "Urush yillaridagi voqealarni qayta jonlantirish tahlil etish ijtimoiy-madaniy hayotda muhim o'rin tutadi" [3, 3-b].

Filmda Xomid (Bobur Yo'ldoshev) obrazi ham davr siyosati va u yaratgan shaxslar qiyofasini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Xomidning tabiatidagi qiziqqonlik, xudbinlik, yengiltaklik, pastkashlik singari jihatlar dastlab maishiy doirada namoyon bo'lsa, ichki ishlar xalq komissariati (NKVD)da militsiya lavozimini egallashi bilan undagi illatlar asta-sekin ijtimoiy-siyosiy xarakter kasb etib boradi. Bu xususiyatlar uning Gunafshaga nisbatan munosabatlari orqali yuzaga chiqarilgan. Voqealar avvalida Xomid Gunafshaga yetishish uchun faqat bilak kuchi yoki dilidagini tiliga chiqarish bilangina cheklansa, mansab tekkanidan so'ng o'z maqsadini lavozim kuchi bilan bosim o'tkazish yo'li orqali hal etishga urinadi. Filmda Xomidning frontdagi biografiyasi ko'rsatilmagani ham bejiz emas, chunki bu qahramon, asosan, front orti siyosatini ko'rsatish, ichki dushmanlarni aks ettirish uchun xizmat qilgan.

"Vatan" filmi Ikkinchi jahon urushi mavzusi bilan bog'liq yangi talqindagi qahramonlarni olib chiqqani va ular orqali mustaqillikka qadar aytilmagan haqiqatlarni yuzaga chiqargani bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi. Mazkur qahramonlar

urush mavzusida yaratiladigan keyingi filmlar uchun o'ziga xos ijodiy tajriba namunasi bo'lib qoldi, urush mavzusining hali o'rganilmagan boshqa aspektlarini yoritishda olib chiqiladigan qahramonlar obrazi uchun yangi talqin yo'nalishlarini taklif eta oldi.

"Berlin – Oqqo'rg'on" filmi qahramonlari esa, avvalo, ikkita yirik guruhga ajraladi. Birinchi guruhni Adolf Gitler, Genrix Gimmmler, Yozef Gebbels, Rudolf Gess, German Gerring, Iosif Stalin, Maksim Litvinov, Aleksandr Poskryobishev, Vyacheslav Skryabin (Molotov) kabi siyosiy hamda Vsevolod Meyerxold, Mixail Chexov, Zinayida Ray, Maryam Yoqubova singari jamoat arboblardan iborat real tarixiy shaxslar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga esa urush yillaridagi kishilarning umumlashma obrazini gavdalantirgan badiiy to'qima qahramonlar kirgan. Ushbu qahramonlar mohiyatiga ko'ra beshta toifaga bo'linadi. Birinchisi, urush yillaridagi mafkurani ochib berishga xizmat qiluvchi qahramonlar toifasi (davlat va jamoat arboblari), ikkinchisi, dushmanga qarshi kurashda jasorat ko'rsatgan qahramon(lar) toifasi (Qo'zivoy, Sattor tog'a), uchinchisi, urush davridagi siyosiy tuzum asoratlarini aks ettirgan qahramonlar toifasi (Norboyeva, Meyerxold), to'rtinchisi, mavjud tuzumga so'zsiz bo'ysundirilgan qahramonlar toifasi (Klaus Kyostling, Soqqaboyev) va beshinchisi, urush yillaridagi ijtimoiy-maishiy hayotni yorituvchi qahramonlar toifasi (Qo'zivoyning ota-onasi, singlisi, qishloqdoshlari, aktyorlar jamoasi va b.q.) hisoblanadi.

Birinchi toifaga kiruvchi qahramonlar orasida, ayniqsa, Adolf Gitler va Iosif Stalin obrazlarining olib chiqilishi o'zbek badiiy kinosida Ikkinchi jahon urushi mavzusi bo'yicha alohida voqelikka aylandi. Bu nafaqat ushbu ikki davlat rahbarining birinchi marta o'zbek kinosida qahramon sifatida ko'rinishi, balki ularning ekran obrazini yaratish bo'yicha o'zbek kino ijodkorlari tomonidan ham yana bir talqin versiyasi taklif etilishi bilan bog'liq omil bo'ldi. Ma'lumki, jahon badiiy kinosida Gitler va Stalin obrazlariga juda ham ko'p murojaat qilinib, shaxsan o'zlari haqida o'nlab biografik filmlar yaratilgan, ularning rollarini professional aktyorlar katta mahorat bilan ijro etib, hayotlaridagi turli davrlar turli rakurslardan ochib berilgan. Shu nuqtayi nazardan, Gitler va Stalin obrazlarini qaytadan ekranda jonlantirish ijodkordan katta jur'at va mas'uliyatni talab etadi. Rejissyor Zulfiqor Musoqov "Berlin – Oqqo'rg'on"ga qadar "Vatan" (2006), "Qo'rg'oshin" (2011) filmlari orqali Stalin va Gitler davriga murojaat qilib, urush mavzusini yoritish bo'yicha ma'lum tajriba to'plab ulgurgan edi. Mazkur filmlarda garchi diktatorlar obrazi



olib chiqilmagan bo'lsa-da, filmlarni yaratish jarayonida ularning shaxsiyati va olib borgan siyosatlarini haqida ulkan ma'lumot o'rganilgani, tabiiy. Qolaversa, rejissyorning bu rollar uchun Rudolf Shvartsenberg (Gitler rovida) va Nugzar Davitashvili (Stalin rovida) kabi tashqi jihatdan va ijro amplusiga mos tushgan aktyorlarni izlab topgani ham filmning yutuqlaridan biriga aylangan.

Z.Musoqovning rejissyorlik talqinida har ikkala tarixiy shaxs mulohazali, vazmin, ziyrak qiyofada namoyon bo'lgan. Filmda ularning shaxsiy hayotlari yoki qiziqishlari bilan bog'liq birorta epizod yo'qligi va asosiy e'tibor ularning urush to'g'risidagi o'y-fikrlarini yoritishga qaratilgani Stalin va Gitler obrazlaridan maqsad ularning davlat arbobi sifatidagi qiyofasini ochib berish ekani anglashiladi. Shuning o'ziyoq Stalin va Gitler obrazlarining filmga ayni urush mavzusini yoritish uchun kiritilganini tasdiqlaydi. Voqealar davomida Gitler bittagina epizodda ko'rinish bersa-da, mazmun jihatidan u filmda salmoqli o'rin egallagan.

Ushbu epizod tarixiy faktga asoslanib, Gitlerning Gebbels, Gimmmler va Gess bilan 1939-yil 19-avgustda Bergxof qarorgohida bo'lib o'tgan uchrashuvdagi suhbatini aks ettiradi. Biroq Gitler obrazini yanada kengroq tanishtirish uchun kadr orti ovozidan foydalanilib, diktatorga shunday ta'rif berilgan: "Biz kinoxronika kadrlarida Gitlerni o'ta baqiroq odam qiyofasida ko'rishga odatlanganmiz. Lekin bu atayin qilinar edi. Umidsizlanib qolgan nemis olamoniga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlash uchun Gitler oldindan tayyorlanar edi. Zamonaviy til bilan aytganda bu o'ziga xos piar edi. Gitler yaqinlari davrasida va muhim uchrashuvlarda o'zini bosiq, vazmin tutar, ma'noli va bamaylixotir gapirar edi. U juda aqlli, ehtiyotkor va ayyor siyosatchi edi". Qahramon xarakterini ifodalashda bunday axrobiy uslubdan foydalanish garchi badiiy kino stilistikasiga xos bo'lmasa-da, xronikal kadrlar uyg'unligida yetkazilgan ushbu ma'lumotlar

suhbat epizodiga kirishdan avval muqaddima vazifasini bajargan. Albatta, mazkur yondashuv ham rejissyorning individual uslubini tasdiqlovchi elementlardan biriga aylangan. Suhbat davomida Gitlerning o'zini bosiq tutishi va suhbat olib borish madaniyati kadr orti ta'riflarini isbotlash bilan birga, obraz xarakterini ifodalashga xizmat qilgan.

Stalin obrazi ham, asosan, dialoglar vositasida yoritilgan. Uning har bir suhbatini ma'lum mavzuga qaratilib, qahramonning u yoki bu sifatlarini ifodalab boradi. Masalan, tashqi siyosatda Germaniya bilan jadal aloqalarni davom ettirish maqsadida SSSR tashqi ishlar vaziri Maksim Maksimovich Litvinovni yahudiy bo'lgani uchun lavozimidan bo'shatar ekan, uning oilasi va shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga va'da berishi orqali Stalin o'ziga sodiq va yaqin kishilarni tashlab qo'ymagani ko'rinsa, Litvinovdan keyin tashqi ishlar vaziri etib tayinlangan Molotov Vyacheslav Mixaylovich (Skryabin) bilan 1939-yil 21-avgustda Kremlda bo'lib o'tgan suhbatda Stalinning urush boshlashdan xavfsirashi, bunga tayyor emasligini tan olishi fonida uning vaziyatga real baho bera olish va aql bilan ish yuritishga intilishi aks etgan. Umuman, filmda Stalin obrazi, asosan, turli davlat ishlarini boshqarayotgan rahbar sifatida talqin etilib, ko'proq uning siyosatdonligiga urg'u berilgan. Faqat bir o'rinda – "xalq dushmani" oilasi deb nohaq qamalgan Norboyevadan tasodifan kelib tushgan arizani o'qib chiqib, ularning halol inson ekani va masalasini ijobiy ko'rib chiqishga ko'rsatma berishi orqali Stalinning insoniy jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

"Berlin – Oqqo'rg'on" filmda o'zbek xalqining g'alabaga qo'shgan favqulodda hissasi yoki urushdagi jasoratini yoritib berishga alohida e'tibor berilmagan bo'lsa-da, film qahramonlaridan biri – Qo'zivoy Shodiyev (Hasan Shuhratov) ning snayperchi sifatida fashistlarga qarshi beayov kurash olib borgan aks ettirilgan. Biroq ikkinchi toifaga mansub ushbu qahramonning

xarakteridagi ba'zi sifatlar unga nisbatan ikki xil bahsli mulohazani keltirib chiqaradi.

Birinchisi, Qo'zivoyni xatti-harakatlari va gap-so'zlaridagi o'ta soddalik alomatlari juda bo'rttirib tasvirlangani bois, bir qarashda, u dovdirsifat yigit bo'lib ko'rinadi (buni onasi ham ta'kidlaydi). Lekin individual rejissyorlik uslubi va Qo'zivoyni yaqinlariga ham berilgan shunga o'xshash xarakter bo'yoqlari inobatga olinsa, Qo'zivoyni fe'l-atvoridagi dovdirsifat jihatlarni film stilistikasidan kelib chiqib qo'llanilgan tabiiy element deb tushunish mumkin. Masalaning nozik tomoni Qo'zivoyni singari xarakterga ega obrazlarni Ikkinchi jahon urushida kurashgan otobobolarimiz namunasi, o'zbek yigitlari orasida dushmanga qarshi mardonavor jang olib borgan qahramon sifatida talqin etilishi bilan bog'liq. Boshqa jihatdan esa, bugunga qadar milliy kinoda urush mavzusida yaratilgan badiiy filmlarda hali Qo'zivoyni kabi xarakterga ega obrazlar asosiy qahramon sifatida olib chiqilmagan.

Ikkinchisi, fashistlarni zir qaqshatgan o'zbek yigiti sifatida filmga kuchli aql-zakovat va teran mushohadaga ega qahramon emas, balki Qo'zivoyni singari qishloqning eng oddiy va soddagi yigiti tanlanishi orqali o'zbekning hatto Qo'zivoyni dala-g'uli, dovdiri yigiti ham fashistlar yuragiga g'ulg'ula solib, ularning ta'zirini bera olgan degan ma'no anglashiladi.

Filmda yuqoridagi ikkala tasnifga kontrast talqin ham kuzatiladi. Buni voqealar davomida Qo'zivoyni ikki xil sharoitda namoyon bo'lishi izohlaydi. Birinchisi, qahramonning urushdan oldingi davrda, ota-onasi bag'rida yurgan kunlarini tasvirlash bilan bog'liq bo'lib, unda ko'proq Qo'zivoyni xarakterini tomoshabinga tanishtirish, uning sofdil va samimiy yigitligiga urg'u berish yetakchilik qilgan. Bunday uslub, ya'ni qahramonning urushga ketishdan oldingi qiyofasini yoritish unga urush qanday ta'sir ko'rsatgani, urush uni qaysi tomonga o'zgartirganini ochib berish uchun imkon yaratgan. Chunki keyingi ikkinchi sharoitda Qo'zivoyni endi fashistlarni dodini berishga qasdlangan haqiqiy jangchi sifatida tasvirlanadi. Agar filmda qahramonning urushdan oldingi davrdagi qiyofasi ko'rsatilmaganida Qo'zivoyni dushman askarlarini birin-ketin

yo'q qilishi, kezi kelganda quruq qo'l bilan ularni yer tishlatish motivlari o'z ta'sirchanligini yo'qotgan bo'lar edi. Sababi, Qo'zivoyni ayni urushga ketishdan avvalgi samimiyligi, soddaligi, mehribonligi, mehnatkashligi uni urushda dushmanlar jonini olayotgan jangchi Qo'zivoyni bilan bevosita solishtirish va shu orqali urushning qahramon xakteri va hayotiga qanday ta'sir o'tkazgani haqida xulosa chiqarishga undaydi.

Qahramon talqinidagi yana bir muhim jihat uning jang qilish maqsadi bilan bog'liq. Avvaliga Qo'zivoyni dushmanga qarshi qasos olish niyatida kurashayotgani ko'rsatiladi. Chunki u suyuqlik tog'asining fashistlar tomonidan bo'laklarga bo'linib, ayanchli ahvolga solingan jasadini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. O'sha epizodda u shunday qarorga keladi: "Komandir, men fashistni asir olmayman, faqat o'ldiraman". Shundan keyin Qo'zivoyni dushmanlardan tog'asining xunini olishga qasdlanadi. Demak, qahramonni jang qilishga undovchi dastlabki omil qasos olish ekani ko'rinadi. Voqealar so'nggida esa Qo'zivoyni bir lahzaga oilasi ustiga fashistlar bostirib borayotgani va ota-onasiga qo'shib, butun yaqinlarini otib tashlayotganini tasavvur qiladi, xayolidan o'tkazadi. Shundan keyin qahramonning dushmanga qarshi kurashi qasd olish maqsadidan oilasi va yaqinlarini himoya qilish maqsadiga o'zgaradi. "Qahramonning bunday xulosaga kelishi dushmanga qarshi kurash, birinchi navbatda, qasos olish uchun emas, balki ulardan oilani himoya qilish, oila misolida esa vatanni asrab-avaylash ekani ma'lum bo'ladi" [4, 8-b].

Kinorejissyor Zulfiqor Musoqovning "Vatan" hamda "Berlin – Oqqo'rg'on" filmlarida talqin etilgan qahramonlar obrazi orqali tarixiy xotirani tiklash, urush yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni obrazli tahlil qilish hamda bugungi nuqtayi nazardan mustaqillik davri g'oyalarini badiiy shaklda ochib berish asosiy o'rin egallagani ko'rinadi. Shu ma'noda, urush mavzusida yaratilayotgan badiiy film qahramonlarini milliy kolorit orqali umuminsoniy g'oyalar vositasida talqin etish, bunda hayotiylik mezonlariga, qahramon xakterining individual qirralari va mantiqiy yechimlariga e'tibor qaratish dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: Санъат, 2016 г.
2. Мурадов А. Великая Отечественная война на телевизионном экране: художественно-эстетические решения в многосерийных фильмах. Автореф. дис. ... канд. искусствоведения. – Москва, 2018.
3. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston: monografiya / mualliflar jamoasi. – Toshkent: Zamin nashr, 2024.
4. Ergashev Sh., Xodjayev B., Abdullayev J. Jahon tarixi (1918–1991-yillar). – Toshkent: Turon-iqbol, 2017.
5. Matyakubov A. Milliy kinoda vatanparvar obrazlar // Vatanparvar. 2024-yil, 1-mart. – №9 (3071).

AQSH HAMDA YEVIROPA KINEMATOGRAFIYASIDA BOLALAR FILMLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada jahon kinematografiyasi tarixida AQSh hamda Yevropa bolalar kinosining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada yaratilgan bolalar mavzusidagi dastlabki filmlarning qisqacha tahlili keltiriladi.

Kalit so'zlar: bolalar kinosi, oilaviy film, janr, mavzu, adabiy asos, auditoriya, fransuz kinosi, ingliz adabiyoti, kinofranshiza, tadqiqot.

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются этапы формирования и развития американского и европейского детского кино в истории мирового кинематографа, а также их специфические особенности. В ней также представлен краткий анализ первых детских фильмов, созданных во Франции, Германии и Великобритании.

Ключевые слова: детский фильм, семейный фильм, жанр, тема, литературная структура, аудитория, французское кино, английская литература, кинофраншиза, исследование.

Abstract. This research article examines the stages of formation and development of American and European children's cinema in the history of world cinema, as well as their specific characteristics. It also provides a brief analysis of the first children's films produced in France, Germany, and the United Kingdom.

Keywords: children's film, family film, genre, theme, literary framework, audience, French cinema, English literature, film franchise, research.

Dunyo kinematografiyasining rivojlanish bosqichida, xususan, 1930-yillarga kelib AQSh va Yevropada oilaviy tomosha qilishga mo'ljallangan bolalar kinosini yaratish g'oyasi paydo bo'ldi.

Amerika oilaviy filmlarida hikoyani kattalar yoki ota-onalar nuqtayi nazaridan taqdim etish orqali maqsad keng auditoriyani jalb qilish bo'lganligi sabab, bu obrazlar uchun taniqli aktyor va aktrisalar taklif etilgan hamda ushbu yondashuv filmning syujet qurilishi va voqeligiga ta'sir etmay qolmadi.

Yevropa bolalar kinosida esa voqealar ketma-ketligi aynan bolaning nuqtayi nazaridan, uning his-tuyg'ulari shu bilan

birgalikda, tajribalari orqali tasvirlanadi. Ushbu farqlar tufayli, Amerika oilaviy filmlari mahalliy va xalqaro auditoriyaga ko'proq hamda osonroq sotiladi. G'arb mamlakatlari mahsulotlari esa mamlakat ichida yaxshi qabul qilinadi, lekin xalqaro auditoriya uchun cheklangan qiziqish uyg'otadi.

1895-yil 28-dekabr kuni Parijda joylashgan Kapusinok bulvaridagi "Grand kafe" salonida aka-uka Lyumyerlar tomonidan suratga olingan dastlabki syujetlarning ommaviy namoyishi bo'lib o'tgach, fransuz kinosi mamlakat va xorijda keng tarqalib mashhurlikka erishdi. Kuzatuvlarga ko'ra, Amerika va Hindistondan

keyin tomoshabin to'plash bo'yicha Fransiya kinosi dunyoda uchinchi o'rinda turishi ma'lum bo'ldi. Birinchi jahon urushidan avval dunyo kinoindustriyasining taxminan 90% qismini "Pate" va "Gomon" kinokompaniyalarining mahsulotlari egallagan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, nemis istilosining oqibatlarini anglash natijasida fransuz kinosida zamonaviylik paydo bo'ldi. "Urushdan keyingi davrda Marsel Karnening "Jannat bolalari" ("Les Enfants du paradis" – 1945), Jan Koktoning "Sohibjamol va mahluq" ("La Belle et la Bete" – 1946) kabi bolalar filmlari suratga olingan" [3].

Fransuz rejissyrlari Lui Mal va Fransua Tryuffo yaratgan asarlari bilan bolalar kinosi tarixida muhim iz qoldirishgan. Lui Malning "Metrodagi Zazi" (1960), "Yurak shitirlashi" (1971), Fransua Tryuffoning "400 zarba" (1959), "Yovvoyi bola" (1970), "Kichik o'zgarishlar" (1976) kabi filmlari kino san'ati tarixidagi eng yaxshi filmlar sanaladi.

So'nggi yillarda fransuz kino ijodkorlari bolalar filmlaridagi o'ziga xoslikni saqlab qolishga harakat qilishsada, jahon kinoindustriyasida AQShning video mahsulotlari bilan kechayotgan raqobat ularni ham cheklab o'tmadi. Amerika oilaviy filmlari uslubida suratga olingan "Asteriks va Obeliks" kinofranshizasi buning yaqqol misoli bo'la oladi. Filmda tarixiy-fantastik voqealar zamonaviylik bilan uyg'unlashtirilib, fransuz tarixiy va madaniy qadriyatlari satirik va yumor tarzda namoyish etilgan.

Amerikalik kinoshunos Voychik-Endryus Yanning tadqiqotiga ko'ra, kinochilar Amerika oilaviy filmlarini yaratishda uzoq yillar davomida deyarli tugamaydigan ingliz bolalar adabiyotidan foydalangan. Bular qatoriga "Piter Pen" (1924), "Alisa mo'jizalar mamlakatida" (1933), "Oz mamlakati sehgari" (1939), "Sirli bog'" (1949), "Meri Poppins" (1964), "Qora ayg'ir" (1979) kabi bolalar adabiyoti asosida ekranlashtirilgan filmlar kiradi. Shuningdek, "Gulliverning sayohatlari" (1966) va "Alisa mo'jizalar mamlakatida" (1999) kabi klassik filmlar mashhur aktyorlar ishtirokida ikki yoki uch qismli telefilm sifatida yaratilgan. Vaqt o'tishi bilan "...AQShda real voqealarga asoslangan bolalar filmlari suratga olina boshlandi. Jumladan "Emmi va yovvoyi g'ozlar" (1996), "Mening itim Skip" (2000) bu turdagi birinchi filmlar hisoblanadi [4].

30-yillarga kelib Uolt Disney kompaniyasi ishlab chiqargan mahsulotlar Qo'shma



"400 zarba" filmi (Rej. F. Tryuffo)

Shtatlardagi yetakchi bolalar va oilaviy filmlar qatoriga kirdi. Ikkinchi jahon urushidan oldin studiya aka-uka Grimm ertaklari asosida dastlab "Oppog'oy va yetti gnom" (1937) animatsiyasini yaratish orqali kelajakda bolalar filmlari samaradorligiga asos bo'ladigan qadamni tashladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatda "Fleischer Studio"sining "Gulliverning sayohatlari" (1939) va Disneyning "Pinokkio" (1940) kabi mahsulotlari yosh tomoshabinlar uchun ishlab chiqarilgan filmlar adabiy manbalarning ekrandagi erkin adaptatsiyasidir.

Urushdan keyin Disney studiyasi oilaviy filmlar ko'lamini kengaytirdi va 1950–1960-yillarda bolalar adabiyotining sara asarlarini ekranlashtirishni davom ettirdi. Bayron Xaskinning "Xazinalar oroli" (1950), Luidji Komenchinining "Xaydi" (1952), Djord Stivensning "Anna Frank kundaligi" (1959) kabilar ekranizatsiyalar orasida eng muvaffaqiyatlilari bo'ldi.

Amerika kino tarixida kinorejissyor, prodyuser va ssenarist Stiven Spilbergning bolalar va oilaviy filmlar yaratishdagi ijodi alohida o'rin tutadi. U kinolarida muammolarni yengishga majbur bo'lgan bolalarning real hayotini tasvirlaydi. Buni kichik qahramonlar yolg'izlik, shuningdek, otalaridan ayrilish kabi qiyinchiliklarga duch keladigan "O'zga sayyoralik" (1982) filmi misolida ko'rish mumkin. "Quyosh imperiyasi" (1987) filmida esa bosh qahramon bola Jim Grem uzoq yillar davomida ota-onasidan ajralish qayg'usini boshidan kechiradi, u hatto onasining tashqi ko'rinishini ham eslay olmaydi. Asarda qahramonga o'qlar emas, aslida, urushning shafqatsizligi, ota-onasidan ayrilish ma'naviy zarar yetkazganligi mahorat bilan aks ettirilgan.

1970–90-yillarda oilaviy kinoning klassik namunalarini qatoriga kirib ulgurgan, oilaviy hordiq uchun eng yaxshi deya hisoblangan bir nechta filmlar va ularning sikvellari¹, masalan, “Supermen” (1978), “Supermen 2” (1980), “Yulduzlar jangi” (1977) va uning sikvellari, “Kelajakka qaytish” (1985), “Kelajakka qaytish 2” (1989), “Kejakka qaytish 3” (1990), “Uyda yolg‘iz” (1990), “Uyda yolg‘iz 2” (1992), “Kapitan Kryuk” (1991), “Jumanji” (1995), “101 dalmatin” (1996) suratga olindi.

Germaniya kinematografiya tarixidan ma’lumki, 1897-yil xalq ertaklaridan foydalangan holda “Gansel va Gretel” filmi yaratilganligiga qaramasdan, o’sha davrda bunday asarlar umumiy madaniy qadriyatlar sifatida ko’rilgan. Bu tendensiya birinchi jahon urishi davrida ham davom etdi.

Keyinchalik Paul Vegenerning “Rubezalning to’yi” (1916), “Sichqon ovchisi” (1918), Paul Lenining “Uyqudagi go’zal” (1917), Lotta Raynigerning “Shahzoda Ahmedning sarguzashtlari” (1926), “Doktor Dulittle va uning maxluqlari” (1928) kabi bolalar uchun mo’ljallangan siluetli filmlar yaratila boshlandi. “Yozuvchi Erix Kestnerning romani asosida rejissyor Gerxard Lamprext tomonidan 1931-yilda yaratilgan “Emil va detektivlar” ekranizatsiyasi Germaniya tarixidagi birinchi to’liq metrajli ovoqli bolalar kinosi hisoblanadi” [5].

1930–1940-yillarning birinchi yarmida Germaniyada milliy sotsializm mafkurasini yuksaltirish hamda kommunizmga qarshi mafkuraviy urush ochish g’oyasini yoyishda bolalar filmlaridan foydalanildi. “1933-yilda suratga olingan “Yosh gitlerchi Kveks” kommunist ota va natsistlar bilan hamfikir bo’lgan o’g’il o’rtasidagi o’zaro qarama-qarshilik haqida hikoya qiluvchi birinchi propoganda filmdir” [6].

Ikkinchi jahon urushi tugab, Gitler rejimi qulaganidan so’ng ikkita Germaniya – G’arbiy (kapitalistik) va Sharqiy (sotsialistik) hamda shunga mos ravishda ikkita kinematograf vujudga keldi. “...ushbu tizimlar o’rtasidagi ma’lum qarama-qarshilikka qaramay, G’arbiy Germaniya va Sharqiy Germaniya kinosining

¹ Sikvel – ang. Sequel. adabiyot, kino, musiqa, video o’yin kabi ijodiy asar bo’lib, u o’zidan avvalgi asarning hikoyasini davom ettiradi yoki to’ldiradi.

² Denatsifikatsiya – urushdan keyingi Germaniya va Avstriya jamiyati, madaniyati, matbuoti iqtisodiyoti, ta’limi, huquqshunosligi va siyosatini natsistlar mafkurasiga ta’siridan tozlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.



“O’zga sayyoralik” filmi (Rej. S. Spielberg)

vazifasi denatsifikatsiya² edi” [6].

Urushdan keyingi yillarda nemis xalqini, ayniqsa, yosh avlodni gumanistik, fashizmga qarshi va demokratik ruhda tarbiyalash maqsadida, 1946-yil Deutsche Film Aktiengesellschaft 12 (DEFA Germaniya kino aksionerlik kompaniyasi) tashkil etilgan. Bu davr nemis bolalari uchun alohida davr hisoblanadi. Ikki isyonchi bolani pioner sifatida tarbiyalash g’oyalari singdirilgan “Die Stoenfriede” (1953) filmi yuqoridagi fikrga misol bo’ladi.

1960–1990-yillarga kelib mamlakatda asosan ertak filmlar yaratildi. Ushbu filmlar dramaturgiyasidan ko’zlangan asosiy maqsad bolalarni real hayotdagi muammolardan uzoqlashtirib, ular uchun hech qanday zo’ravonliklar bo’lmagan ideal dunyoni ko’rsatish edi.

Buyuk Britaniya kinosi hamisha Yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan farqli ravishda rivojlangan. Bunga sabab, mamlakatda san’atning ushbu turi endigina tarqala boshlagan bir davrda dunyoga mashhur bo’lgan ingliz teatr maktabining muhim madaniy an’analarning mavjudligi ta’siri edi. Prodyuser Uilyam Pol tomonidan 1895–1896-yillarda yaratilgan tabiat manzaralari hamda xronikal kadrlar dastlabki ekran mahsulotlaridan hisoblanadi. Kichik tomoshabinlar uchun mo’ljallangan filmlarni ishlab chiqarish esa XX asr boshlariga, keng ma’noda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarga to’g’ri keldi.

1960-yillarga kelib, Buyuk Britaniyada

bolalar badiiy filmlarini ishlab chiqarish salmog'i ortdi. Bu yillarda Agata Kristining "Puaro va miss Marpl", shuningdek, mashhur "Jeyms Bond" asarlari asosida ekranlashtirilgan detektiv janrdagi tijorat mahsulotlari yaratildi. Ushbu filmlar garchi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lmasada, lekin kichik tomoshabinlarning e'tiboridan chetda qolmadi. Ular uchun maxsus ishlangan kinolar sirasiga "Uzoq masofaga yuguruvchining yolg'izligi" (1962), "Pashshalar hukmdori" (1963), "Ozod tug'ilgan" (1966), "Aziz ustoz" (1967), "Agar" (1968), "Kes" (1969) kabi klassik asarlarni kiritish mumkin. Ba'zi bolalar filmlarida noan'anaviy va ko'pincha bahsli munosabatdagi mavzular ko'tarilganligi sababli, ular avangard filmlar qatoriga kiradi. Kinoshunoslarning fikricha, avangard uslubidagi bolalar filmining eng muhim namu-

nasi "Pink Floyd: devor" (1982) hisoblanadi. "Pink Floyd: devor" noan'anaviy va munozarali film bo'lib, unda bolaga va uning kattalar bilan o'zaro munosabatiga ta'sir qiluvchi holatlar, begonalashtirilgan bolalik, maktab-interнатdan ajralish, onalikdan mahrum bo'lish, ayriqlik kabi hissiyotlarni kuchli tasvirlash orqali noan'anaviy obrazga ega bo'lgan bola hamda oilada sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar aks ettirilgan.

Yuqorida o'rganilgan AQSH va Yevropa davlatlari kinematografiyasining tarixidan kelib chiqib, har bir mintaqada bolalar kinosining vujudga kelishi hamda shakllanishi o'ziga xos jihatlarga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bunda mamlakatning ijtimoiy-madaniy holati, ma'naviy qadriyati va adabiyoti muhim omil sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комаров С. В. История зарубежного кино. – Москва: Искусство, 1965. – 415 с.
2. Wojcik-Andrews Y. Children's Films: history, ideology, pedagogy, theory. – New York: Garland Publishing, 2000. – 257 p.
3. Weildermann V. Eine Nahaufnahme. – Hamburg: Hoffmann und Campe, 2006. – 541 p.
4. Кракауэр З. От Калигари до Гитлера: Психологическая история немецкого кино. – Москва: Искусство, 1977. – 361 с.
5. Watson W. S. Understanding Rainer Werner Fassbinder: Film as Private and Public Art. – Columbia, SC: University of South Carolina Press, 1996. – 341 p.
6. Bazalgette C. Children and Television: Screen Entertainment and Young Audiences. – London: British Film Institute, 1995. – 220 p.

MULTIPLIKATSIYADA NUTQ ORQALI OBRAZ YARATISHNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada multiplikatsion filmlarda nutqiy xarakter yaratish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Dublyaj san'ati, sahna nutqi texnikasi, tembr mosligi, tilning badiiy-estetik imkoniyatlari hamda texnologik omillar birgalikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, obraz va ovoz uyg'unligi, nutqning individualizatsiyasi hamda milliy va global animatsiya maktablari tajribasi ilmiy asosda yoritiladi.


Kalit so'zlar: multiplikatsiya, sahna nutqi, nutqiy xarakter, dublyaj san'ati, tembral mosligi, obraz.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты создания речевого характера в анимационных фильмах. Анализируются техника сценической речи, особенности актёрского озвучивания, тембровое соответствие, художественно-эстетические возможности языка, а также технологические факторы. Особое внимание уделено взаимосвязи образа и голоса, индивидуализации речи и опыту национальных и мировых анимационных школ.

Ключевые слова: анимация, сценическая речь, речевой характер, актёр озвучивания, тембр, образ.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of creating speech characters in animated films. It analyzes stage speech techniques, the specifics of voice acting, timbre matching, the artistic and aesthetic potential of language, and technological factors. Particular attention is paid to the relationship between image and voice, the individualization of speech, and the experience of national and international animation schools.

Keywords: animation, stage speech, speech character, voice actor, timbre, image.



Multiplikatsion filmlar hozirgi kunda global kinoindustriyaning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Ularga avval faqatgina bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan san'at mahsuli sifatida qaralgan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kattalar uchun ham estetik, falsafiy va ijtimoiy mazmunli asarlar yaratila boshlandi. Masalan, "Amerikalik rejissyor, rassom, multiplikator Uolt Disney tomonidan suratga olingan "Oppog'oy va yetti gnom" (1937), "Pinokkio" (1940), "Dambo" (1941), "Bembi" (1942), "Zolushka" (1950), "Alisa mo'jizalar mamlakatida" (1951), "Xonim va daydi kuchuk" (1955), "Piter Pen" (1953), "101 dolmatin kuchuklari" (1961), "Changalzor kitobi" (1967) multfilmlari tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi" [1].

Multiplikatsiyadagi asosiy ifodaviy vositalardan biri – bu ovozdur. Chunki, animatsion obrazlar dramatik teatr qahramonlari kabi jonli aktyor mimikasi yoki tabiiy harakati bilan emas, balki vizual plastika va ovoz orqali jonlantiriladi. Shu sababli, dublyaj san'ati animatsion filmlarda obraz yaratuvchi bosh mezonlardan biri sifatida shakllangan.

Nutq va ovoz multiplikatsion filmda uch asosiy vazifani bajaradi:

✓ **Estetik** – obrazning ovoz orqali individualligini va stilizatsiyasini belgilash;

✓ **Fonetik** – ovozning temбри, intonatsiyasi, ritmi va diktsiyasi orqali qahramon xarakterini ifodalash;

✓ **Dramaturgik** – voqeani rivojlantirish, personajlararo munosabatlarni ochib berish va tomoshabin bilan hissiy aloqa o'rnatish.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar dublyaj san'atini mustaqil san'at turi sifatida o'rganishni boshladilar. Jumladan F.X. Fayziyeva "Dublyaj san'ati asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida shunday yozadi: "Dublyaj – fransuzcha (doublage) so'zidan olingan bo'lib, kinoasarni bir tildan ikkinchi kerakli tilga tarjima qilib, audio fonogramma tayyorlash demakdir" [2]. Shu nuqtayi nazardan, multiplikatsion filmlarda nutqiy xarakter yaratishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish kinoshunoslik, san'atshunoslik, teatrshunoslik va lingvopoetika uchun dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada ovoz va nutqning estetik, fonetik hamda dramaturgik imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi, shuningdek, multiplikatsiya san'atida dublyaj san'atining o'rnini va xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Multiplikatsion filmlarda xarakter yaratish jarayoni ko'p bosqichli va murakkab tizim bo'lib, unda nutq markaziy ahamiyat kasb etadi. Chunki ovoz personajning tashqi ko'rinishi va vizual plastikasini to'ldiribgina qolmay, balki uning psixologik individualligini, ijtimoiy-madaniy mansubligini, milliy identitetini (inglizcha – "identity"

o'ziga xoslik) ham belgilaydi. Qahramonning ovozi uning ichki dunyosi va tashqi harakati o'rtasidagi ko'pri bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, multiplikatsiya san'atida ovozga nafaqat texnik jarayon, balki badiiy va dramaturgik vosita sifatida ham qaraladi.

Ovoz orqali personajning hissiy kechinmalari, temperamentiga xos belgilari, nutq sur'ati, intonatsiya ohanglari va leksik qatlamlari ochib beriladi. Masalan, qahramonning kulgili yoki salbiy xarakterini faqatgina vizual shakl orqali emas, balki nutqiy ohang va intonatsiya vositasida ham kuchaytirish mumkin. Bu jarayon tomoshabinda ishonchlilik, jonlilik va hissiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Diksiya, artikulyatsiya, nafas va ovoz ustida ishlash aktyor nutqiy mahoratining poydevorini tashkil etadi. Multiplikatsiya aktyori sahnadagi aktyor kabi jonli tana harakatidan, mimikadan va jismoniy plastikalardan to'liq foydalana olmaydi. Shu bois, uning asosiy vositasi – ovoz bo'lib, u obrazning nafaqat mazmunini, balki emotsional qatlamlarini ham ochib berishi lozim.

Toza diksiya va ravon artikulyatsiya qahramon nutqining eshitishtirish samaradorligini oshirib, tomoshabinda obrazning aniq va ishonarli qabul qilinishini ta'minlaydi. Chunki ovoz yozuvida eng kichik talaffuz xatosi ham personajning tabiiyligini buzishi mumkin. To'g'ri nafas va ovoz nazorati esa personaj nutqining davomiyligi va ifodaliligini oshirib, uning temperamentini, dramatik vazifasini va ichki dinamikasini yoritishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda sahna nutqi maktabining tajribalari metodologik asos sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, K.Stanislavskiy va V.Meyerxoldning aktyorlik tizimlari, shuningdek, o'zbek sahna nutqi maktabining asoschilari professorlar – N.Aliyeva va L.Xo'jayeva tajribalari ovoz texnikasi, nutqning ifodaliligi hamda dramatik vazifaga mos ovoz tanlashda mustahkam metodologik poydevor yaratadi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, aktyorning ovoz ustida ishlashi nafaqat fonetik aniqlikni, balki psixologik ta'sirchanlikni ham ta'minlaydi. Ovozning kuchi, balandligi, tembr o'zgarishlari qahramonning xarakterini ifodalashda jismoniy plastikaning o'rnini bosa oladi. Shunday qilib, sahna nutqi nazariyasining asosiy elementlari – diksiya, artikulyatsiya, nafas va ovoz nazorati multiplikatsiya aktyorligi uchun zaruriy shart bo'lib, u personaj obrazining jonliliigi va badiiy ishonarliligini ta'minlaydi.

Dublyaj jarayonida tanlangan tembr, ohang va ritmik struktura qahramonning vizual obraziga uyg'unlashib, uni tomoshabin ongida yaxlit va tabiiy qabul qilinishiga yordam beradi. Masalan, multfilmda jasur, lekin hazilkash qahramonga yorqin, jarangdor va o'ynoqi tembr mos tushsa,

salbiy obraz uchun past, qo'pol, g'ayrioddiy intonatsiyali ovoz qo'llanadi. Shunday qilib, ovoz tembri xarakterga psixologik urg'u beradi va uning dramaturgik vazifasini kuchaytiradi.

Bunday ovoz va tashqi qiyofa uyg'unligi animatsion estetikada antropomorfizatsiya (yunoncha anthropos – "inson", morphe – "shakl, qiyofa") mexanizmining asosiy unsurlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki hayvon, buyum yoki fantastik mavjudot obrazlari ovoz orqali insoniy his-tuyg'ular bilan boyitilib, tomoshabin bilan emotsional aloqa o'rnatadi. Bu jarayon tilshunoslikda "tovush obrazining semiotik vazifasi" sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, ovoz tanlashda nafaqat akustik xususiyatlar, balki milliy, ijtimoiy va psixologik stereotiplar ham hisobga olinadi. Masalan, Gollivud animatsiyasida kuchli qahramonlar ko'pincha qat'iy, ishonchli, baland ovoz bilan ifodalansa, yapon anime maktabida nozik tembr va melodik intonatsiyalar ichki dramaturgiyani kuchaytirish uchun keng qo'llaniladi. O'zbek animatsiyasida esa xalqona ohang, sheva unsurlari yoki maqollardan foydalanish qahramonga milliy kolorit beradi va tomoshabinga yanada yaqinlashtiradi.

Asar matnining mazmuni va til vositalarining obrazli qo'llanilishi xarakter psixologiyasini ochishda alohida ahamiyat kasb etadi. Multiplikatsion filmlarda har bir so'z, intonatsiya va pauza personajning ichki dunyosi va hissiy holatini aks ettiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, asar matni semantik jihatdan mazmunan boy, stilistik jihatdan esa estetik aniqlashtirilgan bo'lishi zarur.

Intonatsion urg'ular obrazning hissiy ranglarini belgilaydi. Metaforik ifodalar qahramonning dunyoqarashi va tafakkurini ochib beradi, uning madaniy yoki ijtimoiy kontekstini ta'kidlaydi. So'z o'yinlari esa yumoristik va satirik obrazlar yaratishda samarali vosita bo'lib, tomoshabin bilan bevosita emotsional aloqani mustahkamlaydi.

Shu tariqa semantik qatlam obraz ruhiyatini chuqurlashtiradi, uning ichki motivatsiyasini anglash imkonini beradi. Stilistik qatlam esa qahramonning janrga mansubligini va estetik yo'nalishini belgilaydi: masalan, epik asarlarda balandparvoz nutq, komediyalarda esa xalqona va sodda ifoda ustuvor bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, til vositalarining semantik va stilistik imkoniyatlarini puxta qo'llash animatsiyada "jonli nutq illuziyasi"ni yaratadi. Bu esa, obrazni faqat vizual emas, balki nutqiy-estetik hodisa sifatida ham tomoshabin ongida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dublyaj san'ati – multiplikatsiyaning alohida va murakkab yo'nalishi sifatida nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy mahoratni ham talab

qiladi. Bu jarayonda aktyor sahna yoki kino san'atidagi kabi jismoniy plastika va mimikadan foydalana olmaydi, uning yagona vositasi – ovozdir. Shunday ekan, aktyor ovoznining tembr, intonatsiya, ritm va sur'at imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishi zarur.

Aktyor birgina ovoz yordamida turli yosh, jins, temperament va milliylikka xos nutqiy belgilarni yaratishi mumkin. Masalan, yosh bola xarakteri uchun baland, tez va beg'uborlik intonatsiyasi tabiiy bo'lsa, keksalik obrazida pastroq, sekinroq va vazmin ovoz qo'llanadi. Qahramonning shaxsiyati va ruhiy holati intonatsion diapazon orqali ochiladi: qo'rqqoq personaj titroq ohangda, jasur qahramon esa qat'iy va barqaror tovushda gavdalanadi.

Bunda aktyorning psixologik empatiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u personaj ruhiyatiga kirib borishi va o'z ovozida uni qayta ifodalay olishi kerak. Shu jihatdan, dublyaj san'ati ko'plab olimlar va amaliyotchilar tomonidan "ko'rinmas aktyorlik san'ati" sifatida talqin qilinadi. Bu ta'rif aktyorning ovoz orqali obrazni tomoshabinga yetkazishdagi ijodiy mas'uliyatini ifodalaydi.

Ovoz yozib olish jarayonida fon shovqinlari, akustik rezonanslar va ovoznining uchuvchanlik xususiyatlari hisobga olinadi. Zamonaviy studiyalarda turli xil mikrofonlar personajning xarakteriga mos ovoz tembrini olish uchun maxsus qo'llanadi.

Qayta ishlash (montaj, filtrlash, reverberatsiya, effektlar qo'shish) orqali ovoznining tembri va dinamika diapazoni boyitilib, personajning dramatik vazifasiga moslashtiriladi. Masalan, robot yoki fantastik mavjudot obrazi uchun ovozga metallik effekt berilsa, yumoristik obrazlarda esa baland ohangli, tezkor ritmik montajdan foydalaniladi.

Sinxronlashtirish multiplikatsiyada eng nozik jarayonlardan biridir. Personaj lab harakatlari va nutq ritmining uyg'unligi tomoshabinning obrazni tabiiy qabul qilishi uchun zarur. Sinxronlikdagi eng kichik tafavut ham obrazning ishonchligini pasaytiradi.

Bitta aktyorning turli xil janrdagi multfilm qahramonlariga ovoz berishida turli intonatsion va leksik variantlardan foydalanishi uning ijodiy diapazonini kengaytiradi va dublyaj san'atining murakkab san'at turi ekanini namoyon etadi. Bunday usul aktyordan nafaqat texnik ko'nikma, balki ijodiy tasavvur va psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi. Chunki har bir personaj ovoz orqali o'ziga xos ruhiy tuzilma, milliy kolorit va dramaturgik vazifaga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, individualizatsiya jarayoni "nutqiy xarakter yaratish" deb ataladi. Bu usul personajlarni ovoz orqali differensiallashtirishning lingvistik, fonetik va semantik asoslarini belgilab beradi. Ayniqsa, ko'p

personajli multfilmlarda individualizatsiya tamoyili tomoshabin ongida chalkashliklarning oldini olib, har bir qahramonning o'ziga xosligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Gollivud va Yaponiya animatsiya maktablarida dublyaj san'ati professional sanoat darajasida shakllangan bo'lib, ular jahon animatsiyasi rivojida turlicha estetik va metodologik yondashuvlarni ifodalaydi. Gollivud animatsiyasida, xususan, "Shrek", "Don Kixot", "Qirol sher" kabi mashhur filmlarda ovoz aktyorlarini tanlash jarayonida faqat fonetik imkoniyatlarga emas, balki aktyorning psixologik talqini, dramatik imkoniyatlari va improvizatsiya qobiliyati ham inobatga olinadi. Natijada, personajning ovozi aktyorning shaxsiy xarizmasi va ijro uslubi bilan uyg'unlashib, ko'pincha uning individual ovoz tembriga asoslangan holda global darajada taniladigan obrazlar yaratiladi.

Yaponiya animatsiyasida esa seyu (voice actors) san'ati mustaqil ijodiy sohaga aylangan bo'lib, dublyaj aktyorlari nafaqat film yoki serial muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faktor, balki mashhurligi, ovoz diapazoni va ijro uslubi bilan ham muhim ijtimoiy-madaniy fenomen hisoblanadi. Anime sanoatida dublyaj aktyorlarning ovoz talqini obrazning psixologik qatlamini shakllantirishda birlamchi vosita sifatida qaraladi. Ularning ovozi ko'pincha personajning vizual dizayni va dramatik vazifasi bilan uyg'unlikda yaratiladi, shu bois, Yaponiya animatsiyasida ovoz ijrosi mustaqil estetik maktab darajasida shakllangan.

O'zbek animatsiyasi "qo'g'irchoq filmlar ko'rili-shidan boshlanishi, o'zbek xalqining milliy xususiyati, yuqorida qayd etib o'tilgan, qadimiy xalq san'ati bo'lmish qo'g'irchoqbozlik tarixiy an'alariga egaligi bilan bog'liqdir" [3]. Personaj nutqining shakllanishi xalqona ohang, folklor elementlari va milliy nutqiy uslub asosida amalga oshiriladi. "Shaharlik qurbaqalar" (rej. A.Akbarxo'jayev), "Yoqimli yomg'ir yog'adi" (rej. N.To'laxo'jayev), "Zumrad va Qimmat" (rej. D.Salimov) kabi multfilmlarda qahramonlar ovozida o'zbek tiliga xos ritmik urg'ular, qo'shiq va ertak ohanglari, xalq maqollari va latifa elementlari keng qo'llaniladi. Natijada, personaj nutqi tomoshabin ongida milliy mentalitet va xalqona estetikani aks ettiruvchi o'ziga xos ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, xususan, ovoz yozib olish, qayta ishlash va sinxron-

lashtirish jarayonlarining takomillashuvi esa o'zbek animatsiyasida dublyaj san'ati sifatining oshirishiga xizmat qilmoqda. Bu esa, nafaqat milliy obrazlarning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o'zbek animatsiyasining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun ham zamin yaratadi. Shu tariqa, milliy nutqiy uslub va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi o'zbek animatsiyasining o'ziga xosligini saqlagan holda global animatsiya sanoatida munosib o'rin egallashiga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Multiplikatsion filmlarda nutqiy xarakter yaratish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiradi. Dublyaj san'ati, sahna nutqi texnikasi va madaniy kontekst uyg'unlashganda animatsion obrazning jonliligi va ishonarliligi oshadi. Nutq obrazning psixologik individualligini belgilash bilan birga, uning dramaturgik funksiyasini ham mustahkamlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, multiplikatsion filmlarda nutq quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ **estetik** – ovoz orqali personajning badiiy uslubini belgilash;
- ✓ **fonetik** – tembr, diksiya va intonatsiya orqali qahramonning ruhiy holatini ifodalash;
- ✓ **dramaturgik** – syujetni rivojlantirish va tomoshabin bilan hissiy aloqa o'rnatish;
- ✓ **madaniy** – milliy til, folklor elementlari va xalqona ohanglar orqali obrazning mahalliy koloritini kuchaytirish.

Xalqaro tajriba (Gollivud va Yaponiya animatsiyasi) shuni ko'rsatadiki, dublyajni professional sanoat darajasida rivojlantirish filmning muvaffaqiyati va tomoshabin ongida qahramonlarning unutilmas bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'zbek animatsiyasida milliy nutqiy uslub, maqol va iboralar, folklor ohanglari obrazlarni milliy koloritda jonlantirishda alohida o'rin tutadi.

Takliflar:

1. Milliy multfilmlarda qahramonlar nutqida shevalar, maqollar va xalqona ifodalardan samarali foydalanish orqali obrazlarni yanada milliyalashtirish.

2. Ovoz yozish va qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish, shuningdek, xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish.

3. Dublyaj san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va qo'llanmalarni ko'paytirish, ularni teatrshunoslik va kino san'ati dasturlariga integratsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxalilov A. Multiplikatsiya asoslari. – Toshkent: Innovatsion ziyo, 2020. – 140 b.
2. Fayziyeva F. Dublyaj san'ati asoslari. – Toshkent: Turon-iqbol, 2018. – 105 b.
3. Melqo'ziyev I., Xidirova K. Multimediya loyihalalash. – Toshkent: 2017. – 210 b.
4. Akbarov H. Kino san'ati tarixi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2005. – 300 b.
5. Rasulov A. Sahna nutqi. – Toshkent: Musiqa, 2009. – 150 b.

Umida KURBANOVA,
O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrası dotsenti

XALFACHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm xalfachilik an'analari hamda ularning ijro uslublariga xos jihatlar ilmiy asosda tahlil etilgan. Xalfachilik ijro maktabining shakllanishi, uning an'anaviy musiqiy merosni asrash va rivojlantirishdagi o'rni, shuningdek, xalfalar ijodida tutgan ahamiyati atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, Xorazm xalfachilik maktabida dostonchilik an'alarining mujassamligi va ularning ijro jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada ijro repertuarlarining rang-barangligi, ularning janr va uslub jihatlari hamda badiiy-estetik xususiyatlari yuzasidan mufassal fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xalfa, dostonchilik maktabi, ijod, ijrochilik, cholg'u, qo'shiq, an'ana, xalq ijodiyoti, uslub.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются традиции хорезмских хальфа и характерные особенности их исполнительских стилей. Рассматриваются процессы формирования исполнительской школы хальфа, их роль в сохранении и развитии традиционного музыкального наследия, а также значение традиции хальфа в народном художественном творчестве. Наряду с этим раскрывается воплощение дастанных традиций в хорезмской школе хальфа и их своеобразие в исполнительской практике. В статье подробно освещается жанрово-стилевое многообразие исполнительского репертуара и его художественно-эстетические особенности.

Ключевые слова: хальфа, дастанная школа, традиция хальфа, творчество, исполнительство, музыкальные инструменты, песня, народное творчество, стиль.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the traditions of Khorezm khalfa and the distinctive features of their performance styles. It examines the formation of the khalfa performance school, its role in preserving and developing traditional musical heritage, as well as the significance of the khalfa tradition in folk artistic creativity. In addition, the article explores the embodiment of epic (dastan) traditions within the Khorezm khalfa school and their specific characteristics in performance practice. Particular attention is paid to the diversity of the performance repertoire, its genre and stylistic features, and its artistic and aesthetic qualities.

Keywords: khalfa, epic performance school, khalfa tradition, creativity, performance, musical instruments, song, folk art, style.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi nihoyatda boy bo'lib, janriy tarkibi jihatidan rang-barangdir. Shu sababli, uning ijodkorlari va ijrochilari ham quyidagicha turli nomlar bilan ataladilar: baxshi, shoir, jirov, oqin, soqi, sozanda, sozchi, xalfa va boshqalar. Bunday nomlash turli hududlardagi tarixiy-badiiy an'analar, xalq ijodkorligining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa mahalliy ma'naviy-estetik omillar bilan izohlanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning san'at ahliga bo'lgan katta e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli, o'lkamizda o'tkazilayotgan san'at sohasidagi tanlov va festivallar, iste'dodli, zahmatkash xalqimizning ko'p qirrali an'anaviy milliy san'atini qayta tiklab, yuksak cho'qqilarga ko'tarishga shart-sharoitlar yaratdi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bu siyosat izchil amalga oshirilib, ma'naviy tiklanish masalalariga jiddiy ahamiyat berildi. Yaqin vaqtlargacha, turli sabablarga ko'ra unutilgan yohud kamsitilgan milliy an'ana va qadriyatlarimiz, jumladan, madaniy-adabiy merosimiz o'zimizga qaytdi, uni milliy istiqloq mafkurasi asosida xolis va haqqoniy o'rganish boshlandi.

Har bir hududning folklor qo'shiqlari, urf-odatlar, milliy kiyimlari, milliy raqslari va hunarmandchiligi, tarixi, yashash tarzi mavjuddir. Folklor ijrochiligi xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, an'analari, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatini, ahdga vafo, erk, ozodlik uchun kurashdagi mardonavorlikni tarannum etadi.

Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq ijodiyoti, folklor qo'shiq ijrochiligi O'zbekistonning har bir hududida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xalqimizning nomoddiy madaniy merosining bir qismi bo'lgan xalfachilik san'ati o'ziga xos xususiyatlari va rang-barangligi bilan o'ziga xos tarzda ajralib turadi.

Xorazm vohasi azaldan o'zining kuy-qo'shiqlari bilan mashhurdir. Xorazm qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, shunday janrlardan biri "xalfachilik" san'atidir. Xalfalarning serjilo kuy va qo'shiqlari qadimiy musiqa madaniyatimizning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni "xalfa" deb yuritishadi. Ushbu atama arabcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida "boshqaruvchi", "ustoz", "biluvchi, o'qimishli kishi" tarzida sharhlangan.

Darhaqiqat, lug'atdagi sharh bilan biz tilga olayotgan xalfalar faoliyati ma'lum darajada aloqaga egadir. Chunki bir vaqtlar zardushtiylikning kitobi "Avesto" ni o'qib, xotin-qizlar davrasida targ'ib qilgan ayollarni ham "qalpa" ya'ni "xalfa" deb yuritishgan [8, 286-b].

Xalfa qo'shiqlari – xalq ruhini, xalq orzu-armonlarini yorqin aks ettirib, odamlar yuragiga ta'sir etib, xususan, ayollar tomonidan ijro etiladigan san'at turi. Aynan xalfa qo'shiqlari mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun kurashida madadkor bo'lib, xalqning dardi, ayniqsa, ayollarning hayoti, manfaati kuylangan g'oyalarni jonli gavdalantirib, sodda, ravshan til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilgan janrdir.

Har bir mahalliy uslub o'z xususiyatlari va an'analari ega. Faqat Xorazm mahalliy uslubiga xos bo'lgan xalfachilik san'at turi an'analari esa uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharoitlardagi turmushi, mehnat mashg'ulotlari, marosim va urf-odatlar jarayoni bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelgan.

Keksalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, qadimiy davrlardan Xorazmda "Qizil gul" bayrami o'tkazilgan. Bu bayramda qo'buz chala olmaydigan, qo'shiq ayta olmaydigan, o'yinga tushmagan qiz bo'lmas ekan. "Qizil gul" bayrami XX asrning 20-yillarigacha bahor bayrami sifatida nishonlangan [8, 286-b].

Uzoq davrlardan buyon Xorazmdagi to'y, sayl, aza marosimlarida xotin-qizlar davrasida "xalfa"lar san'ati ijodi ma'lum bo'lib, ular faqat ashula aytish bilan cheklanmaganlar, ular san'atning ko'p turlaridan xabardor bo'lganlar va xotin-qizlar o'rtasida rang-barang xalq qo'shiqlari, mumtoz ashulalari, shoirlarning g'azallarini va oshiqlik dostonlaridan parchalar kuylashgan, diniy mavzuda suhbatlar qilishgan. Xalfalar bu davrada, asosan, xalq dostonlarini o'qish bilan birga ularni musiqa jo'rligida maromiga yetkazib kuylab ham berganlar. Xalfalarning bir turi piyola va likobchalarni bir-biriga urib, undan chiqqan ovozga jo'r bo'lib kuylaganlar, shu bilan birgalikda, xonanda va sozandalardan iborat xalfalar garmon va doira jo'rligida ham xalq qo'shiqlari, laparlar, yor-yorlar, allalar, dostonlardan parchalar ijro qilganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida, xususan, 1895-yildan boshlab, garmon cholg'usini xalfalar san'atiga qo'shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog'anaga ko'tarildi.

Xalfa san'atining o'ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida ilgaridan beri davom etib kelayotgan an'anaga muvofiq xalfalar ijod qilganlar. Ular ustoz shogird uslubida o'z ijodlarini biladigan qo'shiq va dostonlarni shogirdlariga o'rgatganlar.

Islom dinigacha bo'lgan davrdagi xalfalar asosan diniy kitoblarni mutolaa qiluvchilar bo'lib, ular turli zikr hamda oilaviy-maishiy marosimlarning faol ijrochisi, ya'ni "Bibi xalfa" bo'lishgan.

Xalfalar ijodini uch guruhga bo'lish mumkin. "Ijodkor, shoir xalfalar", "kitobiy, yakka xalfalar", "Ijrochi-sozi xalfalar" [2, 3-b].

"Ijodkor, shoir xalfalar" guruhiga Xonim suvchi Said Ahmad qizi, Bibijon Qosim qizi, Onabibi xalfa Sobirova, Onabibi xalfa Otajonova (Ojiza), Nazira xalfa Sobirova, Roziya xalfa Olloyorova, So'na Eshmatova, Roziya xalfa Qozoqova, Rohatoy xalfa Xo'janiyozova kabi xalfalar xalq dostonlarini yoddan bilganlar va badiiy ijod bilan shug'ullanib, ajoyib she'rlar bitganlar, she'rlarga musiqa bastalab o'zlari soz chalib kuylashgan.

"Kitobiy, yakka xalfalar"ga – kitoblarni yoddan yoki kitobga qarab, qo'shiq va termalarni sozsiz ijro etadigan xalfalar kiradi. Ular asarlarni yodaki yoki qo'lyozma va kitobdan qiroat bilan badiiy (yoqimli ovozda) o'qiydilar. Shuningdek, "Yor-yor"lar, "Kelin salom"lar kabi to'y qo'shiqlarini chiroyli ohangda aytadilar. Ana shu jihatlari bilan o'tmishda xotin-qizlar orasida kitobxonlik (qissaxonlik) qilgan otin oyilarga o'xshaydilar. Roziya Matniyoz qizi, Poshsha Saidmamat qizi, Parda xalfa, Oysha xalfa, Niyozjon Musayeva, Guljonposhsha Yusupova, Anorjon Razzoqova, Salima xalfa kabi xalfalar xalq orasida hurmat, e'tiborga muyassar bo'lganlar. Ular to'y-marosimlardan tashqari motam marosimlarida ham ishtirok etganlar. Ana shunday marosimlarda "Ibrohim Adham", "Bobo Ravshan" kabi dostonlardan parchalarni qiroat bilan o'qiganlar [4, 12-b].

Sozi xalfalar boshqa mualliflar asarlarini ijro etishadi. Bu turdagi xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni kuylashadi. Ansambl uch kishidan iborat bo'ladi, xalfa garmon chaladi va ashula aytadi, doirachi jo'r bo'ladi, raqqosa raqsga tushadi, raqs tushish barobarida lapar, yallalarni ijro etib raqsga tushadi. Tarixdan bizga ayonki, xalfalar o'z ijrolarini, qalb

tuyg'ulari, orzu-umidlarini, mehr-muhabbatini cholg'u jo'rligisiz, faqat doira chalib, barmoqlarini "shiqillatib" yoki ikkita bo'sh piyolani bir-biriga urib, ulardan chiqqan ovozga jo'r bo'lib kuylaganlar.

Xalfalar o'zlari ijod etgan kuy va qo'shiqlar bilan cheklanib qolmasdan, repertuaridan "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Oshiq Albani", "Aslxon", "Hurliqo va Hamro", "Tohir va Zuhra", "Go'ro'g'li", "Gulqand", "Sayod va Hamro", "Xirmon dali", "Gulruh pari", "Bozirgon" kabi dostonlar bilan bir qatorda Maxtumquli, Ogahiy, Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlar she'rlari va boshqa mualliflarning turli marosimlarga mo'ljallangan asarlari ham o'rin olgan. Shuni ham aytish zarurki, xalfalar mazkur mazmundagi asarlar bilan cheklanib qolmay, boshqa muhim mavzularda ham o'tkir tanqidiy she'riy lavhalarni va termalarni aytib kuylaganlar [3, 311–313-bb.].

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Xorazm hududiga "garmon" cholg'usini kirib kelishi san'at ahli uchun yangilik kashf etdi. Xorazmda garmon cholg'usini "soz" deb ataydilar. Xorazm musiqa san'atiga garmon cholg'usi kirib kelgandan so'ng, xalfalar bu cholg'uni yaxshi o'zlashtirib, o'z faoliyatlarida ishlata boshlaganlar. Garmon cholg'usini kirib kelishi xalfachilik san'atini yuksalishiga imkon berdi. Ayniqsa, garmon ko'zi ojizlar uchun qo'l keladi, chunki ular soz pardalarini barmoq bilan topib chalish osonroq bo'lgani sababli, tezda o'zlashtirib oladilar.

Xalfachilikning dastlabki ko'rinishlari asosan o'ziga xos ishqiy dostonlar ijrosi bilan belgilangan. Bundan tashqari lapar, yalla, qo'shiq, terma janrlarini o'z ichiga oladi. Qo'shiq, kuy, musiqa va she'ning qo'shilgani, nisbatan kichik diapazonli musiqiy matni bo'lib, xalfalar ijrosida ajoyib ko'rinishga ega bo'ladi. Misol tariqasida "Targ'uncha", "Xiva dudori", "Go'ring to'yni tomoshosini", "Tuninay", "Xurshidi jahon galdi", "Arka qizlar", "Par devol", "O'lguncha sizni derman", "Qaydadir bilmam dildorim". Bu asarlar, zamonlar osha sayqallanib, og'izdan-og'izga ko'plab ijrolar orqali sayqallashib, ustoz-shogird an'anasi orqali bizning davrimizgacha yetib keldi [2, 3–4-bb.].

Ustozlar yaratgan "xalfachilik" maktabi hozirgi kunda Xorazmda davom ettirilib, yanada sayqallanib, ustozlar yaratgan yalla-laparlar yosh xalfalar va ustoz xalfalar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Hozirgi kunda xalfachilik



“Xiva xalfalari” folklor jamoasi, 2023-yil.

yo'nalishida ijod qilayotgan xalfalardan Ra'no xalfa Allaberganova, Zumrad xalfa Boltayeva, Zumrad xalfa Madrahimova, Poshshajon xalfa Ibragimova, Sanobar xalfa Qilicheva, Shirin xalfa Jumaniyozova, Feruza xalfa Fayzullayeva, Nodira xalfa Bog'ibekova, Xurshida xalfa Eshniyozova, Manzura xalfa O'razboyeva va boshqa bir qancha xalfalar “xalfachilik” san'atini nafaqat O'zbekistonda, balki xorij davlatlarida o'tkaziladigan davlat tadbirlarida o'zlarining rang-barang folklor qo'shiqlarini va ustozlardan bizgacha etib kelgan xalfa qo'shiqlarini ijro etib, xalfachilik san'atini dunyo sahnalariga olib chiqmoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ta'lim jarayonida zamonaviy xalq pedagogikasidan to'g'ri va samarali foydalanishimiz, o'z navbatida, xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq, folklor qo'shiqlarimizni yosh avlodga ustoz-shogird an'anasiga ko'ra o'rgatmog'imiz lozimdir.

Qo'shiqchilikning asosiy vazifasi talabalarga dars jarayonida ularning musiqiy qobiliyatini

va qo'shiqlarni o'rgatib rivojlantirish bilan birga, dars jarayonida ularni ma'nan va ruhan tarbiyalash, ona Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, mardlik, jasurlik, do'stga sadoqat, mehr va vafo tushunchalarini yosh avlodga singdirishdan iboratdir. Yoshlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi va doston qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta. Barcha ustozlarning maqsadi jamiyatda yuksak fazilatli, ma'naviyatli-madaniyatli kishilarni tarbiyalash, milliy mafkurani shakllantirish bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ularni avaylab e'zozlab, keyingi avlodga bekam-u ko'st yetkazadigan, har taraflama dunyoqarashi keng, yetuk ijodkorni tarbiyalashdir. Zero, mamlakat va xalqning taqdiri, kelajagimiz vorisi bo'lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyorligiga bog'liq. Musiqiy me'rosimizni o'rganish, ilmiy-nazariy tadqiq etish va ularni kelajagi buyuk barkamol avlodlarga yetkazish hozirgi davr talabidagi va ehtiyojlaridagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek milliy ensiklopediyasi. 8-tom. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 704 b.
2. Ro'zimboyev S. Ojiza. – Toshkent: Qamar, 2009. – 166 b.
3. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 318 b.
4. Kurbanova U. Folklor qo'shiq ijrochiligi. – Toshkent, 2018. – 100 b.
5. Yunusov R. Xiva xalfalari. – Urganch, 2020. – 100 b.
6. Madrimov B. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida Xorazm musiqa folkloridan foydalanish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Xorazmiy.uz. – URL: www.xorazmiy.uz
8. Xorazmiy.uz sahifasi. – URL: <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/286>

MUSIQA SINERGIYASI: SHAXS KREATIVLIGI, IDROK DINAMIKASI VA RIVOJLANTIRUVCHI TA'SIR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MODEL

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa san'ati inson psixik rivojlanishi va o'quv faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi markaziy omil sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot musiqaning psixologik, kognitiv, affektiv va estetik mexanizmlarini ilmiy asosda sharhlab, uning idrok jarayonlari, emotsional holat, motivatsiya va kreativ fikrlashga ko'rsatadigan funksional ta'sirini yoritadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Musiqa – sinergiya modeli" musiqaning insonning bilim qabul qilish va qayta ishlash strategiyalariga ta'sir etuvchi tizimli dinamikasini asoslaydi. Maqola zamonaviy psixologik konsepsiyalar, musiqiy-perseptiv nazariyalar va empirik kuzatuvlar asosida musiqaning inson rivoji va intellektual jarayonlardagi o'rnini kompleks yoritadi.

Kalit so'zlar: musiqa sinergiyasi, kreativ tafakkur, idrok dinamikasi, neyropsixologik faollik, musiqiy-perseptiv mexanizmlar, affektiv javoblar.

Аннотация. В данной статье искусство музыки анализируется как центральный фактор, влияющий на психическое развитие человека и качественные показатели учебной деятельности. В исследовании научно обоснованно раскрываются психологические, когнитивные, аффективные и эстетические механизмы музыки, а также освещается её функциональное воздействие на процессы восприятия, эмоциональное состояние, мотивацию и креативное мышление. Разработанная автором «Модель музыкальной синергии» обосновывает системную динамику влияния музыки на стратегии восприятия и переработки знаний человеком. Статья комплексно раскрывает роль музыки в развитии человека и интеллектуальных процессах на основе современных психологических концепций, музыкально-перцептивных теорий и эмпирических наблюдений.

Ключевые слова: музыкальная синергия, креативное мышление, динамика восприятия, нейropsихологическая активность, музыкально-перцептивные механизмы, аффективные реакции.

Abstract. This article analyzes the art of music as a central factor influencing human mental development and the qualitative indicators of educational activity. The study provides a scientifically substantiated explanation of the psychological, cognitive, affective, and aesthetic mechanisms of music, and highlights its functional impact on perception processes, emotional state, motivation, and creative thinking. The author's "Musical synergy model" substantiates the systemic dynamics of music's influence on human strategies for perceiving and processing knowledge. The article comprehensively reveals the role of music in human development and intellectual processes based on modern psychological concepts, musical-perceptual theories, and empirical observations.

Keywords: musical synergy, creative thinking, dynamics of perception, neuropsychological activity, musical-perceptual mechanisms, affective reactions.

XXI asrning globallashuv, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga bo'lgan talab ortib borayotgan davri ta'lim jarayonining mazmuni va metodik asoslarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning kreativ fikrlashi, emotsional-intellektual barqarorligi, kommunikativ madaniyati, estetik didi va ijtimoiy faolligini uyg'un rivojlantirishni talab qilmoqda [1, 12-b]. Shu jihatdan musiqa san'ati zamonaviy pedagogika uchun noyob kognitiv va affektiv resurs sifatida qayta baholanmoqda.

Musiqa psixologik va neyropsixologik ta'sir mexanizmlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar musiqa idrok, xotira, motivatsiya, tafakkur hamda emotsional muvozanatga kompleks ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Xususan, Levitin tomonidan o'tkazilgan neyromusiqiy tadqiqotlar musiqa miyada dopamin ajralishini kuchaytirishi, kognitiv faollashuvni rag'batlantirishi va motivatsiyani oshirishini tasdiqlagan [9, 28-b]. Hallamning izlanishlari esa musiqa o'quv jarayonidagi umumiy psixologik tayyorgarlik, diqqatsizlikni kamaytirish, o'z-o'zini boshqarish kabi kompetensiyalarga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [7, 22-b].

Musiqa ta'lim jarayonida nafaqat emotsional yengillik va estetik zavq bag'ishlaydi, balki o'quv faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini – diqqat, idrok, tafakkur tezligi, assotsiativ bog'lanishlar, xotira ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2, 44-b]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy fonda o'qigan o'quvchilarda o'quv materialini eslab qolish darajasi 15–30% ga yuqori bo'ladi; ritmik-melodik ohanglar yordamida yodlash esa 2,5–3 baravar tezlashadi [5, 71-b]. Shu sababli, musiqa aynan kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi universal vosita sifatida e'tirof etiladi.

Ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning kuchayishi musiqa san'atining pedagogik qadriyat sifatidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Musiqa orqali o'quvchilarda emotsional intellekt, o'zini anglash, empatiya, stressni boshqarish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan [6, 66-b]. Chunki emotsional barqarorlik va ijtimoiy kompetensiyalar XXI asr ko'nikmalari – muloqot, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda musiqa san'atining ta'limdagi o'rni nafaqat nazariy jihatdan yoritiladi, balki musiqa kognitiv, affektiv, ijtimoiy va refleksiv rivojlanishga ta'sir etuvchi tizimli mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif

tomonidan ishlab chiqilgan "Musiqa – Pedagogik Sinergiya" modeli musiqa ta'lim jarayonidagi o'rni kompleks ko'rib chiqishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik yondashuv sifatida taklif etiladi [3, 57-b]. Modelning yangiligi shundaki, u musiqa faqat darsni bezatuvchi estetik element emas, balki o'quvchilarning idrok dinamikasi va kognitiv jarayonlarini boshqaruvchi pedagogik texnologiya sifatida talqin qiladi.

Umuman olganda, musiqa shaxsning psixologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida kuchli transformativ omil bo'lib, uning ta'limga integratsiyasi kelajak avlodning raqobatbardoshligini oshiruvchi samarali yo'nalishlardan biridir [4, 28-b]. Shu sababli, tadqiqotda musiqa o'quv jarayoniga ko'rsatadigan kompleks ta'siri, uning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy qo'llanilish mexanizmlari bosqichma-bosqich yoritiladi.

Musiqa idrok jarayonining barcha komponentlarini faollashtiradi [10, 41-b]:

- ✓ sensor qabul qilish,
- ✓ emotsional rezonans,
- ✓ kognitiv ishlov berish,
- ✓ motor reaksiya.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, musiqa o'quvchining idrok kanalini ko'p vektorli tarzda ishga soladi – bu esa fanlarni o'rganishda "ko'p modal yondashuv" imkoniyatini yaratadi [11, 23-b].

Misol uchun: matematika darsidagi takrorlanuvchi formulalar ritm bilan uyg'unlashsa, yodlash tezlashadi [12, 15-b];

ona tili darsida ohangli nutq fonetik ko'nikmalarni mustahkamlaydi [13, 12-b];

tarix darsida davr musiqasidan foydalanish o'quvchining tasavvurini jonlantiradi [14, 9-b].

Estetik tarbiya shaxsning go'zallikni his etish, qadrlash, baholash va ongli ravishda yaratish qobiliyatini shakllantiradi [15, 54-b]. Musiqa orqali estetik tarbiyaning asosiy mexanizmlari quyidagilar:

Emotsional rezonans – ohang va ritm psixologik stressni kamaytiradi [7, 25-b]

Ma'naviy-axloqiy model yaratish – milliy kuylar xalqning qadriyatlarini mujassamlashtiradi [1, 29-b].

Estetik tasavvurning kengayishi – musiqiy obrazlar ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi [3, 38-b].

Ruhiiy uyg'unlik – musiqa his-tuyg'ularni boshqarishni o'rgatadi [6, 66-b].


Emotsional intellektni rivojlantirishda musiqa eng yumshoq va tabiiy vosita hisoblanadi [12, 77-b]. Major-minor ladlarning psixologik ta'siri esa quyidagicha izohlanadi [4, 40-b]:

- ✓ major – quvnoq va faol kayfiyat;
- ✓ minor – introspektiv holatlar;
- ✓ sharqona ladlar – energetik rezonans.

Darslarda qisqa "musiqiy meditatsiya"lar o'quvchi ongini muvozanatlashtiradi [8, 51-b].

"Musiqqa – Pedagogik Sinergiya" modeli

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan model quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat [3, 60-b]:



1. Kognitiv sinergiya

- ✓ Ritmik-intellektual bog'liqlik – ritm tafakkur tezligini oshiradi [14, 32-b].
- ✓ Ohangli-xotira stimulyatori – melodik ma'lumotlar 3 baravar tez yodlanadi [5, 71-b].

2. Emotsional sinergiya

- ✓ dars boshida yumshoq musiqqa diqqatni 12–17% ga oshiradi [7, 45-b];
- ✓ stress oldidan barqaror kuy tinchlantiradi [11, 58-b].

3. Ijtimoiy sinergiya

- ✓ ansambl faoliyati hamkorlikni rivojlantiradi [2, 34-b];
- ✓ sahna mashqlari nutq erkinligini oshiradi [6, 72-b].

4. Refleksiv sinergiya

- ✓ musiqiy-assotsiativ yozuvlar refleksiyani kuchaytiradi [13, 48-b];
- ✓ o'z holatini musiqiy obraz orqali ifodalash – ruhiy ongni mustahkamlaydi [15, 67-b].

Ruhiy uyg'unlik va o'zini anglash. Musiqqa orqali bola o'z his-tuyg'ularini anglaydi, ular haqida so'zlay oladi, bu esa emotsional intellektning rivojiga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt (EI) – bu hissiyotlarni anglash, boshqarish, talqin etish va ijtimoiy muloqotda to'g'ri qo'llash qobiliyati. EI darajasi yuqori bo'lgan o'quvchi:



Tadqiqotlarda kuy turi va emotsional reaksiyalar o'rtasida bevosita bog'liqlik borligi aniqlangan:

- ✓ major ladlar – ijobiy va faol holatlarni,
- ✓ minor ladlar – introspektiv va fikrlovchi holatlarni,
- ✓ sharqona ladlar – dramatik va energetik rezonanslarni faollashtiradi.

Pedagogik amaliyotda musiqqa EI treningining eng yumshoq, eng tabiiy vositasidir. Shu sababli, dars jarayonlarida qisqa musiqiy meditatsiyalar kiritilishi bola ongini muvozanatlashtiradi.

Musiqa dars jarayonini yanada samarali qiladi [10, 50-b]. Quyidagi metodlar eng samarali hisoblanadi:

1. Ohangli diktant – til o'rgatishda qo'llanadi [1, 44-b].
2. Ritm – matematika – arifmetik formulalarni yodlashni osonlashtiradi [5, 21-b].
3. Musiqiy metafora – qahramon kayfiyatini his qilishni osonlashtiradi [3, 49-b].
4. Tarixiy atmosfera – davr ruhiyatini jonlantiradi [14, 11-b].

Tadqiqotlar musiqaning o'quv motivatsiyasini kuchaytirishi, diqqatni oshirishi va mantiqiy fikrlashni faollashtirishini tasdiqlaydi [7, 19-b].

Musiqa san'atining ta'lim jarayoniga integratsiyasi zamonaviy pedagogikaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida tobora keng ilmiy asoslanib bormoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, musiqa nafaqat o'quvchining emotsional holatini muvozanatlashtiradi, balki uning kognitiv faolligi, idrok dinamikasi, xotira jarayonlari, kreativ fikrlashi, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvchanligini sezilarli darajada kuchaytiradi [2, 44-b]. Bunday kompleks ta'sirning mavjudligi musiqani didaktik vosita sifatida emas, balki shaxs rivojining ko'p funksiyali pedagogik mexanizmi sifatida qayta baholashni taqozo etadi [5, 71-b].

Musiqaga asoslangan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda diqqatning barqarorligini oshirish, o'quv materiallarini tahlil qilish tezligini kuchaytirish, assotsiativ bog'lanishlarni kengaytirish va kreativ yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi [7, 22-b]. Musiqa bilan boyitilgan o'quv muhiti stressni kamaytirib, o'quvchining psixologik tayyorgarligini yaxshilaydi va o'quv jarayoniga ijobiy emotsional fon yaratadi [6, 66-b]. Ayniqsa, musiqaning emotsional-intellektni shakllantirishdagi o'rni –

o'zini anglash, empatiya, o'z-o'zini boshqarish va muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi [10, 41-b].

Muallif tomonidan taklif etilgan "Musiqa – Pedagogik Sinergiya" modeli musiqaning ta'limdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan izohlovchi samarali konsepsiya bo'lib, u o'quvchining kognitiv, affektiv, ijtimoiy va refleksiv rivojlanish jarayonini yagona tizim sifatida uyg'unlashtirishga imkon beradi [3, 57-b]. Modelning ustunligi shundaki, u turli fanlar kesimida musiqani funksional integratsiya qilish imkoniyatini beradi. Xususan, matematika darslarida ritmik yondashuvlar, til darslarida melodik eshituv texnikalari, tarix darslarida musiqiy atmosfera yaratish kabi texnologiyalar o'quv jarayonini yanada samarali qiladi [14, 32-b].

Tadqiqot natijalari umumlashtirilganda, musiqaning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi:

- o'quvchilar faoliyatida kognitiv jarayonlarning faollashuvini [1, 12-b];
- emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikning oshirishini [7, 25-b];
- kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvning kuchayishini [3, 38-b];
- ijtimoiy kompetensiyalar va hamkorlik madaniyatining rivojlanishini [2, 34-b];
- o'zini anglash va refleksiv tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlashi aniqlandi [15, 67-b].

Shuningdek, musiqa asosidagi metodlarni qo'llash dars jarayonining faolligini oshirib, o'quvchilarni ta'limning subyekti sifatida jarayonga chuqur jalb etadi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta'limning asosiy talablari – shaxsning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot, hamkorlik va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [11, 66-b].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva D. Musiqa ta'limi metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Yunusova M. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Qodirova S. Musiqa darslarida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Toshkent: TDPU, 2020.
4. Kodama Y. Music Education and Child Development. – London: Routledge, 2018.
5. Swanwick K. Teaching Music Musically. – London: Routledge, 2017.
6. Elliott D. Music Matters. – New York: Oxford University Press, 2015.
7. Hallam S. The Power of Music. – London: Institute of Education, 2010.
8. Campbell P. S. Teaching Music Globally. – New York: Oxford University Press, 2004.
9. Levitin D. This Is Your Brain on Music. – New York: Dutton, 2006.
10. Abduraxmonova Z. Bolalarda musiqiy idrokni shakllantirish psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.
11. Hasanov B. Umumta'lim maktablarida musiqiy tarbiya. – Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2016.
12. Reimer B. A Philosophy of Music Education. – New Jersey: Prentice Hall, 2003.
13. Gordon E. Learning Sequences in Music. – Chicago: GIA Publications, 2012.
14. Gardner H. Frames of Mind. – New York: Basic Books, 2011.
15. Umarova M. Musiqaning bola ruhiyatiga ta'siri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

Izzat YULDASHEV,
O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrası katta o'qituvchisi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XORAZM MAHALLIY MUSIQA MADANIYATIDA DUTOR IJROCHILIK SAN'ATINING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Xorazm mahalliy musiqa madaniyatida dutor ijrochilik san'atining o'rni tadqiq etilgani sababli, dutor cholg'u ijrochiligining ijtimoiy-madaniy ahamiyati, dutoriyl asarlarning xalq va saroy musiqa madaniyati tutashgan nuqtasida dutor ijrochiligiga xos kasbiyl cholg'u ijrochiligida sifatiyl darajalanish va tizimlanishning yangicha bosqichda rivojlanishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: dutor, baxshichilik, maqom, cholg'u, musiqa.

Аннотация. В статье рассматривается роль инструмента дутара в местной музыкальной культуре Хорезма, обосновывается социокультурное значение дутарного исполнительства, развитие нового этапа качественного выравнивания и систематизации в профессиональном инструментальном исполнительстве, характерного для искусства дутара, находящегося на стыке народной и придворной музыкальной культуры.

Ключевые слова: дутар, бахши, маком, инструмент, музыка.

Abstract. This article examines the role of the dutar in the local musical culture of Khorezm, substantiating the sociocultural significance of dutar performance and the development of a new stage of qualitative alignment and systematization in professional instrumental performance, characteristic of the art of dutar, which lies at the intersection of folk and court musical culture.

Keywords: dutar, bakhshi, maqom, instrument, music



Xorazm mahalliy musiqa an'analari xalq va saroy madaniyati uyg'unlashuvida rivojlanib kelgan. Xalq va saroy musiqa san'ati tutashgan nuqtada janrlararo sintezlashuv dutor cholg'usi yordamida amalga oshirilgan. Qadimdan beri Xorazm vohasiga xos ustoz-shogird an'analari baxshichilik, maqom san'ati va bastakorlik ijodida dutor cholg'u ijrochiligiga xos badiiy-estetik xususiyatlar qo'llanilmasa, mahalliy musiqiy-estetik tafakkuricha, musiqiy-ijodiy natijalanish mahsuli maromiga yetkazilmagan, deb hisoblab kelingan. Ma'lumki, qadimdan beri turkiy xalqlar orasida ikki torli yoki uch torli chertim cholg'ular keng ommalashgan. Xususan, chertim cholg'ular qatorida dutor cholg'usi ham saroy ayonlari va oddiy xalq vakillari xonadonlarida, ko'ngilochar-oilaviy davralarda havaskorona tarzda ijro etilib kelingan. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti, akademik I.Karimov: "Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin..." – deya ta'kidlagan edi [1, 141-b].

Musiqashunos O.Matyoyubov ta'kidicha, Xorazm dutor maqomlari Olti yarim maqom va Shashmaqomdan oldin yuzaga kelgan, qadimgan beri mavjud musiqiy shakl bo'lib, vohada doston (baxshichilik kuy-ohang – I.Y.) yo'llari, xalfa yo'llari, suvora ijrochiligi va el sozandalari dasturlari bilan bog'liq, bir-biriga tayangan holda qaror topib kelgan [13, 114–115-bb.].

Tadqiqotchining ushbu mulohazalariga qaraganda, dutor ijrochiligining xalq sozandalari ijodiga singib kelishi badiiy-estetik ideal (mukammalligi relyativizatsiyada xarakterlangan holat – I.Y.) manzarasida bo'lganini ishora etadi.

Xorazmda dutoriy asarlar ham keng yoyilgan, ammo ularning ba'zilar turli janrlar va xalq orasida keng ommalashgan xalqchil kuy-ohanglar sifatida yetib kelgan. Dutor cholg'usi yordamida dostonchilik, xalfachilik, bastakorlik va mumtoz musiqiy namunalar ijodiy sintezlashuvi kuchayadi, buning natijasida yangi asarlar yuzaga kelgan. baxshi va sozandalar tomonidan ijro etib kelingan "Sho ko'chdi", "Ilg'or", "Qora dali", "Aliqambar", "Rahm ayla" va boshqalar, tempo-ritmikligi tez bo'lgan kuy yo'llari dutor asarlari hisoblangan. Ba'zida ushbu kuy-ohanglar orasida o'xshashlik jihatlari ko'rinib turiladi. Bu holat dutor cholg'usi imkoniyati va xususiyatlari bilan ham bog'liq edi. Bunday holatlarni "Aliqambar", "Qori Navo", "Norim-norim", "Qalabandi", "Farg'ona

Eshvoyi" va boshqa yirik shakldagi kuylarda "Ilg'or" va "Eshvoy" kuy-ohanglarining ba'zi elementlari uchrashi asosida izohlash o'rinli [2, 81-b]. Xiva xonligi saroyida xalfa, baxshi hamda maqom san'ati namoyondalarining ijodiy-badiiy jarayoni sintezlashuvida dutor cholg'u ijrochilik san'atining ijtimoiy-madaniy darajada ahamiyati yuqori bo'lgan [3, 133–134-bb.]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridan Saroy badiiy-elitar madaniyatiga etnosan'at uyg'unlashuvi ijroviy xilma-xillashuvni kuchaytirgani sababli, dutor cholg'u ijrochilik san'atining badiiy-uslubiy o'zgarishlari yuzaga keladi; xalqona badiiy-estetik jihatdan cholg'u san'atining mono-funksional tizimlilik tafakkuridan polifunksional yaxlitlik tafakkuriga intilish, moslashish, o'rin egallashni boshlaydi.

Ba'zi dutor asarlarining o'z tarixi mavjud. Ta'kidlash lozimki, Xorazm dutor ijrochilik san'atida tarixiylik paradigmasi sozanda bilan tinglovchini doim bir-biriga bog'lab kelgan. Xorazm baxshilari ham tinglovchilarni dutor cholg'u kuylari tarixi asosida jamoaviy-kommunikativ holatni yuzaga keltirishgan.

Masalan, Rahmatjon Qurbonov ta'kidlashicha, "Qora dali" kuyi yuzaga kelishida Jaloliddin Manguberding Qora dali nomli oti joni uzilganidan keyin, mashshoq tomonidan Qora dalining joni uzulganini badiiy ifodalash asosida, dutorda Xorazmshoh Jaloliddinga chalib berilgani sababli, Qora dali nomli kuy sifatida xalq orasida keng yoyilgan ekan [4, 71–73-bb.]. Qora dali – bu ot jonzoti nomi bo'lib, Xorazmda ot jonzoti bilan bog'liq dutorda ijro etiladigan (dutoriy) asarlar xalq orasida keng ommalashgan.

"Navro'z" bayrami, xalq sayllari va marosimlarda baxshi va xalq ichidagi soz san'atini kasb qilgan sozandalar tez tempdagi otning yugirishi va xatti-harakatlarini ifodalaydigan ("Kurd Eshvoy", "Ilg'or" turkumli asarlar va "Sho ko'chdi", "Qora dali" kabi) asarlarni ijro etib kelishgan. Xorazmda Suvora aytimlari xonandaning dutor cholg'usida ijro etishi hamda suvora ijro etishning "diyalishma" bazmi keng yoyilgan. Suvora asl ot jonzotining yo'rg'a yurishidan hosil bo'lgan ritmik tuzilmaga asoslangan [5, 41-b].

Qadimgi Xorazmda dutorda turli "Lazgi" kuy yo'llari va sho'xchan-raqsbop kuy-ohanglar ijro etib kelingan. Qayd etish mumkinki, chertim cholg'ularda lazgiga o'xshash sho'xchan ijro etiladigan namunalar bundan-da qadimgi davrlarga borib taqalishi ehtimoli yuqori. Ot jonzotining qadimgi turkiy xalqlarda qadrlanishi,

kult darajasida e'tibor qaratilgani sababli, qadimgi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turk urug'larida badiiy-ifodaviy qarashlar totemistik va animistik qarashlar bilan yaxlitlashib kelgan. Bu holat albatta dutor sozining qadimdan shakldan shaklga o'tib kelganini ham ishora qiladi. Etnograf, tarixchi Iso Jabborov Xorazmda genezis jihatidan totemizm va animizm bilan bog'liq "lazgi"lar borligini ta'kidlagan edi [6, 274-b]. Xorazmda lazgi kuylarini ijro etish qadimda dutorga o'xshash bir-ikki torli chertiladigan sodda tuzilishdagi sozlarda, undan keyingi davrga xos boshqa chertim cholg'ular ijrochiligi tafakurida gilozoistik xususiyatlar va xalqona kult arxaizmlari bilan bog'liqligi namoyon bo'ladi. Ushbu holat nafaqat Xorazm yoki o'zbekona xalq chertim cholg'u ijrochiligida, balki butun turkiy xalqlarning an'anaviy chertim cholg'u ijrochiligiga xosligi kuzatiladi.

Xiva xonligi saroyida baxshichilik san'atiga yuqori-badiiy (elitar) madaniyat uyg'unlashuvi dostonlarni ijro etishning ansambl darajasidagi holatlari yuzaga kelishini ta'minlaydi. Musiqashunos olim Ravshan Yunusov tadqiqoticha, Xorazm maqomlarini jo'navozlikda ijro etishda odatda tanbur, nay, bo'laman, qo'shnay, g'ijjak, chang, rubob, doira bilan birga dutor sozi ham muhim o'rin olgan [5, 39-b]. San'atshunos Is'hoq Rajabov ta'kidlashicha, qadimda maqomlar yakkanavoz va ansambl sifatida ijro etilgan, ammo ansambl tarkibida tanbur qobuz, doira bilan bir qatorda dutor cholg'usi ham xonandalar hamnafasligida qo'llanilgan [7, 25-b].

O'zbek xonliklari davrida dutor cholg'usining morfologik takomillashuvi ijtimoiy-madaniy hayot o'zgarishiga qarab kechgan. Shayboniy-lar davrida dutor-tanbur evolyutsiyasi o'ziga xos kechgan bo'lib, saroy bastakori, sozandasi Mahmud tomonidan ikki torli cholg'uga uchinchi tor qo'shish asosida setor cholg'usi qaror topgan [12, 277-b]. Xonliklar saroy madaniyatining innovatsion va integratsion xarakteri musiqiy cholg'u san'atida ham aks etadi. Hatto cholg'ularda xalq va saroy musiqi namunalarining ijro etish imkoniyatlari va badiiy-uslubiy vositalari rivojlani-shi madaniy innovatsiya va integratsiya asosida kechgan. Xuroson tanburlarining tovushqatori parda tuzilmasi o'zbek dutorlariga juda yaqin, xurosoniy tanbur zamonaviy o'zbekona dutor-larni eslatib yuboradi [12, 277-b].

Xorazmda "Dutor maqomlari" bilan "Tanbur maqomlari" bir-birini ijodiy-badiiy jihatdan to'ldirib, boyitib kelingan [9, 144-b]. Qolaversa, Xorazmda xalq ijodi bilan saroy ijodining bir-

birga yaxlitlashib kelishi sababli, mahalliy musiqi madaniyatida janrlararo badiiy-estetik ta'sirlanish kuchaygan.

Qayd etish kerakki, uzoq safarga o'tlanadigan savdogarlarning og'ir yo'l charchog'idan mada-niy chalg'ish maqsadida ham dutor sozi olib yurilgan, yo'lda dam olish paytida ijro etib turilgan. Xorazmda ikki xil dutor cholg'usi qo'llanilgan: biri (dastasi kalta) xonandalarga xoslangan dutor, yana biri (dastasi uzun) asosan sozandalarga xoslangan dutor. Har ikki dutor baxshi va maqomchilarda sharoit va imkoniyatga qarab qo'llanilib kelingan. Qayd etish joizki, shahar va chekka aholi joylari musiqiy-estetik madaniyatining sinkretlashuvida dutor cholg'usining turli sharoitlarda moslashtirilgani va keng imkoniyat mavjudligini qayd etish muhim.

Mulla Bekjon va Matyusuf Xarratovlar: *"Ko'hna Urganch shahrida dutor sozina eshak (xarrak) yo'nib (yasab, tuzatib) sotib, shu hunarlari orqali oila boqqan kishilarning miqdori bir mingga yetishganiligi ta'riflanadi. Albatta, bu raqam Xorazmning nufuziga qaraganda, ko'p ko'rinishi mumkin. Ammo o'sha davrda Ko'hna Urganch shahri aholisi bir yarim million bo'lganini hisobga olsak, bu raqamni unchalik ham ishonarsiz deb bo'lmaydi"* – deya ta'kidlangan [10, 14-b]. Sh.Matyoqubov: *"Xorazmshoh saroyida Ustod Mahmuddek rubobchi, Zarinadek raqqosa va xalq orasidan chiqqan Yusufbek bahodirga teng keladigan dutorchi topilmagan"* – deydi [14, 18-b]. "Xorazm musiqiy tarixchasi"da dutor cholg'usining Xorazmda umumiy turkiy sozlar ichida qadimdan mashhur bo'lgani urg'ulanib: *"Dutor sozi Xorazm o'lkasida xalq orasida tanbarga nisbatan ko'proq tarqalgan bo'lsa-da, ammo u tanburchalik tartibga solinmagan. Garchi dutor nag'malari tanbur nag'malaridek bo'lsa-da, tanbarga berilgan ahamiyat va e'tiborni dutor nag'malariga qaratmadilar"* – deyilgan [10, 32-b].

Dutor cholg'usi morfogenezida etnos va uning ijodkorlari tomonidan etnomadaniy va maishiy-ijodiy sayqallashtirilishi natijalanishi chertim cholg'ularning qadimgi sodda ko'rinishini, arxaikligini shaklan tubdan o'zgartirmagan. Ammo ijroviy takomillashuv va yangicha tartiblanish shaharlashuv kuchayishi asosida ro'y berganini hisobga olinsa, unda dutor cholg'u ijrochilik san'ati alohidalashgan fenomen darajada qadimgi Xorazmda yuksak maqomda qadrlanib kelinganini ta'kidlash muhim.

"Xorazm musiqiy tarixchasi"da mashhur dutorchilar va dutor cholg'u san'atining Xorazm

maishiy-madaniy va musiqiy-madaniy miqyosda nufuzi quyidagicha qayd etilgan: "...Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon Soniy zamonlaridurki, bu zamonda dutor sozining avvaldagi ahvoli o'zgardi. Dutor sozining qadri ortdi. Xon va to'ralar, bek va bekdodalar hamda ularning ahrorlari va o'rta tabaqa xalq orasida bo'ladigan soz va suhbat bazmi majlislarda tanbur, g'ijjak, bulomon, doira kabi asboblar orasida dutor sozi birinchi mavqeni egalladi. Shu sababdan, mahalliy mutaxassis dutorchilar yetishib chiqqa boshladi. Shular jumlasidan, Xo'ja Nazar Kurt ismli o'zbek dutorchilar o'z zamonasining mumtozi bo'lib yetishdilar. Mazkur Xo'ja Nazar Kurtdan Hozarasplik Pahlavon boy va Hozarasplning Miton mavzesidan Bobojon Miton kabi shaxslar dutorchilikni o'rganadilar. Bobojon Mitondan Usmonjon va Yoqub Dorchilar mashq oladilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mutaxassis dutorchilar yetishib chiqqani sababli, xalq orasida dutor soziga bo'lgan havas kuchayadi" [10, 33-b]. Xorazmda dutorning keng ommalashuvi sababli, o'zbek va turkman urug'lari orasida mohir dutorchilar yetishib chiqadi. Masalan, turkman urug'lari orasidan Suyav baxshining dutoriy nag'malari hamda yangidan yangi dutor ijro uslublari xalq orasida keng yoyiladi, mahalliy dutor ijrochiligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi [10, 33-b]. Suyav baxshi o'zbek, qoraqalpoq va turkmanlarning musiqiy madaniyatida yorqin iz qoldirgan fenomendir [10, 45-b]. Xorazm Suyav baxshi kabi fenomenlar saroydan tashqarida ham samarali ijod etishgan edi. Ana shunday fenomenlar (darg'a ijodkorlar) XIX-XX asrlarda ko'plab voha musiqiy tafakkuriga xos dutoriy asarlarni bastalashgan, Xorazmda mahalliy cholg'u ijrochilik san'atini yuksaklikka ko'tarishgan edi. Shu jumladan, Xivaning janubidagi "Shayxlar" mavzesidan chiqqan Qambar bobo tahallusli zarbardast dutorchi Xorazmda yaratilgan dutoriy nag'malarni barcha sir-sinoatlarini puxta bilgan, ularni mohirona ijro etgan, ammo uning vafoti dutor sozining mavqeyi so'nishi bilan birga kechadi [10, 43-b]. Xorazmlik mohir dutorchilar maqom, xalq va bastakorlik ijodi namunalarini ijro etishda badiiy-uslubiy rivojlanishning bir nechta (ustoz-shogird maktablari) tarmoqlanishiga hissa qo'shishadi.

Xorazmda xalq orasida qadimdan beri mashhur bo'lgan dutor maqomlari quyidagilardir: Iroq, Chapandoz, Mo'g'ulcha, Navoyi, Sadri Iroq, Rovi, Orazi bam, Tashniz, Majnun dali, Oxyor-Ahyor, Miskin. "Xorazm musiqiy tarixchasi"da

qayd etilishicha, ushbu ro'yxatning to'rtinchi qatorida keltirilgan "Navoyi" maqomi ancha qadimdan "Qori Navoyi" nomi ostida dutorda ijro etib kelinar ekan [10, 33-b].

Musiqashunos Botir Matyoqubov: "Xorazm dutor cholg'usi o'ziga xos bo'lib, unda o'ng qo'l zarblari rez usulidagi uzluksiz-davomiy ijrosi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, har bir kuchli hissani bo'rttirib o'ng qo'lning to'rt barmog'i va jimjilog'ini qalpoqqa tekkizib, tinab, urib chertish asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Dutorning o'ng qo'l zarblari Xorazmda "Dast" deyiladi. Ular o'z ichida kuy va usul bo'laklarini murakkab va eng jozibali jihatlarini birlashtirgan. Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo'r bo'luvchi doira ham usulni dutor zarblaridan o'rganar ekan. Nomalarning kuy tuzilishi keng va tezkor rivojlanganligidan baxshi dutorning ijro imkoniyatlaridan to'la foydalangan" [11, 18–19-bb.]. Dutorning uzluksiz-davomiy zarblar qadimda islmiy naqshlarga, samoviy cheksizlikka o'xshatish qilingan. Shu sababli, bunday zarblar ba'zida "Islmiy naqsh" deb ham yuritiladi. Xorazm dutor ijrochiligining o'ziga xosligi ham shunda.

J.Rasultoyev tomonidan, Xorazmda Farg'ona va Toshkent hududiy maktablari kabi "bidratma" va "terma zarb" qo'llanilmagan holda, ko'rsatkich barmoqlarda o'ng qo'l zarblari uzluksizligi ustuvor bo'lgani bejizga ta'kidlanmagan edi [8, 38–40-bb.]. Chunki "Bidratma" va "terma zarb"lar o'rniga (muqobiliga) asosan "islmiy naqsh" hamda "rez-pirrang" ("rez" bilan "pirrang"ning ixtiyoriy aralashib kelishi asosida yuzaga keladigan) zarblari keng qo'llanilgan. Aytish kerakki, Xorazmda mayda zarblar uzluksizligi va kuchli hissada uzluksiz zarblarni ajratib chalish rubob, tor, doira va tanbur kabi cholg'u ijrochilik amaliyotiga badiiy-estetik tomonlama ta'sir etgan; cholg'u turlarining o'zaro ijodiy-badiiy integratsion tartiblanishi, tizimlashuvi saroy va xalq cholg'u ijrochilik san'atini yangi bosqichdagi kasbiy ijrochilik darajasiga olib chiqqan.

"Xorazm doston ijrochiligining sarxat sahi-falari"da: "...dostonchilar birinchi navbatda qo'shiqchi-baxshi, undan keyin esa cholg'uchi sozandadir. Lekin shunga qaramasdan, baxshi va oshiqlar cholg'u asbobida ijro qilish mahoratiga ham katta e'tibor bilan qaraganlar. To'y va sayllarda, mehmonxona bazmlarida bu ijrochilik turi bo'yicha ham sinovlar bo'lib o'tgan. Xalq orasida doston kuylari qanchalik keng tarqalgan bo'lsa, dutor cholg'usi ham shu darajadagi ommaviy cholg'u hisoblangan", deya

ta'kidlanadi [11, 19-b]. Baxshilar tomonidan noma va turli aytilmalar ijro etilishida pauza va nasrdan chekingan paytda, dutorda yangicha kuy-asarlar va imprevizatsion tarzda yuzaga chiqqan kuy-ohanglar kuzatilgan. Qadimda mohir dutorchi bo'lmagan baxshi el orasida yetarlicha tan olinmagan, chunki xalq o'z dunyosidagi xalqona dardni badiiy tarzda yetkaza oladigan san'at ustasini o'z ideali sifatida xush ko'rib kelgan. Shuning uchun ham, Xorazm xalqi unchamuncha san'atkorlarni o'zlariga badiiy-estetik ideal sifatida ko'taravermagan.

Muxtasar aytganda, Xorazm mahalliy musiqqa madaniyatida dutor ijrochilik san'ati musiqiy-madaniy substrat darajasida ajralmas fenomendir. Xorazm dutor ijrochilik san'ati qadimdan beri ustoz-shogird an'alarining bir shakldan boshqa shakllarga o'tib kelishi asosida, ijroviy-uslubiy tarmoqlanish bosqichlarini o'tab kelgan. Xorazm dutor ijrochilik san'ati baxshichilik, maqom va keyinchalik shakllangan maxsus dutor ijrochilik san'ati uyg'unlashuvida xalq orasida dutoriy asarlar boyitilishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Shashmaqom saboqlari (Maqola va ma'ruzalar (birinchi) to'plami). – Toshkent: 2005. – 224 b.
3. Yuldashev I. O'zbek etnomadaniyatida sinkretizm: nazariya va amaliyot. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (O'zDSMI), 2025. – 162 b.
4. Qurbonov R. San'atning sirli olami: San'atnoma. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 260 b.
5. Yunusov R. O'zbek maqomlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 160 b.
6. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 320 b.
7. Rajabov I. Maqom asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 156 b.
8. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 112 b.
9. Shashmaqom saboqlari (Maqola va ma'ruzalarining ikkinchi to'plami). – Toshkent: 2005. – 224 b.
10. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2014. – 64 b.
11. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. – Toshkent: Xorazm, 1999. – 52 b.
12. Matyoqubov O. Maqomot. Monografiya. – Toshkent: Musiqqa, 2004. – 400 b.
13. Matyoqubov O. Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi: parda, usul va tasnifot tizimi. Monografiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 240 b.
14. Matyoqubov Sh. An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqqa, 2015. – 18 b.

O‘ZBEK MUSIQASIDA XALQ CHOLG‘U ORKESTRINING IJROCHILIK AN‘ANALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek musiqasida xalq cholg‘u orkestrining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ijrochilik an‘analari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Xalq cholg‘u orkestri O‘zbekistonning boy musiqiy merosini zamonaviy sahna talablari asosida namoyish etuvchi muhim ijro jamoasi sifatida qaraladi. Maqolada orkestr ijrochiligida kuy-ohang tizimi, usul-ritm xususiyatlari, ansambllik uyg‘unligi, sozlarning tembr imkoniyatlari hamda milliy ijrochilik maktablarining ta’siri yoritiladi. Shuningdek, mashhur bastakorlar, sozandalar va dirijyorlarning xalq cholg‘u orkestri repertuarini boyitishdagi hissassi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek musiqa san’ati, xalq cholg‘u orkestri, ijrochilik an‘analari, tembr, usul, ansambllik, milliy cholg‘ular, maqom.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируются процесс формирования, этапы развития и исполнительские традиции оркестра народных инструментов в узбекской музыкальной культуре. Оркестр народных инструментов рассматривается как важный исполнительский коллектив, демонстрирующий богатое музыкальное наследие Узбекистана в соответствии с современными сценическими требованиями. В статье освещаются ладо-мелодическая система, ритмо-метрические особенности, ансамблевое взаимодействие, тембровые возможности инструментов, а также влияние национальных исполнительских школ на оркестровую практику. Кроме того, рассматривается вклад известных композиторов, музыкантов-исполнителей и дирижёров в обогащение репертуара оркестра народных инструментов.

Ключевые слова: узбекское музыкальное искусство, оркестр народных инструментов, исполнительские традиции, тембр, ритм, ансамблевость, национальные инструменты, маком.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the formation, development stages, and performance traditions of the folk instrument orchestra in Uzbek musical culture. The folk instrument orchestra is considered an important performing group, demonstrating the rich musical heritage of Uzbekistan in accordance with modern stage requirements. The article highlights the modal-melodic system, rhythmic and metric features, ensemble interaction, the timbre capabilities of instruments, and the influence of national performance schools on orchestral practice. Furthermore, the contribution of renowned composers, performers, and conductors to enriching the folk instrument orchestra's repertoire is examined.

Keywords: Uzbek musical art, folk instrument orchestra, performance traditions, timbre, rhythm, ensemble, national instruments, maqom.

O'zbek musiqa san'ati milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Xalq cholg'u orkestri esa ushbu boy merosni sahna madaniyati darajasiga ko'tarish, uni jamoaviy ijro orqali keng ommaga yetkazishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy musiqa merosini tiklash, uni ilmiy asosda tadqiq qilish hamda zamonaviy talqinlarda namoyish etishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi madaniy siyosati xalq ijodi, maqom san'ati, an'anaviy cholg'ular va ular bilan bog'liq ijrochilik maktablarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgani tufayli xalq cholg'u orkestrlarining faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi [1, 112-b]. Turli hududlarning ijrochilik an'analari, tembr rang-barangligi, sozlar imkoniyatining kengayishi va bastakorlik ijodining jonlanishi orkestr san'atining rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bugungi kunda xalq cholg'u orkestri nafaqat milliy musiqiy an'analarni asrab-avaylash, balki ularni qayta talqin qilish, zamonaviy janrlar bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xalq cholg'u orkestrining ijrochilik an'analari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi, mavjud ilmiy manbalarning aksariyatida ayrim yo'nalishlarning yetarlicha yoritilmaganligi mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi [2, 67-b]. Orkestrning repertuar shakllanishi, ijro texnikasi, ansambllik madaniyati, dirijyorlik maktabi va sozlar tembr tizimining ilmiy jihatdan kompleks o'rganilishi zamonaviy musiqa fanining muhim ijtimoiy-madaniy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xalq cholg'u orkestri ijrochilik an'alarining o'rganilishi nafaqat musiqa san'ati rivojiga, balki yosh avlodning madaniy tarbiyasiga, milliy identitetning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Zero, milliy cholg'ularning jamoaviy ijrodagi imkoniyatlarini chuqur anglash orqali o'zbek musiqasining o'ziga xos badiiy qiyofasi, maqom va folklor an'alarining sahnadagi talqini yanada yorqin shaklda namoyon bo'ladi [3, 78-b].

Shu jihatdan mazkur mavzuning o'rganilishi ilmiy-nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston musiqiy merosining uzviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbek musiqa madaniyati asrlar davomida shakllangan boy an'anaviy merosga ega bo'lib, uning tarkibida xalq cholg'ulari va ular bilan bog'liq ijrochilik maktablari alohida o'rin tutadi.

O'zbek xalqining ruhiy olami, estetik didi va badiiy tafakkuri aynan ana shu cholg'ular ohangi orqali avloddan-avlodga ko'chib kelgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq cholg'ulari asosida jamoaviy ijro shakli – xalq cholg'u orkestri shakllandi va bugungi kungacha milliy musiqa san'atining yirik sahnaviy ko'rinishlaridan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. Ushbu orkestr o'zbek musiqiy merosini zamonaviy professional sahna talablari darajasida namoyish etish, milliy kuy va ohanglarni yangi badiiy talqinlarda qayta ishlash, shuningdek, yosh ijrochilarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [4, 98-b].

Xalq cholg'u orkestrining repertuari turli manbalarga – maqom yo'llari, xalq kuy-qo'shiqlari, an'anaviy ijrochilik maktablari hamda zamonaviy bastakorlik ijodiga tayangan holda muntazam boyib bormoqda. Unga dutor, g'ijjak, rubob, nay, karnay-surnay, doira kabi qadimiy milliy cholg'ularning tembr imkoniyatlari uyg'unlashtirilgan holda jalb qilinishi orkestr san'atining o'ziga xosligini belgilaydi. Ayniqsa, har bir sozning tembr bo'yoqlari, ijro texnikasi, kuy-ohang qurilishi orkestr tarkibida o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lib, milliy musiqiy tafakkurning teran qatlamlarini ifoda etadi [5, 76-b].

Bugungi globallashuv sharoitida o'zbek xalq cholg'u orkestri nafaqat milliy an'analarni saqlab qolish, balki ularni dunyo musiqiy makonida targ'ib qilishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, xalq cholg'u orkestrining ijrochilik an'analari, uning shakllanish tarixi, uslubiy xususiyatlari va repertuar rivoji bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi mazkur mavzuning hozirgi davrdagi dolzarbligini belgilab bermoqda. Milliy cholg'ular ijrochilik maktablarining orkestr san'atiga ko'rsatgan ta'siri, mashhur dirijyor va ijrochilarning tajribasi, ansambllik madaniyati, zamonaviy bastakorlik yo'nalishlari kabi masalalar ilmiy asosda chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu bois, ushbu tadqiqot o'zbek xalq cholg'u orkestrining ijrochilik an'analari, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy talqindagi rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, o'zbek musiqa san'ati taraqqiyoti uchun nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqa san'atining shakllanishi va rivojlanishida xalq cholg'u orkestrining o'rni beqiyos bo'lib, u milliy merosimizni sahnaviy talqinlarda namoyish etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi [6, 45-b]. Cholg'u orkestrining ijrochilik an'analari xalq



musiqasining eng qadimiy qatlamlari – maqom, folklor va an'anaviy kuy-ohang tizimlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy orkestr san'ati orqali yangi badiiy ifodalar kasb etmoqda. Orkestr tarkibidagi milliy cholg'ularning tembr imkoniyatlari, ansambllik madaniyati, uslubiy uyg'unlik va dirijyorlik maktabi bugungi kunda yuqori ijro madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Tavsiya sifatida quyidagi takliflarni amalga oshirish zarur:

- *xalq cholg'u orkestri ijrochiligini o'rgatuvchi ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratish;*
- *milliy ijrochilik maktablari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;*
- *xalq cholg'u orkestri uchun yangi bastakorlik namunalari yaratishni rag'batlantirish;*
- *yosh ijrochilarni professional orkestr muhitida tayyorlash;*
- *milliy cholg'ularning tembr imkoniyatlarini chuqur o'rganish;*
- *orkestr dirijyorlari uchun malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish;*

– *xalq cholg'u orkestrining xalqaro maydondagi faoliyatini kuchaytirish;*

– *raqamli texnologiyalarni ijrochilik jarayoniga tatbiq etish zarur.*

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalq cholg'u orkestrining repertuari doimiy ravishda yangilanib, o'zbek bastakorlik ijodining yuksalishi bilan boyib bormoqda. Biroq ijrochilik an'analari, tembr tizimlari, orkestr texnikasi va zamonaviy sahna talablari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, shuningdek, yosh ijrochilarni ushbu an'alarga asoslangan holda tayyorlash jarayonida hali ham o'rganilishi zarur bo'lgan muhim masalalar mavjud.

Xalq cholg'u orkestri san'atining zamonaviy holati shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosining asrab-avaylanishi va rivojlantirilishi, uning xalqaro maydondagi o'rni va qadr-qimmatini aynan ijrochilik an'analari qanchalik mukammal o'rganilishi va amaliyotda qo'llanishiga bog'liq. Shuning uchun ushbu mavzu o'zbek musiqa madaniyatini yanada rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F. O'zbek xalq cholg'u ijrochiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. – 161 b.
2. Is'hoqov S. O'zbek an'anaviy musiqa merosi: maqom, usul, ijro. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 194 b.
3. Karomatov F. O'zbek musiqasi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2002. – 179 b.
4. Xolmirzayev A. Milliy cholg'ular va ularning tembr tizimi. – Toshkent: San'at, 2010. – 167 b.
5. To'xtasinov A. O'zbek xalq cholg'u orkestrining shakllanish bosqichlari // San'atshunoslik jurnali. – 2020. – №4. – 196 b.
6. Rasulov D. O'zbek cholg'ularining ansambldagi uyg'unligi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019. – 158 b.
7. Sultonov R. Maqom yo'llarining orkestr talqinlari // Musiqa merosi ilmiy to'plam. – 2017. – 201 b.
8. Jabborov B. Xalq cholg'ularining ijro texnikasi va metodikasi. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2016. – 161 b.
9. Turdiev N. Dirijyorlik mahorati asoslari. – Toshkent: San'at, 2014. – 161 b.
10. Qahhorova M. O'zbek musiqiy folklori va uning sahnaviy talqinlari. – Toshkent: O'zR FA Musiqa instituti, 2021. – 157 b.
11. Abdullayev D. Orkestr sinfi. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2024. – 164 b.

O'ZBEK ANIMATSIYASIDA MUSIQA VA HARAKAT UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek animatsiyasida musiqaning dramatik va estetik vazifasi, uning harakat, obraz va milliy ruhni ifodalashdagi o'rni ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda musiqaning temp va ritm, improvizatsiya xususiyatlari sahna dramaturgiyasini shakllantirishdagi ahamiyati hamda uning tomoshabin bilan hissiy muloqotni kuchaytiruvchi vosita sifatidagi funksiyasi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy animatsiyada yangi texnologiyalar asosida musiqiy dramaturgiyaning yangi badiiy shakllari rivojlanib, milliy ohang va vizual harakat uyg'unligi zamonaviy estetik yo'nalish sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: kino, animatsiya, musiqa, ritm, improvizatsiya, obraz, qo'g'irchoq animatsiyasi.

Аннотация. В статье научно обосновано анализируется драматическая и эстетическая функция музыки в узбекской анимации, а также её роль в выражении движения, образа и национального духа. В исследовании рассматриваются ритм, темп и импровизационные особенности музыки как важные средства формирования сценической драматургии и усиления эмоционального взаимодействия со зрителем. Кроме того, отмечается, что в современной анимации на основе новых технологий развиваются новые художественные формы музыкальной драматургии, где синтез национальных мелодий и визуального движения оценивается как современное эстетическое направление.

Ключевые слова: кино, анимация, музыка, ритм, импровизация, образ, кукольная анимация.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the dramatic and aesthetic functions of music in Uzbek animation, as well as its role in expressing movement, image, and national spirit. The study examines rhythm, tempo, and improvisational features of music as important means of shaping stage drama and enhancing emotional engagement with the audience. Furthermore, it is noted that modern animation, based on new technologies, is developing new artistic forms of musical dramaturgy, where the synthesis of national melodies and visual movement is valued as a contemporary aesthetic trend.

Keywords: cinema, animation, music, rhythm, improvisation, image, puppet animation.

Zamonaviy o'zbek animatsiyasi san'atida musiqa badiiy ifoda tizimining ajralmas qismi bo'lib, u harakatning ritmini, obrazning xarakterini va sahna kayfiyatini belgilovchi asosiy estetik omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonning ildizlari jahon animatsiyasi tajribasiga, xususan, Disneyning musiqiy ifoda va harakat uyg'unligiga asoslangan yondashuvlariga borib taqaladi. Disney ovoqli kinematograf paydo bo'lishi bilan qisqa metrajli musiqiy komediyalar turkumini yaratadi va uni "Наивные симфонии" (Silly Symphonies) deb nomlaydi. Bu multfilmlar g'aroyib hodisalar, grafik deformatsiyalar, yumor va kutilmagan syujet burilishlariga asoslangan [1, c. 16]. Disney yaratgan turkum animatsiya va musiqaning uyg'unligini namoyon etgan

ilg'or loyiha bo'lib, u harakat dinamikasi, yumor va vizual ifodani kuchaytirdi. Animatsiyada musiqaning dramatik va ritmik imkoniyatlarini ochib berdi hamda keyingi, jumladan o'zbek animatsiyasida ham yangi badiiy yo'nalishlarga zamin yaratdi. O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek multiplikatsiyasi rivojiga adabiyot, teatr va tasviriy san'at o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ijtimoiy-madaniy sohadagi yangilanishlar, yangi avlod ijodkorlari uchun kengaygan imkoniyatlar, bolalar adabiyoti va teatrining yuksalishi hamda jahon animatsiyasidagi ilg'or tendensiyalarning mahalliy ijodkorlarni izlanish va tajribalarga chorlagani asosiy omil bo'lib xizmat qildi [2, 20-b].

1965-yilda rejissyor D.Salimov hamda rassom Y.Petrov ijodiy hamkorligida yaratilgan

dastlabki "6x6 kvadratida" multfilmida musiqa va raqs sahnasi qahramonlar obrazlarini ochib, syujet mazmunini boyitgan. Multfilmidagi qumursqalarning xorijiy millatga mansubligini ko'rsatishda o'shadavrda (1960-yillarda) mashhur bo'lgan amerikalik estrada xonandasi, raqqos Chobbi Cheker ijrosidagi "The Twist" musiqasi ritmi hamda raqsidagi harakatlarni takrorlaydi. Keyinchalik rejissyor faoliyati davomida F.Yanov-Yanovskiy, R.Vildanov, Y. Shiryayev kabi iqtidorli o'zbek va sovet bastakorlari bilan ijodiy hamkorlik qilgan.



1-rasm. "6x6 kvadratida" multfilmidan lavha.

Animatsion filmlarda milliy musiqa, raqs, milliy cholg'u asboblari ko'rsatish hamda talqin etish orqali syujet hayotiyliigi va mazmundorligini ta'minlash bilan birgalikda tomoshabinlarda vatanparvarlik milliy musiqalarga bo'lgan qiziqish, hamda bilimlarini ham oshirish mumkin. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan singdirib borilishida aynan multfilmlar orqali yetkazish rejissyor D.Salimovning boshqa kartinalari "Oltin Tarvuz", "Balkon", "Kurash", "Uzunquloq do'st", "Tomchi" multfilm qahramonlarini jonlantirishda musiqadan foydalanilgan. Masalan, "Balkon" animatsion filmi plakat uslubida yaratilgan bo'lib, unda personajlar so'zsiz, faqat imo-ishora orqali muloqot qiladi, bu harakatlarga esa yumoristik ohangdagi musiqa hamrohlik qilib, sahna vaziyatlarini ironik va ekspressiv tarzda ochib beradi. "Kurash" multfilmidagi doira cholg'usi yordamida filmning kurash tushish epizodida qahramon milliy raqs harakatlari orqali jonlantirilgan. Keyinchalik ushbu an'ana M.Mahmudov, N.To'laxo'jayev, Q.Kamalova, D.Vlasov kabi rejissyorlar ijodida namoyon bo'ldi.

O'zbek animatsiyasida musiqa qahramon obrazini ochish, uning xarakteri va emotsiyasini to'ldirish bilan birga, syujet rivojini ta'minlaydigan muhim ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy kuy va raqs elementlari orqali milliy ruh va estetika aks ettirilib, asarga betakrorlik bag'ishlanadi. Shuningdek, musiqa yumor va

parodiyani kuchaytiradi, kutilmagan sahnalarga yengillik va hazil tarovati qo'shadi. Qo'g'irchoq animatsiyasida harakatlar shartliligi sababli, musiqa ovoz, ritm va shovqin bezaklari orqali sahna improvizatsiyasini boyitadi hamda harakatni tomoshabinga yaqinlashtiradi. Shu tariqa, musiqa nafaqat vizual qatlamni to'ldiruvchi element, balki tomoshabin bilan muloqotni kuchaytiruvchi va filmning umumiy ta'sirini oshiruvchi asosiy badiiy vositaga aylanadi. Animatsiya rejissurasida improvizatsiya, rejissyor va animator tayyor ssenariy yoki raskadrovkadan tashqarida ijodiy izlanish olib borishi, obraz va

harakatlarni qaytadan yaratishi jarayonidir. Bu, avvalo, qo'g'irchoq animatsiyasi va eksperimental mualliflik animatsiyasida yaqqol ko'rinadi. Chunki har bir harakat va qahramonning holati tomoshabinga ishonarli ko'rinishi uchun ko'p hollarda "jonli" improvizatsiya kerak bo'ladi.

Mualliflik animatsiyasida musiqaning roli ko'pincha so'zdan ustun turadi, u dialog o'rnini bosuvchi badiiy tilga aylanadi. Aynan shu yo'nalishda yaratilgan S.Murotxo'jayeva ijodidagi "Hayot daryosi", D. Vlasovning "Kulol" va "Alla" filmlari o'zbekmualliflik animatsiyasining musiqiy ifoda orqali fikr yetkazishdagi yuksak namunalardir [3, p. 161]. Ushbu filmlarda rejissyorlar harakat, ritm va musiqiy atmosfera orqali inson kechinmalari, hayot aylanishi, ona mehrini yoki yaratuvchanlik mohiyatini so'zsiz bayon etadi.



2-rasm. "Hayot daryosi" multfilmi.

S.Murotxo'jayeva ijodidagi "Hayot daryosi" mualliflik animatsiyasi ramziy va falsafiy talqini

bilan ajralib turadi. Film ilk kadrda suv tomchisining tushishi bilan boshlanadi bu tomchi hayotning boshlanishi, poklik va vaqt oqimining timsoli sifatida qabul qilinadi. Butun film davomida inson hayoti daryo oqimiga qiyoslanib, tomoshabinni tug'ilishdan to yetuklikka qadar bo'lgan hayot yo'liga musiqiy va vizual uyg'unlikda hamroh etadi. Musiqa film dramaturgiyasining markaziy qatlamini tashkil etib, u bolalik yillarini eslatuvchi sokin va lirik ohanglardan boshlanadi, so'ngra inson ulg'aygani sari tembr va dinamika oshib, hayot oqimining murakkabligi va chuqurligini aks ettiradi. Shu tariqa, film musiqaning emotsional rivoji orqali inson ruhiy olamidagi o'sish, xotiralar va vaqtning o'tishini badiiy tarzda ifodalaydi.

Hozirgi kunda milliy animatsiyada musiqaning nafaqat estetik, balki pedagogik va madaniy-ta'sirchanlik jihatlari ham ahamiyat kasb etmoqda. Bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan animatsion filmlarda milliy kuy, raqs va ritmik harakat uyg'unligi orqali nafaqat ko'ngilochar, balki tarbiyaviy mazmun yaratiladi. Shu bilan birga, musiqa improvizatsiyasi orqali rejissyor va animator o'rtasidagi ijodiy hamkorlik yanada jonli, ekspressiv shakl oladi. Bugungi kunda musiqaning obraz, ritm va improvizatsiya orqali sahna ifodasini shakllantirishdagi badiiy imkoniyatlarini aniqlash muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Astir Animation Studio", "Futurist Studio", "Dip Animation Studio", "United Soft", "White Line" kabi yangi avlod studiyalari musiqiy, ta'limiy, sarguzasht va tarixiy janrlarda faoliyat yuritib, yosh tomoshabinlarga mo'ljallangan zamonaviy formatdagi animatsion filmlar yaratmoqda [4, 117-b]. Ular CGI, 3D modellash va motion design texnologiyalaridan foydalangan holda milliy qadriyatlar, o'zbek xalq ertaklari va zamonaviy g'oyalarni uyg'unlashtirishga erishmoqda. "O'zbek-film" qoshidagi multfilm ustaxonasining faoliyati yakunlanishi bilan milliy animatsiya sohasi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Uning o'rnini zamon talablari va raqamli texnologiyalarga asoslangan "O'zbekiston animatsiya studiyalari assotsiatsiyasi" 2020-yilda egallab, nodavlat notijorat tashkilot sifatida mustaqil studiyalarni birlashtirish, ijodiy hamkorlik muhitini yaratish va milliy kontentni jahon standartlari darajasiga olib chiqish vazifasini o'z zimmasiga oldi.

Musiqiy animatsion filmlar zamonaviy audiovizual madaniyatda nafaqat ko'ngilochar mahsulot, balki yosh avlodda madaniy va estetik idrokni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, bolalar animatsiyasida musiqaning ahamiyati alohida o'rin tutadi: unda yengil, quvnoq va didaktik ohanglar orqali voqealar mazmuni soddalashtiriladi, obrazlar xarakteri esda qolarli musiqiy temalarda ifodalanadi va harakat ritmi orqali e'tibor bolalarning idrok darajasiga moslashtiriladi. Shu jihatdan, o'zbek animatsiyasida yaratilgan so'nggi yillardagi loyihalarda, xususan, "Avtosarguzashtlar" va "Bek va Lola" kabi multseriallarda bu tamoyillar samarali qo'llanilgan. Ushbu seriallarda musiqiy fon nafaqat sahna bezagi, balki qahramonlar o'rtasidagi hissiy muloqot va dinamikaning ifodaviy tili sifatida ishlatilgan. Ayniqsa, "Bek va Lola"da har bir epizod xalq kuylarining zamonaviy talqinlari bilan uyg'unlashgan bo'lib, bolalar kayfiyatiga mos ohangdorlik yaratadi. Natijada, bu turdagi musiqiy animatsiyalar milliy ohangni saqlagan holda bolalar auditoriyasining estetik didini shakllantiradi, ularni musiqiy idrok, harakat va his-tuyg'u uyg'unligini anglashga o'rgatadi.

O'zbek animatsiyasida musiqa harakat, obraz va emotsiyani yagona estetik tizimda birlashtiruvchi yetakchi badiiy vosita sifatida shakllanib, film dramaturgiyasining ajralmas qismiga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqaning ritmik, tematik va improvizatsion tabiati qahramon xarakterini ochish, sahna dinamikasini belgilash hamda tomoshabin bilan hissiy muloqotni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, animatsiya janriga xos tarzda musiqaning tanlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bolalar animatsiyasida yengil, quvnoq va didaktik ohanglar, sarguzasht janrida esa kuchli ritmik urg'ular va tempning o'zgaruvchanligi voqeani dinamik ifodalashga xizmat qiladi. Lirik va mualliflik yo'nalishlarida esa musiqa sokin tembrlar, melodik takrorlar va psixologik pauzalar orqali ichki kechinmalarni aks ettiradi. Shunday qilib, o'zbek animatsiyasida musiqa janr talablari, harakat ritmi va milliy ohang uyg'unligi orqali badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi asosiy dramatik vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асенин С. Волшебники экрана. Эстетические проблемы современной мультипликации. – Москва: Искусство, 1974. – 16 с.
2. Mirzamuhammedova M. O'zbek animatsiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – 96 b.
3. Suleymanova K. Innovations in modern animation: author and experimental perspectives. European Journal of Arts, 2 (2024), –163 p.
4. Haydarova N. Multiplikatsiya tarixi. Darslik. – Toshkent: Turon-iqbol, 2023. – 117 b.

Ma'mur UMAROV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası professori, falsafa fanlari nomzodi

HOJI MUIN DRAMATURGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI ("TO'Y" PYESASI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshida O'zbek milliy teatri rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Hoji Muinning dramaturgik faoliyati tahlil qilingan. Asosiy e'tibor "To'y" nomli sahna asariga qaratilgan bo'lib, uning yaratilish tarixiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada Hoji Muinning asardagi sahna obrazlarida jadidlar g'oyasini ifodalashdagi yondashuvlari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbek milliy teatri tarixini chuqurroq tushunish va sahna ijodini yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: spektakl, teatr, aktyor, dramaturgiyasi, "To'y" asari, jadidlar harakati, milliy teatr, XX asr boshi adabiyoti, sahna san'ati.

Аннотация. В данной статье анализируется драматургическая деятельность Ходжи Муинна, который внес значительный вклад в развитие узбекского национального театра в начале XX века. Основное внимание уделено сценическому произведению «Свадьба», при этом особое внимание уделяется его истории создания. Кроме того, рассматриваются подходы Ходжи Муинна к воплощению идей джадидов в сценических образах. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию истории узбекского национального театра и развитию сценического искусства.

Ключевые слова: спектакль, театр, актёр, драматургия, произведение «Свадьба», движение джадидов, национальный театр, литература начала XX века, сценическое искусство.

Abstract. This article analyzes the dramaturgical activity of Hoji Muin, who made a significant contribution to the development of the Uzbek national theatre in the early 20th century. The main focus is on the stage work "The Wedding", with particular attention paid to its creation history. In addition, the article examines Hoji Muin's approaches to expressing the ideas of the Jadid movement in stage characters. The research results contribute to a deeper understanding of the history of the Uzbek national theatre and to the development of stage art.

Keywords: performance, theatre, actor, dramaturgy, "The Wedding" work, Jadid movement, national theatre, early 20th-century literature, stage art.

XX asr boshlarida o'zbek xalqining milliy uyg'onish davrida adabiyot va teatr san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda jadidlar harakati vakillari milliy ma'rifat va madaniyat rivojiga katta e'tibor berib, teatr san'ati xalqni ma'rifiy tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qo'llashga harakat qildilar.

Samarqand ijodiy muhitida mahalliy teatr san'ati rivojiga Behbudiyan keyin ulkan hissa qo'shgan shaxslardan biri Hoji Muin ibn Shukrullo (1883–1929) hisoblanadi. U "Mehrib" taxallusi bilan o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, nafaqat dramaturg, balki pedagog va ma'rifatparvar sifa-

tida ham faoliyat yuritgan. Hoji Muinning dramaturgik merosini o'rganish milliy teatr san'ati tarixi va jadidlar davridagi adabiy jarayonlarni chuqurroq tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning "To'y" asari o'zbek dramaturgiyasida alohida o'rin tutadi va milliy teatrlarning shakllanish jarayonini aks ettiradi.

Samarqand ijodiy muhitida mahalliy teatr san'ati rivojiga Behbudiyan so'ng ulkan hissa qo'shgan Hoji Muindir. Milliy uyg'onish adabiy muhitida "Mehriy" taxallusi bilan o'z faoliyatini boshlagan ijodkorning ismi va sharifi Hoji Muin ibn Shukrullo bo'lib, 1883-yilning 19-martida

Samarqand shahrida dunyoga kelgan. U yetti yoshida onasidan, 12 yoshida otasidan ajralib, bobosi Mirsaid Muhammadsharif nazoratida tarbiya topgan. Eski maktabda savod chiqargan. Madrasada Saidahmad Vasiliydan arab nahv (sintaksis)ini o'rgangan. Umuman, fors, turk, ozar tillarida erkin so'zlashish, o'qish va yozish salohiyatiga ega bo'lgan. Rus tilini, Yevropa madaniyatni mustaqil o'zlashtirgan va 1901-yildan o'qituvchilik faoliyati boshlagan. 1903-yilda o'z mahallasida "usuli jadid" maktabini ochgan. Ushbu maktab o'quvchilari uchun 1908-yilda "Rahnamoi savod" nomi bilan alifbo nashr ettirgan" [1, 462-b].

Adabiyotshunos tadqiqotchilar jadidlar ijodini o'rganib, ularni uyg'onish davridagi o'zbek adabiyoti deb atagan. Lekin Hoji Muin bilan "To'y" pyesasini birga yaratgan Nusratulla Qudratulla haqida Begali Qosimov ham ma'lumot topmagan. Shuhrat Rizayev esa 1914-yilda nashr qilingan "Jadid dramasi" kitobida "To'y"ni Nusratulla Qudratulla nashriyotga olib kelganda uni Hoji Muin afandining muovanat qalamiyasi ila tahrir o'lindi" deb yozilgan. Ziyolilar orasida "To'y" pyesasi haqida fikr bildirilganda faqat Nusratulla Qudratulla esga olingani uchun 1915-yili "Oyna" jurnalida sahna asarining muallifligiga to'xtalgan Hoji Muin, mazkur "To'y" risolasiining yarmidan ziyodasi manim shikasta qalamim ila yozulub, qolg'ani ham o'zimning isloh va tasxakim ila tartib qilinganligi uchun bu to'g'risidagi adabiy ma'suliyat manim ustimga tushsa kerak". Hoji Muinning mardonavor turib, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, haqiqattan ham, uni birinchi muallif sifatida qayd etishni taqozo qiladi" [2, 128-b]. Bu fikrga qo'shilib, Hoji Muinni milliy dramaturgiya rivojiga qo'shgan hissasiga to'xtalamiz. Demak, muallif "To'y" nomli sahna asarini hamkorlikda yozgan degan to'xtamga kelamiz. Undan tashqari yettita – "Juvonboshlik qurbonlari", "Boy ila xizmatkor", "Qozi ila muallim" (bular saqlanib qolmagan), "Eski maktab yangi maktab", "Ko'knori", "Mazluma xotun" o'z davrida nashr qilingan va sahnalashtirilgan. Keyingisi esa "Maorif qurbonlari" deb nomlanib ustoz Behbudiy xotirasiga bag'ishlangan edi.

Afsuski, mashhur adib Behbudiy hayoti va xotirasiga bag'ishlangan sahna asari, shogirdining ustoziga muhabbatini yoritgan xati saqlanib qolinmagan. Avvalo, "To'y" asari masalasiga to'xtalsak. Muqimiyning "To'y" mavzusiga to'xtalganiga 150 yil bo'ldi. Professor Begali Qosimov ham Hoji Muin hamda Nusratilla Qudratillaning "To'y" pyesasiga to'xtalib – "To'y mojarosi" o'zbek jamiyatida yuz yildan ortiqroq



davrdan buyon muhokama qilinadi, deydi. Mavzuning adabiyotimizga kirib kelganiga ham yuz yildan oshdi. Muqimiyning "To'y"i bu boradagi ilk tajriba edi. Atoqli shoir to'y bahonasida tabiatimizdagi ikki qusur – maqtanchoqlik va yaltoqlikni nishonga olgan edi" [3, 469-b].

Muqimiy yashagan davrda milliy uyg'onishga asos bo'lgan jadidlar harakati va ularning g'oyasi hali shakllanmagan edi. Mualliflar Muqimiy ta'kidlagan qusurlarni "To'y" pyesasiga asos qilib – maqtanchoqlik va yaltoqlanishni tagida savodsizlik yotganini, bu illatlarni rivojlanishga to'siq bo'layotganini yoshlarga uqtirish lozim deb hisoblaydilar. Jadidlar esa savodsizlikdan qutulish uchun maktablar va madrasalarni islohini boshlash zarur deb kuyunadilar. Islohotlarning afzalliklarini juda kam ziyoli yoki boylar anglaganini bilgan jadidlar o'z hisobidan milliy matbuot tashkil qiladilar. Gazeta va jurnallar orqali o'z g'oyalarini hamda "usuli jadid" maktablarining afzalliklarini targ'ib qildilar. Rivojlaniшни yana jadallashtirish uchun teatr tomoshalari orqali targ'ibot qilish muhimligini anglab yetgan jadidlar o'z teatrlarini tashkil qilishga kirishdilar. Bu masalaga birinchilardan bo'lib Hoji Muin kirishdi. Mintaqada nashr etilayotgan gazeta va jurnallarda teatr san'ati haqida turli mavzudagi maqolalarni e'lon qila boshladi. Mana dalil – "Teatrini ko'rgan va undan ta'sirlangan har qanday kimsa, uning nechog'lik foydali ekani, qanday hissiyotlar uyg'otishi va xushnudlik bag'ishlashini biladi". Bu Hoji Muinning 1912-yilda "Turkiston tuzem gazetasi"ning 12-fevralda e'lon qilingan "Teatr foydasi" maqolasidan parcha edi [3, 228-b].

Muallif 1914-yili yozilgan va gazetada e'lon qilingan maqolasida Behbudiy hamda Munavvar qorining maqolalaridan namunalar keltiradi. Agar Hoji Muinni "To'y" pyesasi haqida yozgan izohini va bu maqola mazmunini anglasak, u milliy teatr zaruratini his qilganini va Behbudiyning sohaga

oid nazariy qarashlarini qo'llab quvvatlaganini tushunamiz.

Hoji Muin 1913-yilda e'lon qilingan "Padarkush"ga jadidlar g'oyasi qanday singdirilganini anglagan va "To'y" pyesasida ham shu g'oyani singdira olgan. Buni o'zi ta'kidlab asarni tahrir qilib tizimga keltirganini bayon qiladi. Keling, shu fikrni dalillashga o'taylik. Behbudiy "Padarkush" janrini "milliy fojia" deb atagan va savodsizlik, hunarsizlik, hurmatsizlik hamda maishatga berilishni illat sifatida asos qilib olgan. "Padarkush" bu la'natlardan xalos bo'lish uchun ilmga da'vat qilish g'oyasini ilgari surilganligini anglagan mualliflar "To'y" janrini belgilamaydi. Uni o'qish davomida boylar bolalarini o'qitishga sarmoya sarflamay, savodsizlik natijasida "maqtanchoqlik", "manmanlik" qilishi atrof-dagilardan esa naf ko'rish umidida "yaltoqlik" qilishi ham "milliy fojia" ekanini anglab yetamiz.

Mualliflar "To'y"da ishtirok etadigan personajlarning barcha yosh qatlamini qamrab oladi. Ular "milliy fojia"ni ta'kidlash uchun bo'z bolalarni maishatga berilganini "Juvon" personaji orqali izohlaydi. Boyni atrof-dagi maslahatchilar o'z nafi yuzasidan yaltoqlansa, hunarsiz yoshlarni maishatga berilgani "Mayxo'rlar bazmi" ko'rinishida namoyish qilinadi. Ularga qarshi bo'lgan dunyo ko'rgan Hoji bobo – bizdan boshqalarda "To'y bazmi", "ko'pkari", "juvon o'yin", "mayxo'rlar majlisi" kabi isrofchilik yo'qligini ta'kidlashiga qaramay, boyning eskicha urf-odatlarini davom ettirishi ham "milliy fojia"dir. Demak, biz "To'y"dagi asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan mavzularni aniqlashga kirishamiz.

"To'y nomli sahna asarida ilk bor mualliflar parda ko'tarilganida tomoshabinlar guvoh bo'ladigan voqeani "Maslahat oshi" deb nomlaydi. Haqiqatdan ham har qanday to'y urf-odatlarga ko'ra "maslahat"dan boshlanadi. Agar ahil oila bo'lsa, avval ota-ona, so'ngra amakilar, amma, xolalar maslahatida reja aniq bo'lgach, mahalla oqsoqoliga xabar beriladi. Mualliflar parda ko'tarilganida Boyning mehmonxonasida "maslahat" uchun jamlanadiganlarga to'y oshi berish orqali, ularning fikrini bilib olinadi. Demak, biz uch savolga javob topish orqali mavzularni aniqlashga kirishamiz ular: nima bo'lyapti? – "maslahat oshi"; qayerda bo'lyapti? – boyning uyida; qachon bo'lyapti? – xufton namozidan

avval; sabab barcha o'z tirikchiligidan so'ng maslahatga keladi.

Behbudiy "Padarkush"da Domla va Ziyoli personajlari orqali jadidlar g'oyasini ochsa, "To'y"da Mirzo ismli bank xizmatkori orqali jadidlar g'oyasi ochiladi. Mirzo tomoshabinlar oldida, ko'rganlarini ular guvohligida muhokama qiladi. U xalqqa qarab – biz Turkiston musulmonlari, bu nodonlik balosidan qachon qutular ekanmiz? – deb so'raydi. Bu personaj omma oldida fojia oqibatini izohlab – "Bizlarni ilmsizlik, sharob xo'r qildi, juvonboz qildi, isrofkor qildi, oxir oqibat xonavayron qildi", deb faryod qiladi. Ko'rganlarini ommaga anglash uchun, barchamizga – "qalb ko'zi bersun", deb "milliy fojia"ni yakunlaydi. Muallif faqat "parda" iborasini qo'llaydi.

"To'y" nomli sahna asarida mualliflar qaysi mavzularni qamrab olganini aniqlasak, teatr ahli qanday urf-odatlarimiz borligini tomoshabinlarga ko'rsatsa, jadidlarning "oyna" qo'yish uslubi yanada aniq tus olardi. Tomoshabinlarga o'z holini sahnadagi "oyna" orqali ko'rsatish, ularni tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, ongida ijobiy o'zgarish yasash ma'rifatparvarlarning, jadid bobolarimizning oliy maqsadi edi.

Demak, "To'y"dagi qamrab olingan mavzular mualliflar qurib chiqqan voqealar rivojiga amal qilgan holda amalga oshiriladi. Unga kirishidan avval dramaturglarimiz o'z asari boshiga "Padarkush"da Ashxos – kerak odamlar"dan so'ng kerakli nimarsalar" kabi izohlar beradi. "To'y"da esa kerakli ashxos asbobi" kabi izoh bilan personajlar va jihozlar beriladi. Ularda barcha sahnalarda ishlatiladigan jihozlar, yeyiladigan ovqatlar, ichiladigan suyuqliklar, ular uchun ishlatiladigan idishlar ham tartib bilan izohlanadi. Bular ijrochilarning sahnadagi tabiiy harakatini ta'minlashga va ularni sodir bo'layotgan voqeaga erkin hamda ishonch bilan vazifani bajarishiga yordam beradi.

Bunday izohlar bugungi tomoshabin uchun hayotning aynan o'zi – naturalizm oqimiga berilish kabi tasavvur uyg'otishi mumkin. Lekin bu intilishni milliy teatrning ilk qadamidagi yutuq deb qarash lozim. Oradan ko'p o'tmay 1917-yildan siyosiy to'ntarilish sodir bo'lib, dunyoqarashlar o'zgaradi. Fitrat dramaturgiyasi paydo bo'ladi va mutaxassislar orzu qilgan darajaga ko'tariladi. Bu esa alohida tadqiqot mavzusi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 464 b.
2. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 318 b.
3. Raxmatullayev D. Tarix va teatr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 364 b.

Amangul UTEPBERGENOVA,
O'zDSMI Nukus filiali katta o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSTALLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON TELEVIDENIYESINING IJODIY ISHLARI

Annotatsiya. Maqaloda Qoraqalpog'iston televideniyesining mustaqillik yillaridagi ijodiy ishlari va televideniye sohasining rivojlanish davridagi muammolar va yutuqlari yangi arxiv materiallari, yodga olishlar va boshqa ma'lumotlardan foydalangan holda Qoraqalpog'iston televideniyesining yangi ko'rsatuvlari haqida qisqacha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: televideniye, ommaviy axborot, muharrir, rejissyor, ko'rsatuv, operator.

Аннотация. В статье кратко рассказывается о творческих работах каракалпакского телевидения в годы независимости и современных программах с использованием новых архивных материалов, эскизов и другой информации.

Ключевые слова: телевидение, массовая информация, редактор, режиссер, шоу, оператор.

Abstract. This article briefly describes the creative work of Karakalpak television during the years of independence and new programs on Karakalpak television, using new archival materials, sketches, and other information.

Keywords: television, mass media, editor, director, show, cameraman.

Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasining moddiy-texnik jihatdan modernizatsiyalanishi 2005–2011-yillarda davom etib, so'ngra Qoraqalpog'iston davlat teleradiokompaniyasi faoliyatida axborot resurslarini zamon talabiga mos shakllantirish va mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi izlanish davri boshlanadi. Chunki shu yillarda televideniye va radioga jurnalistlarning yangi avlodi kirib keladi, shu bilan birga, jahon axborot yetkazish tizimidagi bir qator o'zgarishlar, ya'ni, raqamlashtirish tizimining keng tarqalishi, shuningdek, ma'lumot tarqatish va uni yuklab olish (qabul qilish) imkoniyatlari batamom tezlashuvi sabab bo'ldi. Tadqiqotchi G.Raxmetkarieva O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi amaliyoti misolida "Olamni tahliliy va madaniy idrok etish asoslarini shakllantirib, televideniye shaxsning ijtimoiylashuvi, estetiklashuvi, intellektuallashuvi jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, bilim, vatanparvarlik, baynalmilallik, gumanistik intilishlari ustuvorlik sifatida dolzar-



blashtiradi" deb ta'kidlab, bugungi kunda o'zining ma'rifiy an'alarini yangi g'oyalar, konsepsiyalar bilan boyitib, ijodiy salohiyatini namoyon etadi va madaniy-axboriy makonni kengayib boyatganini aytadi [1, 34-b].

2012-yilning 1-iyunidan boshlab Qoraqalpog'iston telekanalining ko'rsatuvlarida bir-birini takrorlovchi, mazmunan yaqin ko'rsatuvlar soni qisqartirilib, birlashtirildi va yangi 16 nomdagi

ko‘rsatuvlar tashkil qilindi. Shuningdek, ma‘naviy-ma‘rifiy mazmundagi 30 ga yaqin ko‘rsatuvlar efir orqali yoritildi. Shu bois, Qoraqalpog‘iston televideniyesi va radiosida faoliyat olib borayotgan yoshlardan A.Kurbaniyazova, U.Yerimbetova, L.Yesemuratova, K.Bekbauliev, B.Otepovalar yangi televizion loyihalar bilan tomoshabinlarga tanila boshlagan. Har yili Mustaqillik bayrami arafasida har bir shahar va tumanlar miqyosida radio va telefestivallar tashkil etish an‘anaga aylangan [2, 4-b].

2013-yilning aprel oyidan boshlab Qoraqalpog‘iston televideniyesi teledasturlari “Uzdigital TV” raqamli formatidagi efir setkasiga kiritildi. 2013-yilning 1-iyunidan boshlab ish boshlagan dublyaj studiyasi faoliyati tufayli kichik teletomoshabinlar multfilmlarni qoraqalpoq tilida ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqilligimizning 20 yilligi arafasida Qoraqalpog‘iston televideniyesi ko‘rsatuvlar vaqtini kuniga 14 soatga yetkazdi. Respublika aholisi Qoraqalpog‘iston televideniyesining ertalabki, kunduzgi va kechki ko‘rsatuvlarini tomosha qilishlari mumkin edi. Masalan, axborot dasturlari tahririyati “Xabar” dasturini har kuni uch tilda olib boradi. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati va Yangi yil bayramiga, 8-mart Xotin-qizlar bayrami, 9-aprel Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Xotira va qadrlash kuni (9-may), Butunjahon bolalarni himoya qilish kuni (1-iyun), Mustaqillik kuni (1-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni (8-dekabr) va boshqa bayramlarga bag‘ishlangan konsert tadbirlari berilib bordi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ko‘rsatuvlar tahririyatlari tomonidan tayyorlangan ko‘rsatuvlar hajmi oyiga 14–15 soatgacha oshirildi. Shuningdek, ko‘rsatuvlar hajmining kengayishi ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi “Kóz-qaras”, “Jaqsidan sharapat”, “Alis ótmishten saza”, “Hayal baxti” kabi yangi loyihalarni efirga uzatish imkonini berdi.

Shu yillari Qoraqalpog‘iston televideniyesida ko‘rsatuvlar setkasi biroz qayta shakllanib, bir qator yangi ijodiy loyihalar efirga uzatilgan. Masalan, axborot dasturlari tahririyati jamoasi dasturlaridan “Inson va tabiat” (Insan hám tábiyat), “Nigoh” (Kóz qaras), “Ayol baxti” (Hayal baxti), “Ochiq muloqot” (Ashiqtan ashıq sóylesiw), “Adolat ko‘zgusi” (Ádillik aynası), “Deputat minbari” (Deputat minberi), “Iqtisodiyot va biz” (Ekonomika hám biz), “Salomatlik qadri” (Salomatlıq qádiri), “Mustahkam oila” (Bekkem shańaraq), “Tug‘ilgan yer dalasida” (Tuwılǵan jer dalasında), “Jahon sport yulduzlari” (Jáhán sport

julduzlari), “Poytaxt” (Paytaxt), “Erkin fikr” (Erkin pikir), “El tinchligi uchun” (El tınıshlıǵı ushin), “Oila muqaddas maskan” (Shańıraq muxaddes dárgay), “Ogohlik – davr talabi” (Qıraǵılıq dáwir talabı), “Munosabat” (Múnásebet), “Xabar + intervyu”lar efirga uzatilgan. Bu ko‘rsatuvlarda iqtisodiy va ekologik savodxonlikni targ‘ib qilish bilan birga, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, intizom, safarbarlik misollarida tomoshabinni o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarishiga yo‘naltirish, o‘zaro yordam, bag‘rikenglik, oliyjanoblik namunalari bilan o‘zaro hurmatni tarbiyalash orqali televideniye jamiyatning ijtimoiy va axloqiy qiyofasiga ta‘sir etmoqda. Bizning nazarimizda Qoraqalpog‘iston radio va televideniyesining muhim axloqiy va fuqarolik vazifasi bo‘lib qolmoqda [3, 7-b].

Teletomoshabinlarning estetik dam olishi va hordiq chiqarish ehtiyojlarini qondirish musiqiy-ko‘ngilochar dasturlar tahririyatining asosiy vazifasi bo‘lib, ijodiy guruh tomonidan tayyorlangan “Meni túsin ...”, “Jaslar menen”, “Yosh”, “Baqslar lapızı”, “Náwpir”, “Kásibim sırları”, “Ómir sabaqları”, “Bilim ring”, “Ayqulaq”, “Muzıka sırları”, “Mıyras”, “Ózbekstan – ulıwma úyimiz”, “Do‘stlik gulshani” va boshqalar berib borilmoqda. “Ullı zıban”, “Sazlar sıyqırı” ko‘rsatuvlari tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Masalan, “Baqslar lapızı”, “Mıyras” kabi ko‘rsatuvlarda gap qoraqalpoq baxshichilik (baqsi) san‘ati haqida edi. Avloddan-avlodga o‘tib, o‘tmishning buyuk ustozlari haqida tarixiy ma‘lumotlarni taqdim etish, shuningdek, tomoshabinlarni yangi avlod baxshi va jirovlari bilan tanishtirish haqida so‘z yuritilar edi. “Meni túsin ...”, “Jaslar menen”, “Yosh” kabi ijodiy loyihalar yoshlarga qaratilgan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston televideniyesining ijodiy guruhi tomonidan jamiyat madaniy hayoti va kommunikativ sohasida yosh tomoshabinlarni intellektual, badiiy axborot bilan ta‘minlashi jihatidan yetakchi maqomga ega bo‘lishga intilishini ko‘rsatadi. “Ózbekstan – ulıwma úyimiz”, “Do‘stlik gulshani” kabi ko‘rsatuvlarda rus, qozoq, turkman va respublikamizda istiqomat qiluvchi boshqa millatlar madaniyati, urf-odatları va madaniy merosini saqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, respublikamizda millatlararo do‘stlik va hamkorlik yo‘li bilan madaniy, ma‘rifiy va ma‘naviy yuksalish sari birgalikda shahdam qadamlar qo‘yish masalasiga qaratilgan edi. Aziz va muqaddas bo‘lgan jonajon yurtimizda turli millat vakillarining tinch va totuv istiqomat qilayotganligi, yagona Vatan tushunchasining qalblarda hukmron ekanligi mamlakatimiz

mustaqilligi va taraqqiyotining muhim garovi bo'lib xizmat qilayotganligi namoyish etilardi [4, 12-b].

2021-yillarga kelib, Qoraqalpog'iston televideniyesining ko'rsatuvlar kontenti kengayib, yangi ijodiy loyihalar telejurnalistlarning yosh avlodi tomonidan tayyorlanib, "Bilim ring", "Umr saboqlari" (Ómir sabaqlari), "Musika sirlari" (Muzika sirlari), "Sozlar siqiri" (Sazlar siyqiri), "Yulduzli oqshom" (Juldizli aqsham), "Ayqulaq", "Qanotli qo'shiqlar" (Qanatli qosiqlar), "Go'zallik siri" (Gózálliq síri), "Náwpir", "So'z gavhari" (Sóz gáwhari), "Adabiyot va davr" (Ádebiyat hám dáwir), "Kino + teatr", "Sport mening umrim" (Sport meniń ómirim), "Oila sporti" (Shańıraq sportı), "O'yla, izla, top" (Oylan, izlen, tap), "Hayvonot dunyosi" (Xaywanatlar dúnyası), "Sport", "Awhalıń qalay awıllas", "Kasbim sirlari" (Kásibim sirlari), "Qaldirg'och" (Karlıgash), "Túlkishek", "Meros" (Mıyras), "Chaqqonlik maydoni" (Shaqqanlıq maydanı), "Kim epchilu, Kim chaqqon" (Kim epshil, kim shaqqan), Maktab o'quvchilarining konserti "Parvoz" (Mektep oqıwshılarınıń konserti "Párwaz"), "Sirli olam" (Sırlı álem), "So'nmas yulduzlar" (Sónbes juldızlar), "Baqslar lapızı", "Ullıń zıban", "Epchillik sinog'i" (Epshillik sınağı) teledasturlari ham yuqorida ta'kidlangan maqsad-vazifalarni amalga oshirish xatti-harakatlari deb baholash lozim [5].

Qoraqalpog'iston televideniyesi jamiyatimizning rivojlanishida, uning estetik zavq olishi bilan obod turmushi, insonparvarlikning yangidan yangi bosqichlarida xizmat qilish ishida faol ishtirok etishga urinayotganligini ko'rsatadi. 2014-yil ikkinchi dublyaj studiyasi ishga topshirildi va kino va televizion filmlar qoraqalpoq tiliga dublyaj qilina boshladi. Bir qator islohotlar, jumladan, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi natijasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi ijodiy jamoasi tomonidan avval kam uchraydigan janrlar – qoraqalpoq tilida teleseriallar va dublyaj ishlarini amalga oshirish imkoniyatini berdi. Masalan, 2016-yil yakuni bo'yicha 134 soat 14 daqiqa teleseriallar, telenovellalar, dublyaj qilish ishlari amalga oshirilgan. Jumladan telemahsulotlardan "Bir dostıń bolsın" (20 qismdan iborat – 10 soat, 45 daqiqa), "Arziwli jollar" (5 qismdan iborat – 2 soat, 34 daqiqa) teleseriali, "Ómir sabaqlari" turkumidagi telenovellalar (1 soat, 32 daqiqa), "Sıyqırlı bilyard" badiiy filmi (1 soat, 34 daqiqa) ishlab chiqarildi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi dublyaj studiyasida 2016-yil yakuni bo'yicha 122 soat,

25 daqiqalik telemahsulotlar dublyaj qilindi. Jumladan, badiiy filmlar (70 soat, 05 daqiqa), ilmiy-ommabop filmlar (40 soat, 10 daqiqa), multfilmlar (12 soat, 10 daqiqa)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, aytish joizki, televideniye boshqa ijtimoiy tarmoqlar bilan raqobatdosh bo'lib, unga ijtimoiy tarmoqlarga xos bo'lgan mobillik va kontentning rang-barangligi yetishmas edi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz yoshlariga zamon talabiga mos ta'lim-tarbiya berish jarayoniga yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tizimi va internet tarmog'i imkoniyatlarining joriy etilishi o'zining samarasini oshirish omili ekanligini anglatmoqda. Jahonda shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan AKT tizimi va internet tarmog'idan samarali foydalanish yoshlarning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirib, o'zligini namoyish etishlariga imkon berayotganligi ham yangi zamonaviy texnologiyalarning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Televideniye ijtimoiy tarmoqlardan o'zligi yoshlarimizga o'z intellektual salohiyatlari va qobiliyatlarini, iste'dodlarini namoyon etishlarida, ta'lim-tarbiya jarayonida zamon talabiga muvofiq barcha zarur imkoniyatlar va ijodiy g'oyalarning amalga oshirilmayotganligida, shu bilan birga, mamlakatimiz bo'ylab har bir oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasasi, maktab va boshqa ta'lim muassasalari texnika vositalari bilan ta'minlanib, internet tizimidan ham maqsadli va mazmunli foydalanish imkoniyatlari yaratilgan [6, 56-b].

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy dasturlar bosh muharririyati esa, asosan, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarning, Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Qarorlar va Farmonlarning maqsad va mazmunini keng jamoatchilikka tanishtirish va mana shu islohotlarning joylarda bajarilishini yoritib borishdan iborat edi. Prezidentimiz rahnamoligidagi inson manfaatlarini himoya qilish, xalqimizning farovonligini bundan buyon ham yuksaltirish, totuvlik, mehribonlik muhitini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli ishlarni yoritib borish – eng muhim vazifalari sanaladi. Jumladan, "Davir nafasi", "Iqtisod va ishbilarmonlik", "Qoraqalpog'iston", "Inson va qonun", "Shanba to'liqlarida", "Salomatlik sirlari", "Tabiat va inson", "Talab va mas'uliyat", "Qaror va uning ijrosi", "Kun mavzusi", "Jamiyat va din", "Nukus va nukusliklar", "Qalqon", "Deputat minbari", "Hazrati dehqon", "Avtopatrul", "Zamanlas", "Elge xizmet adiwli minnet", "Obod mahalla obod turmush", "Obod

turmush obod vatan”, “Dunyo voqealari sharhi”, “Ota makon”, “Mulk egasi”, “To‘rtinchi hokimiyat”, “Shifokor maslahati”, “Ilm-ishlab chiqarishga” radioteledasturlari efirga uzatilgan [7, 23-b].

Umuman olganda, mustaqillik yillari Qoraqalpog‘iston televideniyesi faoliyati rivoji jarayoni o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ushbu sohaning respublika siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotidagi rolining oshishiga asos bo‘ldi. Jumladan, radio va

televideniye sotsiomadaniy institut sifatida faollashishi bevosita uning samaradorligini, badiiy zaxiralari va milliylik ahamiyatini o‘rganish va tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lib, u tobora dolzarblik kasb etmoqda. Sotsiomadaniy samaradorlik Qoraqalpog‘iston televideniyesining texnik, tasviriy va ifodaviy vositalarini uyg‘unlashtirib, madaniy-axborot maydon va ta’sir doirasini kengaytirishiga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatkariyeva G. Milliy televideniyeining sotsiamadaniy samaradorligi, badiiy resurslari va xususiyatlari: San’atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. dis. ... – Toshkent, 2019. – 11 b.
2. Мадреимов Т. История возникновения и развития средств массовой информации Каракалпакстана в 1930-1990 гг.) (радиовещание и телевидение): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1997. – 10 с.
3. Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasining joriy arxivi, 2013 yil.
4. QR MDA, ф.12, оп.3, д.553, л.371.
5. QR MdA, М-576-ф. 1-руyh. 65-ish.
6. Мадреймов Т. История возникновения и развития средств массовой информации Каракалпакстана в 1930-1990 гг.) (радиовещание и телевидение): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1997. – 10 с.
7. QR MDA, ф.12, оп.3, д.553, л.371.

SOZGARLIK SAN'ATIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Maqolada nomoddiy madaniy merosning an'anaviy hunarmandchilik yo'nalishida sozgarlik sohasi, uning bizgacha yetib kelishi, cholg'u sozlari va musiqa bilimlari to'g'risida mutafakkir olimlar risolalaridagi fikrlar, cholg'u sozlari yasash mumkin bo'lgan daraxt turlari, misol tariqasida rubobni yasalishi va Usta Usmonning "Tamaraxonim" rubobi, hamda sozgar va sozanda hamkorligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: sozgarlik, duradgor, temirchi, chilangar, Amati, Stradivari, Gvarneri, Bergonsi, Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, torlari bam, masnas, masne, g'o'la, palyon.

Аннотация. Статья обогащена информацией о сфере созгарлыка в направлении традиционных ремёсел нематериального культурного наследия о его дошедшем до нас виде, а также об идеях мыслителей в трактатах учёных о музыкальных инструментах и музыкальных знаниях, видах деревьев, из которых можно изготовить созгарлык, например, изготовление рубаб и рубаб "Тамараханым" Уста Усмана, а также о сотрудничестве созгарлыка и музыканта.

Ключевые слова: созгарлык, плотник, кузнец, слесарь, Амати, Страдивари, Гварнери, Бергончи, Фароби, Ибн Сина, Сафиуддин Урмави, торлари бам, маснас, масне, зир и хадд, гола, палён.

Abstract. The article is enriched with information on the field of sozgarlyk in the context of traditional crafts of intangible cultural heritage, its surviving form, the ideas of thinkers in scholarly treatises on musical instruments and musical knowledge, the types of wood from which sozgarlyk can be made, such as the production of rubab and the "Tamarakhanim" rubab by Usta Uthman, as well as the collaboration between sozgarlyk and musician.

Keywords: sozgarlyk, carpenter, blacksmith, metalworker, Amati, Stradivari, Guarneri, Bergonchi, Farobi, Ibn Sina, Safiuddin Urmavi, torlari bam, masnas, masne, zir and hadd, gola, paleon.

"Sozgarlik san'ati qadimlar qaridan avloddan avlodga, ustozdan-shogirdga kuzatishlar, bilim-ko'nikma, tajribalarni o'rgatish yo'li orqali o'tib, saqlangan va rivojlanib kelgan. Sozlar ayrim hollarda, sozgarlik kasbidan tashqari duradgor, temirchi, chilangar, cho'pon va sozandalar tomonidan ham tayyorlanib kelingan. Dunyoning qaysi burchagida tayyorlangan qanday soz bo'lsin, bir xil cholg'ular ham bir-biridan akustik xususiyatlari, hajmi, ko'rinish shakli, temblari, qismlarining farqlanishlari bilan ham ajralib turgan" [1, 3-b]. Bunday holat dunyo tanigan cholg'u ustalari Amati, Stradivari, Gvarneri, Bergonsi va boshqa ustalar ijodlarida ham kuzatilgan. Provvardida, cholg'u uchun

muhim omil hisoblangan tiniq tovush, chiroyli tembr ustida olib borilgan izlanishlar olimlar tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan. Bu borada ona zaminimizda yashab o'tgan mutafakkir olimlarimiz risolalariga e'tibor qilamiz. Farobiy (Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy: 873-yil, Farob shahri – 951-yil, Damashq) – O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi) risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubob cholg'usi haqida to'liq ta'rif beradi. Uning davridagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab rezonator va dastasining uzunligi ham aynan shunga yaqin bo'lgan. Ular ikki xil chertma torli bo'lgan: 1 – asosiy qismi yog'ochdan iborat, yog'och dekali, 2

– pastki qismi charmdan ishlangan dekali cholg'u bo'lgan.

Abu Ali al-Husain ibn Abdulloh ibn Sino (Buxoro yaqinidagi qadimiy Afshona qishlog'ida 980-yilda tug'ilgan, 1037-yilda esa Hamadonda olamdan o'tgan. Qisqartirilgan nomi Ibn Sino – Avitsenna serqirra tibbiyot xodimi, fizik, faylasuf, matematik, astronom, kimyogar va musiqashunos) – “Davolash kitobi” deb nomlangan yirik qomusining “Musika haqida risola” bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari yoritilgan. Ibn Sino o'z davri (tirnama) musika cholg'ularini ikki guruhga bo'lib ko'rsatadi: mizrobli, noxunli (barbat, tanbur, rubob) va butun rezonator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira), chang (arfa). Bunda rubob tushunchasi ostida g'ijjakka o'xshagan, torlari mo'jazgina kamoncha bilan chalinadigan musika cholg'usi nazarda tutilgan. Risolada nay (fleyta), surnay va Vizantiya organun (muzmar, muzamir) kabi damli cholg'larning tuzilishi ham bayon etilgan.

Yana bir Sharq mutafakkiri, usta, ud cholg'uvchisi, xonanda, mohir bastakor Safiuddin Urmaviy ud cholg'usida tajribalar olib boradi va o'zining nazariy qoidalarini bayon qiladi. “Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud deb ataluvchisi eng mashhur va eng zamonaviysidir”. Ud cholg'usining besh juft tori, kvarta tartibidagi 7ta maqomi (lad) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masne, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgani aytiladi. Besh qo'sh torli, takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolganligining guvohimiz [2, 18–19-bb.].

Qo'sh torli cholg'u – dutor haqidagi ilk ma'lumotlar Al-Husayniyning XV asrda yaratilgan musika risolalarida uchraydi. “Dutor” atamasining paydo bo'lishiga uni shaklan o'xshash, ko'p torli boshqa cholg'ulardan (ozarbayjoncha soz, tanbur, ud kabi) farqlash asosiy sabab bo'lgan [3, 8-b].

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy xalq cholg'ulari haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abdullohi Lori, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Mavlono Qosim Rabboni, Sulton Ahmad, rubobchilar aka-uka Shayx Abu Bakr Rabboniy va Shayx Bexduchi Dono, qonunchi Shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olinadi.

Binobarin sozgar ustalar asrlar mobaynida o'z ishlariga o'ta kuchli yondashib, xalqning ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondira oladigan har



tomonlama mukammal va go'zal cholg'ular yasab keldilar. Shu tariqa musiqiy cholg'ular yasashning vaqt sinovidan qiymatini aniq yo'l-yo'riqlari vujudga keldi va bu yo'l-yo'riqlar sozgar ustalar avlodlari mehnatining samarasi sifatida umrboqiy odamlarga aylandi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, sozgarlik binosi shunchaki hunar uchun zarur tartib va qoidalar yig'indisi emas, balki o'tmishda sozgarlar yaratgan va avloddan avlodga o'tib kelgan amaldagi tajribalar tizimidir. Ana shunday asosda ro'yobga kelgan mukammallik sozgarlikka mansub qoidalar tizimini vujudga keltirdi. Bu qoidalar avvalambor, sozgarlikda ishlab chiqarishni ta'minladi. Ayni vaqtda, sozgarlikda mahorat darajasini belgilovchi o'ziga xos mezonga aylandi. Shuningdek, u sozgarlikka mansub bilimlarni asrlar mobaynida tanazzuldan saqlab qoldi.

Ustoz sozgarlar tajribasiga ko'ra, cholg'u sozlarini yasash uchun tut, o'rik, yong'oq, olxo'ri, zang, olcha, do'lana, archa, qayrag'och, qarag'ay, chinor, tol va namligi yuqori bo'lgan o'lkalarda o'sadigan bug, klyon, sosna, el, grab kabi daraxtlar alohida o'rin tutadi. Qaysi sozni yasash maqsadida o'lchami bilan kesilgan daraxt g'o'la shaklda yoki, palyon (g'o'lani to'rtga bo'lingani) shaklida har bir sozgar ustaning o'z tajribasi, malakasidan kelib chiqib quritiladi. Yurtimiz sozgar ustalarining bilim va ko'nikmalari o'laroq, tanlagan yog'och g'o'lasi yoki palyoni bir oy davomida suvga botirib qo'yiladi. Bu jarayonda yog'och yelimdan tozalanadi. Keyingi jarayonda yog'ochning uch va oxiriga alf yoki kraska surtib (yorilmasligi uchun), salofan plyonkaga o'rab, qumga (kimdir tuproqqa) ko'mib qo'yadi. Yaxshi sozgar yog'ochini eng kamida besh yil saqlab, keyin ishlatadi. Ayrim ustalar kun va shamol

tegmaydigan quruq xonalarda ham saqlab foydalanishadi. Shuning uchun ko'p ustalarning uzoq va yaxshi saqlagan materiallari farzandlari, nabiralari, yoki shogirdlariga nasib etadi [1, 3-b].

Bir cholg'u sozining tayyorlanishi misolida o'zbek milliy cholg'ularining gultoji bo'lgan – Qashqar rubob cholg'usini misol tariqasida tanladik.

Rubob – qadimiy torli cholg'u sozi bo'lib, uning ilk shakllari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda ushbu sozni ilk bor Afg'oniston, Hindiston va Eron hududlarida paydo bo'lgan cholg'u sozi sifatida tilga olinadi. Vaqtlar o'tishi bilan o'rta asrlarga kelib, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

“Rubob” so'zi arabcha “rabab” – torli cholg'u degan ma'noni anglatadi, lekin u o'zi arablardan oldin mavjud bo'lgan bo'lishi mumkinligi aytiladi.

Bu ajoyib cholg'u hozirda o'zbek, tojik, uyg'ur, afg'on va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Ba'zi olimlar tomonidan, qadimda 2 torli kamonli rubobdan zamonaviy skripka yuzaga kelganligi aytiladi. Hozirda rubobning uch xili mavjud: qashqar rubobi, afg'on rubobi va pomir rubobi. Afg'on rubobining 2 ta nomi bor: tojik rubobi va buxoro rubobi. Qashqar rubobi Sharqiy Turkiston (Uyg'uriston) Qashqarda keng tarqalganligi sabab, qashqar rubobi deb ataladi. Qashqar rubobning kosa qismi ikki xil, o'yma va qovurg'ali tarzda tayyorlanadi. O'yma rubob professional cholg'u hisoblanib, yetuk sozandalar va professional jamoalar uchun mo'ljallangan. Qovurg'ali rubob – yangi o'rganuvchi va qiziquvchi yoshlar uchun tayyorlanadi. O'yma rubob – kosasi tut yog'ochidan, dasta qismi o'rik yoki yong'oq yog'ochidan, quloq tomoni (boshliq) yong'oq yog'ochidan tayyorlanadi. Xarak, shaytonxarak (etim xarak) va mediator (mizrob) ebonit, quloqlari tol (boshqa yog'ochdan ham 50mm dan 110mm gacha) tayyorlanishi mumkin. Xarakning uzunligi odatda 25mm dan 40mm gacha bo'ladi. Kosasiga baliq terisi qoplanadi. Tovushlar oralig'ini belgilovchi kataklar (avvallari eshilgan ichakdan) latun yoki misdan, kosa tomonida simlarni ilgichi (torgir) rangli metaldan (ebonit, shoh) tayyorlanadi. Pastgi va o'rta simlari (avvallari ipak va ichakdan) (Iya va mi) po'latdan, tepa sim (re) jilka yoki eshilgan ichakdan tayyorlanadi. Xarak bilan shaytonxarak torlarni ko'tarib turuvchi va yana cholg'uning akustik o'lchovini to'g'ri belgilab berishga xizmat qiluvchi qismidir. Xarak va shaytonxarakning noto'g'ri tayyorlanishi cholg'uning har tomonlama mukammalligiga ta'sir qiladi. Tovushlar orasini belgilovchi pardalarni simmitrik

o'lchamini buzilishiga, torlarning balandlashishi barmoqlarga botishi, standartdan past bo'lishi bir parda bosilganda ikkinchi pardaga ham tegib qolishi, sozga tushmasligi va ovozning o'zgarishi ham kuzatiladi. Qashqar rubobining uzunligi 80–100 sm. Kosasining oldida shoxga o'xshagan ikkita gajagi bor. Ular shakl berish bilan birga, yuqori notalarni chalishda chap qo'l uchun tayanch vazifasini bajaradi [1, 22-b].

Qashqar rubobi dastasida 19 tadan 24 tagacha parda bo'ladi. Eski ruboblarda pardalar ichakdan boylangan bo'lsa, hozirgi zamonaviy ruboblarning pardalari yuqorida ta'kidlaganimizdek rangli mis yoki latun metalidan qilinadi. Qashqar rubobi beshta simdan iborat. Ular kvarta-kvinta oralig'ida sozlanadi [2, 29-b]. Bugungi kunda qay bir milliy cholg'umiz haqida gap ketmasin, sozgar Usta Usmon Zufarovni yod etmaslikni iloji yo'q. Uning mehnatlarini, avlodlarga meros qoldirgan bilim va ko'nikmalarini dasturi amal qilib davom ettirish siz-u bizning sharaflı burchimizdir. Usmon Zufarov, (1892–1981-yil) – sharq musiqa sozlari ustasi, o'ymakor naqqosh. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Usta Usmon sozlarni tayyorlash davomida ikki xil usul bilan dasta o'tkazar edi. Dutor, tanbur kabi cholg'ularning qorni va dastasini “trapetsiya” shaklida “tirnok” ochish yo'li bilan ulagan. Ikkinchi usul bilan o'yma kosali rubob va afg'on ruboblar qornidagi dasta o'rnidan “qaldirg'och dumi” shaklida “tirnoq” ochilib, dastaning ostki tomonidan esa shu “tirnoq” oralig'iga moslab “uchlik” (nayza uchiga o'xshash) tayyorlanadi va har ikkisiga yelim surtib, “qaldirgoch dum” orasiga joylashtiriladi. Qismlarning bir-biriga ulanishidayoq yuksak mahoratning bir shingilidan bahramand bo'lasiz. Usta Usmon sozgarlikda dator, tanbur, rubob, sato, chang, doira, g'ijjak cholg'ularini yasashni san'at darajasiga olib chiqdi [3, 164-b]. 1937-yili o'zining zamondoshi, ajoyib, betakror Tamaraxonimning go'zal raqsidan ilhomlanib, uning raqsni ifodalovchi rubob yaratadi. Usta Usmon bu gal ushbu rubobni xuddi dator singari qovurg'alarni bir-biriga yelimlash orqali yig'ma usulda yasadi. Rubobning shoxlarini alohida, zulf, ya'ni burama gajak shaklida o'ta nozik qilib ishladi. O'ziga g'oyat ma'qul bo'lgan bu shoxlarni rubob kosasi tepasi, ya'ni dasta oldiga birini pastga, ikkinchisini yuqoriga qaratib yelimladi. Ustaning ko'z oldida Tamaraxonimning bir qo'li beliga tiralgan, bir qo'li esa boshi uzra egilgan raqs harakati namoyon edi. Rubobning quloqlari joylashtiriladigan boshlig'i (galovka)ni ham an'anaviy ruboblardan farqli o'laroq, yarim doira

shaklida, xuddi inson boshini namoyon qiluvchi ko'rinishda ishladi. Shundan keyin, rubob shoxlarini sadaf va suyaklardan gul ochilib turgan buta shaklidagi naqsh bilan bezadi. "Tamaraxonim" nomi bilan mashhur ushbu rubob – o'sha davrning ilg'or musiqashunos olimlari, I.Akbarov, V.A.Uspenskiy, A.A.Semyonov, T.S.Vizgo, Yu.Kon, K.Olimboyevalar tomonidan "noyob" (antikvar) deb tan olindi. Hozirda "Tamaraxonim" nomli ushbu rubob O'zbekiston Davlat konservatoriyasi qoshidagi "Musiqiy cholg'ular" muzeyida, 29-raqam ostida saqlanib kelinmoqda. Ushbu mavzuda kichik e'tiborni rubob cholg'usiga qaratdik. Aslida, yaratilgan har bir milliy soz katta bir ilmiy tadqiqot ishi bo'la oladi.

Sozgarlik va musiqa cholg'ularining rivojlanishiga, takomillashuviga, mukammallashuviga albatta yetuk sozandalar bilan ijodiy hamkorlik muhim rol o'ynagan. Buning isboti o'laroq, Usta Usmon Zufarov yasagan ruboblarni O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev, ustazoda san'atkor, taniqli sozanda va bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Shavkat Mirzayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, sozanda Tohir Rajabiy va boshqalarni yorqin misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Sozlar siymosini yanada jozibali ko'rinishida sozgar va sozanda muloqoti ayniqsa e'tiborlidir. Musiqa madaniyatimizda barhayot tizim bo'lgan bu muloqot musiqa san'atimizni milliyligini ta'minlovchi o'ziga xos zamin vazifasini hal-hanuz o'tab kelmoqda. Bu xususda, Usta Usmon Zufarov bir vaqtlar shunday degan edi: "Qachonki sozanda tayyor cholg'uni qo'lga olib, kuy chalsa, bu kuyni tinglagan shinavandalar "ofarin" deb qarsak chalishsa, mana shu qarsaklar sozning mukammalligini tasdig'i bo'ladi". Usta Usmon Zufarovning sozgarlik sohasidagi olib borgan ishlarini san'at yo'nalishidagi oliy dargohlarda,



musiqa maktablarida dars sifatida o'quv mashg'ulotlariga kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy musiqa madaniyatimiz tarixida ana o'sha ustoz va shogirdlar sozgarlik sohasini moziyning necha ming yillik yo'llaridan mukammal holda, bekam-u ko'st olib o'tganlar [3, 34-b]. Muhimi shundaki, ular sozgarlik sohasini tarix yo'llaridan shunchaki olib o'tibgina qolmadilar, balki sozgarlikning ma'naviy ildizi, amaliy qonunlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirib ketdilar.

Xulosa qilib aytganda, Usta Usmon va u kabi sozgarlar tomonidan ishlangan cholg'ular o'zbek xalqining ma'naviyati, alaloqibat, milliy mafkurasini namoyon etuvchi asriy obidalaridir. Milliy sozgarlikning barhayot an'anasi esa ularning onasidir.

2024-yil 5-dekabr Paragvay poytaxtida YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining 19-sessiyasi yig'ilishida "Rubob cholg'usi sozgarligi va ijrochiligi san'ati" nomzodnomasi O'zbekiston tashabbusi bilan Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishining o'ziyoq, an'anaviy sozgarlikning naqadar bebaho meroslarimizdan ekanligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 184 b.
2. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. – Toshkent: Fan, 2007. – 132 b.
3. Rasultoyev J., Melixo'jayev O. O'zbek cholg'ularini yasash va ta'mirlash. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 168 b.
4. Zufarov T. Soz va sozgarlik tarixi. – Toshkent: Meriyus, 2014. – 256 b.
5. Nazarov O. Qashqar rubobida o'qitish uslubi. – Toshkent: Fan, 2008. – 112 b.
6. Xolmirzayev O. Ansambl ijrochiligi. – Jizzax: Sangzor, 2018. – 140 b.
7. Nurmatov H. Qashqar rubob taronalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1989. – 96 b.

Kamola ABIDOVA,
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
"Tahririy-noshirlik bo'limi" bosh mutaxassisi

NOMODDIY MADANIY MEROS TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nomoddiy madaniy meros tushunchasi, uning nazariy va milliy yondashuvlari xususida so'z boradi. Nomoddiy madaniy meros durdonalarini aniqlash va asrab-avaylashning innovatsion usullari yoritiladi hamda sohada amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Xususan, Madaniyat vazirligi huzuridagi "Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti"ning bu boradagi jadal qadamlari soha rivoji uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqot, nomoddiy madaniy meros, milliy yondashuvlar, nazariy asoslar, madaniyat, qadriyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие нематериального культурного наследия, его теоретические и национальные подходы. Также будут освещены инновационные методы выявления и сохранения объектов нематериального культурного наследия, проанализирована работа, проводимая в этой области. В частности, ускоренные действия Научно-исследовательского института культурологии и нематериального культурного наследия при Министерстве культуры обеспечат прочную основу для развития этой области.

Ключевые слова: исследования, нематериальное культурное наследие, национальные подходы, теоретические основы, культура и ценности.

Abstract. This article examines the concept of intangible cultural heritage, its theoretical and national approaches. Innovative methods for identifying and preserving intangible cultural heritage will be highlighted, and work in this area will be analyzed. In particular, the accelerated efforts of the Research Institute for Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage under the Ministry of Culture will provide a solid foundation for the development of this field.

Keywords: research, intangible cultural heritage, national approaches, theoretical foundations, culture and values.

*"Nomoddiy madaniy meros – bu xalqimizning qalbida saqlanayotgan bebaho xazina. Har bir urf-odat, an'ana va xalq ijodini asrab-avaylash, avlodlarga yetkazish – bizning eng oliy burchimizdir"*¹.

Sh. M. Mirziyoyev

XXI asrda globalizatsiya jarayonlari jadallashib borar ekan, har bir xalq o'zining milliy madaniyati, urf-odat va qadriyatlarini asrashga alohida e'tibor

qaratmoqda. Xususan, nomoddiy madaniy meros insoniyatning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutadi. Bu meros xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligining asosi, avlodlararo ruhiy bog'liqlik vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, madaniy meros, xususan, nomoddiy madaniy qadriyatlarni asrash, tiklash va rivojlantirish borasida qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bu boradagi davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Xalq

¹ Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-martdagi Xiva shahridagi Ichon qal'a majmuasiga tashrifi chog'ida aytilgan nutqidan

ijodi, an'anaviy san'at, urf-odatlar, udumlar va boshqa nomoddiy madaniy meros elementlarini muhofaza qilish milliy taraqqiyot siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Nomoddiy madaniy meros — bu jamiyat a'zolari tomonidan avloddan-avlodga o'tkazilib kelinayotgan, ularning madaniy o'ziga xosligini belgilovchi va ijtimoiy-madaniy hayotda muhim rol o'ynovchi an'anaviy bilimlar, ko'nikmalar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, san'at shakllari hamda xalq og'zaki ijodi kabi nomoddiy qadriyatlar yig'indisidir.

2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya"da nomoddiy madaniy meros quyidagilarni o'z ichiga oladi:

✓ Og'zaki an'ana va ifoda vositalari – ertaklar, maqollar, afsona, dostonlar, xalq qo'shiqlari.

✓ Ijro san'ati – musiqa, raqs, teatr, maqom, ashula.

✓ Ijtimoiy urf-odatlar, marosimlar, bayramlar – to'ylar, azalar, xalq bayramlari.

✓ Tabiat va olam haqidagi bilimlar va tajriba – xalq tabobati, yil fasllarini belgilash, ommaviy obodchilik amaliyotlari.

✓ An'anaviy hunarmandchilik ko'nikmalari – kulolchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalar [1].

UNESCO tomonidan tan olingan nomoddiy madaniy meros insoniyatning umumiy boyligi hisoblanadi va uni asrab-avaylash, rivojlantirish har bir xalqning muhim vazifasidir.

Nomoddiy madaniy merosning shakllanish bosqichlari:

1-bosqich: *Ibtidoiy jamiyat davri.*

– Og'zaki ijod, miflar, ertaklar va diniy marosimlar shakllanadi.

– Totemizim, animizm va shamanizm kabi e'tiqodlar asosida marosimlar paydo bo'ladi.

2-bosqich: *Qadimgi sivilizatsiyalar davri.*

– Urf-odatlar tizimlashadi.

– Meros og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tadi.

3-bosqich: *O'rta asrlar.*

– Diniy bayramlar, xalq urf-odatlari keng tarqaladi.

– Og'zaki ijod (dostonlar, maqollar) yuksak rivoj topadi.

4-bosqich: *Yangi davr (XVIII–XIX asrlar).*

– Milliy o'zlik kuchayadi, madaniyat yozuvga olinadi.

– Madaniy merosni tizimli to'plash harakatlari boshlanadi.

5-bosqich: *Zamonaviy davr (XX–XXI asrlar).*

– UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar

nomoddiy merosni himoya qiladi.

– Madaniy meros raqamlashtiriladi, saqlanadi va targ'ib qilinadi [4].

Tarixan har bir xalq yoki millat o'zining ming yillik an'ana, urf-odat, marosimlari bilan boshqa millatlardan ma'naviy jihatdan ajralib turgan. Albatta bunga yana bir qator inson ma'naviyati bilan bog'liq tushunchalarni keltirib davom ettirish mumkin. Ammo oddiy xalq ishonadigan va ishonib bajaradigan shunday ma'naviy diniy tadbirlar va marosimlar borki, buni boshqa xalqlarda aynan kuzatish qiyin. Shu jihatdan har bir xalqning o'zligini namoyon etib turadigan bunday meroslar qadimdan xalq og'zaki ijodi na'munalari, folklor tarkibida bo'lgan. Har bir xalqda kuzatiluvchi takrorlanmas bu meros madaniyatlararo turli-tumanlikni ko'rsatib, ularni bir-biridan kamsitmagan holda ajratib kelgan. Dunyo suratining tezlashuvi barcha sohalarda moddiy va ma'naviy sohada ham qator o'zgarishlarga olib keldi. Natijada rivojlangan jamiyatlar barcha sohalarda o'z imkoniyatlarini namoyon eta boshladi.

Mustaqillik sharofati bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham qayta tiklandi. Mazkur atama keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning mohiyatida, tub ildizlarida xalqimizning og'zaki ijod namunasi sifatida qarab kelinayotgan qadimiy folklor hamda milliy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar, odat, marosim, bayramlar, shuningdek, ijro san'ati namunalari yotadi. Bu tushuncha sohaga aylanib bugun dunyo bo'yicha e'tirof etilayotgani – globallashuv jarayoni bilan bog'liq. Dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi – olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlari, marosim va udumlari haqida so'z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Buni his qilgan xalqlar hozirda o'z milliy xususiyatlari va merosini saqlab qolish, uni muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazish borasida keng ko'lamli kurash olib bormoqda. Xususan, YUNESKO 1990-yillardayoq Insoniyat nomoddiy madaniy merosini muhofazaga olish taklifi bilan chiqdi. Mazkur tashkilot shu bugungacha moddiy merosni muhofaza qilish borasida Konvensiya va konsepsiyalar ishlab chiqqan bo'lib, nomoddiy meros bo'yicha ko'tarilgan taklif bu sohadagi ilk qadamlardan bo'ldi.

YUNESKO 2001-yilda nomoddiy madaniy meros ta'rifini kelishilgan holda ishlab chiqish maqsadida, a'zo davlatlar va nodavlat tashkilotlari o'rtasida so'rov o'tkazadi. Maxsus bir ta'rifga kelishilgach, 2003-yil 17-oktabr Parij shahrida Nomoddiy madaniy meros muhofozasi bo'yicha

Konvensiya qabul qilingan. Davlatimiz ham 2008-yili ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilib, unga a'zo bo'ldi. Shu munosabat bilan, nomoddiy madaniy meros masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi 222-son qaroriga asosan, 2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturining qabul qilinishi o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu dasturni ijro etish maqsadida esa respublikamizning 38 tashkilot va muassasalari birlashtirildi. Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodika markaziga davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniy meros masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muassasa maqomi berildi.

Tarix, san'at, fan, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtayi nazaridan har tomonlama beqiyos qimmatga ega bo'lgan madaniy meros obyektlari "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya" hamda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya"da belgilangan tartibda, tegishli Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritish yo'li bilan jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilishi mumkin. Madaniy meros obyektlari tarixiy-madaniy ekspertizasining xulosasi asosida madaniy meros obyektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi takliflar hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasiga yuboriladi [5, 116-b].

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, targ'ib qilish va rag'batlantirish ishlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori bilan "2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" tasdiqlangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochi sifatida belgilanib, unga:

- Davlat dasturi monitoringini yuritish;
- muntazam ravishda har bir yil yakunida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etish;
- Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritiladigan nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish va hujjatlashtirish ishlari, aksariyat hollarda, obyekt joylashgan joyda tashkil etiladi [2].

Bu ishga davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislar mustaqil ekspertlar sifatida jalb etilishi mumkin. Bunda, Markaz belgilangan tartibda mustaqil ekspertlar bilan shartnomalar tuzadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-sonli qarori qabul qilindi.

Nomoddiy madaniy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishni ta'minlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2024-yil 1-apreldan boshlab:

a) noyob va (yoki) yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha: madaniyat vazirligi tomonidan birinchi bosqichda ushbu toifadagi nomoddiy madaniy meros namunalari saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga nomoddiy madaniy meros namunalari asrab-avaylash, ommalashtirish va keyingi avlodga yetkazish borasidagi faoliyatida ko'maklashiladi hamda ularning bu boradagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari belgilab beriladi; ushbu ko'rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalari saqlovchi shaxslar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi hisobidan har oyda 5 million so'm miqdorida rag'batlantirib boriladi;

b) alohida ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha: nomoddiy madaniy meros namunalari yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi; audiovizual asar yaratish bo'yicha davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshiriladi [3].

Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, "Hunarmand" uyushmasi va Madaniy meros agentligining nomoddiy madaniy meros namunalarini "tayyorlash, o'rgatish, tiklash, saqlash, ommalashtirish" yaxlit uzluksiz tizim asosida rivojlantirish bo'yicha taklifi ma'qullandi. Bunda, tajriba tariqasida Farg'ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg'ilon shahridagi Hunarmandchilik markazida tegishli quyidagilarni ta'minlaydi: atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlari tayyorlanadi, ularni tayyorlash "ustoz-shogird" tamoyili asosida yoshlarga o'rgatiladi, ilmiy tadqiqotlar, ko'rgazma va namoyishlar tashkil qilinadi, ularning savdosi yo'lga qo'yiladi; doimiy ekspozitsiyalar yaratiladi, shuningdek, atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlarining eng yaxshi namunalari "Milliy merosga mening hissam!" umumxalq aksiyasi doirasida davlat muzeylariga xarid qilib olinadi.

Qarorda quyidagilar tasdiqlandi:

Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish rejas;

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgani inobatga olinsin hamda uning asosiy vazifalari;

YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati;

2024–2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejas;

2024–2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejas; 2024–2026-yillarda nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish rejas;

2024–2026-yillarda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari);

2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha "yo'l xaritasi". 2024-yil 1-oktabrga qadar "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratsin hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilish ko'zda tutilgan.

"Qadriyat" elektron platformasida:

– *nomoddiy madaniy merosni, shu jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini o'zida saqlovchi va yetkazuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularning ro'yxati;*

– *nomoddiy madaniy merosni, jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini elektron hujjatlashtirish, hisobini yuritish va ular haqidagi materiallar, matn, foto va boshqa audiovizual asarlar;*

– *sohaga oid xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalari materiallari, xalqaro ro'yxatlarga kiritilgan nomoddiy madaniy meros namunalari haqidagi batafsil ma'lumotlar joylashtiriladi hamda muntazam ravishda yangilab boriladi;*

– *"Qadriyat" elektron platformasini yaratish bilan bog'liq xarajatlar Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasiga ajratilgan budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi hamda elektron platformani doimiy ravishda modernizatsiya qilish, texnik qo'llab-quvvatlash va faoliyat yuritishi Institut tomonidan ta'minlanadi [3].*

Quyidagilar Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari hisoblanadi:

– *madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlash;*

– *xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, yurtdoshlarimizni milliy madaniyatimiz va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan keng bahramand etish, jamiyatning madaniy-estetik ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish;*

– *madaniyat tashkilotlari, jumladan, madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalari, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog'lari ning faoliyatini, shuningdek, madaniy-ommaviy, konsert-tomosha, gastrol tadbirlari, xalq ijodiyoti, badiiy hunarmandchilik, amaliy san'at turlari hamda xalq o'yinlarini ilmiy o'rganish va ularni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash;*

– *madaniyat, san'at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik hamda nomoddiy madaniy meros sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, etnofolklor ekspeditsiyalarini uyushtirish, sohada innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish;*

– O'zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy meros muhofazasini tashkil etishning nazariy va ilmiy metodologik asoslarini yaratish;

– mamlakatimiz hududlaridagi nomoddiy madaniy meros elementlarining milliy ro'yxatini yuritish, hujjatlashtirish, muhofaza va nazorat qilish, bu yo'nalishda davriy hisobotlarning tayyorlanishi va doimiy ravishda yangilab, to'ldirib borilishini ta'minlash, ularning namunalari umume'tirof etilgan xalqaro ro'yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish;

– aholi o'rtasida, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish, ommalashtirish hamda bu sohada ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish;

– ta'limning barcha turlari uchun nomoddiy madaniy meros sohasi bo'yicha ta'lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, shu jumladan, audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallarni tayyorlash [3].

O'zbekistonda hozirgi kunga qadar YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga O'zbekiston tavsiyanomalariga binoan quyidagi 14 ta obyekt kiritilgan: Shashmaqom (Tojikiston

bilan birgalikda, 2008); Boysun madaniy muhiti (2008); Navro'z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya bilan birga, 2009. Mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Turkmaniston ham qo'shilgan, yangilangan tarkibda – 2016); Katta ashula (2009); Askiya (2014); Palov madaniyati va an'analari (2016); Xorazm raqsi "Lazgi" (2019); Miniatyura san'ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birga, 2020); Baxshichilik san'ati (2021); Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an'analari (2022); Ipakchilik va to'quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish (2022); "O'zbekistonda kulolchilik san'ati" (2023); "Bezak san'ati: naqqoshlik" (2023-yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya hamkorligida); "Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an'analari" (2023-yil). Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash, avaylash, targ'ib etish va kelajak avlodga bus-butun yetkazish barchamizning burchimizdir [6].

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, biz avlodlarni ajdodlarimiz bilan bog'lab turgan ko'p asrlik nomoddiy madaniy meros "ko'prigi"dan bus-butunligicha foydalanib, biz ham albatta kelajak avlodlarga yetkazishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Zero, ushbu "ko'prik" – bizning an'alarimiz, qadriyatlarimiz, tariximiz va o'zligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya". Parij, 2003-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida". 2010-yil 7-oktabr. 222-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2023-yil 25-dekabr. PQ–405-son.
4. Yusupaliyeva D. Q. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib etish masalalari. – Toshkent, 2024. – №4 (2).
5. Xolmo'minov M. O'zbekiston madaniyati va san'ati // O'zDSMI xabarlar jurnali. – Toshkent, 2024. №2 (29). – 116 b.
6. Axmedov J. Z. O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi // FarDU ilmiy xabarlar. Volume 30, Issue 3, 2024.

ERGASH MASOFAYEV REJISSURASI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek rejissura san'ati rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan Ergash Masofayevning ijodiy faoliyati va "Diydor" teatrini tashkil etilishidagi o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, rejissyorning respublika teatrlaridagi ijodiy mehnat faoliyati va o'ziga xos uslubiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: teatr, rejissyor, aktyor, dramaturg, rassom, spektakl, talqin, badiiy yaxlitlik, kompozitor, chiroq ustasi.

Аннотация. В статье рассматривается творческая деятельность Эргаша Масофаева, внесшего особый вклад в развитие узбекского режиссёрского искусства и его роль в организации театра «Дийдор». Кроме того, анализируется творческая работа режиссера в театрах Республики и его уникальная методика.

Ключевые слова: театр, режиссёр, актёр, драматург, художник, спектакль, интерпретация, художественная целостность, композитор, фонарщик.


Abstract. The article discusses the creative activity of Ergash Masafayev, who made a special contribution to the development of the Uzbek directing art and his role in the organization of the theater "Diydor". In addition, the director's creative work in the theaters of the Republic and his unique methodology are analyzed.

Keywords: theater, director, actor, playwright, artist, performance, interpretation, artistic integrity, composer, lamplighter.

Teatr – sintetik san'at turi hisoblanib, unda dramaturg, rejissyor, aktyor, liboslar bo'yicha rassom, ssenograf, kompozitor, boymaster, baletmeyst, chiroq ustasi hamda grimyor hamkorlikda o'z ijodiy faoliyatini olib boradi. Ular hamkorlikda yaratgan spektakl alohida tomosha turi hisoblanib, tomoshabinlarning hissiyotlarini qo'zg'atishga, ularni sodir bo'layotgan voqea yuzasidan o'ylantirishga, ruhiy va ma'naviy jihatdan ozuqa olishiga qaratilgan. Shuning uchun teatr o'zining ko'p qirrali ijodi bilan bir spektaklda ko'plab san'at turlarini o'z ichiga qamrab oladigan badiiy qudratga egaligiga nisbatan sintetik tomosha turi deb hisoblangan va bu jarayonga rejissyor rahbarlik qilgan.

Milliy teatr san'ati rejissurasida o'ziga xos ijodiy faoliyat yuritgan Ergash Masofayevning sarmahsul va mashaqqatli izlanishlarini uning o'zbek teatr san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasini hamda o'ziga xos uslubiya-tini alohida o'rganish lozim. Buning uchun avvalo, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Jo'ra Mahmudov qalamiga mansub bo'lgan "Ergash Masofayev – iste'dodlarni kashf qilib" nomli kitobini o'qishga kirishdik.

Ergash Masofayev katta teatrga ilk qadamini



talabalik davridayoq qo'yib, Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi ijodiy jamoaga S.Saidumarovning "Zafar va Zarrina" nomli asari asosida sahnalashtirgan

“Diplom spektakli” bilan boshlagan ekan. Teatr san'ati shaydosi bo'lgan keyinchalik yetakchiga aylangan rejissyor ijodiy faoliyati davomida 40 dan ortiq turli janr va shakldagi spektakllarni sahnalashtirgan. Ular orasida shov-shuvlarga sabab bo'lgan “Birinci bo'sa” spektakli bo'lib, u 500 martadan ko'proq o'ynalib, uzoq yillar davomida teatr repertuaridan joy egallaganligiga amin bo'ldik.

Kitob muallifi ular qatorida rejissyorning 1 yoki 2 marta qo'yilgandan so'ng qayta eslanmagan spektakllari ham mavjudligini ta'kidlaydi. Lekin Ergash Masofayev har bir spektakl ustida oylab ijod qilganligini va o'z kasbiga juda mas'uliyat bilan qaraganligini ijodiy jamoadan ham xuddi shunday munosabat va temir intizomni talab qilganligi hurmat bilan ta'riflangan. Ergash Masofayev shaxsiga to'xtalgan muallif, bu inson iqtidorli, izlanuvchan rejissyorligi, u o'zi ishlab, ijod qilayotgan teatr uchun jonini fido qiluvchi, tinimsiz mehnat qiladigan, yangilik izlashdan charchamaydigan, hali hech kim kashf qilmagan shakllarni topishga harakat qilganligini alohida ta'kidlaydi. Yosh rejissyorlarga o'rnak bo'lgan *“Rejissyor faoliyatidagi muhim jihatlardan biri shu ediki”,* – deb alohida to'xtaladi – *“U har bir aktyor bilan individual ishlar, ulardagi mavjud qobiliyatlarni ochishni o'zining vazifasi deb bilar edi. Bu tanlagan yo'li orqali rejissyor mahoratli aktyorlar jamoasini shakllantirishga erishdi va ko'plab yosh aktyor hamda aktrisalarni kashf etdi. Haqiqatdan ham, rejissyor izlanuvchan ijodkor sifatida aktyorlarning tasavvuri va fantaziyasini maqsadga muvofiq ishga tushirishga qodir bo'lgan tilsimni qidirishdan charchamadi. Aktyor qalbiga eng qisqa va oson eltuvchi yo'lni umr bo'yi qidirib o'tdi. Shuning uchun hamisha “Teatr – tomoshabin uchun” degan oliy maqsad bilan yashadi”,* – deydi Jo'ra Mahmudov [1, 12-b].

O'z davrida yosh ijodkorlar hisoblangan aktyorlar bugun el orasida mashhur shaxslardir. Masalan: O'zbekiston xalq artistlari – Shirin Azizova, Malika Ibrohimova, Murod Rajabov, Aziza Begmatova; O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – To'g'on Rejemetov, Dono Boboxonova, Madina Mahmudova, Noila Toshkenboyeva, Turdibek Sodiqov, Jumadullo Rametov, Isamat Ergashev, Farhod Aminov; teatr va kino artistlari – Asror Toshkenboyev, Noila Toshkenboyeva, Xayidali Nizomiddinov, Adolat Kimsanova, Mirpo'lat Mirkamolovlardir.

Rejissyorning aktyorlar bilan individual ishlab, asarda personaj xarakteriga mos qirrasini ixtiro qila bilishi, har bir spektakllarning muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qilgan. Aktrisa Aziza Begmatovaning bu masalaga munosabatini fikrimizni isboti sifatida keltiramiz – “Rejissyor

Ergash Masofayevdan minnatdorman. Chunki, mashhur spektaklni qobiliyatli rejissyor yaratadi, olqishlarga esa biz aktyorlar sazovor bo'lamiz. Rejissyor pardaning ortida qolib ketadi. Agar spektakl yomon chiqib qolgudek bo'lsa, biz artistlar parda ortiga o'tib, hamma aybni rejissyorga to'nkaymiz. Achchiq gaplarni biz uchun ham rejissyor eshitadi. Ergash akaning bag'ri keng professional rejissyor ekanligiga spektaklning muvaffaqiyatsizlikdagi yukini o'z zimmasiga olganda tan berganman. Men – Aziza Begmatovani aktrisa sifatida rejissyor Ergash Masofayev kashf qilgan, desam sira mubolag'a bo'lmaydi” [1, 16-b].

Ergash Masofayev repetitsiya jarayonida aktyorlarning sahnadagi harakatlarini dramatik va psixologik jihatdan kuchaytirishga alohida e'tibor bergan. Asardagi berilgan shart-sharoitdan kelib chiqib, har bir obrazning ichki dunyosini ochib aktyor sahnada personajning qanday hissiyotlarini ko'rsatishi lozimligini o'ziga xos tarzda amalga oshirgan. Chunki, har bir aktyorning sahnadagi ijrosi va uning obraz yaratish jarayoni bevosita rejissyorning asar talqiniga yondashuviga bog'liq. Rejissyor talqini nafaqat o'ziga xos sahna qahramonlari xarakterini yaratadi, balki butun spektaklning dramatik va estetik tuzilishini badiiy yaxlitlikka olib keladi.

O'ziga xos ijodiy uslubga ega rejissyor aktyor bilan rol ustida ishlashda avvalo, u ijro qiladigan xarakterga oid psixologik va dramatik jihatlarni aniqlab olishga yordam beradi. Shundagina har bir rol, faqat tashqi ko'rinish, grimm va kastyumlar orqali emas, balki ichki tuyg'ular, kechinmalar va qahramonning ichki tug'yonlarini ham qamrab oladi.

Ergash Masofayev sahnalashtirgan spektakllarning muvaffaqiyatli chiqishi uchun faqat bir aktyorning, ya'ni bosh qahramonning ijrosi yetarli emas edi, balki sahnadagi barcha personajlarning maqsadga muvofiq qurilgan o'zaro munosabatlari ham muhim hisoblanganidadir. Jonli ijro talabgori bo'lgan rejissyor aktyorlarni bir-birlarini eshitishga, bir-birlarining xarakterini baholashga, sahnada tug'ilgan his-tuyg'ularini to'g'ri qabul qilishga o'rgatadi. Shuningdek, sahnaviy o'zaro maqsadni aloqalar, muloqot jarayonida yuzaga keladigan jonli to'qnashuvlar, hissiy ziddiyatlar va o'zgarishlar o'zaro munosabatlarni to'g'ri qabul qilishga, berilgan shart-sharoitlarni to'liq tasavvur qilishga imkon beradi. Natijada aktyorni sahnadagi erkin va jonli muloqotida, uning ichki dunyosini, hissiy holati va rolga bog'liq bo'lgan kuchli emotsional tuyg'ulari to'g'ri o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Aktyorning jonli muloqotiga qurilgan, rejissyor Ergash Masofayev sahnalashtirgan spektakllar, o'zining ma'naviy mazmuni, g'oyaviyligi, badiiyligi, talqindagi o'ziga xosligi hamda badiiy yaxlitligi

bilan ajralib turadi. Sababi, har bir kartina, personaj xarakteri, aktyorlar ijrosi, sahnaviy kompozitsiyani anglashga ko'maklashayotgan chiroq, musiqa, shovqin, texnika, jihozlar o'ziga xos tarzda bu maqsadni yorqinroq ifodalashga yordam beradi hamda inson ruhiyatiga ta'sir qilishga intiladi.

Mashhur rejissyor faoliyatini o'rganishga zarurat paydo bo'lishiga sabab, uning izlanishlari yoshlarni tarbiyalashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Uning ijodiy uslubi yillar davomida, davr taqozosi bilan faoliyat yuritgan teatrlarida o'z aksini namoyon etdi. O'ta talabchan rejissyor faoliyati davomida quyidagi teatrlarda ijod qilgan. Bular: Toshkentdagi Yosh gvardiya; Yo'ldosh Ohunboboyev nomidagi Yosh tomoshabinlar teatri; Tojikiston Respublikasi Dushanbe yoshlar teatri; Jizzax viloyat musiqali teatri; Qarshi viloyat musiqali teatri; "Ilhom" teatr studiyasi edi. Rejissyorning eng so'nggi ijod qilgan maskani "Diydor" yoshlar eksperimental teatr studiyasi bo'lgan. Avvaliga, bu teatr "Parvoz" nomi ostida tashkil etilgan. Ushbu teatrning bosh rejissyori va badiiy rahbari Ergash Masofayev edi.

Rejissyorning bu teatrdah sahnalashtirgan ilk spektakli Maksim Karimovning muallifligidagi "Diydor" nomli asari bo'lgan. Yangi teatr ochgan rejissyorning ilk sahnalashtirgan spektakli ham "Diydor" deb atalib, u yosh tomoshabinlar o'rtasida mashhurlikka erishib, mutaxassislarning e'tirofiga sazovor bo'lgan. Bu sahna asari o'spirin yoshlar hayotidagi muammoli vaziyatlarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, unda ikkinchi jahon urushi yillaridagi qiyinchiliklar, insonlar dardi ochib beriladi.

Shu o'rinda Jo'ra Mahmudovning fikrlari o'rinli – "Diydor" pyesasida urushdan keyingi jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar jarayoni drama voqealariga asos qilib olinadi. Asarda urush jarohatlaridan aziyat chekkan insonlarning taqdiri, urush vabosi tufayli vayron bo'lgan oilani, hamda vatanni tiklash muammosi ko'tarilgan. Bu tiklanish, vatanparvarlik his-tuyg'ulari, sadoqat va hiyonat, odamiylik, ota va farzandlik burchi kabi tushunchalar orqali ochib beriladi. Spektaklning rejissyorlik badiiy talqinida poetika, ko'tarinki ruh, shukuhli holatlar, masrurlik kabi hissiyotlar yetakchi o'rin egalladi" [1, 24-b].

Ergash Masofayev o'zbek teatr san'atini rivojlanishida o'zining o'rniga ega rejissyorlardan

biridir. 1967-yili Akademik Xamza teatri yangi binoga ko'chganligi sabab, ilk marotaba teatr binosida yangi teatr ochadi. Yoshlar tarbiyasi kelajak uchun tayanch deb bilgan ijodkor 1968-yilda "Yosh gvardiya" nomli teatr ochadi va bosh rejissyor etib tayinlanadi. Bu teatrdah sahnalashtirgan spektakllarda rejissyor inson ruhiyatini chuqur tahlil qilib, jamiyatdagi muhim ijtimoiy va ma'naviy masalalarni hal qilishga intiladi. Milliy teatr san'atini yanada jonlantirish, repertuarni zamonaviylik va ma'naviy qadriyatlar bilan to'ldirish maqsadida, u o'z spektakllari talqinini yangi uslublar bilan boyitib, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni ochib berishga harakat qilgan.

Ergash Masofayev xizmat qilgan barcha teatrlarida sahnalashtirgan va namuna darajasiga ko'tarilgan spektakllarda o'zining badiiy didini va estetik tuyg'usini yuqori saviyada namoyon etgan. Demak, u rejissyorlik faoliyatida sahna dizayni, yoritish tizimi, kastyum, musiqa, grimm kabi badiiy ifoda elementlarini birlashtirgan va tomoshabinni asar voqeasiga to'liq jalb qilishga harakat qilgan.

Sahnada aktyorlar tomonidan bajarilayotgan maqsadli xatti-harakatlarining mantiqiy, uzviy ketma-ketlikda bo'lishini, personajlarning o'zaro munosabatini, dekoratsiyalar va yoritish tizimi orqali spektakllarda ijtimoiy masalalarni juda nozik did bilan ochib bergan. Sababi, ijodkor teatrni jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirishdagi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni namoyish qilishdagi, inson xarakteri haqida tasavvur uyg'otishdagi badiiy vosita deb bilgan. Natijada uning teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, sahnaning badiiy qudrati tomoshabinni, g'oyaviy va ma'naviy jihatdan ta'sirlantiruvchi, mafkuraviy tomondan yuksaltiruvchi tomosha turi deb bilganligida edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ergash Masofayev rejissurasi, sahnalashtirgan spektakllari, o'zbek teatrining rivojlantirishidagi tarixiy bosqich edi. Uning ijodi teatrni jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarini aks ettirish vositasi sifatida namunaga aylandi. Shuning uchun mashhur rejissyor sahnalashtirgan asarlari badiiylikka, estetik tuyg'ularga, psixologik kechinmalar badiiyligi hamda ijtimoiy masalalarga qaratilganligi bilan tomoshabinlarni o'ylantirganligi va chuqur hissiyotlar uyg'ota olganligi bilan ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov J. Ergash Masofayev – iste'dodlarni kashf qilib. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
2. Mahmudov J. O'zbek teatr rejissurasining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
3. Karimov M. Zamonaviy o'zbek teatrida rejissyorlik talqinlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
4. To'xtasinov M. O'zbek teatrida rejissyorlik maktablari evolyutsiyasi. – Toshkent: O'zDSMI, 2021.

Ernazar YARBEKOV,
O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası professori v.b.

AKTYORNING SHAKLLANISHIDA KUZATUV MASHQLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada komil inson tarbiyasida adabiyot va boshqa barcha san'at turlari qatori teatr san'atining ham o'rnini borligi, teatr maktabining poydevori bo'lmish aktyorlik mahorati texnikasi va uning maqsadlari, aktyorlik mahorati elementlaridan biri – kuzatuvchanlik xislatini rivojlantirish mashqlarining uslubi va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: aktyor, kuzatuvchanlik, tasavvur, xotira, mantiq, izchillik, mohiyat, hayvonot olami, xarakter, plastika, odamlar kuzatuv.

Аннотация. В статье рассматривается роль театрального искусства, наряду с литературой и всеми другими видами искусства, в воспитании гармонично развитой личности, техника актерского мастерства, являющаяся основой театральной школы, и ее цели, а также методы и значение упражнений для развития наблюдательности, одного из элементов актерского мастерства.

Ключевые слова: актер, наблюдательность, воображение, память, логика, последовательность, сущность, животный мир, характер, пластика, наблюдение за людьми.

Abstract. This article examines the role of theater, along with literature and all other arts, in nurturing a harmoniously developed personality. It also examines acting technique, which is the foundation of theater school, and its goals. It also examines the methods and importance of exercises for developing observation, one of the elements of acting.

Keywords: actor, observation, imagination, memory, logic, consistency, essence, animal world, character, movement, observation of people.

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so’zlari keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak.”¹ Bu so’zlarning zamirida barcha jabhalar qatori, biz faoliyat yuritayotgan soha – teatr san’ati ta’limiga ham tegishli maqsad yotadi. Ya’ni, bugungi kun ijodkorini tarbiyalash bilim berishning eng kichik elementlariga ham e’tibor qilishni talab etadi. Chunki ana shu eng kichik element kasb egallashda asosiy omillardan biri sanaladi.

Har bir kasb ma’lum bir hajmdagi bilimni,

ko’nikma va malakani talab etadi. Bularsiz tanlangan sohada o’zimizni mutaxassis deb atashimiz mumkin emas. Badiiy ijod sohasida, inchunun. San’atning tanlangan sohasi asoslarini o’zlashtirmay turib uni egallashning iloji yo’qligini hamma yaxshi biladi. Ammo aktyorlik san’ati haqida so’z ketsa, shu zahoti turli fikrlar va qarashlar paydo bo’ladi. Aytishlaricha, qobiliyatli aktyorga hech qanday maktabning keragi yo’q, qobiliyatsiz aktyorga hech qanday maktab yordam berolmaydi. Bu fikrdan aktyorlik san’atiga o’qish shart emas, aktyor bo’lib tug’ilish kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Bo’lajak aktyorda qobiliyat bo’lishi kerakligi haqidagi fikrga nisbatan hech qanday e’tiroz bo’lishi mumkin emas. Ammo iqtidorli musiqachilar, qo’shiqchilar va balet

¹ Mirziyoyev Sh. – 2022-yil 20-dekabrda Oliy majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

raqqoslari tabiat bergan iqtidorlarini rivojlantirish, o'z san'atlarining texnikasini egallash uchun yillab mehnat qilishlarini qanday baholash mumkin? Nega teatr aktyori uchun faqat tabiat bergan qobiliyatning o'zi kifoya qilishi kerak?

Haqiqiy san'at qobiliyat va mahoratning birlashuvidan paydo bo'ladi. Mahorat esa yillar davomida to'plangan tajriba va an'analar maktabi orqali shakllanadi. Maktab o'quvchining tabiat bergan xislatlariga ishlov beradi va uni rivojlantiradi, unga kerakli bilim va ko'nikmani beradi, uni egiluvchan va har qanday ijodiy vazifani bajara oluvchi ta'sirchan shaklga olib keladi.

Birinchi o'zbek dramaturgi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr – bu ibratxonadur" degan so'zlariga tayanadigan bo'lsak, komil inson tarbiyasida adabiyot va boshqa barcha san'at turlari qatori teatr san'atining ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham teatr san'ati, aktyorlik yo'lini tanlagan yoshlar oldida turgan muammolarni hal qilishda esa hech qachon shoshilmaslik kerak.

Talabalik safiga qabul qilingan yoshlarga teatr san'ati, uning mashaqqatlari, aktyorlik kasbining o'ziga xos qiyinchiliklari va afzalliklari borasida xolisona ma'lumot berilishi shart. Shundan keyingina tadrijiy ravishda navbatdagi jarayonga o'tish lozim. Bu jarayon aktyorlik mahorati texnikasi (psixotexnika), san'at turlari, shu jumladan, musiqali teatrning o'ziga xos xususiyatlari, teatr etikasi, badiiy saviya, aktyorlik mahoratining unsurlari, musiqali teatr aktyorligi yo'nalishi talabalari uchun alohida, mukammal shakldagi musiqiy-ritmik tarbiya (aynan musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalash jarayoni dramatik teatr aktyorini tarbiyalash jarayonidan shu jihati bilan farq qiladi, chunki musiqali teatrdan baholash va xatti-harakat qilish jarayoni kompozitor bergan takt, o'lchamlarga bog'liq bo'ladi, aslida teatr san'ati – shartli san'at, lekin musiqiy teatrning shartlilik darajasi yuqoriligi shu bilan izohlanadi), mashq-etyudlar, mukammal etyudlar, rol ustida ishlashni o'rganishdan va eng asosiysi, sahnaviy ijodning nazariy bilimlarini – sahna nazariyasini ham o'zlashtirishdan iboratdir. "Aktyordan sahna nazariyasini o'qib-o'rganish talab etiladi, shuningdek, aktyorlik texnikasini o'zlashtirish, puxta egallash lozim bo'ladi. Bunga esa ma'lum amaliy mashqlar asosida bosqichma-bosqich erishib boriladi. Aktyorlik texnikasining asoslari dastlab birinchi va ikkinchi kurslarda chuqur o'rgatilishi lozim. So'ngra darslar sekin-

asta pyesa va rol ustida ishlash, sahna obrazini yaratish usullarini o'rganishga bag'ishlanadi" [2, 9-b].

Ushbu maqolada aktyorlik mahoratining kichik elementlaridan biri – kuzatuvchanlik haqida fikr yuritiladi.

Biz kundalik hayotimizda juda ko'p voqea-hodisalarning guvohi bo'lamiz. Lekin hamma ko'rgan va eshitgan narsalarimizni xotirada saqlab qolmaymiz. Bunga ba'zan hojat bo'lmaydi. Faqat o'zimizga kerakli bo'lgan jihatlarnigina yodda saqlaymiz, xolos. Ammo ba'zi kishilar imkon qadar hamma narsalarni yodda saqlab qolish xususiyatiga ega bo'lishadi. Bunday odamlarni boshqalardan ajratib turuvchi jihat – ularning kuzatuvchanligidir. Hayotda uchrab turuvchi barcha voqea-hodisalarga e'tiborlilik ularning kuzatuvchanlik xarakteridan dalolat beradi. Bu bilan boshqa toifa odamlarda umuman kuzatuvchanlik yo'q, degan fikrdan yiroqmiz. Ular ham kuzatib, eslab qolishadi. Faqat ko'rgan-bilgan narsalarini oddiy fakt sifatida boshqalarga yetkazishi mumkin. Chunki ijodkorlik, topqirlik, badihago'ylik, yumorni his qilish, ko'rgan va bilgan narsalarni atrofdagi odamlarga yetkazishda biroz "qo'shib-chatish" va uni ishonarli yetkaza olish xislati hammaga ham berilavermaydi. Masalan, biron bir voqeani turli odam o'zgalarga yetkazishda turlicha yondashadi. Kimdir ko'rgan yoki eshitgan narsalarini, yuqorida aytganimizdek, oddiy fakt sifatida, axborot shaklida yetkazsa, kimdir bunday ishni badiiylashtirgan, turli harakatlar, yumor yoki dramatik kayfiyat bergan, u yoki bu faktga o'zining munosabatini ham qo'shgan shaklda amalga oshiradi. Demak, bu xislat hammaning tabiatida turlicha rivojlangan bo'ladi. Bu xislatni mashqlar yordamida rivojlantirish mumkin-mi? Albatta, mumkin. Agar shu xislat tabiatan insonga ko'proq berilgan bo'lsa. Kelajakda ijodkor aktyor bo'la olishi mumkin bo'lgan talabalarni tanlab olishda ularning mana shu xislatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

K.S. Stanislavskiy shunday deb yozgan edi: *"Shunday insonlar borkim, bundaylar tabiatan o'ta sezgir va sinchikov bo'ladilar. Ular beixtiyor tarzda kuzatuvchan bo'lib, atrofida ro'y berayotgan hodisa va voqealarni sezadilar, ko'radilar, xotiralarida umrbod saqlay oladilar. Ustiga-ustak, ko'rgan va sezgan, kuzatganlari orasidan qiziqroq, muhimroq, go'zal va tipik xususiyatga ega bo'lganlarini saralab oladilar. Bunday insonlar bilan suhbatlashganimizda*

ko'pchilik odamlarning ayrim voqea va hodisalarni sezmasdan, ko'rmasdan o'tkazib yuborganliklarining guvohi bo'lamiz".

Inson xatti-harakatini kuzatyotgan aktyor, xayolan o'sha harakatlarni takrorlashga, "o'ynashga" intiladi. Garchi aktyor o'z obyektini kuzatar ekan, tashqaridan qaraganda harakatsiz turgan bo'lsada, uning ichki mushaklari kuzatilayotgan obyektning harakatlarini keltirib chiqaruvchi boshlang'ich turtkilarini takrorlashga intiladi. Xuddi mana shu boshlang'ich turtkilar orqali kuzatilayotgan obyektning xatti-harakatlari aktyorning mushaklari xotirasida saqlanib qoladi. Aktyor mazkur shaxsga o'xshagan obrazlarni sahnada aks ettirishiga to'g'ri kelgan vaqtda mushaklar xotirasida saqlanib qolgan boshlang'ich harakatlar ishga tushadi va timsolning qiyofasi to'laligicha namoyon bo'ladi. Demak, aktyor obyektini faqat ko'z va quloqlar orqaligina o'rganib qolmay, mushaklari orqali ham kuzatar ekan. Agar insonda tabiatan shunday mushaklar kuzatishi bo'lmasa, bunday odamdan aktyor chiqishi amri mahol. Bu haqda professor Adiba Nosirova "San'at mening taqdirimda" kitobida shunday yozadi: *"Odam gavgdasi nuqtayi nazaridan yondashish rolni faqat aql bilan emas, balki barcha sezish a'zolari bilan tahlil qilishga olib keladi. Bunda qayta aloqa sistemasi ishlaydi, natijada to'g'ri tashkil qilingan fizik hayot, holat, imo-ishoralar, mizansahnalar aktyorning ichki hayotini jonlantirishiga imkon beradi. Fizik harakatlar "o'tkazuvchi" bo'lib, ijrochini rolga o'xshagan holatga o'tkazadi. Aktyor shunday yaratilganki, tashqi ko'rinishini yetkaza turib, o'z ichidan ruhlanadi".*

Mushaklar orqali kuzatish faqat aktyorlargagina xos emas ekan. Ijodning boshqa turlari mutaxassislarining asarlarida ham inson faoliyatida sodir bo'ladigan jarayonni aks ettirishda mushaklar orqali kuzatish ishtirok etadi. Yozuvchi qahramonning harakatini so'zlar yordamida aks ettiradi. Rassom va haykaltaroshlar asarlariga qarasangiz, ular o'zlari tasvirlayotgan shaxs yoki buyumni go'yo ayni harakatlanib turgan vaqtda hayot bag'ridan yulib olib aks ettirgandek tuyuladi. Rassom va haykaltarosh shu uslub orqali insonlar hissiyotiga ta'sir o'tkazishga erishadi. Demak, ular tomosha qiluvchining xayolida harakatlana boshlaydi. Harakat jarayoni rassomning tasavvurida paydo bo'ladi, asar tayyor bo'lgach, bu jarayon uni ko'rayotgan tomoshabin tasavvuriga ko'chadi. Haqiqiy san'atning qudrati ham shundaki, u

tomoshabin tasavvurini uyg'otadi, harakatsiz manzara tasavvur qudrati orqali harakatlanuvchi manzaraga aylanadi. Bularning zamirida rassom va haykaltaroshning kuzatuvchanlik mahorati va qobiliyati yotadi.

Teatr san'atida ham xuddi shunday manzarani kuzatish mumkin. Sahnadagi aktyor zamon va makon birligida harakat qiladi. Aktyor ham inson faoliyatini uning harakatlarini kuzatish orqali o'rganishi, ko'rganlarini xotirasida saqlay bilishi zarur. Chunki bu jihatlar unga kelajakda turli xarakterdagi rollarni bir-biriga o'xshatmasdan ijro qila olish imkoniyatini beradi. Aktyor hayotda ko'rgan-bilgan va xotirasida saqlab qolgan xarakterlar xislatlarini o'z rolining prototipi sifatida ishlatishi mumkin. Ijodkorni kuzatilayotgan odamning turli jihatlari qiziqtirishi kerak. Ya'ni, ularning yurishi, o'tirishi, turishi, ovqatlanishi, bahslashishi, do'q-po'pisa qilishi, rad etishi, ishontirishi, hiyla ishlatishi, laganbardorlik qilishi, mug'ombirlik qilishi va h.k.z.lar. Chunki hayotda turli inson o'zining jismoniy, ruhiy, hissiy holatidan, o'zi yashayotgan shart-sharoitdan kelib chiqib, sodda va murakkab harakatlarning har birini turli usul va shaklda bajarishi mumkin. Kuzatuvchi aktyor ana shu nozik tomonlarga ham e'tibor qarata olishi lozim. Aktyor inson faoliyatini o'rganish jarayonida asosan mushaklar orqali kuzatuvni amalga oshiradi. Bu jarayonda uning ko'rish va eshitish a'zolari kuzatuv mushaklariga yordam beradi.

Kuzatuvchanlik xislatini rivojlantirish jarayonida qilinadigan mashqlar aktyorlik mahoratining boshqa elementlari qatorida baravar olib borilaveradi. Masalan, diqqat uchun, ko'rish va eslab qolish uchun qilinadigan mashq jarayonida talabada kuzatuvchanlik xislatining oddiy ko'rinishi rivojlanib boradi. Faqat bunday mashqlarda aktyorlik mahoratining bosh elementi bo'lmish diqqat va xotira tushunchalariga ko'proq e'tibor beriladi. Lekin shu bilan birga, mashq jarayonida kuzatuvchanlik xislati ham rivojlanib boradi. Lekin talabaga buni sezdirmay turgan ma'qul. Chunki hali endigina mashqlar ustida ishlay boshlagan talabaga birdaniga turli elementlarni rivojlantirish vazifasi qo'yilsa, talaba hammasini chalkashtirib yuborishi mumkin.

Kuzatuvchanlik san'atning barcha turlari uchun ham birdek ahamiyatga ega bo'lib, har bir yo'nalish egasi o'ziga xos tarzda kuzatadi. Aktyorlik sohasiga oid kuzatuvlar esa birmuncha serqirra bo'lishi kerak. Bo'lajak aktyorlar odamlarni ularning yashash tarzi, ijtimoiy kelib

chiqishi, kasbi, tarbiyasi, tabaqasi, millatiga oid o'ziga xosliklarini fikran tahlil qilish va bu tahlillar natijasini sahnaviy ko'rinishlarda aks ettirish uchun kuzatadi.

Kuzatuv mashqlarida talabalarga ko'cha-ko'ya, teatrdagi, avtobusda, metroda, bozorda va hokazo joylardagi odamlarning xatti-harakatlarini kuzatish, ularning o'zlarini qanday tutishini o'rganish, ularning ichki o'y-xayollarini taxmin qilib ko'rish, o'rganish va tasavvur qilib ko'rish, oxir-oqibat ularning eng qiziq vaziyatlardagi harakatlarini sahnada jonlantirish vazifasi topshiriladi. Bunday kuzatuv mashqlari bo'lajak aktyordagi kasb sirlarini egallash jarayoni organik-tabiyy, ishonarli amalga oshishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'quv jarayonida hayvonot olamiga doir sahnaviy mashqlarga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Talabalarga turli xayvonlarning o'ziga xos qiliqlari, tana harakati plastikasiga, dam olayotganda yoki biror bir vaziyatda, masalan, xavf tug'ilganda yoki ov qilish paytida o'zini qanday tutishi, xatti-harakatlarini kuzatish va bu kuzatuvlarni sahnada ifoda etish topshiriladi.

Bunday kuzatuv mashqlari biz keyinroq murojaat etadigan munosabat va baholash jarayonini o'zlashtirish mavzusi uchun ham, shart-sharoitlarni his qilish, maqsadni to'g'ri aniqlash va shu yo'ldagi xatti-harakatlar mantig'i va izchilligiga amal qilish, tana erkinligi, diqqat obyektini muntazam kuzatish, xatti-harakatlar kechayotgan joyga va sharoitning o'zgarishiga munosabatlar shakllanishiga mashqlar vazifasini ham o'taydi. Eng asosiysi – mashq-etyudlari uchun ham o'ziga xos ko'priq vazifasini o'taydi. Bu kuzatuvlarning eng oddiy va sodda, lekin shuning barobarida, eng asosiy va hal qiluvchi bosqichi hisoblanib, talabalarni aktyorlik mahoratining barcha unsurlarini umumlashtirgan holda yaxlit qo'llashga, sahnada psixofizik jarayonni amalga oshirishga o'rgatadi. Chunki talabalarga insonning qiyofasini yaratishdan, uning qobig'iga kirishdan ko'ra, negadir, hayvonot olami vakilining qiyofasiga kirish osonroq kechadi. Buni uddalay olgan talabada inson timsolini, keskin xarakterlarni sahnada jonlantira olishiga moyillik kuchli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 230 b.
2. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. Tafakkur qanoti, 2014. 9 – bet.
3. Станиславский К. С. Собрание сочинений в 8 томах. Том 1. – Москва: Искусство, 1954.
4. Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 181 b.
5. Qudratov O. Aktyorning professional etikasi // Oriental Art and Culture, 6(1). 2025. – 258 p.
6. Yarbekov E. Rolning oliy maqsadi // Oriental Art and Culture, 5(4), 2024. – pp. 187–191.
7. Muhammadiyev S. Yaxlit sahnaviy asar sahnalashtirish ishlari // Oriental Art and Culture, 5 (5), 2024. – 267 p.
8. Nurmanova B. Interpretation of role by actors in dramatic works // European Journal of Arts, 39.
9. Usnatov R. J. Interpretations of national classical literature on stage // Journal of Intellectual Property and Human Rights, 11 (3), 2024. – 175 p.

SAHNA NUTQI SOHASIDAGI PEDAGOGIK TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

(Pedagog, rejissyor va aktrisa Umida Ahmedova faoliyati misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqola "Sahna nutqi" kafedrası katta o'qituvchisi, aktrisa Umida Ahmedovaning ijodiy yo'li, pedagogik metodologiyasi va ilmiy-amaliy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada mutaxassisning o'ziga xos o'qitish uslubi, rejissyorlik ishlari hamda fan sohasidagi innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodkor kamolotiga hissa qo'shgan ustozlari, hamkasblari va tarbiyalagan shogirdlari faoliyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik metodologiya, nutq madaniyati, teatr ta'limi, obraz yaratish texnikasi, nutqiy ifoda, sahna san'ati, ijodiy yondashuv.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению творческого пути, педагогической методологии и научно-практической деятельности старшего преподавателя кафедры «Сценическая речь», актрисы Умиды Ахмедовой. В статье анализируются уникальный стиль преподавания специалиста, режиссёрские работы и инновационные подходы в области науки. Также освещена деятельность учителей, коллег и воспитанных учеников, внесших вклад в развитие творческой личности.

Ключевые слова: педагогическая методология, культура речи, театральное образование, техника создания образа, речевая выразительность, сценическое искусство, творческий подход.

Abstract. This study examines the creative path, teaching methodology, and research and practical work of actress Umida Akhmedova, a senior lecturer in the Department of Stage Speech. The article analyzes her unique teaching style, her directing work, and her innovative approaches to research. It also highlights the work of teachers, colleagues, and students who contributed to her creative development.

Keywords: pedagogical methodology, speech culture, theater education, character development techniques, verbal expressiveness, performing arts, creativity.

O'zbek teatr pedagogikasida kadrlar tayyorlash masalasi har doim dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bo'lg'usi san'atkorlarni kasb sirlari bilan tanishtirish, nutq madaniyatining nozik jihatlarini o'rgatish yuqori malakali va tajribali mutaxassislarni talab qiladi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Sahna nutqi" kafedrası katta o'qituvchisi lavozimida faoliyat yuritgan Umida Ahmedova ana shunday pedagoglardan biri hisoblanadi. U o'z faoliyati davomida innovatsion metodologiya ishlab chiqib, ko'plab yosh san'atkorlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. U.Ahmedovaning pedagogik faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga boy.



Mutaxassis nafaqat nazariy bilimlar, balki teatr va kino loyihalarida to'plangan amaliy tajribalar asosida ta'lim bergan. Uning o'qitish tizimi Lola Xo'jayeva, Radun Iosif Veniaminovich, Xristofor Moiseyevich Kojevnikov, Bahodir Nazarov kabi taniqli san'atkorlardan o'rgangan tamoyillar hamda shaxsiy ijodiy izlanishlar sintezidan tashkil topgan.

Umida Ahmedova 1956-yil 29-mayda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. San'atga qadamlarini musiqa internatidan boshlaganiga qaramay, hayot yo'li uni teatr bilan bog'ladi. 1974-yilda Nikolay Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutiga o'qishga kirgan yosh qiz allaqachon talabalik davrida o'z iste'dodini namoyon eta boshladi. O'qish davomida Leningrad shahridagi (hozirgi Sankt-Peterburg) V. Yahontov nomidagi xalqaro notiqlik tanlovida ishtirok etib, bir necha marotaba nufuzli o'rinlarga sazovor bo'ldi. Bu yutuqlar uning kelajakdagi pedagogik faoliyati uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi [1, 7–8-bb.].

Ta'lim olish davrida yosh iste'dodga Rossiya davlat teatr san'ati institutining bitiruvchisi, pedagog va rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Radun Iosif Veniaminovich, shuningdek, Xristofor Moiseyevich Kojevnikov, rejissyor Bahodir Nazarov saboq berdilar. Toshkent davlat teatr va rassomchilik instituti "Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchilari Lola Xo'jayeva, Sotimxon Inomxo'jayev va Sodiq Nosirovlar kabi mahoratli san'atkor-pedagoglar uning ijod yo'lida shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "El yurt xizmati" ordeni sohibi professor Lola Xo'jayeva nafaqat nutq san'atining nazariy asoslarini ishlab chiqqan, balki amaliy mahoratning ustalari ham bo'lgan. Uning yaratgan "Notiqlik san'ati" kitobi teatr san'ati sohasidagi noyob ilmiy-amaliy qo'llanmalardan biri hisoblanadi.

"Teatr" jurnalida e'lon qilingan "Inson izi" maqolasida U.Ahmedova o'z ustozining pedagogik uslubi haqida shunday fikr bildirgan: "Ustoz olgan unvonlarini ko'z-ko'z qilmasdi, kamtar va kamsuqum, shu bilan birlikda talabchan pedagog edi. Har qanday ma'ruza yoki nutq oldidan jiddiy tayyorgarlik ko'rardi, o'zini haqiqiy so'z ustasi ekanligini namoyish etardi" [2, 24-b].

Ustoz L.Xo'jayeva nutq texnikasi mashg'ulotlarini "Yoga" va "U-shu" usullari bilan boyitib, ularni an'anaviy mashqlar bilan uyg'unlashtirgan holda mohirona qo'llagan. U.Ahmedova keyinchalik o'z pedagogik amaliyotida ustoz tajribasidan keng foydalangan.

"Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchisi va katta

o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan U.Ahmedova o'ziga xos ta'lim tizimini yaratdi. Uning metodikasi teatr va kinoda to'plangan amaliy tajribalarga asoslangan bo'lib, nazariya va amaliyotning optimal kombinatsiyasini ta'minlagan. Pedagog "Estrada va ommaviy tomoshalar kafedrası"da ham aktyorlik mahoratidan dars berdi. U har bir talabaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida nutq texnikasining mohiyatini tushuntirar, mumtoz va zamonaviy dramaturgiya namunalarini sahnalashtirish haqida suhbatlashar, talabalarda badiiy adabiyotga muhabbat uyg'otardi. O'zbek tilining qimmatini va uning aktyorlik mahoratidagi noyob o'rni to'g'risida tinimsiz izoh berardi [3, 249-b].

Pedagog sifatida U.Ahmedova nafaqat nutq texnikasini o'rgatishga, balki so'zning chuqur ma'nosini ochishga ham alohida e'tibor qaratdi. U doimiy ravishda ta'kidlardiki: "Biz sahna nutqi o'qituvchilari sifatida talabalarni faqat nutq texnikasini o'zlashtirishga yordam berishimiz kifoya emas, ularga so'zning chuqur ma'nosini ochishni ham o'rgatishimiz zarur. Chunki ertaga ular o'z ijodlarini mustaqil davom ettiradilar."

U.Ahmedovaning pedagogik faoliyati respublika va xorijiy jurnallarida ko'plab ilmiy maqolalar nashr ettirishi bilan boyib bordi. Uning ilmiy ishlari sahna nutqi, aktyorlik mahorati va estrada san'atining dolzarb muammolariga bag'ishladi, "Estradada so'zning o'rni va ahamiyati", "Teatrlarda aktyorlar mahorati va sahna nutqi", "Estrada san'atida nutqiy fikrlash" kabi maqolalari shular jumlasidandir.

"Teatrlarda aktyorlar mahorati va sahna nutqi" maqolasida esa u o'z tajribasiga asoslanib quyidagi fikrni bayon etadi: *"Alpomish filmida uch oy davomida O'zbekiston xalq artisti Yayra Abdullayeva bilan birga rol o'ynadim. Bo'sh vaqtlarimda sahna nutqi masalalari ustida mulohaza yuritdim. Yayra opa o'zining dam olish vaqtlarida yaratayotgan obraz ustida tinimsiz ishlashini kuzatdim. Har bir so'zning ma'nosini topib, to'g'ri talaffuz qilishining guvohi bo'ldim"*. Muallif afsus bilan ta'kidlaydi: *"Hozirgi davrda ko'pchilik aktyorlar bu ishni bajarmaydi. Puxta yozilgan asar, aktyorlarning o'z kasbiga talabchanlik ko'rsatishi va teatrnı boshqaruvchi rejissura teatrdı aktyorlik mahorati hamda sahna nutqi muammolarini hal qiladi"*.

"Estrada san'ati haqida mulohazalar" nomli ilmiy maqolasida U.Ahmedova estrada janridagi nutqning xususiyatlarini tahlil qilgan: *"Estrada janrida so'z va obraz uyg'unligi asosiy rol o'ynaydi. Aktyorning iste'dodi qancha yuqori bo'lsa, uning nutqi shuncha o'tkir bo'lishi lozim. Shundagina u tomoshabinni jalb qila oladi. Chunki aktyorning asosiy ifoda vositasi – so'zdir"*.

U rus teatr rejissyori, pedagog V. Nemirovich-Danchenkoning “Soʻz bu sahnadagi asosiy ifoda vositasidir. U barcha soʻzdagi mazmunlarning psixologik va plastik qirralarini ochib berishi kerak” degan qarashiga tayangan holda, estrada aktyorlari uchun nutq texnikasining ahamiyatini alohida koʻrsatib oʻtgan [4].

U.Ahmedova pedagogik faoliyati bilan bir qatorda koʻplab spektakllarda sahna nutqi boʻyicha maslahatchi sifatida mehnat qilgan. Jumladan, Abdulla Qahhor nomidagi Respublika satira teatrida sahnalashtirilgan Nabijon Hoshimovning “Boyluk talvasasi” asarida, Erkin Usmonovning “Baxt kaliti” pyesasida, Oʻlmas Umarbekovning “Odam boʻlish qiyin” romani asosida tayyorlangan dramatik asarda va boshqa koʻplab teatrlarda nutq boʻyicha mutaxassis rolini oʻtagan. Bu ish kasbga boʻlgan chuqur sadoqati va masʼuliyat tuygʻusidan dalolat beradi. Har bir spektakl ustida u aktyorlarga soʻzning toʻgʻri talaffuzi, urgʻu, pauza, temp-ritm kabi nutq texnikasining barcha unsurlarini sinchkovlik bilan ishlashga yordam bergan.

D.I. Fonvizinning “Dumbul boyvotchcha”, intermediyalardan iborat “Oʻzingni bos” mahallasi, professor va rejissyor Joʻra Mahmudov bilan hamkorlikda N.Gogolning “Uylanish” pyesalarini sahnaga chiqargan. Bu tajribalar orqali u nafaqat talabalarga aktyorlik texnikasini, balki jamoaviy ijod qilishni, bir-biriga yordam berishni ham oʻrgatgan. Kurs rahbarining vazifasi nafaqat pedagogik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanligini U.Ahmedova yaxshi anglagan. Qahramonimizning pedagogik faoliyatining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, u teatr va kinoda oʻrttirgan amaliy tajribalarini doimo darslarda qoʻllay bilgan. U Rossiyaning “Fora-film”, Qozogʻistonning “Katarsis” va Rossiyaning “Mosfilm” kinostudiyalari, “Oʻzbekkino”ning turli studiyalari bilan ishlaganda taniqli aktyorlar, rejissyorlar bilan hamkorlik qilgan. Bu tajribalar unga pedagogik faoliyatda katta foyda keltirgan [5, 109-b].

U.Ahmedova oʻz ustози Lola Xoʻjayeva singari har bir talabaning taqdiriga eʼtiborsiz boʻlmagan. U talabalarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy muammolariga ham quloq solgan, ularga hayotiy maslahatlar bergan. Ustoz talabalarda oʻzbek tiliga, milliy qadriyatlarga muhabbatni uygʻotishga alohida ahamiyat bergan. Uning ilmiy

va ijodiy izlanishlari natijalari oʻlaroq hozirgi kunda shogirdlari kino, teatr, radio va televideniya muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Akbarxoʻja Rasulov, Alisher Uzoqov, Shohruh Yoʻldoshev, Shodiya Toʻxtayeva, Rayhon Ulasenova, Xurshida Arabshoyeva, Farangiz Fayzullayeva, Bahridin Xolov, Luiza Mastonovalar va yana koʻplab shogirdlari teatr va kino sanʼatida oʻz oʻrniga ega aktyorlar hisoblanadilar.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, U.Ahmedovaning pedagogik faoliyati va ilmiy izlanishlariga nazar tashlaganimizda bir narsani aniq koʻramiz: haqiqiy pedagog boʻlish uchun nafaqat bilim, balki amaliy tajriba, talabalarga muhabbat, kasbga sadoqat kerak. U.Ahmedova oʻzida bu sifatlarning barchasini mujassamlashtirgan.

Uning pedagogik uslubi ustozlar taʼlimi va shaxsiy tajribasining uygʻun birligi asosida shakllangan. Lola Xoʻjayeva, Iosif Veniaminovich Radun, Xristofor Moiseyevich Kojevnikov kabi ulugʻ ustozlardan oʻrgangan tajribalarni oʻz amaliyotida ijodiy rivojlantirgan va talabalariga yetkaza olgan. Mutaxassning ilmiy maqolalari sahna nutqi sohasidagi dolzarb muammolarga bagʻishlangan. “Estradada soʻzning oʻrni va ahamiyati”, “Teatrlarda aktyorlar mahorati va sahna nutqi”, “Estrada sanʼatida nutqiy fikrlash” kabi maqolalarida u respublikamiz teatrlaridagi nutq muammolarini tanqidiy tahlil qilgan va ularni hal etish yoʻllarini koʻrsatgan. U. Ahmedova hayoti davomida Veniamin Radun, Lola Xoʻjayeva, Tamara xonim, Botir Zokirov, Maryam Yoqubova, Vohid Qodirov, Zikr Muhammadjonov, Yayra Abdullayeva, Yoqub Ahmedov, Sanʼat Devonov, Lev Durov, Armen Jigarxanyan, Sergey Yurskiy, Leonid Kulaginlar kabi mashhur sanʼatkorlar bilan ishlash baxtiga muyassar boʻlgan.

Mutaxassisning pedagogik faoliyati shuni koʻrsatadiki, teatr sanʼatida haqiqiy ustoz boʻlish uchun doimiy izlanish, oʻzini rivojlantirish, kasbga sadoqat, talabalarga muhabbat zarur. U oʻz faoliyati davomida ana shularga amal qilgan va yosh avlodga oʻziga xos uslublarni qoldirgan. Bugungi kunda U. Ahmedovaning ilmiy maqolalari, yaratgan uslublari, yosh pedagoglar uchun namuna boʻlib qolmoqda. Ustozning oʻzbek teatr sanʼatining taraqqiyotiga qoʻshayotgan hissasi katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodirova F. Umidli dunyo // Kino jurnali. – 2001. – №1.
2. Ahmedova U. Insonning izi // Teatr jurnali. – 2011. – №1.
3. Ahmedova U. Teatrlarda aktyorlar mahorati va sahna nutqi // Sanʼat taʼlimi yilnoma. – Toshkent, 2007. – 2-jild. – 249 b.
4. Ахмедова У. Мисли об эстрадном искусстве // Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Ташкент, 2012.
5. Ахмедова У. Значение слова на эстраде // Образование в искусстве Ежегодник. – Ташкент, 2009. – Том IV. – 109 с.

“ANIMATSION FILM DRAMATURGIYASI” FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Maqolada “Animatsion film dramaturgiyasi” fanini kino san'ati ta'limi tizimida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, san'atning boshqa turi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Animatsiya dramaturgiyasining badiiy kino dramaturgiyasidan farqli tomonlari, vizual va ritmik tafakkurning ahamiyati, shuningdek, badiiy metaforaning, allegoriyalarning muhimligi yoritiladi. Pedagogik metodlarga alohida e'tibor qaratiladi: jahon va milliy animatsiya namunalarini tahlil qilishdan tortib, talabalarning loyihalari, etyudlari, amaliyotdagi faoliyatigacha ko'rib chiqiladi. Fanni o'zlashtirilishida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar aniqlanib, ularni yengib o'tish, oldini olish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: animatsiya, dramaturgiya, ssenariy yozish mahorati, kino pedagogikasi, vizual tafakkur, metafora.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности преподавания дисциплины «Драматургия анимационного фильма» в системе художественного и кинообразования. Подчеркиваются различия между драматургической структурой анимации и игрового кино, акцентируется важность визуального и ритмического мышления, а также метафорического творчества. Особое внимание уделяется педагогическим методам: от анализа образцов мировой и национальной анимации до проектной деятельности студентов. Выявляются основные трудности в освоении дисциплины и предлагаются возможные пути их решения.

Ключевые слова: анимация, драматургия, сценарное мастерство, кинообразование, визуальное мышление, метафора.

Abstract. This article examines the specifics of teaching the course “Dramaturgy of Animated Film” in art and film education. It highlights the differences between the dramatic structures of animation and live-action films, emphasizing the importance of visual and rhythmic thinking, as well as metaphorical creativity. Particular attention is paid to pedagogical methods: from the analysis of examples of global and national animation to student project work. The main challenges in mastering the course are identified and possible solutions are proposed.

Keywords: animation, dramaturgy, screenwriting, film education, visual thinking, metaphor.

Animatsiya – zamonaviy ekran san'ati yo'nalishlari orasida eng tez, samarali va muvaffaqiyatli rivojlanayotgan sohadan biri ekanligi ma'lumdir. Bugungi kunda animatsiya effektlari orqali badiiy va hujjatli kinoda ham, keng va unumli foydalanilayotganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, so'nggi yillarda jahon ekranlarida muvaffaqiyatli namoyish etilayotgan, eng ko'p daromad topgayotgan (ikki milliard dollardan ortiq) filmlarning aksariyatida aynan animatsiya effektlaridan foydalanilgan.

Animatsiyada, tasvir bilan bog'liq bo'lgan barcha san'at turlari qatori avvalambor, kadrni tuzish, tanlash sirlarini, mahoratini o'zlashtirish talab qilinadi. Aynan kadrning mukammalligi, to'g'riligi, maqsadga muvofiqligi filmning umumiy kontseptsiyasi, g'oyasiga xizmat qiladi. Bu haqida atoqli animator Yuriy Norshteyn shunday yozadi: “Eng muhimi, kadrni tuzishda, tanlashda shunday muhit yaratish kerakki, unda faqat ko'zlangan harakatlar, mizansahnalar amalga oshishi mumkin bo'lsin. To'g'ri yaratilgan muhit

o'z-o'zidan kadrda harakatlarni belgilaydi, aniqlaydi. Ya'ni berilgan shart-sharoitda yagona to'g'ri xatti-harakatlar yuzaga keladi" [1, c. 107].

Animatsiyaning turli amplituda janrdagi obrazlarni yuqori darajada yaratishda imkoniyatlari keng va kattaligini e'tirof etish kerak. Shuning bilan birga, animatsiya orqali yaratilayotgan obrazlar uning shartliligi, metafora va allegoriya tilidan, ifodasidan foydalanishi, qahramonlar, personajlarning plastik erkinligi bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar animatsion film dramaturgiyasini o'qitishda alohida metodologik yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi – "Animatsion film dramaturgiyasi" fanini san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlarida o'qitishning o'ziga xos tomonlarini asoslab berish, so'nggi yillar bu yo'nalishda mutaxassislariga ehtiyoj ortib borayotgani hamda talabalar ssenariy yozishda, uni turli murakkab tomonlarini o'zlashtirishda samarali shakllantirishga yordam beruvchi metodlarni aniqlashdan iboratdir.

Animatsion film dramaturgiyasining badiiy kino dramaturgiyasidan farqi. An'anaviy, badiiy kinematografiyada dramaturgiya voqealar "zanjiri"dan, mojarolar va aktyorlarning xatti-harakatlari, ularning xarakterlari va boshqa bir qator muhim elementlar asosida quriladi. Animatsiyada esa badiiy film dramaturgiyasi asosini olgan xolda o'ziga xos jihatlariga ham ega bo'lish, ssenariyni shakl va mazmunida farqli bo'lish imkoniyatiga egadir. Animatsion dramaturgiyada o'ziga xos jihatlaridan biri bu vaqt va makonni deformatsiya qilish, ya'ni vaqt birligiga ahamiyat bermaslik, qahramonlarni o'zgartirish, ularni xakteri, yurish turishi, plastikasini almashtirish, metaforalar, allegoriyalarni vizuallashtirish, ularni yaqqol, ochiq oydin shakl va mazmun berish imkoniyati mavjud.

Masalan, Uolt Disneyning animatsion klassik maktabi, qahramonlarning psixologik motivatsiyasi va grotesk shartliligini uyg'unlashtiradi. Filmlar qahramonlari aql bovar qilmas, fantastik tarzda harakat qilishlari, voqealar tizimi yuksak tezlikda rivojlanishi, xarakterlar bir birlaridan keskin farq qilishlari bilan ajralib turadi. Yapon animatsiya yo'nalishi (anime) ko'proq falsafiy ramzlar va madaniy arxetiplarga tayanadi. Bu yo'nalishdagi filmlar, ko'p hollarda milliy folklor, rivoyat va afsonalarga tayanib voqealar tizimini tuzadi, xarakterlarni yaratadi. Sovet maktabi (F. Xitruk, Y. Norshteyn) multipiliksion filmlar dramaturgiyasi asosan, xalq ertaklarini ekanligi aksini, ifodasini

topishga yo'naltirilgandir. Shu bilan birga, barcha filmlarni albatta badiylashtirishga, xarakterlarni qahramonlashtirishga, umumlashtirishga yo'naltirishga harakat qilingan.

Har qanday ekran asarining birlamchi talabi vizual vositalardan keng va mukammal foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi, lekin filmning g'oyasi qiziqarli bo'lishi ham talab etiladi. Bu borada taniqli animator Feodor Xitruk o'z kitobida shunday yozadi: "Menimcha, g'oyaning ko'p qirrali, mukammal bo'lishi, uning asosiy g'oya sifatidagi kontsepsiyasi "nima uchun?" degan savolga javob berib, bir qator boshqa muhim komponentlarni ham aniqlab berishi kerak. G'oyaning vizual ta'siri – filmni yorqin, ta'sirchan bo'lishiga asos bo'ladi, shuningdek, mavzuni tomoshabinga yetkazishda hal qiluvchi omil hisoblanadi" [2, c. 204].

Yuqorida ta'kidlanganidey, animatsion film dramaturgiyasining o'ziga xos tomonlari, spetsifikasi bo'lishiga qaramay, asosiy omillar, strukturasi, janrlar va yo'nalishlari badiiy to'lametrajli filmlar dramaturgiyasidan deyarli farq qilmaydi. Animatsion film dramaturgiyasida ham tugun, kulminatsiya, konflikt, xarakterlar va albatta, yechim bo'lishi shart.

Milliy-madaniy kontekst animatsiya san'atida muhim o'rin tutadi, chunki u xalq og'zaki ijodi va mifologiya bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida animatsion film dramaturgiyasi sharq miniatyurasi, dostonlar, afsonalar, rivoyatlar va xalq ertaklari an'analariga tayana oladi. Har bir xalqning o'z milliy eposi, dostonlari, afsona va rivoyatlar qahramonlari bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqining eng taniqli qahramonlaridan biri – Alpomish. Alpomish dostoni o'zbek multiplikatsiyasida o'z ifodasini topgan bo'lishiga qaramay, kun sayin o'zgarib, rivojlanib borayotgan hayotimiz, yangi texnologiyalarga asoslanayotgan vizion kontentlar, jumladan, animatsion filmlar imkoniyatini nazarda tutishi kerak. Bu betakror va boy voqealar, xarakterlarga ega Alpomish dostonini yangidan, yuqori texnologiyalarga asoslanib, ko'p qismli, xatto imkoni boricha butun, to'laligicha dostonidagi voqealarni o'zi ichiga olgan filmlarni yaratish imkoniyatidan keng foydalanish vaqti keldi.

Xuddi shunday, turkiy xalqlarning taniqli xalqiy qahramoni Nasriddinxo'ja Afandi haqida yozilgan kitoblar, xalq og'zaki ijodidan o'rin olgan va shundayligicha latifa so'zini o'rniga xalq tilida aytiladigan "afandilar" asosida ham ko'p seriali animatsion filmlarni suratga olish davri keldi. Bu borada, xuddi badiiy film dramaturgiyasida

bo'lgani singari, adabiyotni ekranlashtirish janri dramaturgiyasi oldingi planga chiqadi.

"Animatsion film dramaturgiyasi" fanining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– talabalarda animatsion narrativni, ya'ni voqealar tizimi, ularning xususiyatlarini, o'ziga xosligi, qahramonlarning xarakterlarini anglashni shakllantirish;

– turli janr va shakllarda (qisqa metrajli film, serial, to'liq metrajli film, reklama animatsiyasi) ssenariy yozish ko'nikmalarini rivojlantirish. Ssenariy yaratishdagi obyektiv va subyektiv faktorlarga ahamiyat berish, har bir ssenariyning aynan bugungi kun tomoshabini uchun yaratilayotganiga e'tiborni qaratish, asar qahramonlari dolzarb ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy va boshqa faktorlarni qamrab olgan bo'lishiga intilish;

– vizual, metaforik va ritmik tafakkurni, ijodiy ongini tarbiyalash. Yil sayin dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham insonlarning ongining, tafakkurining o'zgarib, rivojlanib borishi, internet va boshqa audio, video kontentlarning ta'sirida o'zligi yangilanib, saviyasi yuksalib borishini e'tiborga olish;

– nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni loyiha faoliyati orqali integratsiyalash. Har qanday ssenariy "yarim fabrikat" bo'lishi, ya'ni tugallanmagan asar ekanligini e'tiborga olinishi va uni amaliyotda qo'llab, yakuniy to'laqonli badiiy asarga aylantirish.

"Animatsion film dramaturgiyasi" fanini o'qitishda tahliliy yondashuv qo'llanilib, bu metodda Emil Kol va Uolt Disneydan boshlab, "Soyuzmultfilm" va "O'zbekfilm" studiyasigacha bo'lgan jahon namunalarini o'rganish muhim o'rin tutadi. O'zbek milliy animatsion qahramonini yaratishda esa tarixiy meros va xalq og'zagi ijodiy namunalari asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv yosh avlodda Vatanga, xalqiga, milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni ijobiy shakllantirishni maqsad qiladi.

"Rasmdan ssenariyga" o'tish metodida talabalar dastlab, qahramon va makon eskizlarini yaratadilar, so'ngra syujetni qurish hamda voqealar tizimini yaratish yo'llarini o'rganadilar. Ssenariy ustida ishlash jarayonida voqealar tizimini qurishda, konfliktlarning tabiiy, haqqoniy bo'lishi bilan birga, xarakterlarning ham rang barangligi, qiziqarli va ta'sirchan bo'lishiga e'tiborni qaratiladi. Mavzu va g'oya tanlanganda esa ularning bugungi kunda dolzarbligini, tomoshabinga qiziqarli va ta'sirchanligi muhim omil sifatida qayd etiladi.

Loyiha faoliyati shundan iboratki, fanning

yakuniy bosqichida talabalar qisqa metrajli animatsion film uchun ssenariy yaratadilar va animatsion rejissura yo'nalishidagi hamkasblari bilan birgalikda uning rejissurasini amalga oshiradilar.

Fanlararo bog'liqlik quyidagilarda namoyon bo'ladi: kurs adabiyotshunoslik, kinoshunoslik, rassomlik, operatorlik, musiqa ilmi bilan integratsiyada olib boriladi. Animatsiya san'ati kinematografning bir qismi ekanligini inobatga olgan holda, sintez san'ati sifatida boshqa san'at turlari bilan chambarchas bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitish mobaynida ba'zan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Quyida ijodiy muammolar va ularni yengib o'tish yo'llari keltirilgan:

– Talabalarning stereotip tafakkuri (badiiy kino dramaturgiyasi qonunlarini animatsiyaga ko'chirish yechimi, ularni taqqoslash, qiyoslash asosida tahlil etiladi. Stereotiplikdan yiroqlanish, original jarayonga berilish, san'atda qilinayotgan ijodiy ishlarning takrorlanmasligiga xarakat qilish. Ijodiy izlanishda dunyoda vujudga kelayotgan yangi, dolzarb san'at yo'nalishlarga ahamiyat berish.

– Vizual tafakkurning yetishmasligi yechimi: ssenariy obrazlari, qahramonlari, personajlari va komikslardan foydalanish. Har qanday qahramon o'ziga xos, original xarakterga ega bo'lishi, fe'l atvori bilan ajralib turishi, intilgan g'oyasi, maqsadi sari ishonchli odimlar tashlashi uni xarakterini ifodalaydi.

– G'oyani ixcham ifodalashdagi qiyinchiliklar yechimi: qisqa mikrosyujetlarni o'ziga xos tomonlarini o'zlashtirish, ulardan foydalangan holda amaliy mashq qilish. Ya'ni mayda, kichkina epizodlar yig'indisidan umumiy syujet yo'nalishi paydo bo'lishiga e'tibor qaratish. Qanchalik mikrosyujetlar qiziqarli, asosli va ishonarli bo'lsa, asosiy syujet ham shunchalar yetuk, jozibador bo'lishini e'tirof etish kerak.

– Texnik ko'nikmalarning yetarli emasligi yechimi: kursni kompyuter grafikasi va multimedia fanlari bilan integratsiya qilish, boshqa zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, amalda sinash. Yangi texnika va texnologiyalardan unumli foydalanish, ularni hayotga, ijodiy ish jarayoniga tatbiq etish.

Animatsion filmning muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan syujet strukturasi xususida animatsiya san'ati mutaxassisi A. Kazakova uchta asosiy komponentga e'tibor qaratilish kerakligini ta'kidlaydi: "Animatsion film ishlab chiqarish jarayonini shartli ravishda uch

bosqichga bo'lish mumkin: tayyorgarlik, bevosita ishlab chiqarish va yakunlovchi bosqich. Multfilm ustida ishlashning tayyorgarlik bosqichi – bu ssenariy, raskadrovka, multiplikat va animatikdir. Ishlab chiqarish bosqichi esa butun suratga olish jarayonini o'z ichiga oladi: qahramonlarning harakati bo'yicha dastlabki etyudlar, fonlar va qahramonlarni tayyorlash, ularni animatsiya qilish yoki sahnalarni suratga olish, tayyor epizodlarni montaj qilish, ovoz va tasvir yo'nalishini sinxronlashtirish, ishlov berish va titrlarni kiritish" [3, c. 86].

“Animatsion film dramaturgiyasi” fanini o'qitish obrazli va plastik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodologiyani talab qiladi. Nazariya, tahlil va amaliyotni uyg'unlashtirish orqali talabalar ssenarist-animator kompetensiyalarini egallaydi va zamonaviy ekran san'ati uchun zarur bo'lgan ijodiy dunyoqarashni, fikrlash doirasini, saviyasini shakllantiradi. Animatsiya film ssenariysida ham badiiy film ssenariysida bo'lgani singari avallambor, inson faktori doimo oldingi planda bo'lishi, qahramonning ezgulik sari intilishi e'tiborda bo'lishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норштейн Ю. Снег на траве. – Москва: ВГИК, 2005. – 624 с
2. Хитрук Ф. Профессия – аниматор. – Москва: Московская международная киношкола, 2007. – 608 с.
3. Казакова А. Основы классической анимации. – Минск. Институт современных знаний, 2020. – 86 с.
4. Хитрук Ф. Профессия – аниматор. – Москва: Искусство, 1984. – 610 с.
5. Норштейн Ю. Снег на траве: заметки о кино, о себе и о других. – Москва: Corpus, 2008. – 630 с.
6. Митта А. Кино между адом и раем. – Москва: Новое литературное обозрение, 1996. – 636 с.
7. Иванов В. Н. История мультипликации в СССР. – Санкт-Петербург: Лан, 2004. – 46 с.

TALABALARDA VOKAL IJROCHILIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda vokal ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari hamda omillari keng yoritilgan. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida vokal ijrochiligini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadigan pedagogik usullari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: vokal, ovoz, diksiya, iste'dod, tovush, tembr, ovoz kuchi, ovoz apparati, talaffuz, nafas, talaba, pedagogik omillar.

Аннотация. В данной статье широко освещены педагогические особенности и факторы формирования вокального исполнительского мастерства у студентов. Обсуждаются педагогические методы, имеющие особое значение в формировании вокального исполнительства у будущих учителей музыкального образования.

Ключевые слова: вокал, голос, дикция, талант, звук, тембр, сила голоса, голосовой аппарат, произношение, дыхание, ученик, педагогические факторы.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the pedagogical characteristics and factors involved in developing students' vocal performance skills. Pedagogical methods of particular importance in developing the vocal performance of future music teachers are discussed.

Keywords: vocals, voice, diction, talent, sound, timbre, vocal strength, vocal apparatus, pronunciation, breathing, student, pedagogical factors.

Musiqa inson qalbiga chuqur yo'l topadi, uni ko'rkam qiladi. U kishi ruhining aqliy va axloqiy tomonlariga kuchli ta'sir ko'rsatib, tuyg'uli (emotsional), estetik hissiyotini faollashtiradi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning musiqa madaniyatini tarbiyalash va shakllantirish musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi qilib belgilangan.

Musiqa san'atining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda haykaltaroshlik va rassomchilikka xos bo'lgan predmet tasviri yoki nasr va nazmga xos "portretlar" mavjud emas. Musiqada insonning turfa his-tuyg'ulari, kechinmalari, ruhiyati ifoda etiladi. Darslarni qiziqarli va to'g'ri tashkil qilish bilan birga o'quvchilarning qiziqishlarini nazarda tutish muhim pedagogik

omillardan sanaladi. Shunga ko'ra, o'quvchilarni qiziqtiradigan, jalb etadigan, rag'batlantiradigan vaziyatni yaratish, ularda estetik hissiyotni o'stirishning eng zarur shartidir. Baholanki, o'quvchilardagi hissiyot, tuyg'u o'zlariga tanish bo'lgan kuy va qo'shiqlarni bevosita o'zlari ijro etganlarida sodir bo'ladi. O'quvchilarda sodir bo'layotgan his-hayajonlarni ongli bo'lishiga harakat qilish, ularni mustaqil fikrlashga, baholashga o'rgatish va buning uchun mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanish asosiy omil bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan keng ko'lamdagi ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchilarni musiqiy-estetik madaniyatni, estetik hissiyot, ko'nikmalari qatori estetik didini tarbiyalab borish ham alohida o'rin tutadi.

San'at estetik tarbiyaning bitmas-tuganmas manbaidir, chunki, u o'zida to'laligicha va bevosita estetik olam, inson qalbi va aqlining cheksiz kuch bilan zabt etuvchi maftunkor dunyodir [1].

Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishlarida vokal asoslari darslarining olib borilishiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Sababi, ushbu darslar talabalarni, ya'ni bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini vokal ijrochiligi faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy faoliyati davomida musiqa darslarida musiqiy faoliyat turlariga alohida vaqt ajratishi muhim sanaladi, shu ma'noda vokal ijrochiligi malakalarini mukammal egallagan talaba musiqa darslarini samarali tashkil eta oladi.

Vokal san'ati musiqiy ijroning bir turi sifatida xonandaga o'z fikrlari va his tuyg'ularini ovoz, she'riy adabiy til, ifodali ohang orqali ifoda etish, hissiyotlarni jonli ravishda yetkazish imkonini beradi, ularning maqsadi tinglovchilarga ta'sir qiladigan musiqiy va badiiy yoshni yaratish, ularda estetik tuyg'ular va estetik hissiyot uyg'otish vazifasini bajaradi. Vokal asarini ijro etish qiyin jarayon bo'lib, xonandadan yuqori darajadagi iste'dod yoki muntazam tizimli mashg'ulotlarni talab qiladi. Ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish – bu ovoz apparati barcha elementlarining uyg'un o'zaro bir-biri bilan hamohang ta'siri ham ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tanlangan o'qitish strategiyasi bo'lsa, talaba ovozi yo'qotishi mumkin va noto'g'ri o'qitish taktikasining natijasi talabaning tomoq kasalligiga olib kelish imomkin. Shuning uchun vokalni samarali o'rganish uchun talabalarining vokal malakasining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Talabalarda vokal ijrochiligi malakalarini tarbiyalash jarayonida o'qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o'rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishga nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada ijrochilik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Vokal asoslari fani doimo musiqa materiallari, mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To'g'ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq – bu bilim olishning asosiy vositasidir. Ularni dars davomida qo'llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo'qotish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari – mashqdan badiiy asarlarga o'tish uchun foydali

manba hisoblanadi. Manbalarni musiqiy, vokal-texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish – o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo'llay bilish pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biridir. Asarni muvaffaqiyatli ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishlash uslubini keng ko'lamli va turli-tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak.

“Vokal ijrochiligi” tushunchasi insonning kuylash qobiliyati bilan bog'liq nutqdan farqli o'laroq, xonandalik ovozi tovushlari aniq balandlikka ega, uzoq davom etishi mumkin. Ular unlilarda namoyon bo'ladi.

Vokal ijrochiligida ovozning muhim sifati uning kuchidir. Ovoz tabiatan registr'larga ega. Registr deb tovushlarning tembri bo'yicha bir xillik qatori tushuniladi, u yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi.

Vokal ijrochiligida vokal eshitish ham alohida ahamiyatga ega. Vokal eshitish tovush hosil qiladigan harakatlar bilan tovush holatda tasavvur aloqasi vokal eshitish asosidir. Bu tushuncha shuningdek, boshqa hislar: vibratsion, rezonator hissini ham o'zgacha oladi.

Vokal eshitish deb nafaqat to'g'ri ijrochilik jarangi xususiyatlarini sezish, ularni noto'g'risidan farqlash, balki ovoz apparati ishini sezish, boshqa vokal ijrochisi u yoki bu jarangda nima qilayotganini mushaklarda his qilish tushuniladi. Nafaqat ovoz jarangini tinglash, balki uning kuylash chog'idagi ishini aniq tasavvur etish, ovoz apparatida nima bo'layotganini sezish, har bir vokal ijrochisi va pedagog egallashi lozim bo'lgan vokal eshitish aynan shulardan iborat.

Vokal eshitish asta-sekin, vokal texnikasini egallagan sari rivojlanib boradi. Vokal ijrochiligida kuylashni boshlaganlar, odatda buni bilishmaydi. Vokal ijrochiligini ilk bora boshlagan ijrochi u yoki bu jarang qay tarzda hosil bo'lishini na hislarda tasavvur qiladi va na mushaklar bilan tushuna oladi. Asta-sekin u eshitishga tayanib ijrochilik texnikasi ustida ishlaydi va unda eshitish tasavvurlari va uning mushakda aks etish o'rtasida ko'p sonli aloqalar shakllana boshlaydi. Shu asosda kuylash chog'ida ovoz apparati ishini tasavvur qilish va sezish qobiliyati rivojlanadi.

Vokal asarlarini kuylashda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta-sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda,

erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Xonanda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta-sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog'liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi [2]. Bunday tovush to'liq va chiroyli eshitiladi.

Barcha taniqli o'qituvchilar nafas olish masalasini asosiy o'ringa qo'yishlari bejiz emas. Shunday qilib, M.Garsiya shunday deb yozgan edi: *"agar siz nafasingizni boshqarish san'atini o'zlashtirmasangiz, mohir qo'shiqchi bo'la olmaysiz"*. N.D. Andguladzening fikriga ko'ra esa: *"Kuylash san'ati – nafas olish san'atidir"* degan fikrni bildirgan [3]. Bundan ko'rinadiki ijroning asosiy tayanch elementlaridan biri bu nafas olish hisoblanadi.

O'qituvchi-vokalist F.Lampertining "Ovozni tarbiyalashning dastlabki bosqichida ijrochi ovoz bilan emas, balki aql bilan ko'proq o'rganishi kerak, chunki uni charchatib, siz yana yaxshi holatga keltira olmaysiz" deb ta'kidlagan so'zlarini doimo yodda tutishingiz kerak. Yaxshi bosh muvaffaqiyatli ishlashning kalitidir, u yaxshi ovoz kabi muhimdir. Qo'shiq aytishning asosi nafas olishdir. Yaxshi qo'shiq aytish "nafas chiqarish mahorati" deb ishoniladi, ammo "mohirlik bilan nafas olish" uchun "nafas olishni" o'rganish kerak [4]. Talabalarning vokal malakasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun o'qituvchi birinchi navbatda ularga nafas olish mexanizmini o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Qo'shiq aytayotgan talaba nafas olish apparati ishida yangi mahoratni rivojlantiradi. Darhaqiqat, nutq tovushini qo'shiq (vokal) tovushiga aylantirganda, dominant omil qo'shiqchida "qo'llab-quvvatlovchi" nafas olishning paydo bo'lishi hisoblanadi. Ijroda nafas qo'shiqchi tomonidan boshqariladi. Nafas olish organlari: burun, og'iz, tomoq, halqum, traxeya, bronxlar, o'pka, ko'krak qafasi, diafragma (ko'krak va qorin bo'shlig'i mushaklari septum), pastki qovurg'alar, interkostal va qorin mushaklari. Nafas olish xonandalarning kundalik va hayotiy ehtiyojidir.

Yana bir muhim xususiyat – bu talaba ovozining balandligi, uzunligi, unli tovushlarning ravshanligi, tovushning kuchi va tembri bilan ajralib turadigan qo'shiq ovozining mavjudligi kuylash jarayonining

mohiyati hisoblanadi. F. Lampertining aytishicha, inson ovozi boshqa musiqa asboblari qaraganda "hissiy hayajonning eng chuqur nyuansini ifoda eta oladi" [5]. Ijroda ijrochi badiiy obrazni yaratish jarayonida tinglovchiga musiqaning matnli mazmunini yetkazishi kerak, bu yerda diksiya muhim rol o'ynaydi.

Vokal asarini mukammal ijro qilishda badiiy ekspressivlikning asosiy prinsipi musiqiy intonatsiya va she'riy so'zning birligidir. Shu munosabat bilan, Kui shunday deb yozgan edi: *"Vokal musiqasida she'riyat va tovush teng huquqli kuchlardir, ular bir-biriga yordam berishadi, so'z aniq tuyg'uga aniqlik beradi, musiqa uning ekspressivligini oshiradi, ikkalasi ham birlashadi va qasos bilan tinglovchiga ta'sir qiladi"* [6].

Vokal o'qitish usuli talabalarga ta'sir qilishning murakkab vositasi bo'lib, u xilma-xillik va ko'p qirralilik bilan ajralib turadi. Vokal o'qitishning asosiy printsiplari – "oddiydan murakkabgacha" vokal san'atini uzoq muddatli o'rganish, qo'shiq aytishni o'rgatishning turli usullariga asoslangan. Ular orasida eng samaralisi bu vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishning yumshoq usuli, bu talabalarga vokal mahoratining asoslarini o'zlashtirish, bosqichma-bosqich murakkab mashqlarga o'tish va ijro texnikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Musiqa ta'limida o'qituvchilik muhitida talabalarni tez-tez maqtash, ularni rag'batlantirish, o'zlarini topishga yordam berish va o'quv jarayonini jazo choralari kamaytirmaslik kerak degan fikr haqli ravishda keng tarqalgan. Vokal darslari uyg'un munosabatlarga, o'qituvchi va talabalarning o'zaro hurmatiga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu uyg'un muhitda talabalar to'g'ri qo'shiq aytish tamoyillarini tushunish va o'zlarining ijodiy ijro uslublarini topish uchun ko'proq imkoniyatga ega. Ta'lim jarayonidagi qattiqqo'llik talabalar orasida g'ayratni keltirib chiqarmaydi va ularning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ijobiy muhitda har bir talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxsiy ahamiyati namoyon bo'ladi, ular odamni qiyinchiliklarni yengishga va hayotdan zavq olishga qodir qiladi, kognitiv jarayonlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Talaba o'z harakatlarini va boshqalarning harakatlarini yanada aniqroq baholash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ko'p bosqichlarda vokal o'rganish bir xil turdagi mashqlarni takrorlashda namoyon bo'ladi, shuning uchun ko'plab talabalar

buni zerikarli, qiziq emas deb bilishadi. Turli xil o'quv rejimlarini, talabalarning qo'shiq aytishga bo'lgan qiziqishini oshirish usullarini topish, talabalarga o'z ovozlari g'amxo'rlik qilishni unutmastliklari, kerakli mashqlarni bajarishlari va charchoqdan saqlanishlari kerakligini eslatish kerak.

O'qituvchining vazifasi nafaqat ta'lim-tarbiyani ma'lum miqdordagi nazariy bilimlarni yetkazish, balki unga vokal san'atining asoslarini tushunishda psixologik yordam berishdir.

Jamiat taraqqiyotining hozirgi tezligi talabalarimizga juda jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, o'qituvchi uchun talabaga o'z vaqtida asabiy vaziyatni yengishga yordam berish, talabaning tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

mumkin bo'lgan psixologik stress vaziyatini o'tkazib yubormaslik juda muhimdir.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, uni mazmuni milliy asoslarda takomillashtirish, uning barcha sohalarida bo'lgani singari musiqa ta'limida ham birinchi navbatda milliy o'zlikni anglash, shu ma'noda milliy qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, amaliy faoliyatda tatbiq etish ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi jamiyat taraqqiyotining o'zi ham ta'lim tizimini yangicha asoslarda yangilash, yanada rivojlantirish, hamda zamonaviy, ilg'or xorijiy tajriba, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yo'lga qo'yilishini taqazo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash: monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 164 b.
2. Qahharov N. V. Vokal asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 314 b.
3. Андгуладзе Н. Д. О творческой природе певческого дыхания // Первый международный междисциплинарный конгресс «Голос»: сб. трудов. – Москва, 2007. – С. 5–6.
4. Пекерская Е. М. Вокальный букварь. – Москва: Музыка, 1996. – 11с.
5. Ламперти Ф. Начальное теоретико-практическое руководство к изучению пения. Искусство пения по классическим преданиям. Технические правила и советы ученикам и артистам. Ежедневные упражнения в пении: учебное пособие / пер. Н. А. Александровой. – Санкт-Петербург: Планета музыки, 2014. – 21 с.
6. Смелкова Т. Д., Савельева Ю. В. Основы обучения вокальному искусству: учебное пособие. – Санкт-Петербург: Планета музыки, 2014. – 16 с.

TALABALARNING SHAXSIY RIVOJLANISHIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurtida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mavjud holati haqida yoritilgan. Bundan tashqari, bu masalada muhitning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Insonni rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya, shaxs faolligi har birining alohida o'rni, vazifasi borligini maqolada batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, talaba, musiqa vositasida, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, muhit, irsiyat, tarbiya, shaxs faolligi, insoniy fazilatlar, talaba ijtimoiylashuvi.

Аннотация. В статье описано современное состояние духовно-нравственного воспитания студентов в высшем учебном заведении. Кроме того, обсуждалось значение среды в данном вопросе. В статье подробно говорится, что наследственность, среда, воспитание, личностная деятельность имеют особое место и задачи в развитии человека.

Ключевые слова: высшее образование, студент, музыкальные средства, духовно-нравственное воспитание, среда, наследственность, воспитание, личностная активность, человеческие качества, социализация студента.

Abstract. The article describes the current state of students' spiritual and moral education. In addition, the importance of the environment in this matter was discussed. The article details how heredity, environment, upbringing, and personal activity occupy a special place and function in human development.

Keywords: higher education, student, musical means, spiritual and moral education, environment, heredity, upbringing, personal activity, human qualities, student socialization.

Talabalarning shaxsiy rivojlanishi nafaqat ilmiy bilimlarni egallashi, balki ularning ma'naviy hamda axloqiy jihatdan yetuk inson bo'lib shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri anglashiga, mas'uliyatli, odobli va yuksak madaniyatga ega shaxs bo'lib kamol topishiga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya, avvalo, talabaning o'ziga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Insonning o'ziga ishonchi, o'zini hurmat qilishi, ijobiy fikrlashi uning ma'naviy yetukligiga bog'liq. Bunday tarbiya jarayonida talaba o'z xulq-atvori uchun javobgarlikni his qiladi, har bir ishning ma'naviy va axloqiy mezonlar asosida baholanishini anglaydi.

Shuningdek, bu tarbiyaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni beqiyosdir. Ma'naviy yetuk talabalar jamiyatning faol a'zolari sifatida adolat, vatanparvarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini o'z hayot tarziga singdiradilar. Ular jamoada to'g'ri munosabat o'rnatish, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash, muammolarni madaniyatli yo'l bilan hal etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Pedagog, psixolog va faylasuflarni hanuzgacha muhitning inson shaxsiga ta'siri qiziqtirib kelishiga qaramay, ular yagona bir fikrga kelganlari yo'q. Ularning fikrlarida umumiylikdan ko'ra qarama-qarshilik ko'proq namoyon bo'ladi. Modomiki, tarbiya obyekti shaxs (talaba) ekan, eng avvalo, shaxs tushunchasini, so'ng uning shakllanishi

va unda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rnini aniqlash o'rinlidir.

Shaxs tushunchasi insonga xos. Inson sutemizuvchilar sinfining eng mukammal rivojlangan sinfiga xosdir. Bunda go'yoki inson biologik zot sifatida namoyon bo'ladi. Biologik zot sifatida inson qator xususiyatlarga: o'z organizmining tuzilishi (tik yurish, harakat organlarining mavjudligi, bosh miya va uning rivojlanganligi, ko'zi, soch rangi, qon guruhi, ota-onasiga o'xshashligi va farqi, oliy nerv faoliyati) va ongi yuqori rivojlangan fikrlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ammo biologik xususiyatlari insonni to'la xarakterlay olmaydi. Uning mohiyati inson ekanligi, insonda esa, ijtimoiy mohiyat belgilovchi hisoblanadi.

Insonning mohiyati shaxsligida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lib, o'ziga xos psixik xususiyatlari (mijoz, xarakter, qobiliyat, iroda, ongining rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj, qiziqish) hamda ijtimoiy vazifalari (borliqqa, o'ziga, kishilarga, jamiyatga, mehnatga munosabati, xulq-atvori, ijtimoiy faoliyati) bilan ajralib turadi. Inson dunyoga biologik zot sifatida keladi. O'zining odamlar o'rtasida, jamiyatda (ijtimoiy) muhitda hayoti davomida individual uzoq rivojlanishi jarayonida insoniy xususiyatlarni egallab, shaxs bo'lib shakllanadi. Demak, insonning shaxsga aylanishi uzoq davom etadigan rivojlanish davrining mahsulidir [4].

Rivojlanish tabiat va jamiyatdagi hamma jarayonlarga xos umumiy xususiyatdir. Ammo insondagi rivojlanish o'ziga xos namoyon bo'ladi. Insonga nisbatan ko'pincha "shakllanish" tushunchasi qo'llaniladi. Shakllanishda insonda hayoti davomida paydo bo'ladigan sifatlarni tushunish lozim. "Rivojlanish" (kamolot) "shakllanish"ga nisbatan keng tushuncha bo'lib, insonning umri va faoliyati davomida unda paydo bo'lib rivojlanadigan ruhiy, axloqiy jismoniy o'zgarishlar, uning ijtimoiylashuvi uchun zarur insoniy xislatlar va tajribasini o'z ichiga oladi.

Demak, insonda ikki xil mohiyat: biologik va ijtimoiy mavjudotlik o'zaro bog'liq holda mavjud. Shundan kelib chiqib, shaxs shakllanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy omillar (muhit) va tarbiya, shaxs faolligining o'zaro munosabati asrlar davomida faylasuflar, psixologlar, pedagoglarni qiziqtirib kelayotgan masaladir.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, shaxs shakllanishiga 4 ta omil ta'sir qiladi yoki unda belgilovchi hisoblanadi: irsiyat, muhit, tarbiya va shaxs faolligi.

Irsiyat yuqorida bayon qilingan biologik

xususiyatlarni hamda bolaning ota-onaga o'xshashligi va farqini hamda shunga o'xshash qator irsiy axborotlarni o'zida mujassamlashtirib, inson organizmining ichki rivojlanish qonuniyatlarini biologik jihatdan tartibga soladi. Irsiyatning qator belgilarini bevosita ko'zga tashlanishi o'tmishda Aristotel, Platon kabi qadimgi grek olimlarini va XX asrda bixeviorizm oqimi tarafdorlari, E. Torndayk hamda AQSh pragmatik falsafasi va hozirgi zamon pedagogikasining asoschisi D. Dyui, A. Kombslarni shaxs shakllanishida irsiyat belgilovchi, deb o'z ta'lim-tarbiya nazariyalarini shu asosda qurdilar. Shaxs shakllanishida nuqul irsiyatning roli (biologik xususiyatlar)ni tan olib, boshqa omillarni inkor qilish pedagogikada o'ziga xos biologizatorlik oqimini keltirib chiqardi. Biologizatorlar insonni faqat "gen to'plami"dan iborat, avloddan-avlodga o'tuvchi xususiyatlar bo'lib, uning butun sifatlarini va kelajagini belgilaydi, deb qaraydilar [8]. Holbuki, ijtimoiy tajriba va fanning keyingi yutuqlari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida nafaqat insonning ijtimoiy mohiyati, balki biologik xususiyatlari ham o'zgarib, inson zotining biologik evolyutsiyasi to'xtamaganligini ko'rsatmoqda.

Muhit ko'p qatlamli keng tushuncha bo'lib, eng avvalo, inson yashayotgan joy, makondir. Bu joyning tabiiy geografik-iqlim sharoiti (uning ta'siri ostida kishining irqiy evropoid, mongolid, negroid-oq, sariq, qora tanliligi) ta'sirida mijoz tez, sekin qo'zg'aluvchanligi xususiyatlari namoyon bo'lishi kuzatilgan. Shu bilan birga, muhitga inson yashab turgan joyning jamiyatga nisbatan mikro hududi, shu joyda kishilar o'rtasida shakllangan muomala, muloqot, munosabat, mulozamat, gapirish shevasi ham uning madaniy taraqqiyot darajasi bu joyda istiqomat qiluvchi kishilar tarbiyasiga, insoniy xislatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Muhit tushunchasi kishilar yashab, faoliyat ko'rsatadigan davr, siyosiy tuzum va ijtimoiy voqelik sifatida kishilarning ishlab chiqarish, iqtisodiy-siyosiy, axloqiy, ruhiy, mafkuraviy munosabatlarini belgilaydiki, bir so'z bilan ularni ijtimoiy munosabatlar deb ataymiz.

Agar biologik xususiyalar insonga ta'sir qiluvchi ichki tabiiy hayot sharoiti bo'lsa, ijtimoiy voqelikda unga ta'sir qiluvchi kompleks tashqi uni o'rab turgan ijtimoiy sharoit, uning jamiyatdagi hayot sharoiti, ijtimoiy munosabatlari va unda shaxsning bajaradigan insoniy majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Modomiki, inson shaxs sifatida emas, individ sifatida dunyoga kelar ekan, uning insoniy (ijtimoiy) xislatlari ijtimoiy hayot va uning

asosida jamiyatda kishilarning mehnat faoliyatida ular o'rtasida amal qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi belgilovchi rol o'ynaydi. Chunonchi, kishilarning insoniy sifatlari, ulardagi ijtimoiy mohiyat ular yashayotgan davr va tuzumning mahsulidir.

Yuqoridagilar bilan birga muhit tushunchasiga inson tug'ilgan oila va unda shakllangan oilaviy munosabatlar tizimi ham muhim ta'sir kuchiga ega. Bunda shakllangan oilaviy munosabatlar kishilarning dastlabki insoniy xislatlarni egallashida muhimligini alohida ta'kidlash lozim.

Shaxs shakllanishida keltirilgan omillarning borligini qator misollarda ko'rish mumkin. Chunonchi, kishilarning tabiiy yashash sharoitidagi va turmushi, hayot tarzidagi o'zgarishlar ularning shaxsiy sifatlarining o'zgarishi, o'zaro munosabatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Talaba faolligi shunda namoyon bo'ladiki, oliy o'quv yurtida talabalar o'qish, ijtimoiy ishlarga ishtirok etish jarayonida tengqurlari va o'qituvchilar bilan o'ziga xos pedagogik munosabatlar shakllanadi. Talabani shaxsiy sifatlari va kasbiy malakalarini yuksak rivojlanishida munosabatlar tizimida faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba faolligi shaxsining kamoloti uchun boshqa omillar tizimida o'ziga xos xususiyatga ega. Faollik talabadan tanlagan sohasida kuchli, ta'sirchan faoliyat ko'rsatishni taqozo qiladi. Faollik insonda o'z sohasini, o'zini o'rab olgan muhitni o'qish va ijtimoiy ishda faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Faollik shaxsga xos xislat bo'lib, kishilar, atrof muhit, kasb egallashdagi harakatlari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Talaba faolligida impulsiv (yetarli anglanmagan) va anglangan holatlar bo'lishi mumkin. Boshda faollik o'zini anglash va o'z ehtiyojini qondirish uchun atrof muhitdagi narsa, predmetlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Talaba o'zini anglashi va o'zini kasbining egallashidagi mas'uliyatini tushunishi bilan faollik anglangan yo'nalish oladi.

Oliy o'quv yurti talabalarining shaxsiy faolligi to'g'risida fikr yuritir ekanmiz, kuzatishlar uni qator omillarga bog'liqligini ko'rsatadi. Talaba shaxsining shakllanishida bu omillar yaxlit tizim sifatida, o'zaro bog'liqlikda ta'sir ko'rsatadi. Ammo bunda ularning ta'siri bir-biriga mutlaq teng bo'lmay, o'zgaruvchan xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga qarab ularning o'zni va ta'sir darajasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Tajriba ko'rsatadiki, talabani ko'pgina sifatlari jamiyat hayot tarzi ta'sirida shakllanadi. Kishilardagi mehr-muruvvat, mehr-shafqat, o'zaro g'amxo'rlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik,

mehribonlik, aynan turmush tarzi, jamiyatdagi munosabatlarning hosilasidir. Ammo insondagi takrorlanmas individual xususiyatlar oila va mikromuhit ta'sirida shakllanadi.

Shu bilan birga, talabani mikromuhitga nisbatan mustaqilligini ta'kidlash lozim. Bu mustaqillik uning hayotiy tajribasi, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o'zini anglashi, qadriyatlarni qadrlashining natijasidir. Talabani mustaqilligi qayd qilinganidek, uning mikromuhitdagi faol hayotiy pozitsiyasiga ham bog'liq.

Talabani mikromuhit bilan o'zaro munosabatidan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlar mazmuni va uning yo'nalishini belgilash mumkin. Bunda quyidagilarga kerak:

- talaba va mikromuhit xususiyatlarini inobatga olish;

- talaba va mikromuhitning o'zaro ta'sirini shunday yo'naltirish kerakki, talabaga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni kuchaytirish, salbiylarini zararsizlantirish yoki ta'sirini kamaytirish;

- talabani mikromuhitda ijtimoiy tajribasi va faolligini muntazam oshirish asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatish.

Mikromuhitning talabaga ta'siri uni idrok qilish darajasiga, umumiy madaniyati va psixofiziologik xususiyatlariga bog'liq. Mikromuhitning talabaga ta'sirining kuchli va ta'sirchanligi individning, uning xarakterining mustahkamligi, hayot tajribasiga, o'zini anglash darajasi, qadriyatlarini qadrlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga talabani sifatlari mikromuhit talabiga mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mikromuhit xarakteri va tipi kishiga har xil ta'sir qiladi.

O'quv yurtlarida mikromuhit guruh hisoblanadi. Guruh o'quv yurtining tarkibiy qismi bo'lib, uning muhitida talabalar o'zaro va guruh rahbari bilan ma'lum munosabatlar tizimida bo'ladilar. Bu munosabatlar ularning o'quv faoliyati bo'lib, shartli ravishda ishlab-chiqarish munosabatlarini tashkil etadi. Bunda har bir talaba o'z o'rniga ega bo'lib, bilim saviyasi, ijtimoiy ishlarga ishtiroki darajasi va guruhdagi bajaradigan roli jihatidan ma'lum mavqega ega bo'ladi. Shu bilan birga, guruhda ijtimoiy-siyosiy, rasmiy va norasmiy vazifalari orqali ham ma'lum munosabatlar tizimida bo'ladi. Bundan tashqari, moddiy ahvoli, davlat granti yoki shartnoma asosida o'qishi ham o'zaro munosabatlarda ma'lum ta'sir o'tkazishi mumkin. Shularning hammasi asosida guruhda shaxslararo munosabatlar o'rnatilib, guruh a'zolarining individual-psixologik xususiyatlari va umumiy madaniy darajasi bilan belgilanadi.

Talaba rivojlanishining zaruriy sharti uning olamga qiziqishining kengligidir. Bu ayniqsa, qiziqishlar markazlashgan holda asosiy, markaziy biron-bir masalaga yo'nalganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo yosh o'tishi bilan talaba qiziqishlari markazlashib, kasbiy qiziqish belgilovchi bo'lib qoladi. Kasbiy qiziqish belgilovchi bo'lib, talabaning ma'lum faoliyatga yo'nalganligini belgilab, kasbga doir qiziqishlar bilan bog'liq bo'lib qoladi. Ma'lum kasbga qiziqish muhim aloqalar asosini tashkil etib, o'zini va kasbini takomillashtirish ichki shart-sharoitiga aylanib, o'z sohasiga (faoliyatiga) muhabbatga aylanadi [5].

“Talaba ijtimoiylashuvi”, “talaba shaxsining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasi” tushunchalari o'zaro bir-biriga yaqin bo'lib, uning shakllanishida guruhning ma'lum davrlarida talabaga uning xulq-atvori, axloqi uchun ijtimoiy mohiyatli sifatlarni egallashini va shu asosda o'zining guruh, atrof muhit bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solishni anglamoq darkor. Talabaning ijtimoiylashuvi yoki ma'naviy-ma'rifiy kamoloti uning guruhdagi birinchi kunlaridan boshlanib, shu davr mobaynida susayib yoki kuchayib davom etishi hamda hayotining oxirigacha mazmunan to'lishib, unda ijobiy yoki hayot tarzi asosida salbiy sifatlarni belgilovchi bo'lishi mumkin.

“Talaba ijtimoiylashuvi” va ma'naviy-ma'rifiy kamolotida obyektiv omillar: ijtimoiy tuzum, yashayotgan jamiyati, muhit va ta'lim-tarbiyani tashkil qila olish (davlat, ijtimoiy, yuridik tashkilotlar, ta'lim muassasalari), subyektiv omil muhim rol o'ynaydi. Talabaning ijtimoiylashuvi va ma'naviy-ma'rifiy kamolotining tezlashuvi darajasi guruh rahbarining ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'liq bo'ladi. Talaba guruhning ijtimoiy-iqtisodiy talablari va mafkuraviy axloqiy normalarini egallab olishi shu munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi. Shunday qilib, talaba ijtimoiylashuvi va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti uning jamiyat siyosiy-huquqiy va xulq-atvor normalarini uzluksiz, ketma-ket ijodiy o'zlashtirib olishi hamda o'zining hayotida ularga amal qilish jarayonidir.

Yuqoridagilar bilan birga “talabaning rivojlanishi”, “talaba kamoloti” tushunchalari ham mavjud bo'lib, ular talaba ongida va xulq-atvorida birin-ketin, muntazam va ketma-ket bo'ladigan o'zgarishlarda o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga, ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida talabaga mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatib, guruh uchun zaruriy xulq va axloq normalarini singdirish vositasi hamdir. Talabaning insoniy xislatlari guruhning

butun ijtimoiy-ma'naviy hayot tarzi ta'siri ostida shakllanadi. Talabada umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirish davlat tashkilotlari, ijtimoiy, guruh va yoshlar tashkiloti yoki davlat va nodavlat tashkilotlarining maqsadga qaratilgan, ta'sirchan olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlari asosida amalga oshiriladi [7].

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati yana shundaki, uning maqsad va vazifalari har bir jarayonda guruh oldida turgan aniq ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va axloqiy talablar bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, guruh talaba sifatlari xususiyati va yo'nalishini belgilab, ma'naviy-axloqiy tarbiya oldiga ularni ijtimoiy buyurtma sifatida qo'yadi.

Buning boisi shundaki, guruhdagi ijtimoiy munosabatlarning asosini ma'naviyat tashkil etadi. O'z navbatida ma'naviy rivojlanish va munosabatlar talaba ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bunda eng muhimi ma'naviyat talaba faoliyati orqali amal qilib, uning mehnatining samarasi hisoblanadi. Shuning uchun guruh ma'naviy rivojlanishini ma'naviy-axloqiy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talaba aql-zakovati, ma'naviy dunyosi ma'naviy-axloqiy tarbiya mahsuli sifatida ijtimoiy-ma'naviy mohiyat kasb etib, guruh rivojining katalizatori rolini o'ynaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadi pedagoglar tomonidan ikki faoliyat shaklida amalga oshiriladi:

1) ta'lim shaklida, pedagog bilan talabaning ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari oqibatida talabaning ongli va chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi. Bu yaxlitlikda uchta elementni farqlash lozim: ta'lim mazmuni, ya'ni talaba va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati va ular faoliyatining metodlari va tashkiliy shakllari, ular talabada (jamoada) ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. Agar bu o'zgarishlar avvaldan loyihalaniib, belgilangan bo'lsa ularni ta'lim natijasi sifatida qabul qilish mumkin;

2) talablarni ta'limdan boshqa faoliyat turlariga jalb qilib, ta'lim jarayonida uncha amalga oshirib bo'lmaydigan (qiyin) sifatlarni o'stirish.

Ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni jamoaviylik, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish uchun ularni kengroq faoliyatga jalb qilish talab qilinadi. Tarbiyaviy ish uchun yetarli sharoit yaratish (guruhni tarkib toptirish), o'qish va undan keyingi talabalar vaqtini to'g'ri tashkil qilish, hamda moddiy baza asosida ta'sirli tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish lozim.

Darsdan tashqari olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi va talabaning o'zaro birgalikdagi faoliyati "tor ma'noda"gi tarbiya hisoblanadi. "Tarbiya keng ma'noda" [6] olib borilishi uchun ularni har ikkala (ta'lim va darsdan tashqari tarbiyaviy ish) shakliga ijtimoiy yo'nalish berish lozim bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan o'qituvchilar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, qator salbiy holatlarni ko'ramiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik hollarda professor o'qituvchilar o'quv jarayonida ta'lim-tarbiya vazifalarini yaxlitlikda amalga oshirishiga intilmaydilar yoki ta'limning tarbiyalovchi imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydilar. Buning sababini izlash shuni ko'rsatdiki, aksariyat professor-o'qituvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi, ta'limning tarbiyaviy va talaba shaxsini rivojlantirish maqsadlarini mohiyati-mazmunini tushunmaydilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari paytida aniq tarbiyaviy maqsadlarni qo'ya olmay, ta'limiy ya'ni o'quv materialini talab darajasida talabalar o'zlashtirishiga asosiy e'tibor beradilar. O'qituvchilar ta'lim mazmuni, shakli va o'qitish metodlarini tanlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yo'naltirish, darsda ma'lum munosabatlarni shakllantirish asosida bilimning tarbiyaviy potensialini ocha olmaydilar. Eng muhimi o'rganilayotgan bilimlarni kundalik hayot, mustaqil Vatanimiz hayotidagi qaynoq ishlar bilan bog'lamaydilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, inson ruhiy va ma'naviy olamining rivojlanishi tizimli xarakterga ega. Shuning uchun talaba bilimlarini ishonch-e'tiqodga aylanishi uchun uni hamma faoliyat turlariga jalb qilish kerak. Ta'limni tarbiyalovchi

xarakter kasb etishi uchun unda talabalarning turli faoliyat turlari bilish, idrok-fahmlash, tafakkur-anglash, axloqiy tushunchalarni mohiyatini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Shunday qilib, ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, muhitning o'zgarishi tarbiyaga ta'sir ko'rsatsa, o'z navbatida tarbiya muhitni va unda ijtimoiy mavjudot sifatida yashayotgan insonni o'zgartiradi.

Talabalar muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya mahsuli sifatida, qolaversa, ularning har ikkalasining iste'molchisi va yaratuvchisi hisoblanadilar. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy shakllanishida oliy o'quv yurtidagi muhit va ma'naviy-axloqiy jarayonni tashkil qilish darajasi muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlari talabaning intellektual o'sishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Chunki axloqiy poklik, intizomlilik, mehnat-sevarlik va sabr-toqat ilm olish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shaxsiy rivojlani-shning ushbu ikki jihati – bilim va axloq uyg'unlashgandagina har tomonlama barkamol inson yetishib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya talabalarning shaxsiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu tarbiya orqali talaba nafaqat kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis, balki jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga sodiq, ongli, mas'uliyatli va barkamol shaxsga aylanadi. Shu bois, ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3907-sonli Qarori. www.lex.uz.
4. Norova Sh. U. O'quvchilar shaxsining rivojlanish bosqichlari // "Kasb-hunar" ta'limi jurnali. 2005-yil, № 2. – 7 b.
5. Norova Sh. U. Tarbiya samaradorligini oshirishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish // "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-yil. № 6. – 95 b.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy-parxish. Tahrir hay'ati: A. Abduvohitov, A. Azizxo'jayev, M. Aminov, T. Daminov va b. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashryoti, 2003. – 704 b.
7. Umarov B. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda guruh rahbarlari faoliyati // "Xalq ta'limi" jurnali, 2003-yil. № 6. – 63 b.
8. Ziyomammedov B. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006. – 112 b.

To'rabek FAYZIYEV,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

MADANIYAT MENEJERLARINING ETIKASI VA IJTIMOIY JAVOBGARLIGI

Annotatsiya. Maqolada madaniyat va san'at sohasida faoliyat ko'rsatayotgan menejerlarning etik me'yorlari va ijtimoiy javobgarligi to'g'risida fikrlar bildirilgan. Menejerning axloqiy xatti-harakati, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy, madaniy, shuningdek iqtisodiy rivojlanish, menejerga yangi axloqiy talablar, o'zini yaxshi tutish qobiliyati va shunga o'xshash etika normalari, ularning biznes va iqtisodiy faoliyatga ta'sirlari, ularga qo'yilgan talablar yoritilgan.

Kalit so'zlari: menejment, etika, odo-axloq me'yorlari, iqtisodiyot, biznes, qobiliyat, xushmuomalalik, punktuallik, dress-kod, vaqtni tejash, mas'uliyat, jamoa bilan muloqot.

Аннотация. В статье рассматриваются этические нормы и социальная ответственность менеджеров, работающих в сфере культуры и искусства. Освещены нравственное поведение менеджера, нравственные нормы, социальное, культурное, а также экономическое развитие, новые нравственные требования к менеджеру, способность к хорошему поведению и аналогичные этические нормы, их влияние на бизнес и экономическую деятельность, требования к ним.

Ключевые слова: менеджмент, этика, этические нормы, экономика, бизнес, способности, вежливость, пунктуальность, дресс-код, экономия времени, ответственность, общение с коллективом.

Abstract. This article examines the ethical standards and social responsibility of managers working in the arts and culture sector. It covers managerial moral behavior, ethical standards, social, cultural, and economic development, new ethical expectations for managers, the ability to conduct themselves well, and similar ethical standards, their impact on business and economic activity, and the requirements for them.

Keywords: management, ethics, ethical standards, economics, business, ability, politeness, punctuality, dress code, time management, responsibility, communication with employees.

Etika – bu to'g'ri xulq-atvorni va uning yomondan farqini belgilaydigan tamoyillar. Etika axloqiy me'yorlarga, ya'ni tashkilot o'z xodimlaridan rioya qilishni talab qiladigan umumiy qadriyatlar va qoidalar tizimiga asoslanadi. Ushbu qadriyatlar ma'lum bir jamiyat madaniyatida mavjud bo'lgan qadriyatlarning bir qismidir. Etika – bu axloq va odamlarning o'z vataniga, jamiyatiga, davlatiga va bir-biriga nisbatan burchlari haqidagi ta'limot. Etika inson yoki odamlar guruhining xatti-harakatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholashga imkon beradigan tamoyillar to'plamini o'z ichiga oladi. Menejmentga nisbatan etika – bu

menejerning tashkilot xodimlariga, sheriklariga, iste'molchilariga, raqobatchilariga va hokimiyatga nisbatan xatti-harakatlarini axloqiy baholash tamoyillari. Menejerning xulq-atvorida nima yaxshi va nima yomonligini, axloqiy nuqtayi nazardan nima qilishi kerakligini va qonunni buzmasa ham nima qilmasligi kerakligini belgilaydigan tamoyillar etik tushunchalarga bog'lanadi. Yozma qonunlar va qoidalar bilan tartibga solinadigan menejerning me'yoriy xatti-harakatlaridan farqli o'laroq, axloqiy me'yorlar qonun bilan belgilanishi mumkin emas va shuning uchun majburiy emas. Shu bilan birga, menejmentning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu

T. Fayziyev. Madaniyat menejerlarining etikasi va ijtimoiy javobgarligi

standartlarga muvofiqligiga bog'liq va ularning buzilishi tashkilotga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin. Axloqsiz boshqaruv sifatida quyidagi juda keng tarqalgan hodisalarni keltirish mumkin:

- tashkilotning maqsadlari sifatida ataylab axloqsiz ko'rsatmalarni tanlash, ularga erishish jarayoni to'liq axloqiy bo'ladi degan umidda (“vositalar oxirini oqlaydi”);

- juda ezgu maqsadlarga erishishning axloqiy bo'lmagan usullari.

Ba'zi hollarda axloqiy me'yorlar normativ me'yorlarga mos keladi, bu ularning bajarilishini osonlashtiradi. Bu, masalan, qonunga nisbatan bo'ysunish axloqiy mezon. Shu bilan birga, aldash, firibgarlik, korrupsiya, o'g'rilik, moddiy zarar, xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, tuhmat, tovlamachilik, hujjatlarni qalbakilashtirish, ishga beparvolik bilan munosabatda bo'lish va xavfsizlik qoidalarini qasddan buzishlar axloqsizlik va qonunga ziddir. Ko'pgina hollarda menejerning axloqiy xatti-harakati qonun bilan tartibga solinmaydi. Jinoiy ta'qibga olib kelmaydigan, ammo boshqaruvda qabul qilinishi mumkin bo'lmagan axloqiy me'yorlarning buzilishiga misollar:

- *kashfiyotlar va ixtirolarni yashirish (agar bu kompaniya uchun foydali bo'lsa);*

- *xodimlarning sog'lig'i va hissiyotlariga e'tibor bermaslik;*

- *berilgan so'zga rioya qilmaslik;*

- *og'zaki kelishuvni buzish;*

- *kundalik hayotda axloqsiz xatti-harakatlar;*

- *tanishlik tamoyiliga asoslangan yollash;*

- *g'iybat, tuhmat (zararli mish-mishlar);*

- *qo'l ostidagilarni kamsitish;*

- *boshliqlar oldida xo'rlik;*

- *qabul qilingan majburiyatlardan voz kechish;*

- *qo'l ostidagilar, qaramog'idagilar va qiziquvchilardan sovg'alar olish;*

- *rasmiy va tijorat sirlarini oshkor qilish;*

- *olingan ma'lumot manbasini maxfiy tarzda oshkor qilish;*

- *qarzni o'z vaqtida to'lamaslik.*

Boshqaruvning axloqiy tamoyillari o'zgarmas, yakuniy narsa emas.

Madaniy va ijtimoiy rivojlanish, shuningdek iqtisodiy rivojlanish menejerga yangi axloqiy talablarni qo'yadi. Bugungi kunda menejmentning axloqiy me'yorlari doirasiga quyidagilar kiradi:

- *sinfiy, irqiy yoki milliy qarama-qarshiliklarga toqat qilmaslik;*

- *ayolga hurmat, uning erkak bilan tengligini tan olish;*

- *faxriylar va keksalarga hurmat;*

- *hokimiyat va menejerlarga hurmat;*

- *boshqa odamlarning mehnat natijalariga hurmat;*

- *boshqa odamlarning qayg'usiga hurmat;*

- *tozalik va tartibga intilish;*

- *kiyimdagi ozodalik.*

Axloqiy me'yorlarni buzish quyidagilar hisoblanadi:

- *boshqa odamlarning jismoniy nogironlariga hurmatsizlik;*

- *boshqa odamlarning fikriga hurmasizlik (agar u siznikiga to'g'ri kelmasa);*

- *ilm-fan, ta'lim va boshqa odamlarning tajribasiga hurmatsizlik;*

- *jamoat xatti-harakati qoidalarini buzish;*

- *insonning yo'qligida uning fazilatlari va harakatlarini muhokama qilish;*

- *inkontinans, qo'pollik, so'kinish.*

Menejerning bevosita mas'uliyati tashkilot xodimlarini (va birinchi navbatda o'zini) axloqiy xatti-harakatlar bilan tanishtirishdir. Shu maqsadda, boshqaruv etikasini o'rganish, jamoani axloqiy tarbiyalash va axloqiy me'yorlarga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha ishlar rejalashtirilgan va tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Ushbu ishni tashkilotda amalga oshirish uchun tegishli vakolatli maxsus komissiyalar tuzilishi mumkin. Ba'zi tashkilotlarda bunday komissiyaning vazifalari maxsus mansabdor shaxsga, axloq bo'yicha advokatga yuklatilgan. U – “tashkilotning axloqiy vijdoni”. Axloq komissiyalari, shuningdek, tadbirkorlar va menejerlar uyushmalarida, iqtisodiy sohada ishlaydigan jamoat tashkilotlarida va boshqalarda tashkil etiladi. Ushbu komissiyalarning roli juda katta va ularning vakolatlari shubhasizdir. Komissiyalar tarkibiga eng obro'li ishbilarmonlar, menejerlar va advokatlar kiradi. Axloq komissiyasining menejerni axloqsiz xatti-harakatlari uchun qoralagan qarori shikoyat qilinishi mumkin bo'lmagan hukmga tengdir. Bu biznes obro'siga doimiy ravishda putur yetkazishi va menejerning karyerasiga nuqta qo'yishi mumkin [1, 124–128-bb.].

Axloqiy me'yorlarga rioya qilish zarurati bilan bir qatorda, menejer hal qiladigan eng muhim axloqiy vazifa uning ijtimoiy mas'uliyati muammosidir. Menejerning (menejmentning) ijtimoiy javobgarligi uning tashkiloti tomonidan jamiyat oldidagi muayyan vazifalarni bajarilishini, u ishlayotgan mamlakat aholisining ijtimoiy muammolarini hal qilishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etish zarurligini nazarda tutadi. Ijtimoiy javobgarlik faqat ixtiyoriy bo'lganligi sababli, u menejerning normativ, qonuniy belgilangan huquqiy javobgarligidan sezilarli darajada farq qiladi. Keling, uning asosiy o'ziga xos fazilatlarini ko'rib chiqaylik.

1. **Murakkablik.** Ijtimoiy javobgarlik, yuridik javobgarlikdan farqli o'laroq, qat'iy tartibga soluvchi qoidalariga ega emasligi sababli, uni amalga oshirish yomon rivojlangan, asosan did xarakteriga ega va menejer bunga yomon tayyor.

2. **Noaniq oqibatlar.** Ijtimoiy mas'uliyatning ko'plab muhim hujjatlari yetarli qonunchilik

bazasiga ega emas (masalan, homiylik, xayriya) va shuning uchun ularning iqtisodiy oqibatlari baʼzan menejerga tushunarli emas. Bu uning tashvishlanishiga va natijada ularni amalga oshirishni rad etishiga olib keladi.

3. **Raqobatbardoshlikni yoʻqotish.** Ijtimoiy dasturlarga pul sarflab, menejer tovarlar va xizmatlar narxiga qoʻshimcha xarajatlarni kiritishga majbur boʻladi va shu bilan raqobatchilariga ustunlik beradi.

4. **Menejmentning asosiy maqsadidan chetga chiqish.** Bepul ijtimoiy dasturlar bilan shugʻullanish orqali tashkilot oʻzining asosiy bozor maqsadi – maksimal foyda olishdan chetga chiqishga majbur boʻladi. Bu yuqori sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan qisman voz kechish, foydali savdo bozorlaridan chiqib ketish va hokazolarga olib kelishi mumkin.

5. **Axloqiy bosim.** Ijtimoiy masʼuliyatni amalga oshirish axloqiy bilan boshlanadi va unga hamroh boʻladi. Shu bilan birga, bozorning eng muhim prinsipi – bozor erkinligining buzilganidir. Baʼzi hollarda tashkilot iqtisodiy qarorlarni faqat oʻzi qabul qilish qobiliyatini yoʻqotadi.

6. **Qoʻshimcha resurs manevrasi.** Ijtimoiy dasturlar ular uchun tashkilot resurslarining hozirgi vaqtda biznes maqsadlari uchun foydali boʻlmagan qismidan foydalanishga imkon beradi.

7. **Davlat imtiyozlarini olish imkoniyati.** Tashkilotning ijtimoiy faoliyati, qoida tariqasida, davlat tomonidan barcha turdagi imtiyozlar va boshqa qoʻllab-quvvatlash shakllari (davlat buyurtmalarida ustunlik, bojlardan ozod qilish, ijara haqi va boshqalar) shaklida javob beradi).

8. **Qulay biznes va investitsiya muhiti.** Tashkilotning ijtimoiy faoliyati jamiyat va ishbilarmon doiralar oldida oʻz obroʻsini oshiradi, bu esa innovatsiyalar va biznes uchun strategik jihatdan qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

9. **Dasturlarni tanlash.** Ixtiyoriy ravishda, ijtimoiy faoliyat menejerga hech qanday hisobotni talab qilmaydigan ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash obyektlarini, uning tabiatini erkin tanlashni taʼminlaydi [2, 135–138-bb.].

Menejerning ishlashi uchun unga, birinchi navbatda, boʻysunuvchilar va quyi darajadagi menejrlarning nominal ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish qobiliyati, hamkasblariga yordam berish va qiyin paytlarda ularni qoʻllab-quvvatlash qobiliyati, oʻz vakolatlarini “pastga” topshirishga tayyorligi, ishonchli buyruq berish qobiliyati kerak. Vaziyat, vaziyatni bashorat qilish, soʻz va amal birligi muhimdir. Odamlar bilan ishlashda boʻysunuvchilarga oʻz fikri va ish jadvalini yuklash, ularning tashabbusini bostirish, doimiy shubha va ishonchsizlik, maʼmuriy usullarni suiisteʼmol qilish, quyi darajadagi menejrlarning faoliyatiga eʼtibor bermaslik, almashtirish va

aralashish, xodimlarning faoliyatidan doimiy norozilik, qoʻpol qichqiriqlar va soʻzlar, zerikarli “taʼlim” va yaxshi xodimni maqtashdan qoʻrqish hissi doimo menejerlik faoliyatiga xalaqit beradi. Boʻysunuvchilar va hamkasblar menejerni qoʻpollik, xushmuomalalik, oʻzini tuta olmaslik, isteriya va asabiylashish, pastkashlik va nomutanosiblik, mayda-chuyda va hasad, gʻiybat va suhbatdoshlikni sevmasligi uchun kechirmaydi. Kerakli ijobiy fazilatlariga ega boʻlish va nafaqat obroʻga, balki boʻysunuvchilarning sevgisiga ham ega boʻlish uchun menejer jamoada doimiy va qatʼiyat bilan ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, u bilan muomala qilishi kerak boʻlgan barcha odamlarga nisbatan hurmatli, xushmuomala munosabatni rivojlantirishi kerak. U odamni tinglash va tushunish qobiliyatini rivojlantirishi, doʻstona, diqqatli va hamdard boʻlishga intilishi va bironing (va uning) qadr-qimmatini kamsitadigan narsalardan qochishi kerak. U iloji boricha yumshoq va tabassumli, samimiy va rostgoʻy, yaxshi hazil tuygʻusi va mutanosib boʻlishi kerak. Menejer ham kerakli amaliy koʻnikmalarni egallashga harakat qilishi kerak. Ulardan eng muhimi – ijodiy fikrlash, asosiy narsani koʻrish, taxmin qilish, rejalashtirish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati. Bu, shuningdek, murosaga kelish qobiliyati, odamlarni sizga jalb qilish va ularni umumiy muammoni hal qilish uchun yigʻish qobiliyati va nihoyat, zarur maxsus (texnik, gumanitar) ish koʻnikmalarini oʻzida mujassamlashtiradi [3, 244–246-bb.].

Agar siz gʻayrioddiy narsani imkoniyat deb hisoblasangiz, uni butun umr kutishingiz mumkin. Shuning uchun, bu har qanday, hatto eng ahamiyatsiz, qulay sharoitlardan foydalanish qobiliyati haqida boʻlishi kerak. Ushbu sifatidagi kalit soʻz “imkoniyat” emas, balki “foydalanish” boʻlishi zarur. Muvaffaqiyatga harakat qilishga tayyor va qodir boʻlganlar erishadilar. Muvaffaqiyatsizliklarni qulay sharoitlarning yoʻqligi bilan oqlash qabul qilinmaydi – hech qanday holat befarq va dangasa odamga yordam bermaydi. A. V. Suvorov muvaffaqiyatga erisha olmaganlar bilan suhbatlashganda “Ehtimol, siz faqat yarmini xohlagansizdir? Oʻz irodasini oxirigacha namoyon qila oladigan odam uchun imkonsiz narsa yoʻq” – degan fikrlarni koʻp ishlatar ekan. Bu yerda Napoleon Bonapartning “Imkonsiz – bu faqat ahmoqlarning lugʻatlarida keltirilgan soʻzdir” – degan iborasini eslab oʻtish ham joizdir.

“Bir daqiqada yoʻqotgan narsangiz va abadiylik qaytmaydi” (F. Shiller). Vaqtning behuda sarflash orqali biz oʻz imkoniyatlarimizni behuda sarflaymiz, erishgan narsalarimizni yoʻqotamiz. Bundan tashqari, ishning yetishmasligi mushaklar va ongning susaytiradi, bizni zaiflashtiradi. Tadbirkor “Vaqt – bu pul” iborasini tom maʼnoda tushunishi kerak.

Ishni bajarishda – aniqlik o'ta muhimdir. Natijada, odatda harakat emas, balki uning aniq va o'z vaqtida bajarilishi qimmatli mezon bo'lib qoladi. Belgilangan muddatni chalkashtirib yuborish yoki buzish natijasida harakat (hatto to'g'ri) ham o'z ma'nosini yo'qotadi. Qat'i'yatsizlik va sustlik biznes uchun halokatli. Tadbirkorning ozodaligi, ehtimol, uning eng qimmatli tovaridir, u ishonchni uyg'otadi va kredit beradi. "Hech qachon kech emas" iborasi biznesni boshlamoqchi bo'lganlar uchun emas.

O'z biznesingizni topish qobiliyati iqtisodiy faoliyatda qadrlidir. Tabiatan har kimning o'ziga xos iste'dod va mahorat o'lchovi bor. Biri savdo qilish qobiliyatiga ega, ikkinchisi korxonani boshqarish qobiliyatiga ega. Buyuk insonlar o'z bizneslarini topgandan keyingina muvaffaqiyatga erishgan ko'plab misollar mavjud. Doktor A. P. Chexov o'zini adabiyotda, poyabzalchi G. K. Jukov o'zini harbiy ishlarda topdi. Quyidagi tavsiyalarni yodda tutish kerak:

- birinchidan, birinchi muvaffaqiyasizliklardan keyin umidsizlikka tushmang, "rolingizni" o'zgartirishga va o'z joyingizni topishga harakat qiling;

- ikkinchidan, kasbingizning barcha bosqichlaridan o'tishga harakat qiling – bu sizga kasbingiz bo'lgan biznesni tanlashga yordam beradi.

O'rtacha qobiliyatli odamlar (va ularning aksariyati) bir-biridan kam farq qiladi. Ulardan ba'zilarining muvaffaqiyatining sababi alohida iste'dod emas, balki o'z imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatidir. Bu maqsadga erishishga e'tibor qaratish, energiyani asosiy yo'nalishga jamlash qobiliyatini talab qiladi. Hamma narsani oxirigacha borish, bir nuqtaga urish qobiliyati – biznesmenning eng muhim fazilatlar [4, 220–224-bb.].

O'zini yaxshi tutish qobiliyati katta afzallikdir. "Olijanob xushmuomalalik", deb yozadi muallif, – bu boylik, "xushmuomalalik" xarakterning asosiy tashqi diqqatga sazovor joylaridan biridir. "O'z-o'zini nazorat qilish – bu o'zgarmas xotirjamlik, qat'i'yatli, qat'i'y qarash, o'ziga ishonch, boshqalarga hurmat, xarakterning qat'iyligi, adolat va yaxlitlikdir."

Har qanday biznesda muvaffaqiyatga erishish – ilhom talab qiladi. Va biznes bundan mustasno emas. Samarali tadbirkorlik bu borada professional ilhomlantirilgan ishlarga qaraganda, qattiqroq talablarni qo'yadi (g'ayratli tadbirkor – bu g'ayratli skripkachiga qaraganda kam uchraydigan hodisa).

Bu yerda amaliylik, realizm va g'oyani "nuqtaga

yetkazish qobiliyati nazarda tutilgan". Sog'lom fikr murakkab, chalkash vaziyatni tushunishga yordam beradi, agar siz yangi, g'ayrioddiy holatlarga duch kelsangiz nima qilish kerakligini aytadi. Sog'lom aqlning tarkibiy qismlari sezgi, amaliy tajriba, aql va sodiq ko'zdir.

Sizni hurmat qilish kerak bo'lgan birinchi narsa – o'zingizni hurmat qilishni o'rganishdir. O'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga ishonch, o'z taqdiriga ishonish va o'zini himoya qilish qobiliyati kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq.

Biznesdagi muvaffaqiyat uchun siz katta badal to'lashingiz kerak. Maqsadga erishish uchun hamma uchun qimmatli narsani qurbon qilishga tayyorlik muhimroqdir: bo'sh vaqt, zavq va odatiy turmush tarzi. Tadbirkorning yo'li qiyin yo'l ekanligi uchun o'zingizni oldindan belgilash juda muhimdir.

Ko'pincha menejerlar o'z kompaniyasidagi axloqiy muhitni yaxshilashga va uning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Axloqiy tashkilotlarning ustunlari bo'lgan uchta ustunning metaforik tasvirini ko'rish mumkin. Aksariyat axloqiy muammolar shaxs va tashkilot yoki tashkilot va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tufayli yuzaga keladi. Bunday muammolarga duch kelgan menejerlar qiyin axloqiy tanlov qilishga majbur. Qaror qabul qilishda ular ko'pincha umumiy me'yorlar va qadriyatlardan kelib chiqadi. Normativ etikada to'rtta asosiy yondashuv mavjud: utilitar (pragmatik), individualistik, axloqiy, huquqiy va yuridik. Utilitar yondashuv axloqiy tushuncha bo'lib, unda axloqiy xatti-harakatlar odamlarning maksimal soniga eng katta foyda keltiradi, deb ishoniladi. Individualistik yondashuv axloqiy tushuncha bo'lib, unda shaxsning harakatlari uning eng muhim uzoq muddatli manfaatlariga mos keladigan bo'lsa, oxir-oqibat uning farovonligini oshirishga olib keladigan bo'lsa, axloqiy deb hisoblanishi mumkin. Axloqiy va huquqiy yondashuv axloqiy tushuncha bo'lib, unda axloqiy jihatdan to'g'ri yechim unga duchor bo'lgan odamlarning huquqlarini eng yaxshi hurmat qiladigan narsa deb ishoniladi. Axloqiy va huquqiy yondashuv doirasida shaxs shaxsiy qaror natijasida tortib olinmaydigan asosiy huquq va erkinliklarga ega deb taxmin qilinadi. Huquqiy yondashuv axloqiy tushuncha bo'lib, unda axloqiy qarorlar tenglik, halollik va xolislik me'yorlariga asoslanishi kerak, deb ishoniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunova U. G'., Fayziyev T. R. Art marketing. – Toshkent: Kamalak nashriyoti, 2019. – 128 b.
2. Qayimov M. Sh., Umarov A. S., Zunnunova U. G'. San'at menejmenti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yextremum-press, 2012. – 138 b.
3. Zaynuddinov Sh. N. Menejment asoslari. – Toshkent: Moliya, 2006. – 246 b.
4. Королёв О. П. Ответственность как важная характеристика современного менеджмента. – Москва, 2016 г. – 224 б.
5. Шейнов В. П. Психология и этика делового общения. – Минск, 2022 г. – 148 б.

Kamoliddin UMAROV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
katta o'qituvchisi,
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

JAMIYAT BIRDAMLIGI VA BADIY MADANIYAT RIVOJIDA O'ZBEK TEATRining AHAMIYATI

Annotatsiya. So'nggi yillarda yurtimizda o'zbek sahna san'atini turli jabhalarda tadqiq etish, jahon teatr san'atining ilg'or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarini o'rganish, sohani davr talablari asosida takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa zamonaviy rejissyorlik hamda aktyorlik san'atidagi ilm-fan, ta'lim va ijodning yangi tendensiyalarini o'rganish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish muhimligini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada jamiyat birdamligi va badiiy madaniyat rivojida o'zbek teatrining ahamiyati to'g'risida tahliliy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, o'zbek teatri, spektakl, badiiy madaniyat, tendensiya, innovatsiya, tafakkur, renessans, yoshlar, ijod.

Аннотация. В последние годы в нашей стране уделяется большое внимание исследованию узбекского сценического искусства в различных направлениях, изучению передового опыта и современных технологий мирового театрального искусства, совершенствованию сферы на основе требований времени. Это показывает важность изучения новых тенденций и внедрения инновационных подходов в науке, образовании и творчестве, современной режиссуре и актерском искусстве. В данной статье анализируется значение узбекского театра в единстве общества и развитии художественной культуры.

Ключевые слова: общество, узбекский театр, спектакль, художественная культура, тенденция, инновация, мышление, ренессанс, молодежь, творчество.

Abstract. In recent years, our country has devoted considerable attention to the study of Uzbek performing arts in various fields, exploring the best practices and modern technologies of global theatrical art, and improving this field in line with the demands of the times. This demonstrates the importance of exploring new trends in science, education, and creativity in contemporary directing and acting, as well as implementing innovative approaches. This article analyzes the role of Uzbek theater in social unity and the development of artistic culture.

Keywords: society, Uzbek theater, performance, artistic culture, trend, innovation, thinking, renaissance, youth, creativity.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini rivojlantirish, xalqimiz orasida madaniy-ma'rifiy islohotlarni targ'ib qilish, xalqimiz dunyoqarashini yaxshilash, yoshlarni vatanparvarlik va yurtga sadoqat g'oyalari bilan tarbiyalashda madaniyat va san'atning muhim o'rni bor. Bugun biz ko'zlagan maqsad – Uchinchi Renessans g'oyasini ham

madaniy taraqqiyotdan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonda "yangi ma'naviy makon" yaratish g'oyat zarur vazifa ekanini ta'kidlab, ushbu tushunchaga shunday ta'rif bergan edi: "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz

intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir" [1, 276-b]. Shubhasiz, bunday ma'rifiy jamiyat qurish ilm-fan, ta'lim, adabiyot, san'at va madaniyat sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonda san'atning barcha turlari qatori teatr san'ati rivojiga ham alohida e'tibor berilib, sohaning moddiy va ma'naviy asoslarini qo'llab-quvvatlashga jiddiy ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Zero, jonli va ta'sirchan san'at turi bo'lgan teatr nafaqat ijodiy faoliyat, balki ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda bir qancha funksiyalarni bajaradi. Xususan, g'oyaviy-badiiy jihatdan barkamol sahna asarlari xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, insonlar tafakkuriga ezgu g'oya va qarashlarni singdirishga xizmat qiladi, bu esa yuqorida qayd etganimiz "yangi ma'naviy makon"ni barpo etishning zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

2023-yil Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotimizning ko'plab jabhalari qatori teatr san'atini rivojlantirish, sohaning istiqbolini belgilash bo'yicha zarur xulosa va takliflarini bildirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga sahna san'atini takomillashtirish uchun puxta reja ishlab chiqish vazifasi yuklandi. Qolaversa yaxshi faoliyat yuritib kelayotgan yosh rejissyorlarni rag'batlantirish maqsadida Mannon Uyg'ur nomidagi mukofotni joriy etish vazifasi belgilandi. Tashkilotlarda oyning bir kunini "Teatr kuni" sifatida e'lon qilish va ishchi-xizmatchilarning teatrga tashrifini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar, jamiyat va xalq hayotidagi yangiliklar, teatr san'atining rivojlanishiga e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan rejissyorlar, aktyorlar, dramaturglar va teatrshunoslar oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, 2024-yilning 22-noyabr kuni e'lon qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 39-sonli qarorlarida ham aynan yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha muhim ko'rsatmalar belgilab berildi. Unga ko'ra insonning jamiyatdagi o'rne va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri

uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga murojaat etilayotgani, millat ma'naviyatini shakllanishida ular timsol o'laroq qabul qilinayotgani barchamizga ma'lum. Boisi, jadidlarning g'oyalari bugungi davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Binobarin, jadidlarning adabiy merosini o'rganish, tadqiq etish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod orasida keng targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, jadid ma'rifatparvarlarining siymosi va asarlarini teatr sahnalariga olib chiqish, shu orqali millat ma'naviyatini yuksaltirish zarur vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotshunos Sh.Rizayev jadid teatrining maqsadi va ahamiyati xususida to'xtalib shunday yozgan edi: *"Jadid adabiyoti, jadid teatri san'atning azaliy va abadiy vazifasi bo'lgan inson ruhiyatining teran badiiy tadqiqini bosh maqsadi qilib belgilamaydi. Chunki ruhiyat inkishofi uchun uni avvalo g'aflat uyqusidan uyg'otish, mutelikdan, qullikdan xalos etmoq kerak edi. Jadidlar shu tilak bilan tarix sahnasiga chiqdilar. Millatni ma'rifat nuri bilan qayta jonlantirib, ilmu urfon orqali istiqbolga, istiqbolga yetishishni ko'zladilar"* [2, 130-b]. Aynan ma'rifiy xarakteri bilan ham jadid dramaturgiyasi dolzarbligi, ijtimoiy-mafkuraviy ahamiyatini saqlab turibdi.

Keyingi yillarda madaniy hayotimizning barcha jabhalari qatori teatr san'atida ham jadid ma'rifatparvarlari siymosini yaratish, dramalarini sahnalashtirish bo'yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, keyingi yillarda sahnalashtirilgan O'zbekiston davlat drama teatrining "Jinlar bazmi" (X.Do'stmuhammad asari, rej. O.Salimov), "Advokatlik osonmi?" (A. Avloniy asari, rej. S.Lutfullayev va B.Usmonov), "Turkiston bolalari" (G. Matyoqubova asari, rej. R.Tog'ayqulov), O'zbekiston davlat satira teatrining "Julqunboy" (A.Qodiriy asari, rej. R.Allanazarov), "Padarkush" (M.Behbudiy asari, rej. J.Ro'zmetov), Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrining "Advokatlik osonmi?" (A.Avloniy asari, rej. A.Xolmo'minov), Buxoro viloyati musiqali drama teatrining "Abdurauf Fitrat" (Z.Ne'mat asari, rej. L.Navro'zov) singari spektakllari fikrimizga misol bo'ladi. Mazkur sahna asarlari jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalqimiz orasida targ'ib qilish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yuksak g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashga muayyan darajada xizmat qildi.

Shunday spektakllardan biri – O‘zbekiston davlat drama teatrida Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi munosabati bilan yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz” qissasi asosida taniqli rejissyor, O‘zbekiston san‘at arbobi Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirilgan “Jinlar bazmi” (“Yolg‘iz”) spektakli bo‘ldi.

Qissada Abdulla Qodiriyning drammatizmga boy, murakkab taqdiri davr manzarasi bilan uzviylikda, mahorat bilan tasvirlanadi. Voqealar rivojini belgilovchi omil sifatida adibning 1926-yil fevral oyida “Mushtum” jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” nomli maqolasi asos qilingan bo‘lib, ayni shu felyeton sabab Qodiriy boshida qora ko‘lankalar paydo bo‘ladi. Maqolada jamiyatning tanazzulga ketayotgan qator sohalari, shuningdek, o‘z amaliga bepisand qarayotgan rahbarlar faoliyati ayovsiz tanqid qilinadi, bundan esa mustabid korchalonlari yashin urgandek sergak tortadi. “Rejissyor va inssenirovka muallifi O.Salimov qissaning o‘q tomirini aniqlab, voqealarni shuning atrofiga quradi. Sahnalashtiruvchi rassom S.Chufarnov yozuvchi g‘oyasi va rejissyor maqsadini to‘g‘ri anglagan holda Qodiriy yashagan qattol tuzumning ayanchli qiyofasini aks ettiruvchi mahobatli dekoratsiyalar va rang-barang polotnolarga alohida e‘tibor qaratadi.

Sahnada ramziy minbarlar, temir panjaralar, Ittifoq timsoli bo‘lmish qizil bayroqlar, gohida Lenin, gohida Stalin portretlari namoyon bo‘ladi, musiqa ham shunga monand – baraban, truba, Burma karnay, trambon kabi damli cholg‘u asboblarining vahimali ovozi eshitiladi, bunga esh bo‘lib harbiy marsh sadolari uzra qatag‘on qilichini yalang‘ochlagan zobitlarning qadam tovushlari quloqqa chalinadi” [3].

Xullas, Qizil maydonda bo‘luvchi paradlarni eslatadigan muhit, bunda go‘yo Qodiriy tasvirlagan “Jinlar bazmi” real holatga – sovet davriga ko‘chadi, aniqrog‘i, millatning chinakam ziyolilarini qatl etayotgan, ma‘rifat ustidan tantana qilayotgan kimsalar ayni zamonning jinlariga o‘xshab ketadi va ularning bazmi avjiga chiqadi. Tomoshabin ilk sahnada tamomila boshqa davrga tushib qoladi, hatto nimanidir anglolmay, atrof-javonibdagi betartib manzarani hazm qilolmay, o‘yga toladi. Voqealar real kechmishmi yo tushda sodir bo‘lyaptimi, ajratish qiyin, fantasmogoriya, sahnaviy metafora va boshqa ramziy ifodalar bir-biriga qorishib ketadi. Rejissyor tomoshabinni davr muhitiga olib kirish uchun shunday usulni qo‘llaydi, barcha sahna

vositalari va komponentlardan mahorat bilan foydalanadi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli yot g‘oyalardan himoya qilish, xalqimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilishda Alisher Navoiy ijodi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, Navoiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar barcha davrlarda ham o‘z qimmatini va dolzarbligini yo‘qotmaydi. Atoqli teatrshunos M.Qodirov ta’kidlaganidek, *“Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayot yo‘li, oila qurmay tanho o‘tganligi, ma’nolar xazinasi bo‘lmish she‘rlari, dostonlari, tarixiy asarlari dramaturglar va teatrlar uchun bamisoli bir ummon, bitmas-tuganmas xazinadir. Ular asosida turli janrlarda shu kunlardagi tomoshabinlarga, xususan, yoshlarga teran ma’naviy-estetik ozuqa bera oladigan, ibrat bo‘la oladigan asarlar yaratish mumkin”* [4, 8-b]. Shu ma’noda, ulug‘ shoir adabiy merosini madaniy hayotimizning barcha jabhalari orqali targ‘ib qilish, uning mohiyatini xalqimizga yaqindan yetkazish zarur ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘rik-festival aynan shu maqsadga xizmat qilishi bilan e‘tiborli bo‘ldi.

Festivalda Alisher Navoiy siymosi va ijodiy merosi asosida sahnalashtirilgan bir nechta spektakllar taqdim etildi. Jumladan, Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining “Alisher Navoiy” (I.Sulton, Uyg‘un asari, rej. M.Ravshanov), Farg‘ona viloyati rus drama teatrining “Luna dlya Shaxa Baxrama” (Alisher Navoiy asari asosida, rej. A.Abdullayev), Andijon viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Farhod va Shirin” (Alisher Navoiy asari asosida, rej. D.Shayxov), Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatrining “Bahrom va Dilorom” (inss. muallifi va rej. G‘. Mardonov), Qo‘qon shahar drama teatrining “Ikki qalb afsonasi” (U. O‘sarov inss. muallifi U.O‘sarov, rej. G‘.Mardonov), Buxoro viloyati musiqali drama teatrining “Segoh” (H.Jovid asari, rej. S.Meliyev), Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrining “Chin yurtini dunyoga mashhur qilgan go‘zal” (muallif va rej. M.Begimov), Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatrining “Alisher Navoiy” (Alisher Navoiy asari asosida N. Abbosxon asari, rej. D.Haqberdiyev), O‘zbekiston davlat rus akademik drama teatrining “Smyateniye pravednix” (Alisher Navoiy asari, rej. V.Umarov), Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrining “Lison ut-tayr” (Alisher Navoiy asari, rej. G‘.Mardonov), Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Qush tili” (Alisher Navoiy asari asosida H.Rasul, rej. Sh.Yusupov), Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq

teatrining “Sher bilan durroj” (Alisher Navoiy asari asosida B. Matniyazov asari, rej. G.Yusupova), O'zbekiston davlat drama teatrining “Sabbai sayyor” (Alisher Navoiy dostoni asosida U. O'sarov asari, rej. G'.Mardonov), Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrining “Xamsa” (Alisher Navoiy asarlari asosida, rej. H.Qosimov), Samarqand viloyati musiqali drama teatrining “Ishq bo'stoni” (“Qush tili” dostoni asosida Sh.Murodov inss, rej. Sh.Sanaqulov) kabi spektakllari shular jumlasidan. Teatrshunos olimi D.Rahmatullayeva qayd etganidek, *“bu izlanishlarda Navoiy dostonlarini yangi nigoh va yondashuv bilan o'rganish, zamonaviy shakl va mazmunda sahnalashtirish, olis moziy qahramonlarini bugungi kunimizga yaqinlashtirish tamoyili ustunlik qildi. Festivalda yurtimizdagi barcha teatrlar jamoalari ishtirok etishga intilgani e'tirofli. Avvalo, har bir teatr repertuarida Navoiy siymosi va uning asarlari bo'lishiga erishilmoqda. Bu orqali Navoiy ijodi, asarlari insoniyat ma'naviy mulkiga aylanib ulgurani, u mudom bashariyatga hamroh ekani ta'kidlanadi.*

Bu holat esa jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur ma'naviy hodisadir. Aynan festival kunlari teatr ma'naviyat maskani ekani, tomoshabinni o'ylashga, fikrlashga, asosiysi, poklanishga undash imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ldi. Zero, spektakllarda ilgari surilgan do'stlik, adolatparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, boshqaruvdagi haqparvarlik singari g'oyalar bugungi kun ma'naviyat tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi” [5]. Mazkur sahna asarlarida Navoiy siymosi va asarlari turli talqinlarda namoyish etildi. Shuningdek, spektakllar badiiy-g'oyaviy, ijtimoiy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan ham muxlis va mutaxassislarda qiziqish uyg'otdi. Umuman, Alisher Navoiy ijodiy merosining sahnaviy talqinlariga bag'ishlangan maxsus teatr festivalini tashkil etilishi madaniy

hayotimizda e'tiborga molik voqea bo'ldi.

Mustaqillik yillari O'zbekiston xorij mam-lakatlari bilan ijtimoiy-madaniy soha-larda integratsion aloqalarni kuchaytirdi. Xususan, teatr san'ati misolida oladigan bo'lsak, yurtimizning ko'plab teatrlari xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi, o'z spektakllari bilan gastrol safarlarida qatnashdi.

Shuningdek, jahon teatr jamoalari ham yurtimizga gastrollar tashkil etdi, o'zbek rejissyorlari xorijda, xorijlik rejissyorlar esa O'zbekistonda spektakllar sahnalashtirish uchun taklifetildi. Shukabijarayonlarsa teatrsan'atidagi badiiy-ijodiy voqealarni takomillashtirdi hamda millatlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy hamkorlikni rivojlantirishga, jahon xalqari orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o'zaro hamjihatlik g'oyalarni ilgari surishda ham rol o'ynadi.

Bugungi globallashuv davrida teatr san'atining ijtimoiy-madaniy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu jonli va ta'sirchan san'at turi tili, millati, dini, irqidan qat'iy nazar dunyodagi barcha xalqlarni umuminsoniy va ezgu g'oyalar atrofida birlashtirish qudratiga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston teatrlarining xalqaro maydondagi faoliyati va aloqalari jamiyatga va xalqimizga nima berdi? – degan savolga tadqiqotimizdan olingan xulosalar asosida quyidagicha javob berish mumkin: Jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamladi; Jamiyat birdamligi va badiiy madaniyat rivojiga erishildi; Kishilar ma'naviy olamini boyitdi; Odamlarda ijtimoiy faollikni oshirdi; Turli millatlar va davlatlar o'zaro hamkorligini va hamdo'stligini ta'minladi; Globallashuv sharoitida g'arb axloqsizligini oldini olishga qo'l keldi; Xalqimiz orasida toqat madaniyatining shakllanishida va rivojlanishida ahamiyatli bo'ldi; O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan faol diplomatik aloqalarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 276 b.
2. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 130 b.
3. Abdurasulov Sh. O'zbek teatrida jadid ma'rifatparvarlari obrazi // “Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashgan mutafakkirlar” shiori ostida buyuk ajdodlarimiz, jumladan, XX asr jadid adabiyoti namoyandalari hayoti, ijodi, taraqqiyparvar g'oyalari targ'ibotiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – Toshkent: Elektron to'plam, 2020. – 145 b.
4. Qodirov M. Navoiy ijodi – izlanishlar manbai // Teatr. 2012, 1-son. – 8 b.
5. Rahmatullayeva D. Navoiy asarlariga yangicha yondashuv tomoshabinni mushohadaga chorlashi bilan ahamiyatli // “Yangi O'zbekiston” gazetasi. 2022, 7-fevral.

SHAHAR MADANIYATIDA ESTETIKA VA BADIYLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar madaniyati kontekstida estetika va badiylikning o'рни va roli yoritilgan. Urbanizatsiya jarayonlari insonning vizual va hissiy idroki orqali shakllanadigan estetik makonlar yaratilishiga olib keladi. Shahar muhitidagi arxitektura, san'at asarlari, jamoat makonlari dizayni, ko'cha san'ati (grafiti, mural), haykaltaroshlik, rang tanlovi va geometrik uyg'unlik kabi omillar estetik tajribaning ajralmas qismidir. Maqolada turli nazariy manbalar asosida estetikaning shahar hayotiga integratsiyalashuvi, badiylikning madaniy xotira va identitet shakllanishiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: shahar madaniyati, urbanizatsiya, estetika, badiylik, vizual san'at, shahar identiteti, arxitektura, jamoat makonlari, grafiti, madaniy meros, san'at antropologiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются место и роль эстетики и искусства в контексте городской культуры. Процессы урбанизации приводят к созданию эстетических пространств, формируемых визуальным и эмоциональным восприятием человека. Такие факторы, как архитектура, произведения искусства, дизайн общественных пространств, уличное искусство (граффити, муралы), скульптура, цветовой выбор и геометрическая гармония в городской среде, являются неотъемлемой частью эстетического опыта. В статье, основанной на различных теоретических источниках, рассматривается интеграция эстетики в городскую жизнь, вклад искусства в формирование культурной памяти и идентичности.

Ключевые слова: городская культура, урбанизация, эстетика, художественное выражение, визуальное искусство, городская идентичность, архитектура, общественные пространства, граффити, культурное наследие, арт-антропология.

Abstract. This article examines the place and role of aesthetics and art in the context of urban culture. Urbanization processes lead to the creation of aesthetic spaces shaped by human visual and emotional perception. Factors such as architecture, artwork, public spaces design, street art (graffiti, murals), sculpture, color selection, and geometric harmony in the urban environment are an integral to aesthetic experience. Drawing on various theoretical sources, this article examines the integration of aesthetics into urban life and the contribution of art to the formation of cultural memory and identity.

Keywords: urban culture, urbanization, aesthetics, artistic expression, visual art, urban identity, architecture, public spaces, graffiti, cultural heritage, art anthropology.

Insoniyat tarixida madaniyat inson hayoti va ongining shakllanishida markaziy o'rin egallagan. Madaniyatshunoslik fanida madaniyat inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui sifatida tushuniladi. Bu fan shahar muhitini faqat ijtimoiy-iqtisodiy birlik emas, balki estetik va badiiy tajriba manbai sifatida ham tahlil qiladi. Shaharlar – bu jamiyat taraqqiyotining zaminidir, ular vaqt o'tishi bilan nafaqat texnologik, balki ma'naviy o'zgarishlarni ham o'zida mujassamlashtirib boradi. Shu sababli, shahar madaniyatini o'rganish jarayonida estetika va badiiylilik tushunchalari muhim ilmiy e'tiborga loyiqdir.

Estetika – bu nafaqat go'zallikni idrok etish, balki jamiyat ongida shakllangan ma'naviy qadriyatlar, ularning ifoda shakllari va ularni baholash mezonlarini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Badiiylilik esa ushbu estetik ifoda shakllarining ijtimoiy hayotda qanday aks etishini bildiradi [1]. Shahar madaniyati kontekstida bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, arxitektura, dizayn, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, jamoat joylari estetikasida o'z ifodasini topadi.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, shahar – bu jamiyatning madaniy arxivi, badiiy ifoda vositalari orqali o'zini anglash joyidir. Har bir shahar o'zining tarixiy, madaniy va estetik xususiyatlariga ega bo'lib, ularni san'at va dizayn orqali ifodalaydi. Ayniqsa, urbanistik estetika zamonaviy madaniyatshunoslikda dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'riladi, chunki u shahar hayotining ko'zga ko'rinmas, ammo chuqur ta'sir ko'rsatadigan jihatlarini o'rganishga imkon beradi.

Shu bilan birga, shahar madaniyatining zamonaviy ifodasi faqat rasmiy va institutsional san'at orqali emas, balki norasmiy, xalqona san'at – grafiti, (graffiti – bu chizish usullari va qogoz yoki boshqa tekis yuzadan foydalanib, tasviriy san'atni yaratish usullari) mural, ko'cha performanslari orqali ham yuzaga chiqmoqda [2]. Bu holat badiiylilik va estetikaning ijtimoiy ko'lamdagi funksiyalarini, uning yoshlar, ijodkorlar va keng jamoatchilik bilan qanday munosabatda bo'lishini o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shahar madaniyatida estetika va badiiylilikning o'zni funktsiyasi hamda rivojlanish bosqichlarini o'rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur mavzuning nazariy asoslarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur yo'nalishda o'zbek va xorijiy olimlarning tadqiqotlari shahar makonida

estetik me'yorlar, badiiy ifoda vositalari va urban madaniyat dinamikasini yoritishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Avvalo, Q.Abdurahmonovning "Shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlari" nomli asarida urban makon va madaniy meros o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlar haqida chuqur tahlil berilgan. Muallif urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy-madaniy oqibatlarini tahlil qilib, estetika bilan badiiylilikni shahar muhiti-ning ajralmas elementi sifatida baholaydi. A.Jumayevning "Madaniyat nazariyasi" asarida madaniyatning turli shakllari, xususan, estetik madaniyat tushunchasining keng qamrovi va uning jamiyatdagi o'zni haqida fikr yuritiladi. Q.Bahromovning "Estetika asoslari" kitobi bevosita estetik me'yorlar, go'zallik va san'at tushunchalarining madaniy va psixologik asoslariga bag'ishlangan.

Xorijiy adabiyotlar ichida M.Milesning "Urban Avant-Gardes: Art, Architecture and Change" asari shahar muhitida san'at va badiiylilik orqali o'zgarishlar ro'y berishini konseptual jihatdan asoslab beradi. Asar shahar estetikasini zamonaviy san'at va arxitektura orqali tushunish imkonini beradi. H.Lefebvre'ning "The Production of Space" asari esa urban makonni inson ongining ijtimoiy va estetik mahsuli sifatida tahlil qiladi. U makonni ijtimoiy konstruksiya sifatida tushuntirib, unda estetik me'yorlar qanday ishlab chiqilishi va qabul qilinishini tahlil qiladi. S.Zukinning "The Cultures of Cities" asari urban madaniyatda estetika va identitetni bir butun tizim sifatida o'rganadi. Bu asar orqali shahar muhiti-ning badiiy ko'rinishi va estetik qiyofasi fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli yoritiladi.

D.Qodirovaning "Urbanistik madaniyat va san'at" mavzusidagi maqolasi Toshkent va Samarqand shaharlaridagi san'at infrastrukturasi va ko'cha san'ati tahliliga asoslangan bo'lib, o'zbek urban madaniyatida estetik jihatlar qanday shakllanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, Sh. Yunusovning maqolasi madaniy merosning shahar estetikasidagi o'zini yoritadi.

Bundan tashqari, YUNESKO tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan "Culture and Urban Future" ("shaharsozlik kelajagi va madaniyat") hisobotida ham shaharlarni barqaror rivojlantirishda madaniyat va estetikani integratsiyalash muhim strategiya sifatida e'tirof etilgan. Ushbu xalqaro hisobotdagi ma'lumotlar shahar estetikasi va fuqarolik identiteti o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida

ham shahar estetikasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. 2022-yil 26-yanvardagi PQ–108-son qarorida shaharlarning estetik obodonlashtirilishi, tarixiy obidalar va zamonaviy arxitektura uyg'unligi orqali shahar madaniyatini rivojlantirish choralari belgilangan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar estetik ifoda vositalarining shahar muhitida qanday o'rin egallashi, ular orqali qanday badiiy va madaniy jarayonlar yuzaga kelishi, fuqarolar ongida qanday madaniy shakllanishlar sodir bo'lishi haqida chuqur tasavvur beradi. Shuningdek, bu manbalar orqali milliy urbanistik madaniyatimizda estetika va badiiylarning kelajagini prognoz qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shahar madaniyati zamonaviy jamiyat hayotining murakkab va ko'p qatlamli hodisasi sifatida, estetik va badiiylar mezonlarining ijtimoiy ongda shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Estetika va badiiylar nafaqat san'at va arxitektura orqali ifodalanadi, balki kundalik hayotda – jamoat makonlari, kiyinish madaniyati, reklama, transport vositalari dizayni, hatto shahar fonikasi (shovqin, musiqa, nutq madaniyati) orqali ham o'z aksini topadi.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan estetik tajriba shahar makonining ma'naviy "matni"ni o'qishga imkon beradi. Masalan, tarixiy binolar va qadimiy arxitektura o'zida tarixiy qatlamlarni mujassamlashtirgan bo'lib, estetik obrazlar orqali shahar identitetini shakllantiradi [3]. Shu bilan birga, zamonaviy shaharlarning osmono'par binolari, shaffof fasadlar, geometrik uyg'unlikka asoslangan dizaynlar yangi estetik qadriyatlarni yaratmoqda.

Shahar estetikasi haqida gap ketganda, faqat rasmiy san'at (muzeylar, teatrlar, haykallar) bilan chegaralanish to'g'ri emas. Hozirgi davrda grafiti, mural san'ati, "ko'cha performanslari" kabi norasmiy badiiy shakllar keng tarqalgan. Bu ifoda vositalari shahar aholisining norasmiy madaniy ovozi bo'lib ifodalaydi, ayrim hollarda esa ijtimoiy tanqid, norozilik va alternativ identitet manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar orasida sezilarli bo'lib, badiiylar shahar makonining demokratik va inkluziv xususiyatini ta'minlashda vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [4].

Shahar identiteti – bu shahar aholisining o'z yashash muhitiga nisbatan hissiy va ijtimoiy munosabatlarining yig'indisidir. Ushbu identitet estetika va badiiylar orqali mustahkamlanadi. Masalan, Samarqanddagi Registon majmuasi

yoki Toshkentdagi Mustaqillik maydoni singari joylar faqat turistik emas, balki estetik-simvolik makonlar sifatida ahamiyatga ega. Bunday joylar orqali shahar "o'zini" ifodalaydi, ularning dizayni, mazmuni va vizual obrazlari shahar ruhini belgilaydi.

Shuningdek, estetik jihatdan shahar makonlari ijtimoiy tengsizliklarni ham ifoda etadi. Shahar markazidagi obod va jozibador hududlar ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy yuqori qatlamlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, chekka hududlar estetik parvarishdan mahrum bo'ladi. Bu holat estetik tengsizlikni keltirib chiqaradi, natijada shahar makonida madaniy ajralish kuchayadi. Bu borada urbanistik san'atning demokratik xarakteri, barcha qatlamlar uchun estetik va badiiy tajriba yaratish zaruriyati tobora dolzarb bo'lib bormoqda [5].

Estetika shuningdek shaharlarning madaniy xotirasini saqlab qolishda ham muhim vositadir. Haykallar, esdalik belgilar, tarixiy binolar – bular shunchaki obyekt emas, balki kollektiv ongda muayyan davrlar, voqealar, qahramonlar timsolidir. Badiiy yondashuvlar orqali ushbu obyektlar qayta talqin qilinadi va zamonaviy shahar hayotiga integratsiyalanadi. Shu sababli, estetik yondashuvlar madaniy merosni saqlash, tushunish va qayta o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Shahar madaniyatidagi estetika va badiiylar – bu faqat tashqi ko'rinish emas, balki shahar aholining o'z muhitiga nisbatan ruhiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarining murakkab ifodasi hisoblanadi. Shahar estetikasi – bu jamiyat hayotini anglashning o'ziga xos vizual va simvolik usulidir.

Ushbu tadqiqotda shahar madaniyati doirasida estetika va badiiylarning o'rni va funksiyalarini o'rganishda madaniyatshunoslik, sotsiologiya, urbanistika va san'atshunoslik yo'nalishlarining tarmoqli metodlaridan foydalanildi. Tahliliy yondashuvlar asosida estetik jarayonlar va badiiy ifoda vositalari shahar makonida qanday shakllanishi, ularning ijtimoiy va madaniy ongga qanday ta'sir qilishi o'rganildi. Asosiy metod sifatida madaniy tahlil, kontekstual yondashuv, komparativ (taqqoslovchi) tahlil, vizual madaniyatni o'rganish va sotsiokultural monitoring usullariga tayandik [6].

Tadqiqot doirasida bir necha yirik shaharlardagi estetika shakllanishiga doir holatlar o'rganildi. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda urban dizayn, landshaft me'morchiligi, tarixiy obidalar bilan yangi

arxitektura uyg'unligi, jamoat joylari estetikasiga oid misollar tahlil qilindi [7]. Bu tahlillarda zamonaviy shahar hayotida estetikaning nafaqat tashqi ko'rinish, balki madaniy mazmun va ijtimoiy ong shakllantiruvchi vosita sifatida tutgan o'rni ochib berildi.

Metodik yondashuvlar yordamida shahar estetikasi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlashtirildi:

Vizual estetika – shahar arxitekturasini, yoritish, landshaft dizayni, tarixiy va zamonaviy unsurlar uyg'unligi.

Simvolik estetika – haykaltaroshlik, murallar, ramziy obyektlar, shahar tarixiy obrazining estetik vositalari orqali ifodalanishi.

Badiiy tashabbuslar va ko'cha san'ati – street-art, graffiti, performans san'ati orqali norasmiy estetik madaniyat shakllanishi.

Jamoat joylari estetikasi – parklar, maydonlar, piyodalar hududi, transport bekatlari kabi joylardagi badiiy dizayn va jamoaviy ongga ta'sir.

Tahlil natijalariga ko'ra, shahar makonida estetik ifoda vositalari aholi ijtimoiy faolligini oshirishda, urban madaniyatni rivojlantirishda va shahar imidjini shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi [8]. Ayniqsa, shaharning o'ziga xos badiiy konsepsiyasi mavjud bo'lgan hollarda, bu o'sha hududning madaniy jozibadorligini oshiradi, turizm rivojiga xizmat qiladi va fuqarolarda shahar bilan ichki bog'liqlik hissinı kuchaytiradi.

Tadqiqot davomida shuningdek, fuqarolarning estetik madaniyatga bo'lgan munosabati, shahar estetikasiga nisbatan ijtimoiy ehtiyojlari so'rovnoma va ochiq intervyular orqali ham o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, ko'pchilik shahar aholisining fikricha, estetik jihatdan obod hududlar ijtimoiy xavfsizlikni kuchaytiradi, madaniy saviyaga ta'sir etadi va yosh avlodga go'zallikni qadrlash hissinı tarbiyalaydi.

Umuman olganda, shahar madaniyati doirasida estetika va badiiylilikni o'rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, urban makon nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki badiiy va estetik strategiyalar orqali ham boshqarilishi lozim [9]. Shaharni san'at va madaniyat orqali rivojlantirish ijtimoiy barqarorlik va madaniy uyg'unlikning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Estetik va badiiylilik shahar hayotining ajralmas elementi bo'lib, nafaqat vizual muhitni bezaydi, balki jamiyatning madaniy holati, ijtimoiy muvozanati va ruhiy kayfiyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [10]. Shuning uchun, shaharni rejalashtirish va rivojlantirish jarayonida estetika

va badiiylilikning zamonaviy, inklyuziv va barqaror mezonlari inobatga olinmog'i zarur.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, shahar madaniyati zamonaviy urban makonlarda estetik tafakkur va badiiy ifoda vositalari orqali jamiyatning ichki ruhiy holatini, madaniy qadriyatlarini hamda tarixiy xotirasini ifoda etuvchi muhim fenomen hisoblanadi. Shahar faqatgina geografik va iqtisodiy birlik emas, balki o'ziga xos vizual obraz, badiiy tafakkur va estetik tamoyillar bilan uyg'unlashgan madaniy makondir. Shahar estetikasining mazmuni uning ko'rinishi, tashqi arxitektura shakllari, haykaltaroshlik va landshaft dizayni, yo'l yoqalaridagi bezaklar, graffiti va ko'cha san'ati, shuningdek, jamoat joylarining estetik dizayni orqali shakllanadi.

Shahar makonida estetika nafaqat tashqi ko'rinish darajasini belgilovchi omil, balki u shahar aholisi hayot sifatini oshirishda, inson ruhiyatini yuksaltirishda, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy shaharlarda estetikaning ijtimoiy funksiyasi kuchayib bormoqda – u shahar aholining kayfiyatiga, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his etishiga, madaniy muloqotga bo'lgan tayyorligiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, estetik jihatdan boyitilgan hududlar ijtimoiy faollikning oshishi, madaniy tadbirlar ko'payishi va turizm salohiyatining rivojlanishiga olib keladi.

Ammo estetik muhit teng taqsimlanmagan sharoitda shaharda estetik tengsizlik, ya'ni vizual va badiiy resurslarning faqat ayrim hududlarda to'planganligi kuzatiladi. Bu esa shaharning boshqa qismlarida ijtimoiy chetlab qolish, ijtimoiy befarqlik va tashlandiq hududlar muammolarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun shahar estetikasini shakllantirishda butun urban makon yagona badiiy konsepsiya asosida ko'rib chiqilishi, barcha qatlamlar va hududlarda teng imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Tadqiqot davomida shuningdek, shahar makonida paydo bo'layotgan norasmiy badiiy tashabbuslarning – jumladan street-art (street-art – bu jamoat joylarida, ko'pincha ruxsatsiz yaratiladigan tasviriy san'at turi bo'lib, u o'zining urbanistik uslubi bilan ajralib turadi), graffiti (Graffiti — bu devorlar, binolar va boshqa sirtlarga chizilgan yozuvlar, suratlar va naqshlardir) ko'cha performanslari va muqobil san'at shakllarining – urban estetikasi shakllanishida muhim o'rin tutayotgani aniqlandi. Ushbu badiiy harakatlar shaharni demokratik makon sifatida ko'rsatadi, unda san'at va estetik ifoda har kim uchun ochiq

bo'ladi. Shu orqali shahar makoni jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi muloqot va o'zaro anglashuv maydoniga aylanadi.

Estetik va badiiylilikning shaharda rivojlanishi, avvalo, madaniyat siyosatiga, urbanistik rejalashtirishga, shahar boshqaruvi va dizayn strategiyalariga bog'liqdir. Bunda nafaqat professional mutaxassislarning, balki jamoatchilik, ijodkorlar, yoshlar va san'at arboblarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday keng ishtirok va ijtimoiy hamkorlik orqali shahar makoni nafaqat obodonlashtirilgan, balki badiiy va ruhiy boy makonga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shahar madaniyati estetik va badiiylilik orqali jamiyatda ruhiy uyg'unlik, madaniy uyg'unish va ijtimoiy birdamlikni shakllantiradi. Estetik tarbiya va badiiy qadriyatlar targ'iboti shahar hayotining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bu borada

madaniyatshunoslar, dizaynerlar, arxitektorlar, shaharrejalashtiruvchilari hamkorlikda ishlashlari, shaharni badiiy makon sifatida tushunishga va rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategiyalar ishlab chiqishlari zarur. Estetika va badiiylilikni shahar hayotiga chuqur integratsiyalash orqali zamonaviy shaharning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki ma'naviy salohiyatini ham boyitish mumkin.

Tavsiyalar:

- ✓ Shaharni rejalashtirishda dizayn va san'at mutaxassislari faol jalb etish;
- ✓ Jamoat joylarida grafiti va mural san'atini qonuniy va nazorat ostida rivojlantirish;
- ✓ Tarixiy me'moriy obidalarni zamonaviy madaniy tadbirlar bilan uyg'unlashtirish;
- ✓ Shahar estetikasini rivojlantirish bo'yicha davlat va nodavlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash;
- ✓ Shahar aholisi orasida estetik madaniyatni oshirish maqsadida ko'rgazma, seminar va ochiq ma'ruzalar o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov Q. Shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Fan, 2019. – 212 b.
2. Jumayev A. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2007. – 184 b.
3. Baxromov Q. Estetika asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 208 b.
4. Miles M. Urban Avant-Gardes: Art, Architecture and Change. – London: Routledge, 2005. – 226 p.
5. Lefebvre H. The Production of Space. – Oxford: Blackwell, 1991. – 230 p.
6. Zukin S. The Cultures of Cities. – Oxford: Blackwell Publishers, 1995. – 269 p.
7. Qodirova D. Urbanistik madaniyat va san'at: O'zbek shaharlarining badiiy qiyofasi // Madaniyat va san'at jurnali. – 2021, №3. – 62 b.
8. Yunusov Sh. Madaniy meros va shahar muhitidagi estetik ko'rinishlar // Ijtimoiy fanlar. – 2020, №2. – 47 b.
9. UNESCO. Culture & Urban Future: Global Report on Culture for Sustainable Urban Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 312 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-108-son qarori: "Shaharlarni estetik jihatdan obodonlashtirish va madaniy muhitni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".

MADANIYAT SOHASIDA PRODYUSERLIK: ILMIY-ETIMOLOGIK TALQINLARI VA MOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada "prodyuserlik" tushunchasining ilmiy-etimologik talqini va uning ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi mohiyatini yoritilib, prodyuserlik faoliyatining tarkibiy tizimlari, uning badiiy-estetik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, prodyuser-rejissyor, prodyuser-menejer, prodyuser-marketolog, kinoprodyuser, artprodyuser, teleradioprodyuser kabi kasbiy turlarga ilmiy tavsif berilib, ular asosida prodyuserlik ijodiy, tashkiliy, marketing va tadbirkorlik vazifalarini birlashtiruvchi, iste'molchi ehtiyojlari bilan san'atkor ijodiy erkinligini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy mutaxassislik sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada prodyuserlik va menejerlik, marketologiya, tadbirkorlik faoliyatlari o'rtasidagi farq va o'xshashliklar falsafiy-germenevtik nuqtayi nazardan ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: prodyuserlik, prodyuser-rejissyor, prodyuser-menejer, prodyuser-marketolog, ijtimoiy-madaniy faoliyat, badiiy-estetik ijod, tadbirkorlik, marketing, tashkilotchilik, kreativlik, loyiha boshqaruvi.

Аннотация. В статье освещается научно-этимологическая интерпретация понятия «продюсерство» и его сущность в социально-культурной деятельности. В исследовании анализируются структурные системы продюсерской деятельности, ее художественно-эстетические и практические аспекты. Также дается научное описание таких профессиональных видов, как продюсер-режиссер, продюсер-менеджер, продюсер-маркетолог, кинопродюсер, арт-продюсер, телерадиопродюсер. В статье продюсерство интерпретируется как современная специальность, сочетающая творческие, организационные, маркетинговые и предпринимательские задачи, гармонизирующая творческую свободу художника с потребностями потребителя. Вместе с тем, в статье с философско-герменевтической точки зрения анализируются различия и сходства между продюсерской и управленческой, маркетинговой, предпринимательской деятельностью.

Ключевые слова: продюсерство, продюсер-режиссёр, продюсер-менеджер, продюсер-маркетолог, социально-культурная деятельность, художественно-эстетическое творчество, предпринимательство, маркетинг, организаторство, креативность, проектное управление.

Abstract. This article explores the scientific and etymological interpretation of the concept of "producership" and its essence in socio-cultural activity. The study analyzes the structural systems of production activity, its artistic, aesthetic, and practical aspects. It also provides a scientific description of such professional types as producer-director, producer-manager, producer-marketer, film producer, art producer, and television and radio producer. The article interprets producing as a modern profession that combines creative, organizational, marketing, and entrepreneurial tasks, harmonizing the artist's creative freedom with consumer needs. At the same time, the article analyzes the differences and similarities between production and management, marketing, and entrepreneurial activity from a philosophical and hermeneutic perspective.

Keywords: producing, producer-director, producer-manager, producer-marketer, socio-cultural activities, artistic and aesthetic creativity, entrepreneurship, marketing, organization, creativity, project management.

Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi va gnoseologiya muammolari bilan shug'ullangan faylasuflar va mutaxassislar fikriga ko'ra, ilmiy izlanishlar tadqiqot obyekti (predmeti), maqsad va vazifalari, o'rganiladigan muammolarni aniqlashdan boshlanadi. Tadqiqot obyekti tabiatshunoslar tabiatdan, psixologlar inson ruhiyati va motivlaridan, madaniyatshunoslar ijtimoiy-madaniy borliq yoki insonning madaniy faoliyatidan qidiradilar. Fiziklar tadqiqot obyekti jismlar xatti-harakatlardan, tibbiyotshunoslar odam anatomiyasidan, siyosatshunoslar jamiyat va davlatni boshqarish texnologiyasidan qidirganlari bois, o'zining stientik-falsafiy va gnoseologik-funksional xususiyatlarga ega. Biroq hamma ilmiy izlanishlar, pirovard natijada, taniqli nemis faylasufi L. Vitgenshteyn aytganidek, tadqiqotlar mohiyatini ochib beruvchi ta'riflar, talqinlar, mantiqiy iboralarga borib taqaladi [1, c. 287].

Yangi davr falsafasi va ilmiy ratsionalizm asoschisi R. Dekartning ta'kidlashicha, ilmiy izlanishlar avvalo asosiy kategoriyalarni aniqlashtirishdan boshlanadi. *“Avvalo so'zlarning mohiyatini aniqlang, – deb maslahat beradi u shogirdiga, – shunda siz odamlar yo'l qo'yadigan xatolarning yarmidan xalos bo'lasiz”* [2, c. 508].

Tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari ham aslida asosiy kategoriyalar orqali ifoda etiladi. Asosiy kategoriyalarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash tadqiqot maqsad va vazifalarini obyektiv baholashga yordam beradi, turli, goho noo'rin, noto'g'ri talqinlarning oldini oladi, chunki ilmiy izlanish ratsional yondashishni, ilm-fanda qaror topgan metodlardan foydalanishni taqozo etadi [3, 19-b]. Ushbu ilmiy metodologik ahamiyatga ega fikrlardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizdagi asosiy kategoriya “prodyuserlik” va u bilan uzviy bog'liq “ijtimoiy-madaniy faoliyat”, “tashkilotchilik”, “menejer”, “madaniyat va san'at menejmenti”, “marketing” va “marketing xizmati” kabi kategoriyalar (tushunchalar)ning ilmiy-etimologik talqinlari, mohiyati haqida to'xtalamiz.

Bundan tashqari, prodyuserlik tashkil etilayotgan sohaning immanent xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan kategoriyalar bilan ham bog'liqdir. Masalan, musiqa sohasida “aranjirovka”, “ovoz rejissyori”, “miksing”, “mastering”, tasviriy manbasi va reklamada “rassom-bezatuvchi”, “montajchi”, “reklamachi”, teatr san'atida “ssenariychi”, “rejissyor”, “aktyor”, “sahna operatori”, “marketolog”, konsert-tomoshalar san'atida

“menejer”, “konsertmeyester”, “dekorator”, “guruh lideri”, “audioaxborotchi” kabi kategoriyalar bilan qiyoslanadi.

Agar prodyuserlik faoliyatiga ba'zi mualliflar berayotgan ta'riflardan kelib chiqsak, u ijtimoiy-madaniy jarayonlarning barcha sohalari, turlari va ijrochilar bilan uzviy aloqada bo'luvchi, hatto ijtimoiy-madaniy tadbirni uyushtiruvchi, loyihalashtiruvchi va uni sotuvchi (pullovchi) xodimdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, prodyuserni universal xodimga, ya'ni tashkilotchi, iqtisodchi, ssenarist-rejissyor, ovoz operatori, sahna bezatuvchisi, reklamachi, psixolog, pedagog, har sohaning immanent xususiyatlarini biladigan mutaxassisga aylantiradi. Ijtimoiy-madaniy sohaning barchasidan yaxshi xabardor, badiiy-estetik ijodning barcha yo'nalishlarini yaxshi egallagan mutaxassisni tasavvur etish mushkul. Chunki taniqli faylasuf, Nobel mukofoti laureati B. Rassel aytganidek, “inson bilimlarining barchasi cheklangan, nisbiy va xatolidir” [4, c. 567]. Demak, ijtimoiy-madaniy sohaning, badiiy-estetik ijodning barcha turlaridan yaxshi xabardor mutaxassisni uchratish qiyin. Ammo sohalarning ayrim yo'nalishlarida daholik xislatlariga ega ijodkorlarni uchratish mumkin.

Prodyuserga ilmiy ta'rif berishdan avval uning ichki tizimlarini ko'zdan kechirish zarur, chunki uning yuqoridagi rang-barang ijodiy faoliyat turlari bilan bog'liqligi unga taalluqli bo'lmagan, goho mavjud kabilarning rolini kamaytiruvchi, sun'iy kategoriyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ba'zi mualliflar prodyuserga ishlab chiqarish, mahsulotni sotish funksiyasi xos, deb ta'rif beradi [5, 4-b].

Agar ushbu ta'rifdan kelib chiqsak, prodyuserlik moddiy ishlab chiqarish faoliyatiga taalluqli izlanish degan xulosaga kelamiz. Vaholanki, barcha tadqiqotchilar prodyuserlikni ijtimoiy-madaniy va badiiy ijod bilan bog'liq faoliyat turi sifatida talqin qiladilar. Ha, ijtimoiy-madaniy va badiiy-ijodiy sohada ham ishlab chiqarish jarayoni (masalan, poligrafiya, innovatsion ishlanmalar taqdimoti sohalarida) va badiiy-ijodiy mahsulot (masalan, kitob, o'quv dasturlari, kinofilmlar yaratishda) mavjud.

Ammo ular prodyuserlikni moddiy ishlab chiqarish sohasiga taalluqli deyishga asos bo'la olmaydi. Birinchidan, kitob, kinofilm, o'quv dasturlari badiiy-estetik izlanishlar mahsuli, ular nomoddiy mahsulotlardir. Ikkinchidan, kinofilmlar, kitoblar sotiluvchi mahsulotlar bo'lsa-da, ular moddiy ehtiyojlarni

emas, balki nomoddiy ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan.

Mazkur ehtiyoj nomoddiy faoliyat turini moddiy faoliyat turidan farqlab turadi. Hatto innovatsion ishlanmalarni taqdim etish, sotish-tijoratlash ham sof ishlab chiqarishga taalluqli faoliyat turi emas, undagi asosiy mahsulot-loyiha ko'pincha badiiy-ijodiy izlanish mahsuli sifatida qabul qilinadi. Loyihadagi modellar, chizmalar, iqtisodiy samarali, yangi texnologik jarayonlar nomoddiy boylklarga kiradi, ularning tijoratlashuvi esa ijodiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlar mahsulidir.

Ilmiy adabiyotlarni va empirik izlanishlarni o'rgangan, tahlil qilgan holda prodyuserlikning ichki tizimlarini quyidagicha ajratish mumkin:

- *prodyuser-rejissyor;*
- *prodyuser-menejer; prodyuser-marketolog;*
- *prodyuser-poligraf;*
- *prodyuser-lingvist;*
- *kinoprodyuser;*
- *artprodyuser;*
- *prodyuser-rekreatsioonist;*
- *prodyuser-loyihachi;*
- *teleradioprodyuser;*
- *sport tomoshalari prodyuseri;*
- *turizm prodyuseri;*
- *ommaviy-madaniy tomoshalar (bayramlar, festivallar, konkurslar) prodyuseri;*
- *sirk tomoshalari prodyuseri kabilardir.*

Ushbu klassifikatsiya ijtimoiy-madaniy faoliyat turlarini ifoda etadi, prodyuserlik ularning immanent xususiyatlaridan kelib chiqadi. Prodyuserlikka beriladigan ilmiy ta'rif ushbu ijtimoiy-madaniy faoliyat turlarining falsafiy-germenevtik mohiyati, umumiy xususiyatlarini ifoda etadi. Ammo u avvalo har bir faoliyat turlarining ichki, immanent belgilarini belgilab olishni taqozo qiladi. Bu prodyuserlik talqiniga tadbiq etilayotgan tizimli-funksional yondashuv talabidir.

Prodyuser (inglizcha: producer, produce – “yaratish”) – rivojlangan mamlakatlarda film yaratilish jarayonini g'oyaviy-badiiy hamda tashkiliy-moliyaviy jihatdan boshqaruvchi va nazorat qiluvchi, kinokompaniyaning ishonchli vakili hisoblanadi [6]. U nafaqat loyiha uchun moliyaviy manbalar topadi, ijodiy guruhni shakllantiradi, balki film konsepsiyasining to'g'ri rivojlanishi, maqsadli auditoriyaga mos bo'lishi va yakuniy mahsulotning bozordagi muvaffaqiyatini ta'minlashga mas'ul strategik shaxsdir. Shu sababli prodyuser kino industriyasida ijodiy g'oya bilan tijorat manfaati o'rtasida muvozanat yaratuvchi, kompleks jarayonlarni boshqaruvchi

markaziy figura sifatida qaraladi.

Prodyuser-rejissyor odatda teatr san'ati va sahna tomoshalarini tashkil etuvchi ijodkor hisoblanadi [7, c. 128]. Teatr rejissyorining asosiy vazifasi tayyor ssenariydagi lavhalar va obrazlarni sahnaga olib chiqishdir. Ammo bu qotib qolgan reja, ssenariy emas, u rejissyor talqinida mudom o'zgaradigan jarayondir. Ushbu uzluksiz jarayonni taniqli teatr rejissyori A.Efros “Mudom o'zgarish zarur” tarzida ifoda etgandi [8, c. 298]. O'zgarish, ya'ni qo'yilgan spektaklni “qayta baholash”, unga yangi narsalarni, elementlarni olib kirish nafaqat rejissyor ongi va idrokining, balki hayot dinamizmining ham talabidir. Ushbu o'zgarishlar teatr rejissyorini prodyuser-rejissyorga aylantiradi.

Teatr rejissyori tayyor ssenariyni asos qilib, undagi izchillikni qat'iy himoya qilishi mumkin. Ammo prodyuser-rejissyor bunday yo'l tuta olmaydi, chunki u nafaqat teatr rejissyori, ssenariy muallifi va ijodiy jamoa bilan, balki eng muhimi – hayot dinamizmini o'zida mujassam etgan xalq, tomoshabin, ya'ni retsipiyent bilan ishlashi, ularning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqishi shart.

Teatr rejissyori o'zi pozitsiyasini qanchalik himoya qilishga haqli bo'lsa, prodyuser-rejissyor auditoriya ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqishga shunchalik majburdir. Aks holda u spektaklni sotolmaydi, retsipiyentni teatrga jalb etolmaydi. Bu o'rinda teatr rejissyorining pozitsiyasi bilan prodyuser-rejissyor pozitsiyasi o'rtasida farq hatto ichki ziddiyat borligini ko'ramiz. Bu ziddiyat goho ijodiy jamoani bezovta qiladi, mavjud an'analarga, konservatizmga moyil kuchlar qarshiligini uyg'otadi.

Bu o'rinda o'zining ijodiy pozitsiyasini ijodiy jamoaga singdirmoqchi bo'lgan O'zbekiston xalq artisti, taniqli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev bilan Hamza akademik teatri jamoasi o'rtasidagi ziddiyatlarni eslash mumkin. B.Yo'ldoshev prodyuser-rejissyor bo'lmagan, ammo u Sh.Rizayev aytganidek “yetakchilik qila oladigan”, ya'ni hayot va ijod sohasidagi o'zgarishlarni ilg'ay oladigan ijodkordir [9, 121-b].

Teatr rejissyoridan prodyuser-rejissyor yasash qiyin emas, ko'p tadqiqotchilar shunday qiladi ham. Ha, teatr rejissyoridan prodyuser uchun zarur xislatlar (ijodiy jamoani tashkil etish, unga rahbarlik qilish, ijodiy hamkorlik loyihalarini tuzish, retsipiyentlar fikrini o'rganish) mavjud. Ammo bu sifatlar, asosan, teatr doirasi bilan chegaralangan. Prodyuser-rejissyor esa ko'pincha aholi, retsipiyentlarni o'rganadi,

uning obyekti keng-ommadir. Keng-omma ma'naviy ehtiyojlarini teatrqa yetkazish orqali ular o'rtasidagi hamkorlikni, ijodiy dialogni shakllantirish prodyuser-rejissyorning bosh vazifasidir. U bir yo'la ham ijodkor (rejissyor), ham vositachi (kommunikator), ham tijoratchi (marketolog)dir.

“Prodyuser-menejer” kategoriyasi endi ilmiy iste'molga kirmoqda. “Menejer” tushunchasi tashkil etish, yo'lga qo'yish, uyushtirish ma'nolarini anglatadi. Uning etimologik talqini iqtisodiyot sohasidan olingan. Taniqli amerikalik marketolog F.Kotlarning fikriga ko'ra, menejment va marketing o'rtasidagi “garmonik uyg'unlik” mehnat, izlanish faoliyatini mahsulotni sotish, bozor talablariga mos keladigan xizmat turlarini tashkil etishdir [10, c. 47].

Demak, prodyuser-menejer bilan prodyuser-marketolog bozor talablariga mos keladigan xizmat turlarini tashkil etuvchi va ularni sotuvchi mutaxassislardir. To'g'ri, prodyuser-menejer xizmatlarini sotishni har doim ham mo'ljallasligi mumkin, ammo prodyuser-marketolog tijoratsiz o'z faoliyatini olib borolmaydi. Tajriba ko'rsatadiki, prodyuser-menejer faqat loyihalarini tijoratlashtirib, foyda olishni ko'zlamaydi. U uchun tadbirni yuqori badiiy-estetik darajada tashkil etish, tomoshabinlarda badiiy-emotsional va ma'naviy-g'oyaviy tuyg'ularni shakllantirish muhimdir.

Prodyuser-menejer ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil etish nuqtayi nazaridan ikki doiradagi vazifalarga diqqatini qaratuvchi xodim hisoblanadi. Birinchi doiraga davlat, jamiyat, aholi buyurtmalarini bajarish kiradi. Agar biz madaniyat va san'at muassasalarida faoliyat yurituvchi prodyuser-menejerni nazarda tutsak, u madaniyat va san'at xodimi sifatida avvalo davlat, jamiyat va aholi buyurtmalarini bajaradigan mutaxassisdir.

Mazkur buyurtmalar davlatning strategik maqsadlari va sohani rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalardagi vazifalardan iborat. Ularni bajarish marketing, ya'ni sotish, tijorat bilan bog'liq emas. Ular xodim bajarishni o'z zimmasiga olgan vazifalardir.

Mazkur vazifalarga munosabat turli rasmiy choralar (rag'batlantirish yoki maoshini kesish, tashakkurnoma bildirish yoki ogohlantirish, yuqori lavozimga ko'tarish yoki vazifadan ozod etish, ishdan bo'shatish)da o'z ifodasini topadi. Prodyuser-menejer, xodim sifatida, ushbu vazifalar uchun mas'ulligini unutmaydi. Ikkinchi doiraga kishilarning shaxsiy buyurtmalari kiradi.

Bunday buyurtmalar prodyuser-menejerni marketing, bozor talablariga muvofiq faoliyat yuritishga yetaklaydi. Demak, tijorat ushbu faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Prodyuser-poligraf kitob nashr qilish va kitob mahsulotlarini bozorga chiqarish bilan shug'ullanadigan mutaxassis hisoblanadi. “Prodyuser-poligraf” ilmiy tushunchasi kitob nashr etish va kitob mahsulotlarini sotish orqali kishilarga, aholiga nashriyot xizmatlari ko'rsatishni anglatadi. Nashriyotlarni bozor iqtisodiyotiga yetkazish ularda prodyuser-poligraf mutaxassisligi joriy etishga olib keldi. To'g'ri, nashriyotlar “prodyuser-poligraf” tushunchasini emas, balki qisqacha qilib “prodyuser” atamasini ishlatishadi.

Lekin bu “prodyuser-poligraf” ilmiy talqini negizidagi mohiyatni o'zgartirmaydi. Bugun nashriyotlar to'la xo'jalik hisobida ishlaydi, bu esa nashr etilgan kitoblarni targ'ib qilish va savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus kadrlarni taqozo etadi. Muhimi shundaki, “prodyuser-poligraf” kategoriyasi ijtimoiy-madaniy faoliyatining rang-barangligini, prodyuserlik ushbu faoliyatining o'zlarini tashkil qilishini tasdiqlaydi. Kitob nashr qilish va ularni targ'ib qilish, sotish muallif (olim, yozuvchi, shoir) bilan o'quvchi (xaridor, retsiyent) o'rtasidagi munosabatni shakllantiradi.

“Prodyuser-lingvist” kategoriyasi hali ilmiy iste'molda emas. Funksiyasiga ko'ra, u tillar, asosan chet tillar bo'yicha ijtimoiy-madaniy xizmatlar ko'rsatuvchi mutaxassisdir. U bir tomondan repetitor, ikkinchi tomondan, o'zining (mutaxassisning) intellektual xizmatini tijoratlashtiruvchi marketologdir. Bunday xizmatchilar asosan o'quv markazlarida faoliyat yuritishadi. Ular odatda markaz direktori, tashkilotchi-metodist nomi bilan ataladi.

Mazkur xodimlar ta'limning deyarli barcha yo'nalishlarini tashkil qilishga intilishadi. Repetitorlik ba'zan uyushtirilmagan tarzda buyurtmachiyiga, xonadoniga qatnab ham amalga oshiriladi. Ammo uning negizidagi ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy mohiyat, ya'ni buyurtmachining ma'naviy ehtiyojini qondirish orqali ko'rsatgan madaniy xizmatiga haq olish saqlanib qoladi.

Kinoprodyuser va artprodyuser kasbi haqida tadqiqotchilar A.G. Zan'ko, G.Ivanova, P.Ogurchikova, V.Siderenko, B.I. Krishtul, Ye.I. Kokarev, V.Rustamov, A.Shomuradov kabilar yetarlicha ma'lumot berishadi. Ularning fikricha kinoprodyuserlik kino mahsuloti ishlab chiqishga va uni pullashga, sotishga

qaratilgan tashkiliy, psixologik, ijodiy, moliyaviy va huquqiy xarakterdagi faoliyat turidir. U ko'rish va tomosha qilishga mo'ljallangan ijod mahsulotlarinig ijtimoiy-madaniy borliqdagi o'z o'rnini topishiga yordam beruvchi mutaxassisdir. Mazkur ta'rif u yoki bu ko'rinishda deyarli barcha asarlarda, maqolalarda keltiriladi. Ammo artprodyuser kino sohasi bilan cheklanib qolmaydi, u san'atning barcha turlari (tasviriy manbai, musiqa, arxitektura, xaykaltaroshlik, dizayn, sirk, teatr, konsert-tomosha, reklama va boshqalar) bilan shug'ullanuvchi mutaxassisga taalluqli kategoriyadir. Demak, artprodyuser kategoriyasini, o'z navbatida, keng talqin qilish mumkin.

“Prodyuser-rekreatsioonist” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ham, amaliyotda ham uchramaydi, lekin u aholini madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi va bo'sh vaqtini o'tkazishga qaratilgan barcha badiiy-estetik tadbirlarda uchraydi. Keyingi yillarda shaharlarda madaniy rekreatsiya markazlari paydo bo'ldi. Yangi barpo etilayotgan barcha yangi shaharlar va jamoat inshootlarida shunday markazlar ochilishi an'anaga aylangan. Aynan ushbu yangiliklar madaniy rekreatsiya markazlarida prodyuser-rekreatsioonist ishlashini taqozo etadi.

Prodyuser-loyihachi arxitektura, dizayn, maydonlar va binolarni bezatish, ushbu bezatish ishlarini loyihalash bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Umuman, loyihalash (xayoliy, ramziy, tasviriy, eksplikatsiya) barcha ijodiy faoliyat turlariga xosdir. Hatto ijodkorning kutilmaganda xayoliga keladigan, intuitsiya mahsuli bo'lgan obraz, qiyos yoki chizg'i ham loyihalashga muhtoj. Demak, prodyuser-loyihachi, alohida faoliyat turi sifatida yoki har bir ijtimoiy-madaniy faoliyatining immanent belgisi sifatida mavjuddir.

Teleradioprodyuseri keng tarqalgan badiiy ijodiy va ijtimoiy-madaniy faoliyat turlaridan biridir. Yangi axborotlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, bo'sh vaqtni uyushtirish uning asosiy funksiyasidir.

Sport tomoshalari prodyuseri asosan sport musobaqalarini (futbol, boks, olimpiada o'yinlari, gimnastika, xalq an'anaviy sport tomoshalari va boshqalar) ijodiy va tashkiliy jihatdan uyushtirish, ularni badiiy jihatdan bezash hamda tomoshabinlarda yuqori estetik taassurot uyg'otish bilan shug'ullanadi. Uning faoliyati sport tadbirlarining san'at darajasida namoyon bo'lishiga qaratilgan. Masalan, Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish marosimlari, sport

prodyuserlari tomonidan sahnaviy elementlar, musiqa va yorug'lik installyatsiyalari yordamida yuksak badiiy darajada tashkil etiladi. Bu kabi prodyuserlik yechimlari sport tadbirini oddiy musobaqadan san'at namoyishiga aylantiradi.

Shu bilan birga, sport promouteri asosan marketing va tijorat faoliyati bilan shug'ullanadi: sportchilarni reklama qiladi, homiylarni jalb etadi, chipta savdosini yo'lga qo'yadi hamda tadbirning moliyaviy jihatdan samarali bo'lishini ta'minlashga intiladi. Sport promouteri sportchi bilan yangi janglarni tashkil etish, kelishuvlar olib borish va tegishli shartnomalarni tuzish orqali uning faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan u nafaqat tijorat, balki menejment sohasida ham faol ish olib boradi.

Turizm prodyuseri ham endi shakllanayotgan kasb, faoliyat turi hisoblanadi. Turizmning ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatida shakllanishi uni tashkil etuvchi mutaxassisga extiyojni paydo qildi. Dunyo bo'ylab bugun 100 millionga yaqin kishi turli sayohatlarga chiqadi. Sayohatni dam olish bilan uyg'unlashtirish mutlaq yangi madaniy rekreatsioon makonlarni, etnomadaniy turizm markazlarini shakllantirmoqda. Bu keng miqyosli Xalqaro jarayonni maxsus mutaxassissiz tasavvur etish qiyin.

Ijtimoiy-madaniy borliqning tez o'zgaruvchan xususiyati badiiy-ijodiy sohalarda yangi-yangi kasblar va mutaxassislarning paydo bo'lishiga turtki bermoqda. Bugun teatr menejeri, kino menejeri, nashriyot menejeri, ommaviy-madaniy tadbirlar menejeri, san'at marketologi kabi kasb-kor va mutaxassislarni paydo bo'lmoqda. Prodyuserlik ham ana shunday yangi kasb-kor va mutaxassislardan biridir.

Prodyuser ishlab chiquvchi, prodyuserlik ishlab chiqish kasbi, sohasi degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atamani ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarish sohasi deb talqin qilmaslik kerak, u noishlab chiqarish jarayonlariga, ijtimoiy-madaniy faoliyatga taalluqli voqelikdir. To'g'ri, ishlab chiqarish sohasidagi prodyuserlik bilan ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlik o'rtasida mushtaraklik, ekzistensial o'xshashlik bor. Masalan, ularning ikkalasi ham aholining talab va ehtiyojlarini o'rganadi, bozor iqtisodiyoti qonunlariga tayanadi, o'z mahsulotlarini sotadi, realizatsiya qiladi.

Ammo ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlikda tavakkal qilib mablag' tikish imkoniyatlari va yutqazish xavfi katta. Ishlab chiqarish sohasidagi mahsulot esa bugun bo'lmasa ertaga yoki bir haftadan keyin ham sotilishi, sarflagan

mablag' qoplanishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy sohada ijodiy imkoniyatlarni, yashirin qobiliyatni ro'yobga chiqarish, har bir tadbirga kreativ va nostandart yondashish mumkin. Ular o'rtasidagi funksional farqlarni yana keltirish, ushbu farqlarga oid immanent belgilarni ochib berish mumkin. Ushbu maqolada biz noishlab chiqarish yoki ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlik haqida fikr yuritamiz.

Prodyuserlik sohaga xizmat qiluvchi, sohaga oid mahsulotlarni bozorga chiqarish, realizatsiya qilish, ularni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ijodiy-texnologik jarayonlarni tashkil qilish, iste'molchilar topish, talab va ehtiyojlarni va ularning dinamikasini o'rganish, tushumlarni taqsimlashda qatnashishi, jamoani boshqarish siyosatini shakllantirish kabilarni amalga oshiradi. Agar diqqat qilsak, yuqoridagi vazifalarda prodyuser mahsulotlar yoki tadbirlar tayyorlash, sotish jarayonlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassis ekanini sezamiz. Biroq uni ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jarayonlariga aralashtirish xavfi mavjud. Masalan, menejerning tashkilotchilik ishlariga. Ha, bir jamoa bo'lib ishlaganda ular uchrashishi, bir-biriga tayanishi va oraliqdagi vazifalarni birgalikda bajarishi tabiiy holdir. Agar menejer bilan prodyuser ijodiy hamkorlik qilsa, yaxshi, ko'pincha ular vazifa taqsimlash ustida ziddiyatlar, nizolar uyg'otadilar. Bu muammoni avvalo kvalifikatsion xarakteristikaga muvofiq hal etish zarur.

Prodyuserlik nima degan savolga javob berish hali turli yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Hatto ular ichida prodyuserlikni mutlaqlashtirishga intilish ham mavjud. Masalan, A. Rodnyanskiyning fikricha, *"Prodyuserlik – hayotga yondashuvdir"*. *"Prodyuserlik – har qanday vazifani hal etishdir"* [11, c. 104]. Ha, madaniyat va san'at sohasida ishlovchi mutaxassis turli vaziyat va muammolarga duch keladi. A'lo mazmundagi spektaklni sahnalashtirish yetarli emas, uni realizatsiya qilish uchun retsipiyent, iste'molchi topish, reklama uyushtirish, hatto qishloqlardan tomoshabinlarni obkelish uchun transport tashkil etish ham zarur. Mazkur "ikir-chikir" tashkiliy ishlar prodyuser zimmasiga tushadi.

Taniqli adibimiz Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" spektakli B. Yo'ldoshev tomonidan akademik drama teatrida sahnalashtirilganida, nafaqat poytaxtga yaqin tumanlardan, hatto boshqa viloyatlardan ham tomoshabinlar kelishga intilgan. Ushbu istak va ehtiyojni qondirish tashkiliy ishlar bilan shug'ullanuvchi direktor o'rinbosari va kassir zimmasiga

tushgan. U paytlar menejer yoki prodyuser haqida tasavvur yo'q edi. Akademik drama teatri va Abror Hidoyatov nomidagi drama teatriga menejer shtati 2021-yili kiritilgan. Ammo bugun menejer bilan prodyuser o'rtasida sezilarli farq borlig'i ayon bo'lmoqda. Ba'zan prodyuserlik vazifasini marketolog bajaradi, natijada prodyuser, menejer va marketolog kvalifikatsiyasiga oid tasavvurlarga aniqlik kiritish talab etiladi.

Menejerni rejissyor, dirijyor, imijmeyker, direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha yordamchisi, hatto buxgalter bilan aynanlashtirish mumkin. Ilmiy talqinlarga ko'ra, menejer xo'jalik va ijodiy ishlarni tashkil etuvchi, yo'lga qo'yuvchi mutaxassisdir [12, c. 87]. Agar prodyuserga berilgan ta'riflarga qarasak, xuddi shu vazifalarni prodyuser ham bajaradi. Biroq farq shundaki, menejer ko'pincha texnologik jarayonlarni amalga oshiradi, uning ijodiy ishlarni tashkil etishi ham texnologik jarayondir.

Prodyuser ijodiy jarayonlarga bevosita ta'sir etishi bilan rejissyor va dirijorga yaqin turadi. Ammo ularning ijodiy izlanishlarga, aktyor va musiqachilarni tayyorlash jarayonlariga aralashmaydi. Imijmeyker esa ijodkor, jamoa imijini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqadi, shu asosda ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi mutaxassis hisoblanadi.

Marketolog asosan savdo-sotiq bilan shug'ullanadi. F.Kotler ta'rifiga ko'ra, *"ayiraboshlash asosida talab va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan inson faoliyati ko'rinishidir. U ehtiyoj, talab, tovar, ayirboshlash, kelishuv va bozor bilan bog'liqdir."* Mazkur yo'nalishlar bevosita prodyuserga ham tegishlidir. A.G. Zanko ta'rifiga ko'ra, prodyuser *"oldinni ko'ra olish, tavakkal qilish, talab etish, ishonish, tasarruf etish, chidash, tejash, hisob-kitob qilish, ilhomlantirish, dadillashtirish kabi xislatlarga ega bo'lishi lozim. U jamoaning professional yuksaltirishga oid ijodiy, iqtisodiy, boshqaruv va huquqiy xususiyatlarini bilishi darkor"*. Bunday qiyosiy tahlillarni yana keltirish mumkin.

Prodyuserlikka avvalo ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatida qarash darkor. Bu uning nafaqat funksional xususiyatlariga, shuningdek, keng ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rniga, badiiy-estetik ijod jarayonlarining maqsadlariga ham muvofiqdir.

Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy borliq inson va sotsium o'rtasidagi dialektik, ekzistensial aloqalarning mahsuli sifatida jamiyatdagi barcha munosabatlar mohiyatini belgilab keladi. Shu

nuqtayi nazardan, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, olib boradigan ijodiy faoliyat universallik kasb etadi. Madaniyatning universal xususiyati u bilan bog'liq ijodiy izlanishlarga, faoliyat turlariga universallik baxsh etadi. Agar prodyuserlikka berilgan yuqoridagi ta'riflarni eslasak, ularda madaniyatga xos universallik borligini sezamiz. Bu tadqiqotchi istagi mahsuligina emas, balki prodyuser, rejissyor, imijmeyker, marketolog, menejer faoliyatining ichki, immanent belgilari ta'siridir.

Ushbu ijtimoiy-madaniy yondashuvdan kelib chiqib, prodyuserlikka quyidagi faoliyat yo'nalishlari xosdir, deyishimiz mumkin:

- *ijodiy faoliyat turi bo'lish (kreativlik);*
- *rejalashtirilganlik (yoki mantiqiylik);*
- *tijorat (sotish va foyda orttirish);*
- *uyushtirish (korporativlik);*
- *tavakkal qilish (tadbirkorlik);*
- *talab va ehtiyojdan kelib chiqish (marketing);*
- *o'zini o'zi mablag' bilan ta'milash prinsipidan*

kelib chiqish.

Kreativlik prodyuser faoliyatining o'zagini, yadrosini tashkil etadi. Aynan ijodiy xususiyati prodyuserlikni maftunkor va zavqli faoliyat turiga aylantiradi [13, c. 367]. Yangi asarlarni sahnaga, auditoriya oldiga olib chiqishdan tortib to uning badiiy-estetik maqsadiga erishishgacha bo'lgan jarayonlar prodyuser e'tiboridan chekkada qolmaydi. Ijodiy jarayonlarga aralashish prodyuserning vazifasi emas, ammo u iste'molchilarning talab va ehtiyojlari mavjudligini san'atkorlar esiga solib turadi.

Iste'molchilarning talab va ehtiyojlari bilan san'atkorlar ijodiy erkinligini muvofiqlashtirish prodyuserning bosh vazifasidir. Uning kreativlik faoliyati ushbu mezon bilan o'lchanadi.

Mantiqiylik prodyuser faoliyatiga rejalilik baxsh etadi. Aniq reja (iste'molchilarning qiziqishlarini va bo'sh vaqtini o'rganish, loyihalar tuzish, mablag' topish va uni taqsimlash, yordamchilar va ijrochilar yollash, san'atkorlar bilan shartnomalar tuzish, hisob-kitob yuritish, maydon yoki sahna topish, uni badiiy bezatish kabilar) faoliyatni, ijodiy jarayonlarni kuzatib borish, zarur bo'lsa ularga tuzatish, o'zgartirish kiritish imkonini beradi. Tadbirning yaxlit ijtimoiy-madaniy voqelik, asar bo'lishi barcha qismlarni ratsional uyg'unlashtirishga bog'liqdir. Eklektiklik tadbir ichidagi qismlararo uyg'unlikni buzadi. Retsipiyent-iste'molchi bilan ijrochi-san'atkor (tomoshabin, ssenariyachi, rejisser, akterlar, sahna bezatuvchilari, marketolog) o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlamay badiiy-estetik masadga

erishish mushkul.

Tijorat, ya'ni asarni sotish, undan foyda ko'rish shou-tomoshalarda keng tarqalgan. Soha sirlaridan uzoq san'atkor yugurib, sahnaga chiqib ketaveradi. O'z imidji haqida qayg'uradigan san'atkor grim va kiyinishdan tortib qaysi mimikasi yoki kuy-qo'shiqdagi avji auditoriyada zavq uyg'otishi zarurligicha rejalashtiradi. San'atkor xatti-harakatlarida kuzatiladigan noodatiylik ba'zan tomoshabinga g'ayrihayotiy ko'rinishi mumkin, ammo san'atkor buni rejalashtirsa, shakllantirsa, ijodiy yangilik bo'ladi. Yangilikni pullash, sotish, ayniqsa san'at, shou-biznes sohasida tez amalga oshadi.

Uyushtirish qobiliyatisiz prodyuser hech nimaga erisholmaydi. Iste'molchi bilan ijrochi, auditoriya bilan sahna, tomoshabin bilan san'atkor o'rtasida ijodiy hamkorlikni uyushtirish nafaqat san'at, ijod sirlaridan xabardorlikni, shuningdek, tashkilotchilik psixologiyasini, ijodkor psixologiyasini bilishni taqozo etadi. Mashhur prodyuserlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hatto san'at, ijod sirlaridan yaxshi xabardor bo'lmagan, ammo yaxshi tashkilotchi ko'zlagan maqsadiga erishadi [14, c. 224]. Tashkilotchilik psixologiyasida obyektlar ruhiyati va kayfiyatini anglashdek jihatga e'tibor qaratiladi, bu jihati bilan kishi suhbatdoshini o'ziga do'st, hammaslak, yordamchi, bizning misolimizda esa, doimiy retsipiyentga aylantirishi mumkin [15, c. 192]. Doimiy retsipiyent tadbirlar yoki san'atkor ijodi "fanati", ixlosmandi, potensial tomoshabindir. Bunday tomoshabinga ega bo'lishni istamaydigan san'atkor yo'q. Demak, prodyuserning tashkilotchiligi potensial iste'molchi, retsipiyentni shakllantirishida aks etadi.

Prodyuserdan tadbirkorlik ham talab etiladi. Tadbirkor o'zi mablag'ini tikib foyda ko'rishni istaydigan shaxsdir. Mablag' tikish orqali aholiga madaniy xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'ni taqsimlash ham tadbirkor roziligi va ishtiroki bilan amalga oshiriladi [12, c. 8-9]. Prodyuser ham o'zi mablag'ini tikish huquqiga ega. Biroq bu tashabbus va faollik adliya idoralari tomonidan tasdiqlangan mehnat shartnomalari orqali amalga oshiriladi. Prodyuser mudom tadbirkorlik ko'rsatishi mumkin, ammo hamma tadbirkor ham prodyuser bo'lavermaydi. Ijtimoiy-madaniy sohaning ichki xususiyatlarini bilmaydigan kishining tadbirlar uyushtirishga mablag' tikishini hali prodyuserlik atab bo'lmaydi. Mablag' tikish tavakkallik demakdir. Tadbirkor tavakkal qiladi, u tikkan mablag'ini qaytarib ololmasligi mumkin.

Prodyuser tadbirlar uyushtirishda aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqar ekan, bozor iqtisodiyoti qonunlariga rioya etadi. Bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, shu asosda faollik, tashabbus ko'rsatishdir. Mazkur prinsip ijtimoiy-madaniy sohadagi faoliyatlarga ham tegishlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, prodyuserlik ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatida kishilarning ijodiy faolligi va tashabbuslarining zamonaviy ko'rinishidir. U menejer, marketolog, imijmeyker, buxgalter, rejissyor kabi ijodkorlarga yaqin turadi, ular hamkorlik qiladi, ammo iste'molchi manfaatlarini ustuvor deb biladi. Marketolog tayyor mahsulotning realizatsiyasi bilan shug'ullansa, prodyuser tovarning yaratilishidan boshlab uni iste'molchigacha yetkazishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni chuqur o'rganadi va iste'molchi ehtiyojlarini san'atkor yoki ijodkor ongiga yetkazuvchi

bog'lovchi bo'g'in sifatida ishlaydi. Aynan mana shu jihat prodyuserlikka ijtimoiy-madaniy mazmun va mohiyat bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatshunoslik prodyuserlikni zamonaviy madaniyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri sifatida baholaydi. Chunki u nafaqat ijodiy mahsulotni yaratadi, balki madaniy qadriyatlarni shakllantiradi, ma'naviy ehtiyojlarni tartibga soladi va san'at hamda jamiyat o'rtasida barqaror aloqani ta'minlaydi. Shuningdek, prodyuserlik madaniy jarayonlarning dinamikasini boshqaruvchi, retsipent va auditoriya ehtiyojlarini tahlil qiluvchi hamda ijodiy g'oyalarni ijtimoiy muhitga mos ravishda amaliyotga tatbiq etuvchi vositachi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Natijada prodyuserlik faoliyati san'atning iqtisodiy, kommunikativ va mafkuraviy yo'nalishlarini uyg'unlashtirib, madaniy maydonning rivojlanishiga strategik ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. – Москва: АСТ, 2022. – 287 с.
2. Декарт Р. Сочинения: в 2 т. Т. 1. – Москва: Мысль, 1989. – 508 с.
3. Alimasov V. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: darslik. – Toshkent: Fan va ta'lim poligrafiya, 2025. – 164 b.
4. Рассел Б. Человеческое познание. – Москва: Иностранная литература, 1957. – 567 с.
5. Shomuradov A. Prodyuserlik faoliyati. – Toshkent: Ijod nashr, 2022. – 44 b.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Prodyuser>
7. Ермакова О. Креативный продюсер. – Москва: ВГИК, 2006 – 128 с.
8. Эфрос А. Профессия – режиссёр. – Москва: Искусство, 1979. – 298 с.
9. Rizayev Sh. Bahodir Yo'ldoshev teatri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 121 b.
10. Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва: Прогресс, 1991. – 471 с.
11. Роднянский А. Выходит продюсер. – Москва: Манн, Иванов и Фербер (МИФ), 2016. – 104 с.
12. Батра Р. Рекламный менеджмент. – Москва: Издательский дом «Вильямс», 2000. – 487 с.
13. Иванова Г.Л., Огурчикова П.К., Сидоренко В.И. Основы продюсерства. Аудиовизуальная сфера: учебник / под ред.. – Москва: Юнити-Дана, 2003. – 367 с.
14. Коновалов А. Маленькие секреты большого шоу-бизнеса. – Санкт-Петербург: Питер, 2005. – 224 с.
15. Корнеева С.М. Как зажигают звёзды: технологии музыкального продюсирования. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 192 с.
16. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Prodyuserlik mahorati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 180 b.
17. Tadjidinov U. T. Prodyuserlik faoliyatining kelib chiqishi va rivojlanishi // Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – Т. 2, № 4. – 252–257 b.

MADANIYAT MARKAZLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda madaniyat markazlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari klublar faoliyati misolida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, chetlab o'tib bo'lmay sovet davri klublaridan hozirgi madaniyat markazlariga o'tish jarayoni, ularning ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy funksiyalari ham o'rganib chiqilgan. Ayniqsa klublarning rivojlanish tarixiga alohida urg'u beriladi. Madaniyat markazlarining jamiyatdagi roli tarixiy manbalar asosida baholanar ekan, maqola avvalida, madaniyat markazlari oldida turgan xavfga ilmiy tekshiruvga muhtoj faraza sohaning yetuk olimlari e'tibori uchun ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: madaniyat markazlari, klublar, sovet davri, me'moriy-arxitektura, ijtimoiy yangilanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития культурных центров в Узбекистане на примере деятельности клубов. Кроме того, изучается процесс перехода от клубов советского периода к современным культурным центрам, а также их социальные, культурные и образовательные функции. Особое внимание уделяется истории развития клубов. Роль культурных центров в обществе оценивается на основе исторических источников; в начале статьи для внимания ученых отрасли выдвигается гипотеза, требующая научной проверки о потенциальной угрозе, стоящей перед культурными центрами.

Ключевые слова: культурные центры, клубы, советский период, архитектура, социальные обновления.

Abstract. This article examines the stages of formation and development of cultural centers in Uzbekistan, using the activities of clubs as an example. It also examines the transition from Soviet-era clubs to modern cultural centers, as well as their social, cultural, and educational functions. Particular attention is paid to the history of club development. The role of cultural centers in society is assessed based on historical sources. At the beginning of the article, a hypothesis is put forward for the attention of scholars in the field, which requires scientific verification, regarding the potential threat facing cultural centers.

Keywords: cultural centers, clubs, Soviet period, architecture, social renewal.

Yangi O'zbekistonning madaniy-ijtimoiy hayotida katta xavf bor. Ha, katta ijtimoiy-madaniy xavf va bu xatarni sohadagi olimlar gipotez qila olmayapti. Sababi, u uzoq yillik yig'ilib qolgan: ta'limning amaliyotdan biroz orqada qolishi, bitiruvchilar ishsizligi, xodimlar qo'nimsizligi, ish haqining kamligi kabi muammolar tufayli hozirgacha o'z natijasini ommadan yashirmoqda. Yaqin o'n yillikda respublikamizdagi madaniyat markazlari tarix sahifalaridan orqaga chekinib,

shonli tarixdagi vazifasini ado etib, madaniyat naqliyotidan tushib qolish ehtimoli juda yuqori. Yoki ish faoliyati umuman to'xtashi ham mumkin.

Hozirgi soha faoliyatidagi muammolar madaniyat markazlarining ishida emas, sohaga haqiqiy mutaxassis kadrlarning yo'qligi sabab yuzaga kelishi mumkin. Bu shunchaki gipotez xolos, ammo haqiqatga aylanishi ham mumkin. Bugungi kunda barcha madaniyat markazlari faoliyatini birdaniga salbiy baholash ham o'rinsiz.

Hamma markaz bir xil emas. Ba'zilar juda faol, ba'zilar buning aksidir. Madaniyat vazirligi tomonidan madaniyat markazlarining faoliyatini "samaradorlik" nuqtayi nazaridan baholashga harakat qilinmoqda.

Qonunchilikda har bir tuman va shahar uchun madaniyat markazi bo'lishi va ularning doimiy ishlashi uchun ma'lum normativlar bor. 2019-yilda 74 ta "samarasiz faoliyat yuritayotgan" madaniyat markazi tugatilishi rejalashtirilgan. Demak, ularning faoliyatini tugatish mumkin. Lekin, iloji bo'lsa qaysidir markaz tugatilmaligi kerak. Qayta shakllantirish va ish faoliyatini yanada taraqqiy ettirishga qo'ldan kelguncha yordam berilsa, madaniyat markazlari faoliyatining kamayib yoki tugatilish ehtimoli yuqori bolar edi.

"Evrilishlar aslida natijaga erishish yo'lida uchraydigan burilish nuqtasida ro'y beradi, ya'ni bir yulduzning so'nishi intihoni emas, balki o'nlab yangi sayyoralarining paydo bo'lish lahzasini anglatadi. Odamlar ham yangi sinovlarga uchraganda, o'zgarishdan boshqa chorasi yo'qligini tan olishi lozim [1, 6-b].

Bugun madaniyat markazlari faoliyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar ham bizga qiyin va kutilmagan tuyilishi mumkin. Ba'zi markazlar qayta tashkil etilmoqda, ayrimlari esa samarasizligi sabab yopilishi muhokama qilinmoqda. Bu jarayonlar ustidan turlicha fikrlar bildirilmoqda. Aslida buni so'nish deyish ham yoki ijobiy jihatdan yangi bosqichning boshlanishi deb qabul qilishimiz ham mumkin. Har qanday tizim yangilanishga muhtoj bo'ladi: o'zgarish bo'lmasa, rivojlanish ham bo'lmaydi.

Tog'ay Murod davridan qolmish bitta jumla ko'zga tashlanadi: *"Jamiyat misoli bir imorat bo'ladi. Eski imoratni buzishdan oldin yangi imoratni qurish kerak bo'ladi. Bo'lmasa, buzuvchi xaroba imorat ichida qoladi. Yomondan-yomoni – buzuvchi vayron imoratda qolishini-da bilmaydi, hali bitmagan imoratga ko'chib o'tishini-da bilmaydi. Arosatda qoladi. Arosatdan yomoni yo'q!"* [2, 81-b]. Buguni kunda madaniyat markazlari ishida ketayotgan o'zgarishlar aynan shu tasvirga juda o'xshaydi, nazdimda.

Bir tomondan yillar davomida shakllangan, lekin zamon talablariga javob bermay qolgan eski tizim. Ikkinchi tomondan yaratishga intilayotgan yangi, zamonaviy, samarador markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish va taraqqiy ettirish jarayonlari. Shuning uchun islohotlar jarayoni ba'zan murakkab ko'rinmoqda. Lekin, bu tabiiy. Agar biz ham madaniyat markazlari faoliyatini "eski", "ehtiyoj yo'q" deya to'xtatsak,

yangi madaniyat markazlari ish usullarini amaliyotga joriy etmasak, madaniyat sohasi ancha yo'qotishlarga duch keladi. Agar madaniyat markazlari faoliyati takomillashmasa, aholining (madaniyat markazlari tashkil etadigan ommaviy va kichik madaniy tadbirlari) madaniy hayotida bo'shliq yuzaga kelib, bundan faqat xalqning madaniy-ma'naviy ehtiyoji aziyat chekadi. Shu bois, bugungi o'zgarishlar buzish emas, yangilash; yo'qotish emas, qayta qad rostlash; aniq yo'l sari tashlangan qadamga aylanishi kerak. Madaniyat markazlari bugungi avlodga moslashishi kerak.

Shu o'rinda "Yangi O'zbekiston" g'oyasi siyosiy yoki iqtisodiy yangilanish bilan birga madaniy hayotni ham yangicha poydevorda qurilishni nazarda tutadi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston bilan birga yangi madaniyat markazlari faoliyatini qurish ham joiz, ham zaruratdir. Qaysidir sohada ma'lum muddat evrilish ham, yangilanish ham bo'ladi. Yangi O'zbekiston yangi tafakkurni talab qilganidek, madaniyat markazlari ham yangi formatni talab qilmoqda. Bu hozirgi avlodning ma'naviy talabi va ehtiyoji hisoblanadi. Aynan mana shunday pallalarda yangilanish boshlanadi. Madaniyat markazlari ham shunday pallada bo'lsa, ne ajab.

Tarixga nazar tashlasak, – deydi Malkom, biz olib borayotgan tadqiqotlarga yaxshi javobni topamiz. Agar sizda biror muammo bo'lsa, sizga o'xshash muammolarga duch kelganlar tomonidan qo'llaniladigan tarixiy usulga murojaat qilish kifoya. Agar ularning muammolarini qanday hal qilganini tekshirib chiqsangiz, o'zingizdagi muammoning yechimini topasiz va buning uddasidan chiqasiz [3, 28-b].

Eng muhimi, madaniyat markazlarida kechayotgan islohotlar va yangilanishlar ham aslida tarixiy jarayonlarning davomidir. Har bir uyg'onish davri o'zidan oldingi tizimni qayta ko'rib chiqish, yangilash, kuchsiz joylarini tiklash bilan boshlangan. Dunyo tajribasini o'rganadigan bo'lsak, har bir mamlakat madaniyat infratuzilmasini zamon talabiga moslab qayta qurishdan o'tgan: eski binolar o'rnida zamonaviy markazlar, eski uslublar o'rnida yangi interaktiv uslublar paydo bo'lgan. Madaniyat markazlarining bugungi ishlari inqiroz emas, tarixiy qonuniyatning davomi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bizdan avvalgi avlodlar qanday qilib yangilanish orqali rivoj topgan bo'lsa, bugungi madaniy makon ham ayni shu yo'l bilan mustahkamlanadi. Har qanday muammoning ildizi o'tmishda, yechimi esa

yangilanishda bo'ladi. Madaniyat markazlarining poydevori tarixining eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Xalqimiz qadimdan sayl, ochiq maydonlarda o'tkaziladigan madaniy tadbirlar, mashvaratlar, san'at maskanlari orqali madaniy hayotni rivojlantirib kelgan.

Har bir mahalla, har bir shahar o'zining kichik bo'lsa-da, madaniy markaziga ega bo'lgan. Keyinchalik sovet davrida bu an'analar "Madaniyat uylari", "Klublar", "Madaniyat saroylari" v.h.k sifatida tizimlashtirildi. Ular zamon zaylida xalqni birlashtirgan, san'atni ommalashtirgan, yoshlarni ijodiy faoliyatga jalb qilgan, ijodkorlikning poydevorini yaratgan markazlarga aylangan. Madaniyat markazlari xalqni bir joyga yig'uvchi maskan, mahallalarning marifat o'chog'i, yoshlarning siyosiy-madaniy ma'rifatini shakllantiruvchi maktab vazifasini bajargan, katta madaniy-siyosiy kuchga ega maorifxona bo'lgan. Hozirgi madaniyat markazlari mana shu ildizdan oziqlanib, kelajak sari qad rostlagan. Endi madaniyat markazlarining tarixi, ya'ni klublar tarixiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Klub inglizcha – "club" so'zidan olingan bo'lib, bir g'oya atrofida birlashgan maslakdosh, hamkasb shaxslarning siyosat, ta'lim, san'at, sport v.h.k. yo'nalishlarda faoliyat olib borishi, ixtiyoriy hordiq chiqarish imkonini beruvchi madaniy-ma'rifiy maskan, jamoat tashkiloti hisoblanadi [4, 455-b].

Ko'pincha klub a'zolari rasmiy tarzda birlashgan hamjamiyat, tashkilot yoki assotsiatsiyani tashkil etib, ma'lum bir binoda joylashadi va a'zolarining muntazam uchra-shuvlari hamda muloqoti uchun xizmat qiladi. Klubga har kim erkin kirishi mumkin bo'lgan ochiq klublar bo'lgan, shuningdek, faqat ma'lum doiraga tegishli shaxslar uchun mo'ljallangan yopiq klublar ham mavjud bo'lgan. Yopiq klubga kirish ko'pincha faqat tavsiya orqali amalga oshirilsa, ba'zi klublarga kirish uchun chipta sotib olish talab etilgan. Boshqalari esa, bepul faoliyat yuritgan va ularning faoliyati davlat yoki xususiy homiylar tomonidan moliyalashtirilgan.

Klub shaklidagi birlashmalar madaniy dam olish muassasasi faoliyatining asosi sifatida tan olinadi. Klub birlashmasi deb, havaskorlik asosidagi badiiy yoki texnik ijod, shuningdek, ishtirokchilarning iste'dodini rivojlantirish, ularning madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish va yaratishiga ko'maklashuvchi umumiy manfaat, ehtiyoj va qiziqishlarga asoslangan ixtiyoriy jamoani tushuniladi. Bunday birlashmalarga turli to'garaklar misol bo'la oladi.

Madaniy dam olish muassasalari aholiga jinsidan, yoshidan, millatidan, ma'lumoti, ijtimoiy holati, siyosiy qarashlari va dinga munosabatidan qat'iy nazar xizmat ko'rsatgan. Klub turidagi markaziy madaniyat muassasalarida tomoshabinlar uchun o'rinlar soni kamida 500 ta bo'lishi lozim degan talab bo'lgan. Madaniyat uyi klub tipidagi muassasa bo'lib, madaniy-ommaviy va ma'rifiy ishlar markazi hisoblanadi. Shunday turdagi klub muassasalarining ommaviy rivojlanishi SSSRda 1920-yil noyabr oyidan boshlangan. Madaniyat uylari qurilishining yuksalish davri 1920-yillarning oxiridan 1930-yillarning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda konstruktivizm uslubidagi me'moriy namunalar yaratildi. Madaniyat uylari avvalgi xalq uylaridan kelib chiqqan.

Xalq uyi esa, inqilobgacha bo'lgan Rossiyada faoliyat yuritgan, barcha uchun ochiq bo'lgan madaniy-ma'rifiy muassasa edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Rossiyadagi xalq uylari bevosita Angliyadagi shunga o'xshash xalq uylari tajribasiga tayangan va shakllangan. 1887-yilda Angliyada yangi turdagi xalq uylari – kattalar uchun kechki ta'lim, bolalar uchun esa maktabdan tashqari ta'limni taqdim etuvchi ko'p funksiyali muassasalar paydo bo'lgan. Biroq xalq uylari birinchi marta Angliyada emas, balki Rossiyada ochilgan. Ya'ni birinchi xalq uyi 1882-yilda Toms shahrida tashkil etilgan. Sankt-Peterburgda esa birinchi xalq uyi 1883-yilda ochilgan degan ilmiy qarashlar mavjud. XIX asr va XX asr boshlaridagi Rossiya xalq uylari ta'lim va madaniy dam olish faoliyatining barcha shakllarini birlashtirishga intilgan. Ularning tarkibida kutubxona va o'quv zali, sahnaga ega teatr-ma'ruza zali, yakshanbalik maktab, kattalar uchun kechki sinflar, xor jamoasi, choyxona va kitob do'koni joylashgan edi. Ayrim xalq uylari qoshida turli xil ko'rgazmali qurollar to'plangan muzeylar tashkil etilgan bo'lib, ular muntazam o'qitiladigan darslar, ma'ruzalar jarayonida, shuningdek, ko'chma yoki doimiy ishlovchi ko'rgazmalarda foydalanilgan.

Sovet madaniyat uylari uchun ilk o'rnak sifatida XIX asr oxiridan boshlab Rossiyada ijodiy ishlar olib borgan xalq uylari (народный домлар)ni keltirish joiz. Ular zemstvo organlari yoki xayriya jamiyatlari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi aholining turli qatlamlari uchun madaniy hordiq va bo'sh vaqtni tashkil etish edi. Xalq uylarida odatda kutubxona, mahalliy tarix muzeyi tashkil etilgan, turli havaskorlik jamoalari tuzilgan.

1917-yillardan boshlab sovet hukumatining o'zi madaniyat uylari va klublarning ahamiyatini juda yuqori baholay boshladi. Ular inqilob g'oyalarini va ijtimoiy tenglik mafkurasini targ'ib qiluvchi asosiy markazlar sifatida ko'rildi. 1917-yil sentyabr oyida proletar madaniy-ma'rifiy tashkilotlari tashkil etildi. Mazkur muassasaning maqsadi targ'ibot-tashviqot materiallarini, jumladan badiiy asarlarni tayyorlash hamda ishchi klublariga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish edi. Ular klub xodimlari uchun ko'plab kasbiy risolalar va kichik qo'llanmalar nashr qilishgan. 1922-yil mart-aprel oylarida Moskvada bo'lib o'tgan Rossiya Kommunistik partiyasining XI syezdida esa "burjua madaniyatining ta'siriga qarshi targ'ibot va tashviqot kurashini kuchaytirish" to'g'risida qaror qabul qilindi.

Klub to'garaklar uchun moddiy bazani tashkillashtirish, faoliyatini ta'minlash, barcha tadbirlarini ma'muriy boshqarish va mafkuraviy nazorat qilish, shuningdek imkon qadar ko'proq ishchilar va ularning oilalarini klub hayotiga qiziqtirish majburiyatiga ega bo'lgan.

Rossiyadagi xalq uylari 1880-yillarning ikkinchi yarmida ishchi klublar va madaniyat uylarga aylantirildi. Birinchi "Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy kengashi (БЦКПС) madaniyat saroyi" (A.M. Gorkiy nomidagi Madaniyat saroyi) Leningradda tashkil etilgan. SSSR davrida madaniyat uylari quyidagi toifalarga bo'lingan:

- *hududiy madaniyat uylari bo'lib, Madaniyat vazirligi tasarrufida bo'lgan;*
- *korxona, muassasa, o'quv yurtlari va boshqa tashkilotlarga qarashli kasaba uyushmalari madaniyat uylari;*
- *intellektuallar madaniyat uylari (aktyorlar uyi, o'qituvchilar uyi va shunga o'xshash muassasalar);*
- *kolxoz va sovxoz madaniyat uylari;*
- *sovet armiyasi ofitserlari uylari.*

Pionerlar va o'quvchilar saroylari hamda uylari, xalq ijodi uylari ham madaniyat uylari tizimiga kirgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'plab madaniyat uylari zarar ko'rdi yoki vayron bo'ldi. Ba'zilar harbiy ehtiyojlar uchun shtab yoki gospital sifatida foydalanilgan, boshqalari esa o'zining jamoatchilik faoliyatini davom ettirib, havaskorlik to'garaklari va agitbrigadalar faoliyat yuritishda davom etgan. Ayrim madaniyat uylari urush davrining talabiga mos yangi to'garaklarni tashkil etgan. Masalan, Voskresensk madaniyat uyida sanitariya, mudofaa va hatto snayperlik

to'garagi, shuningdek FHM (fuqaro havomudofaa) jamoasi tuzilgan.

Urushdan keyingi davrda boshqa SSSR tarkibidagi davlatlarning madaniy-siyosiy hayotida ham xuddi shunday turdagi klub muassasalari qayta tashkil etilib, ko'pchilik hollarda ular Rossiyadagidek nomlar bilan atalgan. Biroq bundan istisnolar ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik, ayrim mamlakatlarda "madaniyat uyi" atamasidan asta-sekin voz kechish holati kuzatiladi, chunki u sovet davri bilan bog'liq tushuncha sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, ko'plab muassasalar qayta nomlanib, "madaniyat markazlari", "konsert zallari", "kongress saroylari" kabi nomlar bilan atalgan. "Madaniyat uyi" nomi hali ham siyosiy jihatdan neytral atama sifatida saqlanib qolgan bo'lib, butun dunyoda ishlatiladigan "madaniyat markazi" yoki "madaniyat instituti" kabi tushunchalarning milliy sinonimi sifatida qaraladi [5, 2-b].

1960-yillarda ovul klublarining faoliyatida katta oldinga siljishlar ro'y berdi. Yirik aholi punktlarida joylashgan, mufassal moddiy bazaga ega bo'lgan ovul klublari qishloq madaniyat uylari deb e'lon qilindi. Buning natijasida ularga bir nechta kichik klub va kolxozlardagi "qizil burchaklar" birlashtirildi. Madaniyat uylari faoliyatini markazlashtirish va yiriklashtirish bo'yicha tajribalar amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash lozimki, "madaniyat uylari" hodisasi, nomi va mazmuni jihatidan ham SSSRdagina emas, balki boshqa davlatlarda ham shakllangan.

Masalan, ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda, xususan Lotin Amerikasi davlatlarida, keng tarqalgan ijtimoiy-madaniy markazlar ham an'anaviy tarzda Casa de la Cultura ("Madaniyat uyi") deb ataladi. Fransiyada va keyinchalik Kanadada shunga o'xshash turdagi muassasalar 1960-yillardan boshlab keng miqyosda rivojlandi. Ular Maison de la Culture ("Madaniyat uyi") nomi bilan mashhur bo'lib, 1991-yildan so'ng bu muassasalar boshqa klub turlari bilan birlashtirilib, "teatr faoliyati" doirasiga kiritildi. Shunga qaramay, hozirgi kunda ham Fransiyaning ko'plab shaharlarida "Madaniyat uyi" deb ataluvchi muassasalar faoliyat yuritmoqda. Ular mashhur me'morlar tomonidan aynan madaniyat maqsadlari uchun maxsus loyihalashtirilgan binolarda joylashgan.

Hozirgi davrda madaniyat uylari zamonaviy dam olish muassasalari sifatida shakllansa ham, ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularning ijobiy imijini saqlab qolish uchun zarur moliyaviy

mablag'lar ham tobora kamayib bormoqda. SSSR davrida keng rivojlangan bu muassasalar bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgan, jihozlari va texnik bazasi ham eskirgan. Shu sababli, ko'plab madaniyat uylari katta ma'rifiy markaz darajasiga yetolmay, o'z faoliyatini to'xtatgan. Lekin, ijod bilan tinimsiz shug'ullanib kelayotgan markazlar sabab ularning faoliyati to'xtab qolmagan.

Shunga qaramay, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda saqlanib qolgan madaniyat saroylari qator muhim afzalliklarga ega. Ayniqsa, xizmat narxlari past yoki ba'zi dasturlar bepul bo'lib, hanuzgacha ko'plab tashrif buyuruvchilarni jalb etmoqda, xalqqa bayram, festival va yirik ommaviy tadbirlarda bepul xizmat qilib kelmoqda. To'g'ri, ular ham o'z muammolariga ega: moliyaviy taqchillik, eskirgan infratuzilma, yangi avlod ehtiyojlariga moslashmaslik. Biroq ushbu muammolarni bartaraf etish, ularni isloh qilish va zamonaviylashtirish orqali bunday muassasalar o'z faoliyatining butunlay yangi bosqichiga ko'tarilishi mumkin. Natijada, madaniyat markazlari shahar obro'sining ajralmas qismi, faxrli tarixiy meros sifatida qayta tiklanishi ehtimoli yuqori [5, 2-b].

Madaniyat markazlari xalqqa qulay joylarda, odatda shahar yoki qishloq markazida qurilgan. Ular piyoda ham, jamoat transportida ham oson yetib boriladigan joyda bo'lishi shart edi. Asosiy tamoyil esa, madaniyatning hammaga ochiqligi va qulayligi edi. Shu orqali davlat madaniyatni ommaga uchun chin ma'noda dastyor va erkin qilishga intilgan. Ularning o'z kutubxonasi bo'lgan. Sababi, aholini faqat madaniy emas, ma'rifiy-tashkiliy ishlar bilan o'zlariga jalb qilishi lozim bo'lgan.

To'garaklar mashg'ulotlarning ijodiy natijasi sifatida spektakllar namoyish etilar, havaskorlik san'ati ko'rik-tanlovlari o'tkazilardi. Nafaqaxo'rlar bu yerda birgalikda vaqt o'tkazishlari mumkin edi: raqs, qo'shiq kuylash, to'qish va boshqa to'garaklar faoliyat yuritgan. Bu, albatta, podyezd oldidagi skameykada o'tirib, kim nima dedi yoki kim kim bilan yashayapti degan g'iybatlardan yaxshiroq edi.

O'tmishdagi madaniyat markazlarining qiyo-fasini tasavvur qilganimizda, ko'z oldimizda san'at makoni, o'sha davrning estetik qarashlari, me'moriy didi va ma'naviy olami namoyon bo'ladi. Har bir bino o'ziga xos ruhga ega bo'lgan. Aynan shuning uchun tarixiy madaniyat markazlari haqida so'z borganda, arxitekturasini haqida ham gapirib o'tishimiz o'rinlidir. Ayniqsa,

Xrushchyov davrigacha qurilgan Madaniyat uylari kichik saroylarga o'xshab qurila boshlagan. Ammo 1955-yilda Nikita Xrushchyovning "Ortiqcha bezaklarga qarshi kurash to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bilan arxitekturada "xrushchyovka"lar davri boshlandi. Bu davrda tez quriladigan, funksional, nisbatan arzon, soddalashtirilgan loyihalar ustunlik qilgan. Endi binolarda naqshlar, haykallar, murakkab releflar emas, balki iqtisod va son ko'rsatkichlariga e'tibor berilgan. Shundan keyin, SSSRda klublar tezroq, arzonroq va ko'proq miqdorda qurila boshlanadi. Madaniyat uylari qurilishi va ularning sonining eng yuqori cho'qqisi 1985-yilga to'g'ri keladi. Xuddi shu yili SSSRda 135 mingta Madaniyat uyi mavjud bo'lgan. 1990-yillarga kelib sanoat, kolxozlar va sovxozlar bilan birga madaniyat sohasi ham tanazzulga yuz tutdi. Har bir Madaniyat uyi o'zicha "tirik qolish" yo'lini izlay boshladi. Madaniyat markazlarida diskotekalar, raqs klublari, ko'ngil ochar klublar tashkil etilgan. Eng tadbirkor direktorlar binoning bir qismini savdogarlarga yoki tadbirkorlarga ijaraga berishar, olingan daromad hisobidan madaniy-ma'rifiy ishlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilishardi.

Madaniyat uylari SSSR Madaniyat vazirligi balansidan chiqarildi. Madaniyat uylari direktorlarining aksariyati madaniyatli, ziyoli insonlar edi, lekin ular tijorat yoki biznes yuritish bo'yicha tajribaga ega emasdilar. Shu sababli, minglab madaniyat markazlari yillar davomida yarmi bo'sh holatda qoldi, binolarning fasadlari yemirildi, devorlari nurab ketdi. Bu orada esa vaqt to'xtamadi. Jamiyat oldinga intilardi. Madaniyat uylari esa bu qator ichida yolg'iz turib qoldi. Ular o'zlarining yangi, zamonaviy formatini topa olmadilar [6, 1-b].

Madaniyat uylari faoliyati bir nechta ijtimoiy vazifani bajargan: ishchilar va xizmatchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish, siyosiy vazifa davrning yangi insoni bo'lmish, sovet odamining tipini shakllantirishni o'z ichiga olgan. Ko'p yillar davomida klub faoliyatining asosiy shakllari quyidagicha bo'lib qolgan: kutubxonalar faoliyati, havaskorlik jamoalarini tuzish, to'garaklarni takomillashtirish, kechalar o'tkazish, ekskursiyalar tashkil etish, kinofilmlar taqdimoti, raqs va sport tadbirlarini o'tkazish.

Havaskor jamoalarda zavod ishchilari, dala mehnatkachlari, pedagoglar va talabalar qatnashgan. Har kim o'ziga yoqqan rolni tanlashi mumkin edi. Havaskorlik to'garaklarining rahbarlari esa xuddi o'sha kabi

ishqibozlar, ba'zan esa faoliyatdan chekingan professional san'atkorlar bo'lgan. Madaniyat uyi fuqarolarga professional teatr chiqishlari, yangi yil bayramlarini ham tashkil qilib bergan. Bunday tadbirlar o'tkazilgani va sevilganligiga tasdiq sifatida 1950-yillarning ikkinchi yarmi 1960-yillarning boshlarida suratga olingan badiiy filmlarni misol qilish mumkin.

Masalan, madaniyat uyi qanday ishlagani, havaskorlik qanday tashkil etilgani, bayramlar qanday o'tganini 1956-yilda tasvirga olingan yangi yil haqidagi filmi "Karnaval kechasi"da ko'rish mumkin. Ishchi yoshlar hayotida klubning o'rni haqida, 1961-yilgi "Qizlar" ("Devchata") filmi hikoya qiladi. Filmlar syujeti to'g'ridan-to'g'ri klub bilan bog'liq bo'lmasa-da, unda yoshlar bo'sh vaqtlarini aynan klublarda o'tkazishni afzal ko'rishgani ko'rsatilgan.

O'z faoliyatida klublar aholiga ta'sir qilishning turli metodlaridan foydalangan. Eng oddiy shior va plakatlardan tortib xalq teatrini rivojlantirish va ma'ruza kurslarigacha. Klublar faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, ular har bir kishi uchun qiziqarli mashg'ulot topishga urungan. Shu tariqa, klublar va madaniyat uylari "sovet odamining" shakllanishiga, fikrlash va qiziqishlarini partiya talablariga mos ravishda yo'naltirishga xizmat qilgan [7, 61–62-bb.].

O'zbekistonda birinchi klub muassasalari shakllanishi Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarga borib taqaladi. Bu jarayon Rossiya tajribasiga tayangan holda, yangi hukumatning madaniy-ma'rifiy siyosati asosida boshlangan. Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan birga Turkiston o'lkasidagi eski "xalq uylari", jadidlarning ma'rifat markazlari va kutubxonalari asosida yangi tipdagi klub muassasalari tashkil etila boshlandi. O'zbekistonda birinchi klublar ya'ni ishchilar klubi 1918-yil 7-may kuni Toshkentda Turkiston xalq universiteti huzurida va Samarqandning Qushhovuz mahallasidagi musulmon klubida ochilgan.

Klublar asosan harbiy qismlarda, maorif tashkilotlari, kasaba uyushmalari va partiya tashkilotlari tomonidan ham tashkil qilingan. 1920-yillarda maxsus madaniy – ma'rifiy muassasalar xalq maorif komissarligi tarkibida tashkil topgan. 1924-yili klublar 134 taga yetgan. 1925-yil klublar va dehqon uylari soni 140ga, 1928-yilda 244taga ortgan. Klub muassasalari dastavval viloyat va uezd markazlarida, so'ngra respublika tumanlari, qishloq joylarida vujudga kela boshladi. 1920–1928-yillarda ular 40 tadan 531 taga ko'payadi. 1933–1937-yillarda

respublika bo'yicha 1490 nafar madaniyat xodimlari tayyorlanadi. Mana shu mutaxassislarni tayyorlash maxsus kurslarda amalga oshirildi. 1959-yilda klub muassasalari shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarda 342 ta, qishloqlarda 2691 ta bo'lgan.

Respublikada 1971-yilda 3471 ta klub, 1975-yilda 3704 ta, 1980-yilda 4041 ta edi. Jumladan, qishloq joylaridagi klublar 2812 tadan, 3199 taga yetgan. 1980-yilga kelib tahminan Respublikamizda 20 ta markazlashgan klub sistemasi faoliyat ko'rsatgan. 1975-yili 7-oktabrda Moskvada klub ishining dolzarb masalalari bo'yicha Butunittifoq ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazilgan.

1924-yilga qadar ham klublar bo'lib, lekin ular yakka faoliyat olib bormagan. Ularning ishlari kutubxonalar va madaniy-ma'rifiy sohalar bilan birgalikda yo'lga qo'yilgan. Birinchi klub va kutubxona Xiva shahrida 1920-yil yozida sobiq xon saroyi binosida tashkil etilgan. Shuningdek, klub va kutubxonalar Yangi Urganch, Toshhovuz, Qoraqalpog'iston ASSRning Xo'jeli, Qo'ng'iro't va boshqa shaharlarda ham barpo etilib, 1923-yilga kelib Xorazm Respublikasida 8 ta klub va madaniyat uylari, 5 ta ommaviy kutubxonalar, 4 ta qizil choyxona va kino teatrlar aholiga xizmat ko'rsatgan. Toshkentda esa, Ishchi klublari dastlab 1924-yilda tashkil topgan. 1926-yili O'zbekistonda klub va kutubxona xodimlarining I qurultoyi o'tkaziladi. 1930-yillardan fabrika va zavodlar qoshida, kolxoz va savxoz markazlarida ishchi-yoshlar klublari bir xil loyihalar asosida qurila boshlagan. Unda tomosha zali (sahnasi bilan), to'garak mashg'ulotlari uchun xonalar, kutubxona va boshqalar bo'lgan.

Yana qo'shimcha Madaniyat saroylari va uylari bo'lgan. Endi mazkur atamaning genealogiyasini yanada to'liq ta'riflash uchun "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi M harfi" (975-sahifa) da madaniyat saroylari va uylari atamasini keltirib o'tamiz. To'g'ri, ular ham klub ammo, yirik klub muassasasi ekanligi uqtiriladi.

Madaniyat saroylari va uylari – yirik klub muassasalari bo'lib, u yerda ko'p o'rinli tomosha va ma'ruza zallari, doimiy kinoqurilmalar, kutubxonalar, to'garak mashg'ulotlari, tasviriy san'at va boshqalar uchun alohida xonalar mavjud bo'lgan. Madaniyat saroylari va uylari faoliyati xalq ijodi va badiiy havaskorlikning barcha turlarini rivojlanishiga yordam beradi. Ularda xalq teatrlari, orkestr, xor, opera va xoreografiya jamoalari, ashula va raqs ansamblari ijod qiladi. O'zbekistonda Madaniyat

ishlari vazirligi tizimiga qarashli tuman, shahar va qishloq Madaniyat saroylari va uylari shuningdek, yirik korxona kasaba uyushmalari qo'mitasi tomonidan tashkil qilingan va mavjud. Chirchiqdagi mashinasozlar (1968), Navoiydagi Farhod (1972), Toshkentdagi aviasozlar (1980) Madaniyat saroylari va uylari zamonaviy uslubda qurilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida Madaniyat saroylari va uylari respublika bo'yicha 2177 ta (2003) mavjud bo'lgan [8, 56-b].

Klublar muayyan qiziqish, ehtiyoj yoki faoliyat turi atrofida birlashgan kichik guruhning ixtiyoriy asosda shakllangan birlashmasi bo'lib, ularning asosiy vazifasi ishtirokchilarning ma'lum yo'nalishdagi iqtidorini oshirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash bo'lgan. Ular asnosida shakllangan madaniyat uylari tizimli ravishda rejalashtirilgan madaniy faoliyat bilan

shug'ullanuvchi ijtimoiy-madaniy muassasalar hisoblangan. Ular ko'pincha davlat yoki mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va hududiy madaniy infratuzilmaning asosiy bo'g'ini sanaladi. Klublar vaqt o'tishi bilan faoliyat doirasini kengaytirib bordi. Shu tariqa, klublar madaniy hayotning asos markaziy makonlariga aylanib, uzoq yillar davomida san'at, targ'ibot, ma'rifat va siyosiy madaniyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Klublar va ularning zamonaviy davomchilari bo'lgan madaniyat markazlari jamiyatning madaniy ehtiyojlari va ijtimoiy dinamikasini ko'rsatadi.

Chunonchi, klublar tarixini o'rganish, yangi ilmiy gipotezalarni ishlab chiqish, madaniyatimizni nazariy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Klublar tarixi zamonaviy madaniyat siyosati va strategiyalarini shakllantirishda, uni rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egaligi bilan ham ahamiyatli va dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uest Brianna. Siz o'zingiz uchun g'ovsiz. – Toshkent: Sarmoya-books, 2024. – 256 b.
2. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent: Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 224 b.
3. Malkom X. Fitrat. – Toshkent: Vohdil G'alla barakasi nashriyoti, 2024. – 224 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. K harfi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Elektron manba: <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi?download=2365:o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi-k-harfi>
5. Лалетина О. Н., Дом культуры как социальный фактор // Доклад. – 2013. Источник: SibFU.
6. Берсенов М. Дома Культуры (ДК) в СССР расцвет и их закат сейчас. Проза.ру, Свидетельство о публикации №223031500854.
7. Латышева М. Дома культуры как инструмент пропаганды в СССР // Векторы развития современной России: гуманизм vs постгуманизм. Материалы XV Международной научно-практической конференции молодых ученых. – 2016. – 66 с.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. M harfi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Elektron manba: <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi?download=2367:o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi-m-harfi>

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi



Nashrga tayyorlovchi:

Laziza Axmataliyeva

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug'ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 22.12.2025-yil

Ofset bosma usulda bosildi.

“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog'i 12,25.

Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13